

SCIENCE AND EDUCATION NEWS

INTERNATIONAL SCIENTIFIC, METHODICAL AND POPULAR JOURNAL

2025 ISSUE 2

01 Science news

02 Search and thinking

03 Research results

04 Educational innovations

https://t.me/saen_2024

saen_2024@mail.ru

ResearchGate doi Crossref Google Scholar WORLD of JOURNALS

“FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI”

xalqaro ilmiy-metodik jurnali

2025-yil, 2-son
Jurnal 2024-yildan chiqa boshlagan

Toshkent – 2025

Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»
Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 283913-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Bosh muharrir:
Shoumarov G'ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), akademik

Mas'ul kotib:
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.
Telefon: +998 94 201 14 48
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2025 yil 25 avgustdagi 374/5-qarori bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

TAHRIR HAY'ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A'zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A'zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo'lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To'xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo'jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o'g'li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To'xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
Yusupov Ahmadbek Tadjiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
G'ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik

Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Qodirov Umarali Do'stqobilovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

MUNDARIJA

Karimova V.M. Mening universitetlarim…….. 9
Shoumarov G'.B. Olimaning baxti…..……... 19
Akramova F.A. Oilada sog'lom psixologik muhit yaratish – dolzarb muammo sifatida…….. 23
Nishanova Z.T. Ustozga chuqur ehtirom…….. 32
Farfiyeva K.A. O'zbek ayolining jasorati……. 35
Карамян М.Х. Рябова М.С. Системное понимание нормативных кризисов семьи…… 39
Qodirov K.B. Bir shogird nigohidagi jonkuyar ustoz…… 47
Saidov A.I. Oilada sog'lom turmush tarzini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik muammolari…… 51
Ergashev P.S., Xudoyqulova Z.A. Oila omilining bolalarda me'yor hissi shakllanishidagi o'rnini o'rganish istiqbollari…… 56
Ibodullayev Z.R. Psixolog – inson qalbining dirijyori…… 61
Qodirov U.D. Fidoyi inson va olima……..... 63
Абидова З.А., Джалалов У.Дж. Возрастные особенности толерантности личности: анализ в контексте научных воззрений В.М.Каримовой…… 67
Turayeva D.R. Qalbimga ilm chirog'ini yoqqan ustozim…… 74
Нарзикулова Ф.Б. Психологические вызовы подготовки молодежи к семейной жизни в условиях цифровой реальности..... 76
Jo'rayev B., Abdirashidova Q.B. Voyaga yetmagan bolalar tarbiyasida axborotlarning psixologik xavfsizligini ta'minlashning asosiy jihatlari……. 82
Jo'rayev B., To'raqulov E.J. Ichki ishlar xodimlarida kasbiy adaptatsiyani takomillashtiruvchi psixologik dasturiy imkoniyatlari…… 93
Shermatov F.T. Intellektual lider imijining ijtimoiy-psixologik mexanizmlari harbiy xizmatchilar misolida…… 98
Алиев М.Ч. Методологические подходы к изучению самопознания в восточной философии…….. 106
Atadjanov M.Y. Mentalitet xususiyatlari - tahdidlardan himoyaning optimal modeli. 119
Сандул А.М., Иванова М.Л. Особенности интеграции инновационных образовательных технологий в преподавании РКИ…… 128
Nazarov A.S. The impact of leadership personal qualities on the effectiveness of managerial decision-making…… 135
Kulatova S.Y. Zamonaviy psixologik tadqiqotlarda destruktiv axborotlarni o'rganishga doir yondashuvlar……. 142
Eshmuradov O.E. O'zbekistonda ijtimoiy psixologiya fanining shakllanishi……... 147
Qo'ziyev O.Ch., G'ayimova O.E. Zamonaviy rahbar shaxsida liderlik qobiliyatini belgilovchi psixologik xususiyatlar…….. 152
Sirojiddinova F.X. Xotin-qizlar mehnat samaradorligini takomillashtirish zarurati…. 159
Eshquvvatov T.E. Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarida konfliktologik kompetensiyalarni takomillashtirish psixologik fenomen sifatida…….. 166
Adilova Sh.T. Suitsid oldi xulq-atvor shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik omillar……. 173
Bozarboyeva N.D. Oilaviy munosabatlarda tolerantlikni ta'minlovchi ijtimoiy-psixologik omillar…… 179
Yaziyev E.S., Sa'dullayeva P.E. O'zbek oilalarida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik-psixologik jihatlari……. 185

Saidova O.T. O‘qituvchining kasbiy va ijtimoiy imidjini rivojlantirishda zamonaviy metodlar…… 192
Amirqulov J.R. Iqtidorli talabalarni psixologik o‘rganishning ilmiy-amaliy tajribasi… 198
Xudoyberganova Sh. O‘smir yoshlarni raqamli manipulyatsiyadan himoya qilishda axborot-psixologik barqarorlikni shakllantirish psixologik fenomen sifatida..... 204
Umarov B.A. Pedagoglar malakasini oshirish – ta’lim sifati garovidir…… 210
Jumabayeva D.M. Kommunikativ ko‘nikmalar va uning ilmiy psixologik manbalarda yoritilishi……. 221
Abdiholiqov B.A.O‘spirin futbolchilarda jamoaviy o‘ziga ishonchni shakllantirishning psixologik shart-sharoitlari…….. 226
Bobirov D.B. Psychological features of the development of information selection and processing skills in adolescents…… 232
Arzumetova Z. Arab va o‘zbek oilalarining ijtimoiy, psixologik va huquqiy asoslari 239



Jurnalning ushbu soni psixologiya fanlari doktori, professor Vasila Mamanosirovna Karimovaning 70 yillik tavallud sanasiga bag‘ishlanadi.

UDK 159.91:159

Karimova Vasila Mamanosirovna,
psixologiya fanlari doktori, professor

MENING UNIVERSITETLARIM

Dunyoga jonsarak boqqanim haqqi,
Baxtni keltirdingmi, qarshimga
Rahmon?

Universitetlar... Hayotimda ular juda ko‘p bo‘ldi. O‘ylab qarasam, biz har birimiz yashayotgan hayotning o‘zi juda katta universitet ekan va biz uning doimiy talabalari, izlanuvchilari, ma’lum bir vaqtda o‘rganuvchilari, ma’lum vaqtlarda esa o‘rgatuvchilari, yaratuvchilari, kerak bo‘lsa, bunyodkorlari ekanmiz. Zero, nazarimda universitet tushunchasining tub mohiyatida aynan shu kabi tushunchalar va qadriyatlar yotadi.

Men maktabda o‘qib yurgan paytlarimdayoq, universitetda o‘qishni orzu qildim, lekin institutdan universitet nimasi bilan farq qilishini aniq bilmasam-da, negadir, “men universitetda o‘qiyman”, degan orzu paydo bo‘lgandi. Sabablar albatta bo‘lgan. Masalan, bir kuni televizorda (u paytda televideniyeda bir yoki ikkita kanal bo‘lar edi, xolos) Mixail Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining betakror go‘zal binosini ko‘rsatishdi. Rahmatlik dadam negadir uni ko‘rib, “Xudo xohlasa, mening qizim shu yerlarda o‘qirmikin-a, qizim qara, qanday chiroyli va ulug‘vor” degan edilar.

Farg‘ona viloyati Buvayda tumanidagi 50-o‘rta maktabni oltin medalga tamomlab, 1972-yili o‘sha maqsad va orzuga yetish sari ikkilanmay, Toshkent davlat universitetiga o‘qishga kirish uchun hujjat topshirdim va talabalikka qabul qilindim. Bu muqaddas dargoh mening birinchi universitetim bo‘ldi.

Menga oltin medal bergan maktabim oddiy qishloq maktabi bo‘lsa-da, aslida balki mening dastlabki universitetim bo‘lgandir, zero, men u yerda faqatgina bilimlar majmuini olmadim.

Birinchi sinfda o‘qiyotgan paytimda avval sanitariya boshlig‘i bo‘lib, sinfning, partalarning, sinfdoshlarni tozaliklariga mas’ul bo‘lgan bo‘lsam, yuqori sinflarda drujina soveti raisi, maktab komsomol tashkiloti boshlig‘i bo‘lib, ibratli maktabning eng faol qiz-o‘g‘illarini turli, hattoki, viloyat miqyosidagi tadbirlarga ham olib borib, minbarlarda o‘zim ham nutq so‘zlagan paytlarim bo‘lgan, gazetalarda rasmlarim ham chiqqan edi. Men bu faktlarni maqtanish uchun yozmayapman, bular men uchun universitet vazifasini bajarib, katta hayotga tayyorlagan ulkan tajriba maktabi bo‘lganligini keyinchalik, psixolog, olima, rahbar sifatida shakllanganimdan keyin angladim. Balki psixolog kasbini tanlaganimga ham aynan shu tajriba motivatsiya bo‘lgandir? Chunki hozir biz tez-tez ishlatadigan empatiya, altruizm, tolerantlik, kirishimlilik, o‘zgalar dardiga befarq bo‘lmaslik kabi sof psixologik sifatlarning ma’naviy bazasi shundan boshlangandir?

Shu o‘rinda o‘zimning genetik va shajaraviy asoslarim to‘g‘risida qisqacha to‘xtalmasam bo‘lmaydi. Zero, oila – barcha ezguliklarning beshigi emasmi? Men oddiy ziyoli-xizmatchilar oilasida tug‘ildim, ota va onam juda xokisor, kamtar insonlar edilar. Dadam – Mamanosir Toshpo‘latov (1926-yilda tug‘ilgan, 2004-yilda vafot etganlar) Ikkinchi jahon urushida 7 yil qatnashgan, hattoki, Yevropani ozod qilishda ham ishtirok etgan ekanlar. Shu bois bo‘lsa kerak, rus tilini juda yaxshi bilardilar va kalligrafik, chiroyli imloda yozardilar. Shu ikki qobiliyatlari bois (ikkitillilik va husnixat) urushdan keyin ijro hokimiyatlari va partiya organlarida ishlab, nafaqaga chiqdilar. Paloxon qishlog‘ida tug‘ilgan otamdan bir kun “Dadajon, qanday qilib bunaqa chiroyli yozasiz, Sizga buni kim o‘rgatgan?” deb so‘radim. Dadam “Mening katta bobom xati chiroyli xattot bo‘lgani uchun Qo‘qondagi Xudoyorxon saroyida mirzo, ya’ni ish yurituvchi kotib bo‘lgan ekanlar, balki menga bu qobiliyat qondan o‘rgandir-da” deb kulib javob bergan edilar. Dadam haqiqiy farg‘onaliklarga xos qiziqchi, askiyachi, davrani yuqori kayfiyatda ushlab tura oladigan, ochiq yuzli, kelishgan, xushchaqchaq inson bo‘lib, shu sabab do‘stlar, qo‘ni-qo‘shnilar orasida obro‘lari yuqori edi, u kishi bilan bir marta gaplashgan inson yana ko‘rishish, suhbatlashishni istab qolardi...

Onajonim Izzatxon Toshpo‘latova (Alloh rahmatiga olsin, 1928-yilda tug‘ilib, 1996-yilda vafot etganlar) oddiy o‘zbek tili va adabiyot o‘qituvchisi bo‘lib, dastlab urushdan keyin Qo‘qon pedagogika texnikumini, so‘ngra Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining o‘zbek tili va adabiyoti fakultetini tamomlagan pedagog edilar. 6 nafar farzandni dunyoga keltirib, ularning parvarishi, tarbiyasi onamning nozik yelkalarida bo‘lgan. Tilchi bo‘lganliklari uchun har kuni maktabdan dastalab daftarlar ko‘tarib kelardilar. Yuqori sinflarda o‘qiyotgan vaqtlarimda savodim yaxshi bo‘lgani uchun diktant, keyinchalik insho va bayonlarni ham tekshirishga yordam berardim, chunki ayajonim juda charchab, ayniqsa, ko‘zlari toliqib qolardi. Mendagi keyinchalik redaktorlik, korrektorlik va xatolarni tez aniqlash qobiliyati o‘sha paytlarda shakllangan bo‘lsa ajabmas. Ya’ni, mening pedagog va psixolog bo‘lishimda dastlabki Ustozim onam bo‘lganlar. Joylari jannatda bo‘lsin!

Shu o‘rinda qisqa bo‘lsa-da, ota-onam oilasi haqida to‘xtalsam. Men oilada ikkinchi farzandman. Mendan roppa-rosa ikki yoshga katta – Gulchehra opam (1953-yilda tug‘ilgan) maktabni tamomlab, Toshkent xalq xo‘jaligi institutining Moliya fakultetini tamomlaganlar.

Mendan keyin uch o‘g‘il tug‘ilgan – Ikromjon, Ilhomjon va Akramjon. Afsuski, Ikromjon ukam 1975-yilda avtohalokatda vafot etdi. Ilhomjon ukam (1960-yilda tug‘ilgan) ma’lumoti oliy, fizik, Toshkent DUni tamomlagan, zaxiradagi zobit, kelinimiz Sanobarxon bilan ikki nafar farzandning ota-onasi va to‘rt nafar nabiralarning buvi-bobolari. Akramjon ukam (1963-yili tug‘ilgan) maktabni muvaffaqiyatli tamomlab, Moskva Aviatsiya institutining injenerlik mutaxassisligini tamomlab kelgan, keyinchalik xavfsizlik organlarida xizmat qilib, nafaqaga chiqqan, siyosatshunoslik fanlari nomzodi.

Singlimiz Gulnora (1967-yilda tavallud topgan) Farg‘ona davlat universitetining rus tili va adabiyoti fakultetini tamomlab, turli sohalarda, jumladan, o‘rta maktabda ham ishlab, nafaqaga chiqdi. Barcha jigarlarim, onam va otamdan qolgan buyuk meroslarim baxtimga salomat bo‘lishsin!

Yana universitetlarimga qaytaman. Toshkent davlat universiteti o‘sha vaqtlarda yurtimizdagi eng nufuzli oliy dargoh edi. Ulug‘ inson, mening birinchi ustozim professor Muhammad Vohidovning sa’y-harakatlari, tashabbuslari bilan 1972-yilda tarix fakulteti qoshida ochilgan psixologiya bo‘limiga talabalikka qabul qilinganimda, psixologiyaning nima ekanligini unchalik teran anglamasam-da, ayajonimning tushuntirishlaricha, “juda qiziqarli, hayotda kerak bo‘ladigan, istiqbolli yo‘nalish” ekanligini qalban his qilardim va shu bois xuddi maktabdagiday barcha fanlarga bir xil qiziqish bilan yondashib o‘qidim. Ayniqsa, menga qiyin fanday tuyulgan “Logika”, “Oliy matematika”, “Ehtimollar nazariyasi”, biologiya fanlari turkumi, “Oliy nerv tizimi fiziologiyasi” kabilarni astoydil o‘rgandim va hammasidan “a’lo” baholar ola boshladim. Ustozim Muhammad Vohidovich ko‘pincha bizni fikrlashga, mushohada qilishga chaqirar edilar, menga shunday yondashuv juda yoqardi. Ustoz Zuhra Mo‘minova o‘qitgan “Logika” fanidan “a’lo” baho olganimda o‘zim ham bunga ishonmagandim, zero, “bu fan o‘ta qiyin bo‘lganligi uchun undan Vladimir Lenin ham “yaxshi” baho olgan”, deyishardi. Shunday qilib, bu universitetda faqat “a’lo” baholarga o‘qidim. 2-kursligimda bir guruh fakultetdoshlarim (T. Bazarov, A. Vaxidov, E. Usmanova) bilan Ukraina poytaxti Kievga, o‘sha yerdagi davlat universitetiga talabalar ilmiy anjumaniga yuborishdi. Rus tilida ma’ruza o‘qidim, bu mening hayotimdagi birinchi komandirovkam bo‘ldi va o‘zimga ishonchim yanada oshdi.

ToshDUdagi 3 yillik o‘qish tom ma’noda men uchun muhim universitet bo‘lib, bizni, men kabi 5 nafar a’lochi talabalarni Moskvaga – eng nufuzli Mixail Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining psixologiya fakultetida o‘qishni davom ettirishga taklif etishdi. Vohidov domla kafedra mudiri sifatida bu taklifni aytganlarida, ochig‘i avval cho‘chidim, keyin “Ota-onam rozi bo‘lishmasa kerak” desam, domla o‘sha zahoti “Qani telefon qilaylik-chi, dadangning raqamini ayt” dedilar. Nasiba deganlari shu bo‘lsa kerak-da, dadam qo‘ng‘iroqqa javob beribdilar, domla gaplarini boshlagan zahoti, “Men ming karra roziman, domla, bu meni orzuim edi-ku, albatta boradi, xudo xohlasa, Sizlarni uyaltirmaydi” debdilar. Shu bilan masala shu tarzda yechimini topdi va biz – men, Fayruza Ishgulova (Ismagilova), Tohir Bazarov, Erkinboy Sattarov, Sofiya Gitlina mamlakatdagi eng obro‘li Moskva davlat universitetida o‘qish uchun Moskva shahriga uchib ketdik. Bu – 1975-yilning 30-avgusti edi.

Moskva davlat universiteti biz uchun nihoyatda ulug‘vor va betakror hayot maktabi va tom ma’nodagi universitet bo‘ldi. Masala uning mamlakat poytaxtida joylashgani, o‘sha vaqtda dunyo miqyosidagi 10 talikka kiruvchi nufuzli ta’lim dargohi ekanligi, ta’lim uchun tashkil etilgan sharoitlarida ham emasdi, gap men bu yerda bir vaqtlar faqat kitoblarini qo‘lga ushlash orzu bo‘lgan olimlar jamoasidan

olgan bilimlarimda edi. Nobel va o‘sha davrda Davlat mukofotlariga sazovor bo‘lgan Aleksey Leontev, Aleksandr Luriya, Kurt Levinning shogirdi Blyuma Zeygarnik, Galina Mixaylovna Andreyeva, Larisa Petrovskaya, Artur Petrovskiy, Robert Nemov, Aleksey Bodalev, Anatoliy Smirnov, Petr Shixirev, Petr Zinchenko, A.I. Antonov kabi o‘nlab tarixiy shaxslar, psixologiyaning fundamental asoslarini yaratganlar, darg‘alarning ma’ruzalarini tinglash baxtiga muyassar bo‘ldik. Bu – nihoyatda zo‘r universitet edi! Buning qadrini men keyinchalik Toshkentga qaytib kelgach, yillar o‘tgan sari sezdim, g‘ururlandim. Chunki o‘sha paytda O‘zbekistonda psixologiya ilmi endigina “kurtak” ochayotgan edi, xolos.

Moskva shahrida o‘tgan umrim nisbatan qisqa bo‘lgan bo‘lsa-da, men uchun nihoyatda katta hayot universiteti bo‘ldi. Akademik, fundamental bilimlardan tashqari men musofirchilikni, odamlar orasida to‘g‘ri yashashni, do‘stlar orttirishni o‘rgandim, dunyoqarashimiz kengaydi.

Men fakultetning ustozimiz Galina Mixaylovna Andreyeva boshqargan “Ijtimoiy psixologiya” kafedrasida (Tohir Bazarov bilan) ixtisoslikdan o‘tdik. Bu kafedra ustozimiz kabi ochiq ko‘ngil, bilimli, odamgarchilikda yuqori turgan fidoyi olimlar maskani edi. Kafedra laboranti Yuliya Aleshina ham fan nomzodi bo‘lib, qolganlarning aksariyati fan doktorlari edi. Larisa Andreyevna Petrovskaya, Nina Nikolayevna Bogomolova kabilar Galina Mixaylovna bilan birgalikda hammamizga, ayniqsa, Toshkentdan kelgan biz musofirlarga juda mehribon edilar. Zero, ustozimiz Galina Andreyeva kafedrada ana shunday iliq, ma’naviy muhitni yarata olgan edilarki, men keyinchalik o‘zimning 20 yillik kafedra boshqaruvimda shunday rahbar bo‘lishga hamisha intilib yashadim. Tajriba mislsiz boylik ekan-da. Ustozim taklifiga ko‘ra men professor, keyinchalik akademik bo‘lgan Aleksandr Ivanovich Dontsov rahbarligida diplom ishi yozdim va uni muvaffaqiyatli himoya qilib, akademik Aleksey Nikolayevich Leontev qo‘lidan MDUning diplomini olishga muyassar bo‘ldim. Bu men uchun juda katta baxt, tarixiy voqea edi.

Galina Mixaylovna Bazarovga ham, menga ham aspiranturada qolishni taklif qildilar, chunki o‘sha paytdagi “milliy kadrlar tayyorlash siyosati”ga ko‘ra, biz uchun qo‘shimcha joy olish imkoni borligini aytdilar. Qo‘qonga telefon qilib, onam va dadam bilan maslahatlashsam, ular “Jon qizim, juda ko‘p o‘qiding, qaytib kelaqol, sirtdan o‘qirsan...” deb o‘zbekchilik, udumlar nuqtai nazaridan o‘z fikrlarini aytishdi, turmushga chiqishim kerakligini uqtirib, qat’iy iltimos qilishdi. Men ko‘ndim.

Ilgarilari oliygohlarni tamomlaganlarga o‘qish joyidan yo‘llanma berilardi, shunga ko‘ra biz Toshkentda vazirlikka borishimiz lozim edi. Erkinboy Sattarov bilan vazir o‘rinbosariga uchradik, u bizni yana o‘zimizning qadrdon Toshkent davlat universitetiga o‘qituvchi lavozimiga yo‘lladilar. Shu tariqa biz qisqa fursatda shu universitetning psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi bo‘lib, faoliyatimizni boshladik. Men uchun bu universitetda haqiqiy hayot maktabi boshlandi. Turmushga chiqib, Farg‘onaga ketgunimcha atigi bir yil ishladim, lekin ishga munosabatim, o‘z fanimni juda yaxshi ko‘rganimdanmi, shu qisqa vaqtda mustahkamlagan bilim va

tajribam keyinchalik hayotimda juda asqotdi. O‘sha o‘quv yilida ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarni o‘tgan talabalarimning aksariyati bugungi kunda mustaqil O‘zbekistonimizning turli ilmiy maskanlari va oliy ta’lim muassasalarida faoliyat yuritmoqdalar.

Hayotimdagi bir muhim jihatni ta’kidlashni xohlardim. Institutlar (pedagogika instituti, Xalq xo‘jaligi instituti yoki Jismoniy tarbiya instituti) men ishga kelgach yoki kelishim arafasida universitetga aylanardi. Bunda ham bir hikmat bo‘lsa kerak. Chunki 1978-yilda qurilish sohasida injener-muhandis bo‘lgan Sharifjon Karimovga (joylari jannatda bo‘lsin) turmushga chiqib, ularning iltimosiga ko‘ra Farg‘onaga ko‘chib keldik va meni shu yerdagi pedagogika institutiga taklif etishdi.

Farg‘ona shahrida oilam kattalashdi, ikki nafar qiz ko‘rdik – Guli va Gulra’no. Bu juda katta baxt edi, endi men kichik bir universitetni xonadonimda tashkil etib, ko‘p narsalarni, ayniqsa turmush o‘rtog‘imdan, qizlarimdan o‘rganib, shu bilan birga ularga ham o‘rgata boshladim. Bu universitetda o‘qish ham, ishlash ham oson emasligini juda teran angladim. Baxt va omadim shunda bo‘ldiki, Sharif aka meni aynan ijodkorligimni, ilmga intiqligimni juda qo‘llab-quvvatladilar. Kitobni yaxshi ko‘rishim, bo‘sh qoldim deguncha qizlarga ham kitob o‘qittirib, o‘zim ham mutolaa qilib, yozishlarimdan xulosa chiqardilar shekilli, kichik qizim ikki yoshdan o‘tgach, “Ketdik Toshkentga, ilmiy ish qilmaysizmi?” deb ustozimiz Muhammad Voxidovichning uylariga olib keldilar. O‘sha yiliyoq ToshDU qoshidagi aspiranturaga sirtdan o‘qishga kirib, ilmiy ishimni domla rahbarliklarida boshladim. 1983–1987-yillar mobaynida davom etgan tadqiqotimni o‘z vaqtida yakunlab, Ergash G‘oziyev rahbarlik qilayotgan kafedra muhokamasiga qo‘ydim. Afsuski, bu orada ustozim Muhammad Vohidov olamdan o‘tib qoldilar, joylari jannatda bo‘lsin. Shunda “Himoyani baribir Moskvada qilaman-ku” deb, turmush o‘rtog‘im bilan Moskvaga keldim va birinchi uchratgan odamim professor, psixologiya fanlari doktori Robert Semenovich Nemov bo‘ldi. U kishi bizga dars bergan, bu olimga hurmatim baland edi. Meni tanib, gaplashib qoldik. Shunda men Toshkentdagi rahbarim vafot etganliklarini, Galina Mixaylovna Amerikaga ketganliklarini aytib, dissertatsion ishim bitgan, nima qilishni bilmayapman, desam, “Не теряйте времени, я буду Вашим руководителем” deb ilmiy rahbarlikka o‘sha zahoti rozi bo‘ldilar va tez orada dissertatsiyamni Moskva DU Psixologiya fakulteti qoshidagi Ilmiy kengashga topshirdim va 1988-yili o‘sha nufuzli juda katta Kengashda (67 nafar a’zosi bor edi) “Turli ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlarda o‘zbek xotin-qizlari ijtimoiy tasavvurlarining o‘zgarishi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyamni muvaffaqiyat bilan himoya qildim. Bu jarayon shaxsan men uchun juda katta universitet rolini o‘ynadi.

Psixologiya fanlari ilmiy darajasini olgach, Farg‘ona davlat pedagogika institutiga qaytdim va tez orada institutning katta Ilmiy Kengashi yig‘ilishida psixologiya kafedrasining mudiri lavozimga saylashib, menga juda katta ishonch bildirishdi. Kafedra juda salohiyatli edi, chunki unda 3-4 nafar men qatori yosh

o‘qituvchilardan tashqari (J. Zaynobiddinov, M. Otajonov, I. Dolbnya kabi) qolganlari yoshlari ulug‘, ko‘pni ko‘rgan, salohiyatli, o‘ta madaniyatli ilmiy darajali olimlardan iborat edi. Men aynan ulardan universitet saboqlarini olishni davom etdim. Abdullajon aka Sa’dullayev, Boqijon aka Mamajonov, Foziljon Oripov, To‘xtasin Yusufjonov, Mirzaali Ro‘zaliyev, Erkin Avliyoyev, Tursunali Eminov kabi insonlardan jamoada ishlash madaniyati, muomala sirlari, boshqaruvda tom ma’noda demokrat bo‘lish, kattalarga hurmat va ehtirom, kichiklarga g‘amxo‘rlik kabi oddiy, lekin inson yuksalishi uchun o‘ta zarur bo‘lgan qadriyatlarni o‘rgandim. Mening keyingi ilmiy va rahbarlik faoliyatimning samarasida aynan shu ustozlarning menga ko‘rsatgan ibratlari katta rol o‘ynadi.

1991-yil 1-mart kuni (sobiq sovet davri edi) o‘sha paytdagi SSSR Ta’lim vazirligining Farmoni bilan Farg‘ona davlat pedagogika instituti Davlat universitetiga aylantirildi va uning birinchi rektori sifatida Farmon bilan professor Muhammadjon Qoraboyev tayinlandi. U inson rahbarligida men yana bir katta haqiqiy universitet qanday bo‘lishini to‘la angladim. Rahbariyat universitet tarkibida qanday yo‘nalishlar bo‘lishini so‘raganlarida men dadillik bilan psixologiya va sotsiologiya yo‘nalishlari ham bo‘lishi kerak, degan taklifni berdim va asosnomani pedagogika fanlari doktori Anvar Muhiddinov bilan yozib topshirdik. Taklifimiz inobatga olindi va o‘sha yiliyoq, birinchi Prezidentimiz hurmatli Islom Karimov O‘zbekistonni mustaqil davlat deb e’lon qilganlarida, biz universitetda birinchi psixologlar va amaliyotchi sotsiolog talabalarni o‘qishga qabul qildik. Bu men uchun juda katta baxt edi. Endi men malakali psixolog kadrlar tayyorlovchi kafedraning mudiri edim.

Farg‘ona davlat universitetida faoliyat ko‘rsatish jarayonida ilm olishga xohishim, motivatsiyam yanada kuchaydi, psixologiya bo‘yicha fan doktori ilmiy darajasini ham olish istagi meni yanada o‘z ustimda ishlashga undadi. Endi mutlaqo mustaqil ravishda “Yoshlarda oila to‘g‘risidagi ijtimoiy tasavvurlar” mavzusidagi doktorlik ishimni yakunladim va 1994-yilda uni himoyaga taqdim etdim.

Men doktorlik dissertatsiyamni yakunlab, Toshkent davlat pedagogika universitetiga, hurmatli ustozimiz Muxammad Davletshin oldilariga keldim. O‘ta kamtar, olijanob, uzoqni va istiqbolni aniq chamalay oladigan, ko‘ngli toza ustoz bor imkoniyatni yig‘ib, bir martalik Ixtisoslashgan ilmiy Kengash ochish fikrini qo‘llab-quvvatladilar. Bu taklif bilan OAKga borganimizda, uning birinchi raisi Bek Oybekovich Toshmuhamedov ham e’tiroz bildirmadilar, tez fursatda pedagogika institutida bir martalik Ixtisoslashgan kengash tuzish to‘g‘risidagi buyruqni chiqarib berdilar.

Atrofimdagi olijanob insonlar qo‘llab-quvvatlovida 1994-yilning 29-noyabr kuni Nizomiy nomidagi TDPU qoshida mustaqil O‘zbekiston tarixida birinchi marta psixologiya fanlari bo‘yicha Ixtisoslashgan bir martalik Ilmiy Kengashda doktorlik dissertatsiyamni muvaffaqiyat bilan yoqladim. Fan doktorlari kam bo‘lganidan (atigi 6 nafar psixologiya fanlari doktori bor edi o‘sha vaqtda) birinchi rasmiy opponent sifatida hozirda akademik, psixologiya fanlari doktori G‘.B. Shoumarov, falsafa

fanlari doktori, oilashunos O.P. Umurzoqova hamda pedagogika fanlari doktori A. Minavarovlar taqriz berdilar. 2000-yilda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida ishlab yurgan paytlarimda esa ushbu universitetda o‘zim tashkil etgan "Ijtimoiy psixologiya" kafedrasining professori ilmiy unvoniga sazovor bo‘ldim.

Farg‘onada 1996–1998-yillarda universitet rektorining birinchi o‘rinbosari – ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor sifatidagi faoliyatim yanada katta universitet vazifasini bajardi. Birinchi prorektor sifatida ko‘p ishladik, mashaqqatli edi ish, chunki bu – yangi, hali hech kim bosib o‘tmagan qiziqarli faoliyat edi. Bu lavozimda erishgan katta yoki kichik muvaffaqiyatlar ham psixolog sifatida, ham rahbar sifatida istiqbolda meni kutib turgan yanada o‘ziga xos ishlar uchun juda katta hayot maktabi, poydevor bo‘ldi, desam xato bo‘lmas! Zero, 1997-yilning yanvar oyida viloyatimizdagi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini shaxsan tekshirish uchun kelgan Respublika Bosh vazirining o‘rinbosari Alisher Azizxo‘jayev olib borgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarimiz ko‘lami hamda mazmuni bilan tanishib, viloyat hokimligi, keyinchalik Oliy ta'lim vazirligi hay'at yig‘ilishida ishimizga yuqori baho berganlari men uchun unutilmas holat bo‘lgan edi.

1998-yilda oilaviy sharoit taqozosiga ko‘ra biz Toshkentga ko‘chib keldik va meni Toshkent davlat iqtisodiyot universitetiga ijtimoiy psixologiya kafedrasini tashkil etish va unda "Xulqni boshqarish", "Personal bilan ishlash" va barcha yo‘nalishlarda ijtimoiy psixologiya fanini o‘qitish, shu yerda aspirantura ochish taklifini berib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vaziri, iqtisod fanlari doktori, akademik Saidahror Saidahmedovich G‘ulomov ishga taklif etdilar va bu fanlarning malakali iqtisodchilar va iqtisod yo‘nalishidagi fanlarni o‘qitadigan pedagog-iqtisodchilar uchun zarurligini ta'kidladilar. Men taklifni qabul qildim va mening hayotimda yana bir muhim universitet o‘z faoliyatini boshladi.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va uning mehnatkash jamoasi ochig‘i, meni juda iliq qabul qildi. To kafedrani rasman tashkil etish, unga o‘z tanlovim bo‘yicha malakali kadrlarni tanlash, o‘quv rejalarini tuzib, unga ko‘ra adabiyotlar, ma'ruzalarni tayyorlashga bir semestr vaqt o‘tdi. Yonimga chaqirib, birgalikda ish boshlagan shogirdlarimdan birinchisi Baxtiyor Gapirov (Alloh rahmat qilsin) bo‘ldi. Har qanday masalaga chuqur mulohaza, falsafiy qarash bilan yondashadigan bu shogirdimni 1977-78 yillarda ToshDUning 3-kursida o‘qitgan edim. Baxtiyor hech narsaga qaramay, taklifimni qabul qildi va biz birgalikda kafedraga ilmli, bilimli, mehnatkash, halol psixologlarni taklif etib, ikkinchi semestrdan boshlab, auditoriyalarda ishlay boshladik. Albatta, xavotirim bor edi, "bo‘lg‘usi iqtisodchilar bizni qanday qabul qilarkan, psixologiya fanini hazm qila olarmikinlar?" kabi savollar ko‘p edi. Lekin ming shukrki, darslarimiz, ma'ruzalarimizni nafaqat talabalar, balki universitetning yosh o‘qituvchilari ham iliq qabul qilishib, faoliyatimiz e'tirof etildi.

Bundan tashqari, universitet talabalar uyi – yotoqxonasida psixolog maslahatxonasini ham yo‘lga qo‘ydik. Birinchi o‘quv yilidayoq "Oilaning iqtisodiy va ijtimoiy muammolari" mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasini ham

yuqori saviyada o‘tkazishga ulgurdik. Albatta, bunda Respublika Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining (akademik S.S. G‘ulomov), universitet rektoratining (professor S.Lutfullayev) hamda Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot akademiyasi Toshkent filiali rahbariyatining (Q.X.Abdurahmonov) qo‘llab-quvvatlaganini alohida ta’kidlagim keladi.

Xullas, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti hayotimdagi eng aziz va qutlug‘ universitet sifatida meni olim va rahbar sifatida ancha yuqori pog‘onaga ko‘tardi, ilmiy va pedagogik salohiyatimni oshirdi. Ushbu dargohda 1999-yilda tashkil etilgan aspiranturaga kirgan barcha shogirdlarim va pedagogika bo‘yicha shogirdlarning deyarli 100 foizi ilmiy darajalarga ega bo‘lib, ular orasida hozirda fan doktorlari ham bor (O.E. Hayitov, N.Sh. Umarova, M. Hakimova va boshqalar). Ayni paytda ularning ham kattagina ilmiy maktablari mavjud. 2000-yilda “Yilning eng yaxshi kitobi” nominatsiyasida g‘olib chiqqan “Psixologiya” o‘quv qo‘llanmam uchun “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim a’lochisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandim. Bu kitob keyingi yillarda ham yana bir marta g‘olib bo‘ldi va pul mukofoti bilan rag‘batlantirildi, 2014-yilda qayta chop etilgan va to‘ldirilgan nashri hanuzgacha oliy ta’lim muassasalarida talabalar tomonidan mutolaa qilinmoqda...

2000-yil aprel oyida hayotimda yana bir muhim, tarixiy voqea yuz berdi. Men bevosita mamlakatning ko‘zga ko‘ringan san’at, madaniyat va fan arboblari, rahbarlari, O‘zbekiston Qahramonlari va olimlar ishtirok etgan davra suhbatida bevosita mamlakat rahbari, hurmatli birinchi Prezidentimiz Islom Karimov boshqargan yig‘ilishda qatnashish va unda o‘z fikr-mulohazalarimni aytish baxtiga muyassar bo‘ldim. Bu – 2000-yilning 6-aprel sanasi edi.

Bu yig‘ilishda qattiq hayajon va mas’uliyatni his qilib, menga so‘z berib qolishsa, nima deyman, degan xavotirda o‘tirganimda, Yurtboshimiz menga so‘z berdilar. Milliy istiqlol g‘oyasi, milliy mafkuraning mohiyati, uni keng xalq ommasi, birinchi navbatda yoshlar ongiga singdirish masalasidagi fikrlarim hali-hanuz esimda. Men nima degan bo‘lsam ham, ijtimoiy psixolog, yoshlar auditoriyasida ishlagan pedagog-amaliyotchi sifatida, omma psixologiyasi bilan ishlashning psixologik texnologiyasi nuqtai nazaridan bayon etdim. Fikrlarim ma’qul bo‘ldimi, Bosh vazir o‘rinbosariga Respublika ishchi komissiyasini tuzish topshirig‘i berildi va ushbu guruhga meni ham kiritish taklifi Yurtboshimiz tomonidan bildirildi.

Shu tariqa men Respublika ishchi guruhi tarkibida milliy mafkura va milliy istiqlol g‘oyasi Konsepsiyasini tuzish, shu yo‘nalishni takomillashtirish bilan bog‘liq qator tadbirlarda ko‘zga ko‘ringan olimlar qatorida jamoatchilik asosida talay ishlarni amalga oshirishda qatnashdim. Milliy istiqlol g‘oyasi bilan yo‘g‘rilgan yangi avlod kitoblarini yaratish va ularni tahrir qilish ishlarida ham katta tajriba orttirdim. Bu ishlar ham o‘z navbatida akademik universitet rolini o‘ynadi.

Hayotimdagi yana bir muhim voqea – bu Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida ishlab yurgan yillarim, aniqrog‘i – 2000-yilda meni Prezident Devoni taklifiga ko‘ra Respublika “Oila” ilmiy-amaliy Markazi direktorligiga tavsiya etishdi va o‘sha davrda Vazirlar Mahkamasini ham boshqargan davlatimizning

birinchi Prezidenti Islom Karimov Farmoni bilan shu markazga rahbar qilib tayinlandim. Shu tariqa yana bir yangi "universitet" hayotimga kirib keldi. Ya'ni, men iqtisodiyot universitetidagi kafedra mudirligidan ketmagan holda bir vaqtning o'zida ilmiy-amaliy Markaz direktori vazifasini ham bajardim.

Albatta, Respublika "Oila" ilmiy-amaliy Markazi direktorligi bilan bog'liq faoliyatim hech bir universitetlarimdan kam bo'lmadi. Avvalo, ta'kidlashim joizki, men bu maskanda faoliyat yuritgan mutaxassislar ishini muvofiqlashtirib, ularni bitta yagona maqsadga – O'zbekistondagi oilalarning mustahkamligi, voyaga yetayotgan bolalarning ota-onasi ham, o'zlari ham sog'-salomat bo'lib, Vatan ravnaqiga xizmat uchun yo'naltirishga harakat qildim.

Menga bu davrda eng ma'qul bo'lgan tajriba – bu joylarda, mintaqamizning chekka hududlarida oddiy ayollar, uy bekalari, qizlar bilan uchrashuvlar bo'ldi. Bu amaliyot, ta'kidlaganimdek, menga ko'p narsalarni o'rgatdi, ko'p narsalarni men hududlardagi ayollarga o'rgatishga harakat qildim. Mashhur shoira, el ardog'ida bo'lgan marhuma Tursunoy opa Sodiqova bilan ko'p uchrashuvlar o'tkazganmiz. Men oila ilmini dunyoviy ilmlar, psixologiya talqinida tushuntirsam, ular hayotiy ilmlari bilan anglatar, hozirgi zamon tili bilan aytganda, ikkalamiz juda mos, o'zaro muvofiq "tandem" bo'lardik.

Respublika "Oila" ilmiy-amaliy Markazida mablag'larni maksimal iqtisod qilib, ba'zan homiylarni jalb etib, 2004-2005-yillari "Oila" deb nomlanuvchi rangli-bezakli, ilmiy-ommabop jurnalni ta'sis etib, chiqardik, unga o'zim bosh muharrirlik qildim.

Ilmiy-amaliy Markazda ishlab yurgan kezlarim yoshim nafaqa yoshiga yetib qolganini ham sezmay qolibman. 2010-yilda nafaqaga chiqdim, lekin ish faoliyatimni to'xtatmadim. 2011-yilga kelib, o'z arizamga ko'ra Markaz direktorligini topshirib, loyiha rahbari va yetakchi ilmiy xodim sifatida biroz ishladim. 2012-yilda "Ijtimoiy psixologiya" nomli darsligim "Fan va texnologiyalar" nashriyotida chop etilib, kitobxonlarga yetkazildi. Hanuzgacha mening "Ijtimoiy psixologiya" kitobimdan talabalar, qiziquvchilar, tadqiqotchilar foydalanib kelmoqdalar.

Universitetlarimning oxirgi bekati – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti bo'ldi. Shu tariqa men hozirda Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti deb ataluvchi dargohning ilmiy faoliyatiga bevosita kirishib ketdim. 2018-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Oliy attestatsiya komissiyasining buyrug'i bilan ochilgan ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi sifatida ishlay boshladim, Ilmiy kengash a'zosi sifatida ham faoliyat yuritib, o'nlab yoshlarni malakali ilmiy-pedagogik kadrlar bo'lib yetishishlariga baholi qudrat yordam berdim va bu jarayon hozir ham davom etmoqda. 2019-2020-yildan boshlab esa Pedagogika va psixologiya fakultetidagi "Amaliy psixologiya" kafedrasida professor bo'lib ishlay boshladim. Men o'zimning yana bir katta haqiqiy universitetimni topganday bo'ldim, hanuzgacha shu yerda ishlab kelyapman va bundan behad baxtiyorman.

Men bejiz so‘zboshimda “Baxt” atamasini ishlatmadim. Zero, mehnatdan, ilmdan haqiqiy baxt topgan inson sifatida bu e’tirofni baralla aytgim keladi. Bir umr izlandim, bir umr yangilik qidirdim, minglab kitoblarni, buyuk allomalar, olimlar asarlarini qayta-qayta o‘qishdan tolmadim, minglab dissertatsiyalar va avtoreferatlarni o‘rganib, tahlil qildim va kam bo‘lmadim. Alloh bergan harakat, universitetlarim bergan ilm, ustozlarim o‘gitlari, yaqinlarim va jigarlarimning qo‘llab-quvvatlovlari, ota-onam, buvi va bobolarimning duolari meni baxtli qildi, deyman. Shunday jonsaraklik va Baxt hammaga ham nasib qilsin, azizlarim!

UDK 159.91:159



Shoumarov G‘ayrat Bahromovich,
“PROFI UNIVERSITY” rektori,
psixologiya fanlari doktori, akademik

OLIMANING BAXTI

Karimova Vasila Mamanosirovna 1977-yilda M. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Psixologiya fakultetini muvaffaqiyatli tamomlagach, yo‘llanma bilan Toshkent davlat universitetidagi Psixologiya kafedrasida o‘qituvchi sifatida pedagogik faoliyatini boshlagan. 1978-yilda Vasila Karimova turmushga chiqishi munosabati bilan Farg‘ona shahrida Mirzo Ulug‘bek nomidagi Farg‘ona davlat pedagogika institutida o‘qituvchi bo‘lib ishlay boshladi va 1998-yilgacha oddiy o‘qituvchilikdan kafedra professori, psixologiya fanlari doktori, kafedra mudiri, 1996-yildan esa universitet rektorining ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori lavozimigacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tdi. V.Karimova o‘z pedagogik faoliyatini ilmiy ishlar bilan bog‘lab olib borgani bois, 1988-yilda Moskva davlat universitetining Ixtisoslashgan Ilmiy kengashida psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olishga muvaffaq bo‘ldi. 1994-yilda “Yoshlarda oila to‘g‘risidagi ijtimoiy tasavvurlar” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshida professor M.G. Davletshin raisligida tashkil etilgan bir martalik Ixtisoslashgan Ilmiy kengashda muvaffaqiyat bilan himoya qilib, O‘zbekistonda birinchi xotin-qizlar orasida psixologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olgan olimaga aylandi. Men ushbu doktorlik ishida birinchi rasmiy opponent sifatida ishtirok etib, V. Karimovaga ilm yo‘lida muvaffaqiyatlar tilagan olimlardan biriman.

1998-yilda Respublika Ta’lim markazi direktori lavozimida ishlab yurgan kezlarimda Vasila Mamanosirovna kabinetimga kirib keldi va oilaviy sharoitiga ko‘ra Toshkent shahriga ko‘chib kelishganini aytdi. Uni Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rahbariyati yangi yo‘nalish – yangi kafedra ochish va unga rahbarlik qilish uchun taklif etishibdi. Ilk marotaba iqtisodiyot yo‘nalishida kadrlar tayyorlovchi OTMda Ijtimoiy psixologiya kafedrasi tashkil etildi va bu yuqori malakali iqtisodchi kadrlar, keyinchalik esa iqtisodiy ta’lim ixtisosligi bo‘yicha

iqtisodiy pedagoglar tayyorlash ishiga turtki bo‘ldi. V.Karimova 2000-yilda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida “Ijtimoiy psixologiya” kafedrasi professori unvonini oldi.

Professor V. Karimova biografiyasida “ilk marotaba”, “birinchilardan bo‘lib” kabi iboralar ko‘p. Masalan, ToshDU ilk marotaba ochilgan psixologiya bo‘limining talabasi, MDUning psixologiya fakultetini tamomlagan o‘zbek ayollaridan birinchisi, Farg‘ona davlat universitetida respublikada birinchi marta ochilgan “Psixologiya va amaliy sotsiologiya” fakultetining asoschilaridan va ilk marotaba psixolog kadrlar tayyorlovchi “Psixologiya” kafedrasining mudiri (1991-1998), FarDUda ilk marotaba joriy etilgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha rektor o‘rinbosari (1996-1998), “FarDU ilmiy xabarlari” ilmiy jurnalining asoschilaridan biri, uning ilmiy kotibi, keyinchalik bosh muharrir muovini, tahririyat a’zosi, ToshDIUda ochilgan birinchi “Ijtimoiy psixologiya” kafedrasining mudiri, uning qoshida ochilgan 19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya va etnopsixologiya bo‘yicha aspiranturaning asoschisi, o‘zi o‘n bir yil mobaynida direktor lavozimida ishlagan Respublika “Oila” ilmiy-amaliy markazi qoshida ochilgan “Oila” ilmiy-ma’rifiy jurnalining bosh muharriri (2004, 2005) va hokazo.

V. Karimova psixologiya fanlari doktori, professor sifatida mamlakatimizda ko‘p yillardan buyon milliy psixologiya fanini rivojlantirish, ilmiy maktab yaratish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, yosh avlodda sog‘lom, tanqidiy tafakkur va ruhiy barqarorlikni shakllantirish yo‘lida mehnat qilib kelmoqda. Uning ilmiy ishlari nafaqat mahalliy, balki xalqaro miqyosda ham yetarlicha e’tirof etilgan, ko‘plab shogirdlarining yutuqlari respublikamizda psixologiya fanining salohiyatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Uning atrofida 40 nafardan ziyod shogirdlari bor, ulardan besh nafari psixologiya fanlari doktori, qolganlari – psixologiya fanlari nomzodlari, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktorlari (PhD) bo‘lib, ular mamlakatimizning turli oliy o‘quv yurtlari va ilmiy muassasalarida muvaffaqiyat bilan faoliyat olib bormoqdalar.

Professor V.M. Karimova 500 dan ziyod monografiya, darslik, o‘quv qo‘llanma, risola, ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar muallifi sifatida ham tanilgan. Uning nopedagogik hamda nopsixologik yo‘nalishda ta’lim olayotgan oliy o‘quv yurtlarining talabalariga mo‘ljallab yozilgan “Psixologiya” nomli o‘quv qo‘llanmasi bir necha yillar mobaynida “Yilning eng yaxshi kitobi” tanlovi g‘olibi (2001 va 2002 y.y.) bo‘lgan, u barcha oliy o‘quv yurtlaridagi bakalavriat va “Kasbiy ta’lim” yo‘nalishi talabalari uchun psixologiya fanidan asosiy qo‘llanma sifatida o‘qitilib kelinmoqda. Qo‘llanmaning qayta nashri 2014-yilda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida chop etilgan.

V. Karimovaning O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi grifi ostida 2007-yilda “Fan va texnologiyalar” nashriyotida chop etilgan “Oila psixologiyasi” hamda 2012-yilda chop etilgan “Ijtimoiy psixologiya”, 2020, 2021-yilda qayta nashr etilgan “Ijtimoiy psixologiya” nomli darsliklari pedagog kadrlar tayyorlovchi barcha oliy o‘quv yurtlari magistrlik bosqichlari talabalari

uchun darslik sifatida tavsiya etilgan. Bu kitoblar oliygohlarning talabalari uchun mo'ljallangan yagona va dastlabki darsliklar hisoblanadi. Muallifning ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalari qator yillar mobaynida "Xalq so'zi", "Pravda Vostoka", "Ma'rifat" kabi yetakchi respublika gazetalarida "Yilning eng yaxshi maqolasi" tanlovlarining g'olibi sifatida e'tirof etilgan (2005, 2008, 2012).

O'tgan yillar mobaynida V.M. Karimova tomonidan jami 5 ta darslik, 55 nomli o'quv qo'llanma, 6 ta monografiya, 50 dan oshiq xalqaro va respublika nufuzli ilmiy-amaliy anjumanlarida ilmiy maqolalar chop etilgan, xalqaro va respublika ilmiy-amaliy grantlari rahbari va ishtirokchisi sifatida o'zi va shogirdlari ilmiy izlanishlar olib borgan, 20 dan ziyod fundamental, amaliy, innovatsion, xalqaro ilmiy tadqiqot loyiha-grantlarining rahbari va ijrochisi sifatida tanilgan. Uning hammuallifligida hamda bevosita rahbarligida tayyorlangan "Oilada yoshlarni buzg'unchi g'oyalardan himoya qilishning ijtimoiy-pedagogik texnologiyasi", "Ota-onalar universiteti – oila mustahkamligi omili", "Boshqaruv sohasidagi professional kompetensiya asoslari", "O'zbekistonda gender-menejmentning istiqboli" va "O'zbekistonda oila siyosati", "Etnopsixologiya va din psixologiyasi" kabi monografiyalar o'z muxlislariga ega.

Professor V.M. Karimovaning bevosita ishtiroki hamda rahbarligida amalga oshirilgan xalqaro, fundamental, innovatsion hamda amaliy tadqiqotlar mavzularining o'zi ham olimaning faoliyati serqirra hamda ular dolzarb muammolarga yo'naltirilganligini ko'rsatadi. Masalan, V.Karimova bevosita rahbarligida amalga oshirilgan "O'zbekiston Respublikasi oilalarini mustahkamlash borasidagi davlat siyosati va oila istiqbolini belgilovchi ijtimoiy demografik tadqiqotlar", "Milliy istiqlol g'oyalarini "Oila–mahalla" tizimidagi tarbiyaviy jarayonga singdirishning mexanizmlari va pedagogik-psixologik tamoyillari", "O'zbekiston mahallalaridagi "Ota-onalar universitetlari" orqali ota-onalarning ma'naviy-axloqiy, tibbiy-demografik, ijtimoiy-huquqiy savodxonligini oshirish mexanizmini yaratish", "O'zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini samarali tashkil etishda gender-menejment dasturlaridan oqilona foydalanish" kabi amaliy tadqiqotlar, "O'zbekiston hukumati rahbarlari nomiga fuqarolar tomonidan yo'llangan yozma murojaatnomalar mazmunining ijtimoiy-psixologik tavsifi" kabi innovatsion tadqiqotlar, uning ishtirokida va turli xorijiy muassasalar bilan hamkorlikda amalga oshirilgan "Alohida yordamga muhtoj bolalar", "Yod tanqisligining oldini olish", "Gigiyenik vositalardan foydalanish, oilada tibbiy madaniyatni oshirish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish. Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash" kabi loyihalar olimaning bevosita aholi o'rtasida olib borgan tatbiqiy faoliyatini o'z ichiga oladi.

Professor V. Karimova ilmiy-pedagogik faoliyatini jamoatchi-tashkilotchilik bilan uyg'unlashtiradi. U respublikaning ko'zga ko'ringan jamoatchi faoli, 30 ga yaqin jamoat tashkilotlari va jamg'armalarning ta'sischi – a'zosi sifatida yoshlar, xotin-qizlar, mahalla faollari o'rtasida targ'ibot ishlarini olib bordi; milliy mafkura,

oila psixologiyasi, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etuvchi 50 dan ziyod maqola va ko‘rsatuvlar muallifi, ishtirokchisi sifatida el orasida tanildi.

V.M. Karimova 1994-yildan buyon psixologiya bo‘yicha Ixtisoslashgan ilmiy kengashlarning a’zosi, rais o‘rinbosari, raisi sifatida mamlakatimizda oliy malakali psixolog kadrlar tayyorlashga katta hissa qo‘shib kelmoqda. Turli yillarda O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent pedagogika universiteti hamda Qozog‘iston Milliy universiteti qoshidagi Ixtisoslashgan Kengashlarda rais (2007-yil O‘zMU), rais o‘rinbosari (1998–2007) va a’zosi sifatida faoliyat yuritgan va hozirda Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti qoshidagi Ilmiy kengash a’zosi, ushbu Kengash qoshidagi Ilmiy seminarning raisi (2018–2022-yillarda, so‘ngra – a’zosi)dir.

Sermahsul olima, ajoyib inson Vasila Karimova ilmiy, rahbarlik va jamoat ishlaridagi faoliyati orqali jamiyatimiz va davlatimiz ma’naviy-ilmiy salohiyatini yuksaltirishga, o‘zbek psixologiya fanini rivojlantirishga shubhasiz, ulkan hissa qo‘shdi. Chuqur bilim va katta hayotiy tajribaga ega olima hozirgi vaqtda ham qizg‘in ilmiy-ijodiy jarayon, izlanishlar bilan band. Men tavallud ayyomi bilan tabriklagan holda Vasila Karimovaga uzoq va mazmunli umr, mustahkam sog‘lik, salomatlik, yangidan-yangi ilmiy, ijodiy muvaffaqiyatlar, zafarlar tilayman!

UDK 159.922.



Akramova Feruza Akmalovna,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
“Psixologiya” kafedrasi professori, psixologiya fanlari doktori, professor

OILADA SOG‘LOM PSIXOLOGIK MUHIT YARATISH – DOLZARB MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya. Maqolada oilada sog‘lom psixologik muhitni yaratishning psixologik omillari yoritib berilgan. Oilada sog‘lom psixologik muhit yaratish – bu oila a’zolari o‘rtasida ishonch, mehr-oqibat, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash va tushunish muhitini shakllantirishdan iborat ekanligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: oila, sog‘lom psixologik muhit, oila a’zolari, ishonch, mehr-oqibat, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, muhit, shakllantirish, ma’naviy, ruhiy va ijtimoiy barkamollik.

СОЗДАНИЕ ЗДОРОВОЙ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СРЕДЫ В СЕМЬЕ – КАК АКТУАЛЬНАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация. В статье рассматриваются психологические факторы создания здоровой психологической среды в семье. В основе статьи лежит утверждение, что создание здоровой психологической среды в семье заключается в создании атмосферы доверия, доброты, взаимоподдержки и взаимопонимания между членами семьи.

Ключевые слова: семья, здоровая психологическая среда, члены семьи, доверие, доброта, взаимоподдержка, формирование, духовное, психическое и социальное благополучие.

CREATING A HEALTHY PSYCHOLOGICAL ENVIRONMENT IN THE FAMILY – AS A CURRENT PROBLEM

Abstract. The article examines the psychological factors of creating a healthy psychological environment in the family. The article is based on the assertion that creating a healthy psychological environment in the family consists in creating an atmosphere of trust, kindness, mutual support and understanding between family members.

Keywords: Family, healthy psychological environment, family members, trust, kindness, mutual support, formation, spiritual, mental and social well-being.

Oila — insonning ijtimoiy hayotidagi asosiy bo‘g‘inlardan biri, jamiyatning eng muhim institutidir. Oila har bir insonning ilk ijtimoiy makoni hisoblanadi, unda insonning ma’naviy qadriyatlari, madaniy an’analari va axloqiy qoidalari shakllanadi. Oila jamiyatda shaxsni tarbiyalash, unga ijtimoiy me’yorlarni o‘rgatish va uning rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Ma’lumki, nikohga va yaqin qarindoshlikka asoslangan axloqiy mas’uliyat, o‘zaro hurmat, tushunish va mehr-muhabbat umumiyligi bilan bog‘langan kichik ijtimoiy guruhni oila deyiladi. Oila boshqa turdagi kichik guruhlardan o‘zining bir qator jihatlari bilan ajralib turadi: oila ko‘p muddatga, ya’ni bir necha o‘n yillar va ko‘p yillarga mavjud bo‘ladi; oilada shaxslararo munosabatlarning bir necha turlari amalga oshadi, ya’ni milliy mafkuramizga oid ilk tushunchalar avvalo oila muhitida singadi va bu jarayon bobolar o‘giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshadi; oiladagi barcha munosabatlar zaminida shaxs yoki yaxshi shakllanishi va komil inson darajasiga yetishi yoki tarbiyasi og‘ir, xulqi buzuq odam bo‘lib tarbiyalanishi mumkin. Hayotimizning yarmidan ko‘pini qamrab oladigan, chinakam, to‘laqonli insoniy baxtni in’om etadigan yoki, aksincha, har tomonlama ta’minlanganligimizga qaramasdan, bizning baxtimizni yarimta qiladigan ham oilaviy hayotdir.

Jahonda inson hayotida muhim o‘rin tutuvchi oila-nikoh, oilaviy qadriyatlar, oiladagi ijtimoiy-psixologik muhit bilan nizolarning kelib chiqishi masalalari ilmiy jamoatchilik diqqat markazidagi eng dolzarb mavzulardandir.

Oila – nafaqat bir yurtning, balki umuminsoniyatning katta siyosati. Aytish kerakki – davlat siyosati. Nega deganda, bashariyatning tirikligi, uzluksizligi – oiladan!

Bordi-yu oila tuzuk bo‘lmasa, tarbiyaga ham e’tibor berilmasa, qancha buyuk bo‘lsa ham, bunday millat dunyoda uzoq yashay olmaydi. Buni donishmandlar ko‘p ta’kidlashgan: “Millatlar sharafini yuqori martabaga ko‘taradigan narsa millionlar ila sanaladigan askarlar-u, dunyoda eng buyuk va zo‘r bo‘lgan kemalar emas, balki eng oz e’tibor beradiganimiz yo bo‘lmasa, hech bir zamon e’tibor bermasdan qoladiganimiz – oiladir. Oila nizomsiz bo‘lsa, uning yomon oqibati butun millatga ta’sir etadi va shu sababdan fazilat yeriga razolat, taraqqiyot o‘rnini tubanlik negiz

quradi... Agar bir millatga bunday hol ro'baro' kelsa, u millat kitobining so'nggi varag'i osiladi..."

Haqiqatdan har bir inson dastavval, oilada o'rin topolmasa– jamiyatda o'rin topishi qiyin, oilada qadr topolmasa – jamiyatda qadrlanishi dargumon; oilada mehribonlik ko'rmasa, oilada mehrsiz ulg'aysa jamiyatda ham begonalarday yashaydi.

Qadim zamonlardan boshlab oila, undagi munosabatlar masalalari donishmand, olim, mutafakkirlar tomonidan o'rganilib kelinganligini va ularning qarashlarida bu masalalarning yoritilganligini kuzatamiz.

Sharqning buyuk allomalari hisoblangan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Mahmud Koshg'ariy, Kaykovus va boshqalar asarlarida oila va oilaviy munosabatlarga alohida e'tibor berilgan. Ular shaxs tarbiyasi va kamolotida oila, oilaviy tarbiyaning rolini yuqori qo'yishgan, ayniqsa, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ota-ona va yaqin kishilarning yo'naltiruvchi va tarbiyalovchi vazifalariga alohida e'tibor berganlar. Ular faqat oiladagina rivojlanishi mumkin bo'lgan sifatlar – halollik, poklik, mardlik, mehribonlik, haqgo'ylik kabi qator fazilatlarni barcha sifatlardan yuqori qo'yishlari bilan birga insondagi insoniy munosabatlarda namoyon bo'ladigan yuksak fazilatlar, avvalo, ota-onadan bolaga o'tishi va ularning jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'siri kabi qimmatli fikrlarni o'z falsafiy-etik, psixologik qarashlarida ifodalab berganlar.

O'rta asrlarning buyuk olim-entsiklopedisti Abu Rayhon Beruniy "Minerologiya" asarida bir qator tushunchalarni yoshlarga o'rgatish orqali oila muhitiga tayyorlab borish, "ozodalik va orastalik olijanoblikning o'zagi" bo'lishi, insonning tashqi yoqimli qiyofasi bilan uning axloqiy qiyofasi o'rtasida bog'liqlik mavjudligi, "tishni yuvib, ko'z va qovoqlarni toza tutish, ularga surma qo'yish, sochni esa zarur bo'lganda bo'yab, tirnoqlarni olib turish va silliqlash" inson salomatligi va ruhiy pokligining asosi ekanligi, insonning tashqi yoqimli qiyofasi bilan uning axloqiy qiyofasi o'rtasidagi o'zaro uzviylikni uqtiradi. [3; 10-b.].

Oilaviy munosabatlar tizimi qonun-qoidalari alloma Abu Ali Ibn Sinoning oila "Tadbiri manzil" asarida o'ziga xos tarzda bayon etilgan. Oila boshlig'i, deb yozadi u, ham nazariy, ham amaliy jihatdan oilada tarbiya masalalarini mukammal o'zlashtirmog'i lozim. Yomon tarbiya nafaqat ushbu oila, balki qo'shnilarga, mahalla-kuyga ham yomon ta'sir qilishi mumkin. Ota-ona davlat boshlig'imi, yoki oddiy fuqaromi, u bola tarbiyasi borasida mas'uldir. Ibn Sinoning fikricha, tarbiyachi, ya'ni ota-ona "nafaqat so'z bilan, balki amalda ham bola ruhiga ta'sir ko'rsatmog'i lozim"[2; 44-b.].

Ibn Sino yigit kishini oilaga tayyorligi uning iqtisodiy yetukligi bilan belgilanishini asoslaydi: "Yosh yigit biror hunarni o'rgansa, uni hayotda tatbiq eta olsa va mustaqil hunar tufayli oilani ta'minlaydigan bo'lsagina, otasi uni uylantirib qo'ymog'i lozim".

XI asrning buyuk mutafakkiri Yusuf Xos Xojib "Qutadg'u bilig" –"Saodatga boshlovchi bilim" kitobida oilaviy hayotga oid qarashlarini bayon etadi. Uning

fikricha, farzand ko‘rish va unga tarbiya berish ota-onaga juda katta mas’uliyat yuklaydiki, uning uddasidan chiqmoq, har bir ota-ona uchun ham farz, ham qarzdir. Yusuf Xos Xojib oilaviy tarbiyani bola axloqiy taraqqiyotining asosi, deb hisoblagan: “Agap bolaning xulqi yomon bo‘lsa, bunda bolaning aybi yo‘q, hamma ayb – otasida”[5; 163-b.].

Psixologiya fanlari doktori, professor Karimova Vasila Mamanosirovna o‘zbek yoshlarida oila to‘g‘risidagi ijtimoiy tasavvurlar shakllanishi, o‘zbeklarning oilaviy psixologiyasining o‘ziga xos tomonlari haqida salmoqli tadqiqot ishlarini olib borgan. Muallif tadqiqotlari davomida o‘zbek xalq og‘zaki ijodida, islom dinining muqaddas manbalarida, sharq mutafakkirlari asarlarida, taniqli pedagog va psixolog olimlar asarlarida nikoh va oila, oilaviy hayot muammolariga doir materiallarni izchil o‘rganib, psixologik tahlillari asosida bir qator ilmiy g‘oyalarni ilgari surgan.

Muallifning fikricha, oilaviy-ijtimoy tasavvurlar murakkab va ko‘p komponentli psixologik tizimlar bo‘lib, ularning tarkibiga oilaning umumiy qadriyatlari, shaxslararo munosabatlarga xos tasavvurlar, erkak va ayol fazilatlari, ularning oilaviy munosabatlardagi o‘rni va ahamiyati to‘g‘risidagi, oilaviy rollar va ularni amalga oshiruvchi ijtimoiy ustanovkalar, reproduktiv tasavvurlar va boshqa ijtimoiy-psixologik tushunchalar kiradi.

Oilaviy-ijtimoiy tasavvurlar asosan shaxs ijtimoiylashuvining dastlabki davridanoq shakllana boshlaydi va uning o‘zgarishida ijtimoiy-psixologik omillar, ta’lim-tarbiya, oila muhiti, milliy-ma’naviy va axloqiy qadriyatlar, shaxsning muloqot muhiti va shaxsiy faolligi muhim rol o‘ynaydi. Oilaviy-ijtimoiy tasavvurlar har bir oila a’zosining bilish tizimida shakllangan ong tarkiblaridan iborat bo‘lib, shaxsning ijtimoiy va individual tajribasi sifatida uning oilaviy hayotga tayyorligini ta’minlaydi .

V.M.Karimova tadqiqotlarida oilaviy ijtimoiy tasavvurlar shakllanishida bola shakllanayotgan oila va undagi o‘zaro munosabatlar xarakteri muhim ahamiyat kasb etishi, ya’ni oilaning katta yoki kichikligi, to‘liq yoki noto‘liqligi, undagi rollar, jinsiy o‘zaro munosabatlar haqida va reproduktiv tasavvurlar xarakterini belgilashi va shaxsiy ijtimoiy ustanovkalar yo‘nalishida aks etishi aniqlangan.

Oiladagi o‘zaro munosabatlarning asosini tashkil etgan oilaviy rollarga oid tasavvurlar va ularning differensiatsiyasi o‘zining yosh, hududiy va jinsiy xususiyatlariga ega bo‘lib, ular avvalo har bir oilaning ruhiy ma’naviy muhiti, u yerdagi milliy qadriyatlar, an’analar, rasm-rusumlar qanchalik saqlanib qolganligiga ham bog‘liqligi asoslangan. Muallif nikoh yoshigacha bo‘lgan yoshlar bilan oilali er-xotinlarning oilaviy ijtimoiy tasavvurlari o‘rtasidagi asosiy farqlarni psixologik nuqtai nazardan tahlil qilib, uning sabablarini ko‘rsatib o‘tgan. Har bir oila ijtimoiy tizim struktura sifatida jamiyat oldida ma’lum bir funksiyalarni bajaradi. Oilaning ijtimoiy funksiyalari haqida gapirganda, bir tomondan jamiyatning oilaga ta’sirini, ikkinchi tomondan esa umumiy ijtimoiy tizimda oilaning o‘rnini, oilaning hal qiladigan ijtimoiy (jamoatchilik) funksiyalarini hisobga olish lozim. Bular:

iqtisodiy, reproduktiv, boshqaruv, tarbiyaviy, ma'naviy, rekreaktiv, kommunikativ, regulyativ, felitsitologik va boshqalar).

Albatta, oilaning ijtimoiy tizim sifatida jamiyat oldidagi asosiy funksiyalarini ayrim manbalarda: naslni davom ettirish, tarbiyaviy, xo'jalik va o'zaro yordam funksiyalari sifatida ko'rsatib o'tilgan, sotsiolog olimlar (U.M.Sverdlov, V.A.Ryasentsov, V.P.Klyuchnikov) esa inson zotini davom ettirish, bolalarni tarbiyalash va xo'jalik funksiyalarini farqlaydi; S.D.Laptenok xo'jalik-maishiy, aholi sonini qayta tiklash, tarbiyaviy va oila a'zolari dam olishi – hordig'ini tashkil etish; N.G.Yurkevich - ma'naviy muloqot, seksual, bolalarni dunyoga keltirish, tarbiya jarayonidagi hamkorlik, uy xo'jaligini yuritish uchun zarur vositalarni ta'minlash, dam olishni tashkil qilish, o'zaro moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlish; A.G.Xarchev – aholi sonini qayta tiklash, ijtimoiylashuv, xo'jalik, iste'mol va dam olishni tashkil qilish kabilarni farqlaydi. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, qator oilashunos mutaxassislar tomonidan oilaning asosiy funksiyalari turlicha klassifikatsiya qilinmoqda. Bu o'rinda oila funksiyalarini shunchaki sanab o'tish emas, balki ularni bir tomondan odamlarning moddiy, xo'jalik-maishiy va ikkinchi tomondan emotsional va ijtimoiy-psixologik ehtiyojlarini qondiruvchi funksiyalarga farqlash muhim.

Oiladagi sog'lom muhit bolalarning psixologik rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Sog'lom muhitda o'sgan farzandlar ijtimoiy, ma'naviy jihatdan mustahkam bo'lib, hayotda o'ziga ishonchli va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllanadilar. Oiladagi muhabbat va ishonch bolalarning kelajakda o'z oilalarida ham yaxshi muhit yaratishiga yordam beradi.

Oila inson hayotining asosiy qismi bo'lib, uning shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Oiladagi sog'lom muhit jamiyat uchun mustahkam poydevor bo'lib, kelajakda mustahkam va barqaror jamiyat yaratishga yordam beradi.

Oiladagi sog'lom psixologik muhit nima? Sog'lom psixologik muhit – bu oila a'zolari o'rtasidagi ijobiy aloqalar, o'zaro qo'llab-quvvatlash va ishonch asosida qurilgan muhitdir. Bunday muhit oila a'zolarining o'zaro munosabatlarini, ruhiy barqarorliklarini va umumiy hayot sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Psixologik muhit faqatgina munosabatlarga emas, balki bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchini shakllantirishga, o'smirlar tarbiyasiga va oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashga ham ta'sir ko'rsatadi.

Oilada sog'lom psixologik muhit yaratishning ahamiyati esa oila a'zolari o'rtasidagi emotsional qo'llab-quvvatlash, ulashish va turli holatlarni tushunish jamiyatda barqaror, emotsional barkamol shaxslarni tarbiyalashga yordam beradi. Oilada sog'lom psixologik muhit yaratish – bu oila a'zolari o'rtasida ishonch, mehr-oqibat, o'zaro qo'llab-quvvatlash va tushunish muhitini shakllantirishdir. Bunday muhitni yaratish har bir a'zoning ma'naviy, ruhiy va ijtimoiy barkamolligiga xizmat qiladi va salbiy vaziyatlardan himoya qiladi.

Sog‘lom muhitda tarbiyalangan bolalar emotsional va psixologik jihatdan barqarorroq bo‘lib, tashqi ta’sirlarga nisbatan chidamli bo‘ladilar. Ularda ijtimoiy-ma’naviy mezonlarga mos xulq-atvor shakllanadi va muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmasi o‘sadi.

Shu bois O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: “Bola ota-ona qo‘lida bir omonatdir”, “Agar farzandimizga to‘g‘ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada uning yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo‘lib turmasak, ularni ilmu hunarga o‘rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo‘yishimiz hech gap emas”, – deb ta’kidlashi oila muhitini risoladagidek tashkil etish orqali jamiyat farovonligiga erishish, ya’ni “Farovon oila – jamiyat ravnaqining asosi” kontseptual g‘oyani hayotga tatbiq etishga qaratilganligi bejiz emas.

Darhaqiqat, oila – har bir shaxsda bolaligidan boshlab shakllanadigan insoniy fazilatlar, ezgu istaklar, qadriyatlar kamol topadigan, ming yillar davomida shakllangan o‘zbek xalqining qadriyatlari va ma’naviy merosi ravnaqini ta’minlovchi tarbiya maskanidir.

Farzandlar o‘z uylarida kuzatgan ma’naviy muhitdan nusxa oladilar. “Oiladagi ma’naviy muhit va tarbiya tufayli bola yo mehribon va rahmdil, yoki xudbin va bag‘ritosh” bo‘lib o‘sadi.

Oilalarning nosog‘lomligi, noqobil va nizoli oilalar, ajrashishlar sonining ortishi jamiyatga turli iqtisodiy, ijtimoiy ziyon yetkazishi bilan birga, bunday nosog‘lom psixologik muhitli, nizo-janjalli, o‘zaro mehr-oqibatsiz muhitda dunyoga kelib, shakllangan bolada ham keyinchalik nafaqat o‘z ota-onasi, aka-ukalariga nisbatan mehr-oqibatsiz, balki atrofdagilarga, qolaversa o‘zi yashagan jamiyatga nisbatan ham shafqatsiz, zolim, xudbin, har xil jamiyat manfaatlari, yurt manfaatlariga zid bo‘lgan har xil salbiy tashqi kuchlar ta’siriga oson beriluvchan shaxsning shakllanishiga, shu asosda esa o‘z oilasi, o‘z xalqi, o‘z yurti uchun xavfli insonlarning yetishib chiqishiga ham asos bo‘lishi mumkin.

Farzandlar tarbiyasi ota-onani eng katta va mas’uliyatli vazifalaridan biri sanaladi. Bu vazifaga e’tiborsizlik kelajakda jamiyat taraqqiyotiga xavfli ta’sirni keltirib chiqaradi. Tarbiya qisqa muddatda va birdaniga singdiriladigan jarayon emas, uni yillar davomida o‘z vaqti va yoshida berib borish talab etiladi. Bugungi farzand tarbiyasida “o‘zini qay darajada ko‘ra olayotgan” ota-onalarni o‘rganish uchun “Farzandlaringiz tarbiyasiga yetarli e’tibor berayapsizmi?” savol bo‘yicha natijalarga e’tiboringizni qaratamiz. Savolimizga 86,0 foiz ota-onalar “ha” degan ta’kidni bildirishdi. Bu ota-onalarni farzandlari tarbiyasiga bo‘lgan mas’ulligini his eta olishini, o‘zlarini farzandlari kamolotidagi ishtirokidan ko‘ngli to‘layotganligini bildiradi. “Yo‘q” javobini belgilash 7,0 foizda va “javobi yo‘q” tanlanishi 7,0 foizda ko‘rinadi.

Demak, ota-onalar orasida farzandlari tarbiyasini o‘z tasavvurlari va imkoniyatlari doirasida olib bora olmayotganligini tan olayotgan, o‘zlarini balki bu masalada tajribasiz, no‘noq his etayotganliklarini va bu holat ularda norozilik

tuyg'ularini keltirib chiqarayotganligini ko'rsatadi. Ota-onalar aniq va ko'ngli to'ladigan javobni bera olishmagani, farzandlari hayotida o'zlari ibrat bo'la olmayotganidan, ularni tarbiyasidagi ishtirokidan ko'ngillari to'lmayotganidan ham darak beradi. Bu borada ota-onalarni ota-onalikka munosib o'rgatish, tarbiya borasidagi ilmlarini kengaytirish va zarur tavsiyalarni berish masalasiga jiddiy e'tibor qaratishimiz kerakligi ko'rindi. Buning uchun ota-onalarning bilimlarini oshirish, ularda sog'lom tafakkur va ilmiy dunyoqarashni shakllantirish kerak. Bu esa ota-onalardan farzand oldidagi, el-yurt oldidagi ma'naviy burchini to'g'ri anglashni, oilaviy munosabatlar doirasida milliy urf-odat va an'analarimizning eng nodirligini turmushga singdirish orqali bolalarda insoniy munosabatlarni shakllantirishni, ularni mustaqil fikrlaydigan kishilar qilib tarbiyalashni taqoza etadi.

Zero Hadisda, "Hech bir ota o'z farzandiga xulqu odobdan buyukroq meros bera olmaydi", – deb qayd etilishi ham bejiz emas. Shuni unutmasligimiz lozimki, farzandimizning dunyoqarashi shakllanishida, unda ijobiy va salbiy xislatlarning paydo bo'lishida, eng avvalo, oila "xamirturush" vazifasini bajaradi.

Oila muhitida ushbu omillarga e'tibor qaratish lozim ekanligini hayotni o'zi ko'rsatayapti:

- birinchidan, oilada ota o'rnining ahamiyatli ekanligi. Turmushda erkakning yetakchiligi mentalitetimizda yetakchi o'rin tutadi. Erkak kishi o'z xulq-atvori bilan oilada to'kis muhit yaratishi, farzandlarida axloqiy sifatlarni tarbiyalashi lozim. Ota farzandning ko'z o'ngida namunali shaxsga aylanmas ekan, bunday oila hech qachon mukammal bo'lmaydi. Xalqimizda azal-azaldan "Ota bo'lish oson, lekin otalik qilish qiyin" degan naql bor. Farzandlarimiz otasi bilan faxrlanishi, undan o'rnak olishi zarur;

- ikkinchidan, oilada milliy qadriyatlar ustuvor bo'lishi zarurligi. Buyuk ajdodlarimiz tarbiyaga, oila va undagi axloqiy muhitga e'tibor qaratib kelishgan bo'lib, bu boradagi nasihatnomalar, odob-axloq mavzusidagi asarlar talaygina. "Qobusnoma", "Hikmatnoma", "Qutadg'u bilig", "Hayrat ul-abror" va boshqalar shular jumlasidandir. Hadisi Sharifda ham iymonli bo'lish, haromdan hazar qilish, bir-biriga mehribon va oqibatli bo'lishga da'vat etuvchi hikmatlar zikr etilgan. Xalqimiz milliy ruhdagi urf-odatlari, an'analar va udumlarining oila muhitiga ta'siri natijasida farzandlarimizda ijobiy xislatlar shakllana boradi.

- uchinchidan, onalarning farzandlar tarbiyasiga ko'proq vaqt ajratishi lozimligi. Oiladagi tarbiyaning samaradorligi asosan bu jarayonda onaning ishtiroki bilan o'lchanadi. Farzand o'z xususiyatlari, salohiyatining 60% ini onadan oladi. Chunki onaning fazilatlari, ma'naviy yetukligi va zakovat belgilari bolaga o'tishi isbotlangan haqiqatdir.

Oila muhitini sog'lomlashtirishga qaratilgan mazkur omillar mujassamlashgan oila, bizning nazarimizda, doim farovon va barqaror bo'ladi. Bunday sog'lom muhitda voyaga yetgan farzandlar esa jamiyat rivojiga o'zining salmoqli ulushini qo'sha oladi.

Jamiyatimizda olib borilayotgan barcha o‘zgarish va ma’naviy islohotlar jamiyatda komil-barkamol shaxsni tarbiyalashga qaratilgandir, bu esa o‘z navbatida yaxshi fuqaro, jamiyatning barkamol a’zosini tarbiyalash hamdir.

1. Shaxsiy rivojlanish va emotsional barqarorlik. Sog‘lom muhitda bolalar va o‘smirlar o‘zlarini erkin ifoda etadilar, yangilikka intiladilar va o‘z his-tuyg‘ulariga e’tibor berishni o‘rganadilar. Bunday muhitda o‘sgan bolalarda o‘zini o‘zi anglash va shaxsiy rivojlanish jarayoni tezlashadi. Shuningdek, ularda ruhiy barqarorlik, stressga chidamlilik va o‘z ehtiroslarini nazorat qilish qobiliyati yuksaladi.

2. Totuvlik va o‘zaro ishonch. Oiladagi muhit tinch va totuv bo‘lsa, har bir a’zo o‘zini himoyalangan va qo‘llab-quvvatlangan his qiladi. Bu oila a’zolarini turli xil muammolarni birgalikda hal qilishga va o‘zaro ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

3. Ta’lim-tarbiyaning samaradorligi. Sog‘lom muhit bolalarda ijobiy xulq-atvor shakllantirishda asosiy omil bo‘lib, ularni jamiyatning axloqiy va ma’naviy qoidalariga moslashtirishda yordam beradi. Ota-onalar o‘zaro tushunish va qo‘llab-quvvatlash orqali bolalarga ijobiy namuna ko‘rsatadilar. Bu esa, o‘z navbatida, ularning o‘quv jarayonidagi va shaxsiy hayotidagi yutuqlariga ta’sir qiladi.

4. Konfliktlarni bartaraf qilish va to‘g‘ri muloqot. Sog‘lom muhitda nizolar tinch va konstruktiv tarzda hal qilinadi. Oila a’zolari bir-birlarining fikr va ehtiroslarini tushunishga harakat qiladilar, bu esa o‘zaro tushunish va totuvlikka yo‘l ochadi. To‘g‘ri muloqot bolalarni yordam so‘rash, o‘z fikrini ochiq bildirishga o‘rgatadi.

5. Ruhiy salomatlik va stressni kamaytirish. Sog‘lom psixologik muhit oila a’zolarining ruhiy salomatligini yaxshilaydi, salbiy ta’sirlarni kamaytiradi. Bunday muhitda har bir a’zo o‘z ehtiyojlarini erkin bildirishi, yordam va ko‘mak olishi mumkin bo‘ladi, bu esa stressni kamaytiradi.

Sog‘lom psixologik muhit yaratishning asosiy omillari quyidagilar:

1. Ochiq muloqot va tinchlik. Oila a’zolari bir-birlarini eshitish, tushunishga va yordam berishga intilishlari kerak.

2. O‘zaro hurmat va ishonch. Har bir a’zoning shaxsiy fikrlariga va ehtiyojlariga hurmat bilan qarash, ularning shaxsiy hayotiga aralashmaslik muhim.

3. Muammolarni birgalikda hal qilish. Nizo yoki qiyinchiliklar kelib chiqqan taqdirda, ularni birgalikda muhokama qilish va to‘g‘ri yechim topishga harakat qilish lozim.

3. Rahmdillik va tushunish. Har bir a’zoga rahmdillik, ishonch va psixologik qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatish.

Oilada sog‘lom psixologik muhit yaratish oila a’zolari o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash va jamiyatga barkamol shaxslarni tayyorlash uchun zarurdir. Bu nafaqat shaxsiy, balki jamiyat uchun ham muhim bo‘lgan sog‘lom, barkamol shaxslarni tarbiyalashga hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримова В.М. Представления о качествах личности у женщин узбечек в различных социальных условиях: Автореф. дисс. … канд. психол. наук. -М., 1987. -16 с.
2. Каримова В.М. Оилавий ҳаёт психологияси: Ўқув қўлланма. –Т.: Fan va texnologiyalar markazining bosmaxonasi, 2006. –142 б.
3. Абу Али Ибн Сино. Тадбири манзил. – Т.: 1957. – Б. 44.
4. Akramova F.A. Oilada ma'naviy muhitni shakllantirishda xotin-qizlarning roli. - T.: «Nihol Print», 2016. -42-b.
5. Akramova F.A. Oilada sog'lom psixologik muhitni tarkib toptirishning ijtimoiy-psixologik asoslari. - T.: «Shams ASA», 2014 - 185-b.
6. Akramova F.A. Oilada shaxslararo munosabatlarning oila mustahkamligiga ta'siri masalalari: Monografiya – T.: «Lesson-press» nashriyoti, 2021. – 124 b. [ISBN 978-9943-7024-0-0].
7. Akramova F.A. Psychological service and models of psychological assistance family as a necessary factor of family strengthening // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, India. Vol 11, Issue 4, April 2021, Impact Factor: SJIF 2021=7,492 P.1574-1579.
8. Akramova F.A. The divorce factors of families and psychological service to the family. //International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA issue 01, volume 81, 325-328. published January 30, 2020.
9. Akramova F.A. Main requirements psychological service for families// European Journal of Research and Reflection in Educational Science, Great Britain Progressive Academic Publishing. [Electronic resource]. 2020, October, 8 (10), Part II, p.16-18.
10. Акрамова Ф.А. Социально-психологические особенности укрепления семьи в Узбекистане. // Материалы Международной научно-практической конференции «Научные исследования XXI века: теория и практика» («SCIENTIFIC RESEARCH OF THE XXI CENTURY: THEORY AND PRACTICE») 16 июня 2020 года. – г. Прага, Чехия: Vydavatel «Osvi'ceni'», 2020. - С. 439-444.
11. Акрамова Ф.А. Ўзбекистонда оилавий психологик хизматнинг ижтимоий-психологик муаммолари: Монография. –Т.: «Lesson-press» нашриёти, 2021 й. – 178 б. [ISBN 978-9943-7024-5-5]
12. Akramova F.A. O'zbekistonda oilaviy psixologik xizmatning asosiy muammolari // Maktab va hayot, 2020 № 6. B.7-9.
13. Акрамова Ф.А. Оилага хизмат кўрсатиш – оила мустаҳкамлигини таъминловчи муҳим омил сифатида. // Pedagogika, № 4 2021. Б.22-26.
14. Беруни Абу Райхан. Минералогия. – Т.: «Фан», 1966. – Б. 10.

UDK 159.91:159

Nishanova Zamira Taskarayevna,
O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
"Amaliy psixologiya" kafedrasi
professori, psixologiya fanlari
doktori, professor

USTOZGA CHUQUR EHTIROM

Olim, ijodkor insonlar bilan ko‘rishib, ular bilan gaplashishimiz bu – hayotda biz namuna olishimiz mumkin bo‘lgan asosiy hodisa hisoblanadi. Bu haqida, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev – "Men doimo ziyoli, olim, ijodkor insonlar bilan suhbatlashishga intilaman va bunday muloqotlarni hamisha sog‘inaman. Nega desangiz, olimlik – Alloh nuri tajassum etgan ulug‘ bir martaba. Bu martabadan jamiyatning butun vujudiga ziyo taraladi. Olimlarning suhbatidan inson o‘ziga ma'naviy boylik oladi, qalb kengliklarini, tafakkur teranligini his qiladi". Shunday olimlarning biri bu mening ustozimdir.

Haqiqatdan ham, kim bo‘lmaylik, qaysi sohada ishlamaylik, barchamizga muallimlar ta'lim va tarbiya berishgan. Kimki bu hayotda biror bir yutuqqa erishsa, kasbidan e'zoz topsa, uning qalbida ustozlariga bo‘lgan hurmat abadiy muhrlanadi.

"Muallim" so‘zining ma'nosi ilm beruvchi, ta'lim beruvchi, o‘rgatuvchi demakdir. Payg‘ambarlar insoniyatga ezgulikni o‘rgatganlar. Ana shuning o‘ziyoq ustozlik qay darajada yuksak martaba ekanini ko‘rsatadi.

Ilm – ruh ozig‘i. Insoniyat ilm bilan haqiqiy saodatni qo‘lga kiritadi, uning sharofati bilan yuksaladi. Ilm ustozning sa'y-harakati bilan egallanadi. Ustozlar bejizga payg‘ambarlarning merosxo‘rlari deb e'zozlanmagan.

Ustozlar ma'naviyat osmonida musaffo ziyo taratib turgan yo‘lchi yulduzdirlar, ular tufayli odamlar to‘g‘ri yo‘lni topadilar, ularning sharofati bilan jaholat zulmatlaridan yorug‘likka yetishadilar.

Ustoz deb ataluvchi "atama"ning lug‘aviy ma'nosi o‘ta keng. Buning mukammal falsafasini yoritish uchun yuzlab asarlar bitilsa ham oxiriga yetib bo‘lmaydi. Ustoz deganda, uning ma'naviy nuridan minglab ko‘ngillar bahra olayotganligini tasavvur qilamiz. Ustozlik bu shogirdlar ehtiromi, xalq e'zozi, jamoatchilik e'tirofiga sazovor bo‘lmoqlikdir. Ustoz – odamiylik qiyofasi balqib turgan, qalbi bilan tinglaydigan, nafaqat millat, balki zamin-u zamon, umuminson tashvishlarini yuragidan o‘tkazib yashaydigan zot.

Darhaqiqat, jamiki insonning bilimdon bo‘lib yetishishi, fan sirlarini egallashida yoki biror sohaning mukammal mutaxassisiga aylanishida ustozlarning o‘rni beqiyosdir. Yetuk shogidlarining yutuq va natijalarini ko‘rib, xalqimizning — "Tarbiya bergan ustozingga balli!", degan tahsini bejiz emas. Bu samimiy, haroratli minnatdorchilikka sazovor shogird keng jamoatchilik oldida imtihondan o‘tgan, o‘ziga bildirgan ishonchni oqlagan hisoblanadi. Bu esa ustozga shunday zavq

bag‘ishlaydiki, asti qo‘yavering. “Shogird kamoli – ustoz jamoli!” degan naql ham behuda aytilmagan. Ustoz bilim berish barobarida shogirdlarini insoniylik e’tiqodini yanada mustahkamlab, rostgo‘ylik, to‘g‘rilik, vijdon oldida javobgarlik hissini doimo his qilish, sadoqat, mardlik, jasorat, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalaydi va o‘zi o‘rnak bo‘ladi.

Murabbiyni mevali daraxtga, zahmatkash dehqonga, sohibkor bog‘bonga o‘xshatishadi. Uni quyoshga qiyoslaydilar, chunki oftob olamga nur, hayot ato qiladi-yu, lekin hech narsa ta’ma qilmaydi. Ustoz ham xuddi shunday mehr bilan ziyo ulashadi, hazrati insonni shakllantiradi.

Shu jihatdan faylasuf Frensis Bekonning fikrlari diqqatga sazovordir. U ko‘plab shogirdlar orttirgan olimlarni uch guruhga bo‘ladi. “Birinchi guruh olimlar, – deydi u, – o‘z “men”i atrofida o‘ralashib qolgan olimlardir, ularni o‘rgimchakka qiyos etish lozim. Chindan ham o‘rgimchak juda mohir, to‘qigan to‘rini yasash boshqaning qo‘lidan kelmaydi. Lekin u to‘r o‘rgimchakdan o‘zga hech kimga kerak emas. Ikkinchisi bu chumolilar yo‘li. Chumolilar hech narsa ijod etmaydilar. Ammo mehnatkashdirlar, shuning uchun hamma narsani o‘z uyalariga tashib ketadilar. Ularning boyligidan birov bahramand bo‘lmaydi. Uchinchi yo‘lni tanlaganlar esa mutafakkirlardir. Bu toifa donishmandlarning moddiy va ma’naviy qanotlari bor. Ular asalarilardir. Asalarilar guldan gulga qo‘nar ekan, qatralab bol yig‘ib, odamlarga beradi, o‘zlariga olib qolmaydi”, – deydi.

Mazkur ta’rif bo‘yicha uchinchi toifaga kiruvchi zahmatkash ustozlardan biri psixologiya fanlari doktori, professor Vasila Mamanasirovna Karimovadir. Men Vasila opani 1993-yil 11-noyabrda ustozimiz Muxammad Gabdulgalimovich Davletshinning 70 yillik yubileylarida ko‘rganman. O‘sha kuni Vasila opaning egnida siyohrang chiroyli ko‘ylak, qo‘llarida katta buket. Ustoz Davletshinni tabriklash uchun so‘z navbati ularga berilganda, juda chiroyli nutq so‘zladilar. Vasila opa shunaqa chiroyli gapirdilarki, hamma zaldagilar ularga mahliyo bo‘lib qoldi. Mahliyo bo‘lganlar orasida men ham bor edim. Keyinchalik, Ilmiy Kengash kotibi bo‘lganimda ular bilan Kengash yig‘ilishlarida tez-tez uchrashdik. Vasila opa juda ko‘hlik ayol edilar, kiyinishlari, gapirishlari, savol berishlariga barcha doktorant va mustaqil tadqiqotchilar havas bilan boqar edik. Ularga bo‘lgan simpatiya meni ular bilan yaqindan tanishishga undadi va men V.Karimovaning doktoranturada ilmiy maslahatchim bo‘lishga roziliklarini oldim.

Doktoranturada o‘qib yurganimda V.Karimova Oila markazi direktori va iqtisodiyot universitetida kafedra mudiri lavozimlarida faoliyat yuritar edilar. Ilmiy ish bo‘yicha qaysi ishxonalariga bormay, uzundan-uzoq navbat kutib, zo‘rg‘a oldilariga kirib, tez-tez maslahatlarini olib chiqib ketardik.

2001-yilda tayyor bo‘lgan ilmiy ishni ob’ektiv sabablarga ko‘ra 2005-yilda himoya qilishga to‘g‘ri keldi. Himoyadan bir kun oldin ustozga rasmiy opponentlarga tayyorlagan javoblarimni ko‘rsatdim. Ketish oldidan ustoz menga: “Qog‘oz prezentatsiyalaringizni ham olib oling, har xil variant bo‘lishi mumkin”, – dedilar. Men bo‘lsam, “Kompyuterdan foydalanman-ku, ustoz” – deb javob berdim.

Ertasiga O‘zMUga kirib kelsak, haqiqatdan ham svet yo‘q. Mana ustozning bashorati. Ustozlar, bizdan kattalar, har xil vaziyatlarni va ularning oqibatini oldindan ko‘ra bilishiga yaqqol misol. Svet bo‘lmasa-da himoyam yuqori saviyada o‘tdi.

Ustozdan juda ko‘p bilim, malaka va ko‘nikmalarni oldik desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Ko‘p yillar ustozim Vasila Mamanasirovna bilan O‘ZMUdagi, TDPUdagi Ilmiy kengash va Ilmiy seminarlarda yelkama-elka turib faoliyat yuritayapmiz. Hattoki ustoz-shogird bir xil fikrlaydigan bo‘lganmiz. Ustozga odatda yoshlari ulug‘ bo‘lgani bois Ilmiy Seminarda ham, Ilmiy Kengashda ham birinchi so‘z beramiz. Ular ko‘pincha men bermoqchi bo‘lgan savollarni, aytmoqchi bo‘lgan fikrlarni bildiradilar. Ustoz har qanday tadqiqotchini birin-ketin beriladigan amaliy va ilmiy savollari bilan esankiratib qo‘yadilar. Shuning uchun yosh tadqiqotchilar ustozdan qo‘rqib, hayiqib, hayajonlanib turishadi.

Men ularning birinchi fan doktori shogirdlariman, shuning uchun bo‘lsa kerak ko‘pincha “katta qizim” deb erkalatib qo‘yadilar.

Sizgadir yurakda asragan so‘zim,
To mangu ta’zimda turaman o‘zim,
Dilimning tubida yangragan so‘zim,
Ezgulik yo‘lida tolmang, Ustozim!

G‘am ko‘rmay bu dunyo turguncha turing,
Ming yillik mehnatlar huzurin ko‘ring,
Shogirdlar baxtidan shod, masrur yuring,
Ezgulik yo‘lida tolmang, Ustozim!

Hayot yo‘llarimda dildosh, deb bildim,
Yo‘limni yoritgan quyosh, deb bildim,
Tole yo‘llarida yo‘ldosh, deb bildim,
Ezgulik yo‘lida tolmang, Ustozim!

70 yoshga to‘lgan bo‘lishlariga qaramay, Vasila Mamanasirovna o‘zlarining yoshlariga nisbatan ancha yosh ko‘rinadilar, teran fikrlaydilar. Ularning timsolida haqiqiy o‘zbek olima ayollarining portretini chizish mumkin. Ustozni ushbu yubileylari bilan chin qalbimdan muborakbod etaman, ularga uzoq umr, sihat-salomatlik, hamisha farzandlar, nabiralar, yaqinlar, hamkasblar, shogirdlar, elimiz, xalqimiz ardog‘ida bo‘lishlariga tilakdoshman.

UDK 159.91:159

Farfiyeva Kamola Atxamjonovna,
“PROFI UNIVERSITY”
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi professori, psixologiya fanlari doktori

O‘ZBEK AYOLINING JASORATI

Har birimiz kuniga bir qancha kishilar bilan ro‘baro‘ kelamiz, muomala qilamiz, suhbatlashamiz, munosabat o‘rnatamiz. Odobli, madaniyatli, xushxulq va halim kishilarning suhbatidan, muomalasidan dillar shod, ko‘ngillar obod bo‘ladi. Sharqda insonlarning, ayniqsa, ayollarning ilmiga, odob-axloqiga katta ahamiyat berilgan. Bolalarga yoshligidanoq chiroyli xulq, odob o‘rgatilgan. Axloq-odob normalarini o‘rgatishda esa aziz ayollarning mehnati kattadir. Maktab o‘qib yurgan davrlarimda adabiyot darslarini juda yoqtirardim, shu bilan birga badiiy kitoblarni ko‘p mutolaa qilar edim. Asarlarni o‘qir ekanman doimo men ham asar qahramonlariga o‘xshab buyuk ishlar qilishni orzu qilib voyaga yetdim. Orzularim meni Toshkent davlat universitetining psixologiya yo‘nalishida tahsil olishga yetakladi. Talabalik davrimda ustozlarimizdan bilim olar ekanmiz, bizga ilm berayotgan ustozlarimizning qanday natijalarga erishganliklari, qanday yo‘nalishda faoliyat olib borayotganlari bilan qiziqa boshladik. Ilmiy daraja va unvon haqida ilk bor tasavvur qila boshlab, ilmga mehr qo‘ydim. 1993-yili psixologiya yo‘nalishida O‘zbekistonda 5 kishigina fan doktorlari sifatida faoliyat yuritishar edi, ayniqsa, ustozimiz E.G‘oziev 2-kursda tahsil olayotganimizda fan doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyalarini himoya qilganliklarini zo‘r ishtiyoq bilan kuzatganmiz. Biz talabalar uchun bu juda katta motivatsiya bo‘lgan. Shunda fan doktorlari orasida o‘zbek ayoli bormi, kim birinchi psixologiya fanlari doktori darajasiga erishishi men uchun juda qiziq edi. 1993-yili talabalik davrimning 3-kursida tahsil olish davrida men psixologiya yo‘nalishida birinchi o‘zbek professori bo‘lishni orzu qildim. Hozirda professor unvonini oldim, lekin birinchi o‘zbek professori bo‘lib emas, balki o‘zbek ayollaridan birinchi bo‘lib psixologiya fanlari doktori, professor unvoni olgan jasoratli o‘zbek olimasi Karimova Vasila Mamanosirovnaning shogirdi bo‘lish baxtiga muyassar bo‘ldim. Taqdirimdan shunday mamnunmanki, birinchi o‘zbek psixolog olima ayolning shogirdiman.

1999-yilda aspiranturada o‘qish bilan birga ustozimni har bir maqola, kitoblari, televideniye va radiodagi chiqishlarini kuzatib borar ekanman, opaning har bir katta davralarda chiqishlari, dokladlaridan ta’sirlandim. Ayniqsa, 2000-yil 6-aprelda Oqsaroyda mamlakatimizning birinchi prezidenti Islom Karimov milliy g‘oya, milliy mafkura haqida bir qator ziyolilar bilan uchrashdilar va uchrashuv ommaviy axborot vositalarida namoyish qilindi. Bu uchrashuvda birinchi prezidentimiz Islom Karimov har bir mamlakat fuqarosi buyuk O‘zbekiston bo‘lishini orzu qiladi, buning uchun insonlarda g‘oya bo‘lishi kerakligi, har bir davlatning bosh g‘oyasi bo‘lishi muhimligi va yig‘ilgan ziyoli qatlamdan ishchi

guruh tuzib, milliy g‘oya va mafkura konsepsiyasi yaratish zarurligini ta’kidladilar. Mamlakatimizning ko‘zga ko‘ringan san’at, madaniyat arboblari, rahbarlar, olimlar so‘zga chiqib o‘z fikr-mulohazalarini bildira boshladilar. Va albatta, mening ustozim Vasila Mamanosirovna ham so‘zga chiqib, mamlakatimizning bosh g‘oyasida ozod va obod Vatan orzusi bo‘lishi kerakligi, har bir shaxs O‘zbekistonda erkin va farovon yashashi, buning uchun insonlarning manfaatlari doimo himoya qilinishi kerakligi haqida o‘z fikrlarini bildirdilar. Olima opaning mamlakatimizning kelajagi haqidagi fikrlarini chiroyli bayon etishlari va ko‘rkam imijlariga hamohang bo‘lganini hamma ziyolilar qiziqish bilan kuzatdilar. Islom Karimov so‘z olib konsepsiyani yaratish ishchi guruhiga Karimova Vasila Mamanosirovnani ham bo‘lishlarini alohida ta’kidlab o‘tdilar. Ha, kechagidek hamon esimda, ommaviy axborot vositalari muxbir va jurnalistlar opadan intervyular olishga harakat qila boshladilar. Karimova Vasila Mamanosirovna oz fursatdan so‘ng Respublika “Oila” ilmiy-amaliy Markaziga direktor etib tayinlandilar. Islom Karimov o‘zbek oilalarining bugungi kun muammolari va ularning yechimlarini psixolog olimlar o‘rganishi, mamlakatimiz oilalarining mustahkam bo‘lishi va har bir oilada voyaga yetayotgan avlod vakillarining Vatan ravnaqiga xizmat qilishi uchun muhim vazifalarni o‘rganish zarurligini va ustozimning bu tadqiqotlarga bosh bo‘lishlarini ta’kidladilar. 2000–2012-yillar davomida ustozning rahbarligida Respublika “Oila” ilmiy-amaliy markazi tomonidan juda katta loyihalar amalga oshirildi. Markazda aspirantlarga ham asosan davrning taqozosidan kelib chiqib, oila muammolariga bag‘ishlangan mavzularda dissertatsion tadqiqotlar olib bordilar va himoyalari bo‘lib o‘tib, mamlakatimiz olimlari safini ko‘paytirishga o‘z hissalarini qo‘shdilar. Respublika “Oila” ilmiy-amaliy markazida rahbarlik davrlarida ustozimning juda shiddat bilan mehnat qilganliklarini ko‘rganmiz. Qish qahratonimi, yoz saratonimi davlatimiz rahbarining farmon va qarorlarini ijrosi uchun barcha viloyatlarning chekka qishloq, ovullarigacha o‘zlari shaxsan borib, muammolarni o‘rganib, o‘z xulosalarini bayon etardilar.

Ko‘ngil odamlari, ya’ni ahli donish, ustoz, fozil kishilar bilan hamsuhbat bo‘lish inson umriga baraka kiritadi. Nafis va madaniy xulqning mazmuni yurish-turish, fe’l-atvor, kiyinish, orastalik, oilada, ish va o‘qish joyida odamlar bilan madaniy muomala qila bilish, uy turmush madaniyati, jamoat joylarida o‘zini yaxshi tutish, so‘zda shirinso‘zlik, nutq madaniyatini egallash, adabiyot va san’at durdonalarini sevish va ulardan zavqlana bilish, tabiatdagi, insonlardagi go‘zallikni baholay bilish, jamiyat a’zolarining hayoti ko‘ngilli va yanada go‘zal bo‘lishi ustida doimo g‘amxo‘rlik qilish kabi ko‘p sifatlarni o‘z ichiga oladi. Bu barcha insoniy fazilatlarning majmuasi, hosilasi va ko‘rsatkichi har bir o‘zbek ayolida bo‘lishi shart. Yuqorida sanalgan fazilatlarning barchasini ustozimda kuzatib kelaman.

Karimova Vasila Mamanosirovna kafedra mudiri, prorektor, markaz direktori kabi bir qator rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritdilar. O‘zbek ayol rahbar bugun sizning ma’naviy qiyofangiz qanday bo‘lishi kerak? degan savollarga o‘zlari namuna bo‘lib javob berdilar.

Ayol tabiatning mo‘jizasi. Har bir ayol uyda ona, ishda rahbar, xodim, olim, shifokor. “Har bir kishi kasb-korini mukammal bilmog‘i, yaxshi tarbiya olmog‘i va yaxshi xulq-odob, fazilatlarga ega bo‘lmog‘i kerak”, deydi Abu Nasr Forobiy. Ayol rahbar o‘z oldiga sharafli va muqaddas orzu istaklarni qo‘ya bilishi zarur. Bu ezgu orzu istak faqat mehnat va matonat bilan jamlanishi mumkin. Insonning o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va unga erishish yo‘lida foydalanadigan vositalari uning aqlu idrokining qandayligidan dalolat beradi. Sharafli va yaxshi ishlar og‘izda emas, balki amalda bajariladi. Rahbar ayolning e’tiqodi va tilak orzulari uning amaliy faoliyatiga aylanmog‘i lozim. Rahbar zamon bilan hamnafas odim tashlashi, fan texnika yutuqlarini, barcha yangiliklarni targ‘ib etishi kerak. U xodimlardan bir qadam oldinda yurib, odamlarni o‘z ortidan ergashtirishi darkor. Darhaqiqat, ustozimni rahbarlik qobiliyatlari juda kuchli ekanligining isboti u kishi lider, ya’ni superlider. Lider bilan superliderning farqi nimada desangiz, lider o‘zi yetakchi bo‘ladi, superlider esa o‘ziga o‘xshagan liderlarni tayyorlaydi. Ustozimiz mamlakatimizning barcha hududlariga liderlarni tayyorlab, kadrlar salohiyatiga o‘z hissalarini qo‘shdilar. Ular rahbarligida yetishib chiqqan olimlar bugungi kunda mamlakatimizning turli jabhalarida faoliyat yuritishyapti.

Karimova Vasila Mamanosirovna mehnat faoliyalari davomida juda ko‘plab ilmiy maqola, risola, o‘quv qo‘llanma va darsliklar yozdilar. Psixologiya yo‘nalishida tahsil olayotgan har bir talaba albatta, ustozning kitob va darsliklaridan foydalanadi. O‘zbek tilida ilk bora “Ijtimoiy psixologiya” darsligi ham ustoz tomonidan yozildi. Ustozimizning “Psixologiya”, “Ijtimoiy psixologiya”, “Boshqaruv psixologiyasi”, “Oila psixologiyasi”, “Salomatlik psixologiyasi” kabi bir qator darsliklaridan asosiy adabiyotlar sifatida oliy ta’lim muassasalarida foydalanilmoqda.

Karimova Vasila Mamanosirovna rahbarligida tayyorlangan dissertatsiya mavzulariga ahamiyat berilsa, jamiyatning muhim psixologik muammolari ko‘tarilgan. Hozirgi kunda professor Vasila Karimova rahbarligida 35 ta dissertatsiya muvaffaqiyatli himoya qilingan, olima O‘zbekiston psixologiya fanida o‘ziga xos ilmiy maktab yaratdilar va olima sifatida katta nufuzga egalar.

Qalbimni mahzunlik egallagan chog‘larda, ko‘nglimga hech narsa sig‘may qolgan vaqtlarda ustozimning suhbatlarini qo‘msab qolaman, darhol huzurlariga borishga harakat qilaman. Ularning suhbatlarini tinglab juda katta kuch olaman, tinglayman, eshitaman, lekin zerikmayman. Ayniqsa, ustozimdan Moskva davlat universitetida o‘qigan davrlari, oltin talabalik davrlaridagi suhbatlarni jon dilim bilan eshitaman. Ustozimiz universitetda G.M.Andreyeva, N.N.Bogomolova, A.I.Dontsov, A.N.Leontev kabi olimlarning ma’ruzalaridagi voqealar, ilmiy qarashlar haqida so‘zlab beradilar. Ba’zan bu voqeani qayta eshitayotgan bo‘lsam ham baribir menga juda qiziq, maroqli tuyulaveradi. Shu kuni dilim ravshan tortib, hayotga, kelajakka umidim ortadi.

Keng jamoatchilik va xalqimiz orasida cheksiz hurmat va e’tiborga sazovor bo‘lib kelayotgan fidoyi, jasoratli olima, Karimova Vasila Mamanosirovnaga sihat-

salomatlik, uzoq umr, oilaviy baxtu saodat tilaymiz. Qalb xazinasi o‘z hikmatlaridan menga va barcha shogirdlariga tuhfa etayotgan olijanob ustozim omon bo‘lsinlar!

UDK 159.9

Карамян Мариэтта Хачатуровна,
Доктор психологических наук, профессор Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Рябова Марина Сергеевна,
PhD по психологическим наукам, и.о. доцента Филиала МГУ имени М.В. Ломоносова в г. Ташкенте

СИСТЕМНОЕ ПОНИМАНИЕ НОРМАТИВНЫХ КРИЗИСОВ СЕМЬИ

Аннотация. В статье представлена проблематика нормативных кризисов семьи как системной характеристики. Рассмотрены результаты пилотажного этапа разработки методики диагностики оценки уровня стресса нормативных кризисов семьи на выборке 408 респондентов (проверка надежности-согласованности, сравнительный анализ по полу, а также сравнительный анализ оценки уровня стресса нормативных кризисов семьи на разных стадиях жизненного цикла семьи). Было выявлено, что границы между стадиями семейного развития оказываются условными, а нерешённые задачи могут «перетекать» из одной стадии в другую. В статье также раскрыты прикладной аспект результатов исследования и перспективы методологического усовершенствования диагностики нормативных кризисов как системной характеристики семьи.

Ключевые слова: системный подход, нормативный кризис, системные характеристики семьи, стадии жизненного цикла семьи, оценка уровня стресса нормативных кризисов

OILANING NORMATIV INQIROZLARINI TIZIMLI TUSHUNISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada oila tizimining normativ inqirozlari masalasi tizimli xususiyat sifatida ko‘rib chiqilgan. Normativ inqirozlar bilan bog‘liq stress darajasini baholash bo‘yicha diagnostika metodikasini ishlab chiqishning pilot bosqichi natijalari taqdim etilgan. Tadqiqotda 408 nafar turmush qurgan respondent (204 erkak va 204 ayol) ishtirok etdi. Ushbu bosqichda metodikaning ishonchliligi va muvofiqligi tekshirildi, jinsga ko‘ra taqqoslovchi tahlil hamda oila hayot siklining turli bosqichlarida normativ inqirozlar stress darajasini solishtiruvchi tahlil o‘tkazildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, oila rivojlanish bosqichlari o‘rtasidagi chegaralar nisbiy bo‘lib, hal qilinmagan vazifalar bir bosqichdan boshqasiga o‘tishi mumkinligi aniqlandi. Maqolada tadqiqot natijalarining amaliy jihatlari hamda normativ inqirozlarni oila tizimining tizimli belgisi sifatida diagnostika qilish metodologiyasini takomillashtirish istiqbollari ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: tizimli yondashuv, normativ inqiroz, oilaning tizimli xususiyatlari, oila hayot sikli bosqichlari, normativ inqirozlar stress darajasini baholash.

SYSTEM UNDERSTANDING OF NORMATIVE FAMILY CRISES

Abstract. This article explores the issue of normative family crises as a systemic characteristic of family functioning. It presents the results of a pilot stage in the development of a diagnostic methodology for assessing stress levels associated with normative family crises, based on a sample of 408 married respondents (204 men and 204 women). The study included reliability-consistency testing, gender-based comparative analysis, and an assessment of stress levels across different stages of the family life cycle. The findings indicate that the boundaries between stages of family development are often fluid, and unresolved tasks may carry over from one stage to another. The article also highlights the practical implications of the research and outlines prospects for methodological refinement in diagnosing normative crises as a systemic feature of family dynamics.

Keywords: system approach, normative crisis, systemic characteristics of the family, stages of the family life cycle, stress level assessment of normative crises.

Введение. Обеспечение благополучия семьи на индивидуальном и общественном уровнях представляет собой одну из приоритетных задач государственной политики, так как институт семьи способствует устойчивому развитию личности и общества. В докладе Организации Объединенных Наций (ООН) «Семья в меняющемся мире» подчеркивается, что семьи «первыми страдают от затяжных конфликтов, гуманитарных кризисов и миграции населения» [14]. Благополучие семей зависит не только от их возможностей противостоять глобальным проблемам (например, экономические кризисы), но и от их потенциала в выполнении своих функций. Так, по мнению В.М.Каримовой (2021), «семья – это маленькое «государство». И если в этом мини-государстве царит мир и взаимопонимание, если оно может и способно выполнять все свои основные функции, прежде всего, хозяйственно-экономическую, воспитательную, репродуктивную, функцию охраны здоровья своих членов, то его благополучие гарантировано» [4, с.15]. Другими словами, благополучие семьи определяется как фундаментально значимое условие для процветания личности и общества, для положительного родительства, благосостояния детей и супружеской гармонии.

Одним из авторитетных подходов к пониманию положительного и отрицательного функционирования семьи является системный подход, среди представителей которого М.Боуэн, С.Минухин, В.Сатир, Э.Эйдемиллер, А.Варга. Согласно основным идеям данного подхода, семья рассматривается как открытая самоорганизующаяся социальная система, находящаяся в

постоянном взаимодействии с окружающей средой. Системный подход позволяет выделять различные системные характеристики семьи и уровни ее функционирования как системы. Так, А.Б.Холмогорова, анализируя различные подходы в рамках системной семейной терапии, выделила модель анализа семейных систем, в фокусе внимания которой такие системные характеристики как семейная топография, семейная микродинамика, семейная макродинамика и семейная идеология [15]. Системное понимание семьи находит свое отражение в современных исследованиях, в том числе в изучении образа семейной жизни у супругов и представлений о будущей семье у молодых людей [например, 7, 10], взаимосвязи качества межличностных отношений и удовлетворенности браком [например, 8], влияния эмоциональной коммуникации в детско-родительских отношениях на функционирование будущей семьи [например, 11].

Н.И.Олифирович предлагает многоуровневую модель психологического функционирования семьи, которая дает возможность анализа семьи на ее индивидуальном (отдельный член семьи), микросистемном (нуклеарная семья), макросистемном (расширенная семья) и мегасистемном (взаимодействие семьи с социальным окружением) уровнях существования [12]. При этом в модели предполагается анализ когнитивных, эмоциональных и поведенческих особенностей функционирования семьи. В связи с мегасистемным анализом жизнедеятельности семьи значение приобретают взгляды В.М.Каримовой на формирование этнопсихологических качеств у молодежи в семейном контексте [3], а в связи с когнитивными характеристиками – ее исследования, посвященные представлениям о качествах личности у женщин в различных социальных условиях, социальным представлениям молодежи о семье [5, 6].

Важной особенностью семейного функционирования являются нормативные кризисы. В связи с этим целью данной статьи выступает попытка их рассмотрения с позиций системного подхода. Реализация этой цели требует, во-первых, краткого анализа взглядов ученых на проблему нормативных кризисов семьи, во-вторых, рассмотрения результатов применения методики диагностики оценки уровня стресса нормативных кризисов семьи.

Литературный обзор. Проблематика нормативных семейных кризисов занимает устойчивое место в научных дискуссиях, посвящённых функционированию семьи. От того, насколько конструктивно супруги способны преодолевать данные кризисы, во многом зависит устойчивость и адаптивный потенциал семейной системы в целом. Нормативный семейный кризис представляет собой совокупность проблемных ситуаций, обусловленных объективными изменениями, типично возникающими в большинстве семей, к которым супругам необходимо адаптироваться [9; 13].

В рамках периодизации семейной жизни П. Глик в середине XX века выделил два ключевых критерия, определяющих динамику и развитие семьи, одновременно выступающих в роли нормативных стрессоров: возраст членов

семьи и её состав (включая такие события, как рождение ребёнка, смерть супруга или прародителя) [16; 19].

Согласно позициям Н. И. Олифирович, Т. А. Зинкевич-Куземкиной и Т. Ф. Веленты, к числу нормативных кризисов относятся следующие этапы семейной жизни: адаптация к супружеским ролям; принятие нового статуса родителя и ожиданий, связанных с реализацией родительских функций; начало образовательной социализации ребёнка (детский сад, школа); кризис подросткового возраста; принятие процесса сепарации взрослеющих детей; пересмотр супружеских отношений после их ухода из семьи; формирование повторного брака [13].

Э. Дюваль и Р. Хилл, анализируя стадии жизненного цикла семьи, выделяют рождение ребёнка, возраст детей, а также их социальную и трудовую активность в качестве ключевых факторов дифференциации [18]. В соответствии с этими критериями, авторами были обозначены следующие стадии: знакомство супругов и формирование эмоциональной близости; принятие родительских ролей; интеграция ребёнка в семейную систему; включение детей во внесемейные институты; осознание подросткового этапа; экспериментирование с независимостью детей; подготовка к их выходу из семьи; жизнь супругов в формате «глаза в глаза»; принятие старости и выхода на пенсию. Э. К. Васильева, предложившая собственную классификацию стадий жизненного цикла семьи, дополнила вышеуказанные критерии показателями трудовой занятости детей и их нахождения на попечении родителей [2].

Наиболее критическими с точки зрения авторов являются два периода в развитии супружеских отношений: между третьим и седьмым годом совместной жизни (продолжительностью около года) и между семнадцатым и двадцать пятым годом (продолжается несколько лет). Именно эти периоды считаются нормативными кризисами и характеризуются наименьшей удовлетворенностью браком. Общим основанием у авторов, предоставивших варианты классификаций жизненного цикла (E.Duvall, R. Hill; E.Carter, M.McGoldrick; Э.К.Васильева) является поэтапность переходов, последовательно сменяющих друг друга до тех пор, пока семейная система не прекратит своего существования. Каждая стадия жизненного цикла семьи ставит перед её членами определенные задачи, от успешности решения которых, зависит дальнейшее конструктивное развитие семьи [17].

Множество исследователей делали акцент на том, что одна и та же проблема на разные семьи окажет различное влияние – для одной семьи это источник конфликтов, для другой – стимул для преодоления, повышающий сплоченность и опыт членов семьи [1]. Авторами одной из самых распространенных классификаций этапов развития семьи Б.Картер и М.МакГолдрик, было выделено шесть стадий жизненного цикла. Отмечается, что основным критерием, для выделения периодов жизненного цикла семьи,

выступает место, занимаемое детьми в семейной системе. Рождение и воспитание детей является одной из важнейших целей семьи, поэтому её переход на новую ступень своего развития определяется не стажем брака, а решением задачи рождения и воспитания детей.

Методология исследования. В качестве методологической основы исследования нормативных кризисов как системной характеристики семьи были рассмотрены следующие подходы: системная семейная психотерапия (М.Боуэн, Д.Олсон, И.Ю. Хамитова, А.Я. Варга), структурная семейная психотерапия (S. Minuchin) и концепция стадий жизненного цикла семьи (Э. Дюваль, Р. Хилл; Б. Картер, М. МакГолдрик).

Для пилотажного этапа исследования выборка исследования составила 408 респондентов, состоящих в браке, уравненных по полу (204 мужчин и 204 женщины). Критериями для составления выборки также являлись регион проживания (Ташкент, Ташкентская, Сурхандарьинская и Андижанские области), стаж брака, уровень образования.

Для разработки авторской методики диагностики оценки уровня стресса нормативных кризисов был проведен концептуальный анализ изучаемого феномена (модель стадий жизненного цикла семьи Б.Картер и М.МакГолдрик), на основе которого были составлены пункты опросника содержанием которых являются задачи на каждой стадии жизненного цикла семьи. Респондентам предъявлялась следующая инструкция: «Ниже представлены события, происходящие в жизни большинства людей. Отметьте пожалуйста, те события, которые Вы пережили в своей жизни и присвойте каждому событию балл по степени трудности для Вас, где 1 – абсолютно не стрессовое событие, 5 – максимально стрессовое для меня и для семьи событие. Оцениваются по степени выраженности стресса только те события, с которыми сталкивались лично Вы».

Для определения уровня стресса преодоления нормативного кризиса стадии добрачного периода приводятся следующие задачи: 1) получение мною образования, устройство на работу (освоение профессии, стабильная работа, финансовая независимость); 2) выбор брачного партнера (опыт романтических отношений, сомнения по поводу совместимости с потенциальным партнером); 3) помолвка (знакомство родительских семей, обсуждение свадьбы). Текст опросника содержит 15 событий, соответствующих каждой из 6-ти стадий ЖЦС.

В качестве методов анализа данных применялись методы статистической обработки данных, включая проверку на надежность-согласованность с помощью критерия альфа Кронбаха, однофакторный дисперсионный анализ по критерию Краскела-Уоллиса. Обработка проводилась с помощью SPSS 23.0.

Результаты исследования и их обсуждение. Результаты проверки методики на надежность-согласованность (критерий альфа Кронбаха)

показала достаточную согласованность пунктов по всем шкалам: добрачный период – 0,636; стадия диады – 0,715; стадия семьи с маленькими детьми – 0,750; стадия семьи с ребенком подросткового возраста – 0,684; стадия с взрослыми детьми – 0,722; стадия с отделившимися детьми – 0,908.

Сравнительный анализ оценки нормативного семейного стресса у мужчин и женщин показал значимые различия только по одной шкале «Стадия с маленькими детьми». Было выявлено, что женщины достоверно в большей степени, чем мужчины, воспринимают стадию с детьми маленького возраста как более стрессовую (U=3552; p=0,055). Вероятно, это связано с тем, что жены в большей степени включены в воспитание и уход за маленьким ребенком. Стоит иметь ввиду что женщины в целом каждый нормативный кризис оценивают как более стрессовый по сравнению с мужчинами.

Сравнительный анализ оценки уровня стресса нормативных кризисов на разных стадиях ЖЦС был произведен с помощью однофакторного дисперсионного анализа по критерию Краскела-Уоллиса. Значимые различия были выявлены по четырем шкалам оценки уровня стресса на третьей, четвертой, пятой и шестой стадии ЖЦС. Так, супруги, находящиеся на третьей стадии семьи (после рождения ребенка), считают этот этап более стрессовым в отличие от семей, которые с этим событием пока не столкнулись (U=35,0; p=0,000, средние ранги 55,8 и 17,8 соответственно). Супруги, находящиеся на пятой стадии (с взрослыми детьми), считают кризис, связанный с пополнением в семье более стрессовым по сравнению с супругами, не имеющими детей (U=16,0; p= 0,000; средние ранги 38,5 и 16,5 соответственно).

Было выявлено что супруги, имеющие детей (младшего, подросткового и взрослого возраста) оценивают кризис 4-й стадии (переходный возраст ребенка, кризис середины жизни) более выражено по сравнению с супругами, еще не имеющими детей. Супруги, находящиеся на стадии семьи с детьми подросткового возраста, оценивают данную стадию как более стрессовую по сравнению с семьями с детьми маленького возраста (U=158,5; p=0,000; средние ранги 49,6 и 29,1 соответственно).

Супруги с детьми подросткового возраста оценивают предстоящую стадию взросления детей как более стрессовую по сравнению с супругами, имеющими детей младшего возраста (U=461,5; p=0,027; средние ранги 46,8 и 35,05 соответственно).

Можно заметить, что чем ближе нормативные кризисы друг к другу по времени, тем больше генерализация оценки стресса на последующие и предыдущие стадии. Вероятно, это объясняется тем, что деление на стадии не имеет столь однозначных критериев (не является механистичным процессом). Другими словами, семьи «переносят» нерешенные задачи на предыдущие и последующие стадии.

Выявленная тенденция к генерализации стрессовых оценок между близко расположенными нормативными кризисами подчёркивает

необходимость переосмысления подходов к сопровождению семьи в процессе её жизненного цикла. Поскольку границы между стадиями семейного развития оказываются условными, а нерешённые задачи могут «перетекать» из одной стадии в другую, становится очевидной важность комплексной и гибкой поддержки семейных систем. В этой связи целесообразным видится разработка программ психологического сопровождения, ориентированных не на отдельные стадии, а на кумулятивный характер семейных задач. В этом контексте важно также учитывать индивидуальную динамику прохождения кризисов и когнитивную оценку уровня стресса каждого из членов семьи.

Выводы и перспективы исследования. Таким образом, результаты исследования не только расширяют теоретическое понимание природы нормативных семейных кризисов, но и открывают возможности для создания более чувствительных и эффективных практик психологической помощи, направленных на укрепление устойчивости семьи в условиях жизненных изменений.

Также хотелось бы отметить и некоторые методологические затруднения, возникающих при диагностике нормативных семейных кризисов, можно выделить следующие: **несоответствие стадий жизненного цикла семьи и стажа брака (**хронологическая продолжительность брака не всегда отражает актуальную стадию семейного развития, что затрудняет корректную периодизацию); т**емпоральная неопределённость ключевых критериев периодизации (**такие события, как рождение ребёнка, его социализация, а также возрастные кризисы детей и самих супругов не имеют строго фиксированных временных рамок, что усложняет их использование в качестве диагностических ориентиров); ф**актор повторных браков и его влияние на структуру жизненного цикла семьи;** проблема взаимопроникновения стадий жизненного цикла, особенно в семьях с несколькими детьми, находящимися на разных этапах развития.

Список литературы

1. Анцыферова Л.И. Личность в трудных жизненных условиях: переосмысливание, преобразование ситуаций и психологическая защита//Психологический журнал. 1994. № 1. Т. 15. С.3-19.
2. Карабанова О. В. Психология семейных отношений и основы семейного консультирования. М., 2008. 319 с.
3. Каримова В. М. Оила контектида ёшларда этнопсихологик сифатларни тарғиб этишнинг айрим методологик тамойиллари // Oriental Art and Scientific-Methodical Journal. 2020. №(SI) II. С.76-78.
4. Каримова В. М. Социально-экологические проблемы оздоровления семьи// Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies. 2021. Special issue. С.15-17.

5. Каримова В.М. Ёшларда ўзбек оиласи тўгрисидаги ижтимоий тасаввурлар: дис. … докт.психол.наук: 19 00 05, 1994.

6. Каримова В.М. Представления о качествах личности у женщин-узбечек в различных социальных условиях: автореферат дис. ... кандидата психологических наук: 19.00.05 / МГУ им. М. В. Ломоносова. Фак. психологии. Москва, 1987. 24 с.

7. Коваленко Т.Н., Иванова П.А., Кучукова Н.Ю., Родькина О.И. Субъективный образ семейной жизни в представлениях молодых супружеских пар//Учёные записки Санкт-Петербургского государственного института психологии и социальной работы. 2020. № 33(1). С. 84–93.

8. Кожухарь Г.С. Качество межличностных отношений и удовлетворенность браком молодых людей//*Социальная психология и общество. 2021. № 12* (1). С. 143–161.

9. Коренеева Е. П. Психология семейного кризиса: подходы к семейному консультированию при ненормативных кризисах // Научно-методический электронный журнал «Концепт». 2019. № 3 (март).

10. Москвичева Н.Л., Реан А.А., Костромина С.Н., Гришина Н.В., Зиновьева Е.В. Жизненные модели молодых людей: представления о будущей семье и модели, транслируемой родителями//*Психологическая наука и образование. 2019. № 24*(3). С. 5–18.

11. Одинцова М.А., Радчикова Н.П., Мусохранова Е.Г., Азарёнок Н.В. Эмоциональные коммуникации в детско-родительских отношениях и жизнеспособность будущей взрослой семьи//*Социальная психология и общество. 2024. № 15*(3). С. 72–90.

12. Олифирович Н.И. Принципы и уровни анализа семейных систем//Исторические и психолого-педагогические науки: сб. науч.статей. Минск, 2015. С. 167-174.

13. Олифирович Н.И. Психология семейных кризисов/Н.И. Олифирович, Т.А. Зинкевич-Куземкина, Т.Ф. Велента. СПб: Речь, 2006. 360 с.

14. Семьи в меняющемся мире. ООН женщины. URL: https://www.unwomen.org (дата обращения:14.09.2025).

15. Холмогорова А.Б. Научные основания и практические задачи семейной психотерапии //Московский психотерапевтический журнал. 2002. № 1. С. 93–119.

16. Эриксон М., Хейли, Дж. Стратегии семейной терапии. М.: Институт Гуманитарных Исследований, 2001. 448 с.



UDK 159.91:159.

Qodirov Kamoliddin Botirovich,
Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi mudiri, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

BIR SHOGIRD NIGOHIDAGI JONKUYAR USTOZ

Mamlakatimizda psixologiya fanining rivojlanishiga, yuqori malakali psixolog kadrlar tayyorlashga katta hissa qo‘shib kelayotgan yetuk olima, ustozimiz, psixologiya fanlari doktori, professor Karimova Vasila Mamanosirovnani ilmiy-tadqiqotchilik, pedagogik, tashkilotchilik va rahbarlik faoliyatlarida katta muvaffaqiyatlarga erishgan, o‘z kasbini, ilmu fanni sevishda biz yoshlarga haqiqiy namuna bo‘la oladigan xushmuomala, kamtarin inson, ammo talabchan va adolatparvar ustoz-murabbiy sifatida men 1990-yillarning boshlaridan buyon yaxshi taniyman.

Eslashimcha, bundan 32 yil muqaddam, 1993-yilning kuz oylarida Vasila Mamanosirovna doktorlik dissertatsiyasini himoya qilish arafasida yetakchi tashkilot sifatida belgilangan Termiz davlat universitetiga borganlar.

U paytlar men juda yosh edim, Termiz davlat universitetining 3-bosqich talabasi sifatida Turkiya Respublikasiga o‘qishga yuborilganligim sababli Vasila opa Karimova bilan, afsuski, ko‘risha olmagan bo‘lsam-da, ota-onam menga yozgan xatlarida, telefon orqali muloqotlarimiz chog‘ida Vasila opaning uyimizga mehmon bo‘lib kelganlaridan, u kishining ilmiy faoliyatlariyu samimiy suhbatlaridan xabar topganman.

Ushbu voqeaning men uchun muhim jihati shundaki, aynan o‘sha davrlardan e’tiboran Vasila opa bilan bizning oilamiz o‘rtasida do‘stlik rishtalari bog‘lanib, yillar mobaynida qadrdonligimiz yanada mustahkamlanib, sayqallanib bordi.

Oilamiz davrasidagi suhbatlarimiz chog‘ida Vasila Karimovaning ilmiy yutuqlari, kasbiy muvaffaqiyatlari, turmush o‘rtog‘i va boshqa oila a’zolari haqidagi yangiliklar, turli xushxabarlar tez-tez qiziqish bilan tilga olinadigan, faxr bilan e’tirof etiladigan bo‘ldi. Keyinchalik Vasila Karimova tomonidan tashkil etilgan ilmiy-amaliy konferensiyalarda ishtirok etish uchun ota-onam Farg‘ona davlat universitetiga tashrif buyurib, albatta Vasila opaning uylarida mehmon bo‘lib kelishar, barcha ijobiy taassurotlarini bizga aytib berar edilar.

Ustozimiz V.M.Karimovaning 1994-yilda psixologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasini himoya qilgani, 2000-yilda professor unvonini olgani va Respublika “Oila” ilmiy-amaliy markazining direktori etib tayinlangani, 2001-2002-yillarda “Yilning eng yaxshi kitobi” tanlovi g‘olibi, keyinchalik “Xalq so‘zi”, “Ma’rifat” kabi yetakchi gazetalarda bir necha marotaba “Yilning eng yaxshi maqolasi” tanlovlarining g‘olibi deb topilganligi, 2012-yilda “Ijtimoiy psixologiya” nomli darsligi chop etilganligi va boshqa juda ko‘plab kasbiy va ilmiy sohada erishgan muntazam yutuqlari haqidagi xushxabarlarni hammamiz katta xursandchilik bilan qarshi olganmiz, ilhomlanganmiz.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, har bir oilada voyaga etayotgan yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda V.M.Karimova kabi yetuk olimlar, ustoz-murabbiylar bilan do‘stona oilaviy munosabatlarni qo‘llab-quvvatlash juda muhim ahamiyatga egadir. Professor V.M.Karimovani O‘zbekistonda psixologiya fani rivojiga betakror hissa qo‘shgan, birinchi bo‘lib psixologiya fanlari doktori ilmiy darajasiga erishgan o‘zbek ayoli sifatida e’tirof etgan holda uning hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyatini bizga yaqindan tanishtirish orqali dadam o‘z farzandlaridagi ma’naviy dunyoqarash va ilmiy tafakkurni kamol toptirishga harakat qilgan desam, mubolag‘a bo‘lmasa kerak.

Esimda, 2000-yilda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat universiteti aspiranturasida o‘qib yurgan kezlarimda nashr ettirgan “Shaxs yo‘nalganligini aniqlash” metodikasi nomli uslubiy qo‘llanmamga professor V.M.Karimova taqriz yozib bergan edilar. O‘shanda meni hayratga solgan narsa shu bo‘ldiki, V.M.Karimova mazkur qo‘llanmani nafaqat katta qiziqish bilan o‘qib chiqqanlar, balki “Shaxs yo‘nalganligini aniqlash” metodikasini o‘tkazish va qayta ishlash jarayonini juda sinchkovlik bilan o‘rganib, hattoki bevosita amaliyotda ham sinab ko‘rganlar. Shaxsan o‘zlari barcha hisob-kitob ishlarini o‘z qo‘llari bilan bajarib ko‘rganlar. Oddiy bir aspirant bo‘lishimga qaramay, kaminaga sohaning jiddiy bir mutaxassisi kabi hurmat bilan muomalada bo‘lib, aniqlashtiruvchi savollar berib, amalga oshirgan ilmiy tadqiqotlarimning barcha yutuq va kamchiliklari haqida batafsil fikr-mulohazalarini bildirgandan keyin ijobiy taqriz berganlar. Mazkur holatdan men professor V.M.Karimovaning ilm-fan sohasidagi yangiliklarga, barcha testologik talablarga javob beradigan ishonchli psixodiagnostik metodikalarni ishlab chiqish muammolariga qanchalik e’tiborliligiga, o‘z ishiga mas’uliyat bilan yondashadigan yetuk mutaxassis ekanligiga shaxsan iqror bo‘lganman va o‘zim uchun haqiqiy olim timsoli qanday bo‘lishi kerakligi haqida tegishli xulosalar chiqarganman.

Professor V.M.Karimova Farg‘ona davlat universiteti, Respublika “Oila” ilmiy-amaliy markazi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti va boshqa bir qator ilmiy-amaliy hamda ta’lim muassasalarida ilmiy-pedagogik, rahbarlik va tashkilotchilik faoliyatlarini amalga oshirib kelayotgan, ko‘p yillik hayotiy tajribaga ega bo‘lgan ustoz-muallimdir. O‘tgan yillar davomida bu inson bilan rasman biron bir tashkilotda birgalikda deyarli ishlamagan bo‘lsak-da, jamoatchilik asosidagi turli ilmiy-tashkiliy tadbirlarda hamkorlikda faoliyat olib borganmiz, ilmiy-amaliy anjumanlarda hamsuhbat bo‘lganmiz.

Xususan, men O‘zbekiston Milliy universitetida kafedra dotsenti lavozimida ishlab yurgan vaqtlarimda (2005-2016 yy.) bir necha yillar davomida professor V.M.Karimova u yerda bitiruv malakaviy ishlari va magistrlik dissertsiyalari himoyalarini tashkil etish maqsadida Davlat attestatsiya komissiyasi raisi sifatida taklif etilgan bo‘lib, hurmatli ustozimiz raisligida juda yuqori saviyada olib borilgan juda qizg‘in, o‘ta qiziqarli va unutilmas himoya jarayonlari hali-hamon ko‘z o‘ngimda turibdi. V.M.Karimova himoya jarayonlarida bitiruvchi talabalarning taqdimotlarini diqqat bilan kuzatganligi, ularga o‘rinli va chuqur mazmunli savollar berganligi, har bir ishning yutuq va kamchiliklarini tanqidiy tahlil qilgan holda ularning kelajak istiqbollarini ko‘rsatib berganligi bilan, shuningdek, komissiya raisi sifatida bitiruvchilarni baholash jarayonlarida yuqori darajadagi xolislik, adolatlilik va talabchanlikni namoyon etganligi bilan barcha professor-o‘qituvchilar va bitiruvchilarning cheksiz hurmatini qozonganligi alohida e’tiborga loyiqdir.

V.M. Karimova 1994-yildan buyon psixologiya bo‘yicha Ixtisoslashgan ilmiy kengashlarning a’zosi, rais o‘rinbosari, raisi sifatida mamlakatimizda yuqori malakali psixolog kadrlar tayyorlashga katta hissa qo‘shib kelmoqda. Turli yillarda O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent davlat pedagogika universiteti hamda Qozog‘iston Milliy universiteti qoshidagi Ixtisoslashgan Kengashlarda rais, rais o‘rinbosari va a’zosi sifatida faoliyat yuritgan. Biz 2022-yildan buyon Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Ixtisoslashgan ilmiy kengash a’zosi sifatida Vasila Karimova bilan birgalikda faoliyat yuritib kelmoqdamiz. O‘tgan yillar davomida tashkil etilgan yuzlab himoya jarayonlarida profesor V.M. Karimova tomonidan bildirilgan har bir fikr-mulohaza, pand-nasihat va o‘gitlar ustozimizning naqadar yuksak ilmiy salohiyatga ega bo‘lgan, tajribali mutaxassis-olim ekanligini tasdiqlaydi va barcha shogirdlarning ilmiy dunyoqarashlari, fanga bo‘lgan ijobiy munosabatining shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, psixolog olima, psixologiya fanlari doktori, professor Vasila Mamanosirovna Karimova butun umri davomida mamlakatimizda psixologiya fanining rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shgan yetuk mutaxassis bo‘lib, uning yuqori malakali psixolog kadrlar tayyorlash borasidagi xizmatlari alohida e’tirofga loyiqdir. Bugungi kunda u o‘zining yuksak darajadagi ilmiy salohiyati, insoniy qadriyatlari va ma’naviy fazilatlari bilan yurtimizdagi yuzlab, minglab yosh olimlar va mutaxassislarga shaxsiy namuna bo‘lib, ularni ilhomlantirmoqda, ezgu

amallarga, ilmiy faoliyatga chorlab kelmoqda. Darhaqiqat, muhtaram ustozimiz Vasila Karimovaning kasbiy va ilmiy faoliyatda erishgan muvaffaqiyatlari bugun ham, ertangi kun uchun ham bebaho qadriyatdir.

UDK 159.9.072.4

Saidov Azamat Ismoilovich,
Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti, Pedagogika fakulteti dekani, psixologiya fanlari doktori, (DSc) professor

OILADA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada sog'lom turmush tarzi psixologiyasi, uni shakllantirish muammolari va ushbu muammolarning ijtimoiy-psixologik yechim yo'llari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, shaxsning sog'lom turmush tarzi bilan bog'liq ilmiy-amaliy tadqiqotlar natijalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: sog'lom avlod, sog'lom turmush tarzi, sog'lom turmush tarzi psixologiyasi, sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi ijtimoiy-psixologik omillar.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ В СЕМЬЕ

Аннотация. В статье рассмотрены проблемы психология здорового образа жизни, её формирования и возможные социально-психологические пути решения этих проблем. Освещены, научно-практические результаты исследований связанных со здоровей образа жизни личности.

Ключевые слова: Здоровое поколение, ззздоровый образ жизни, психология здорового образа жизни, социально-психологические факторы формировании здорового образа жизни.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL PROBLEMS OF FORMING A HEALTHY LIFESTYLE IN THE FAMILY

Abstract. The article deals with the problems of the psychology of a healthy lifestyle in the family, its formation and possible social and psychological ways to solve these problems. Illuminated, scientific and practical results of research related to healthier lifestyle of the individual.

Keywords: Healthy generation, healthy lifestyle, psychology of a healthy lifestyle, socio-psychological factors in the formation of a healthy lifestyle.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda adolatli demokratik jamiyat bunyod etish bosh maqsad qilib belgilandi va bu maqsad sari izchil qadamlar qo'yildi. Bunda inson manfaatlari va haq-huquqlarini to'liq hisobga oladigan, uning asriy orzu-umidlarini ro'yobga chiqaradigan eng adolatli ijtimoiy makon bo'lmish fuqarolik

jamiyatini qurish borasida ham muhim natijalarga erishildi. Jamiyatda sog‘lom turmush tarzini yanada shakllantirish, aholi salomatligini mustahkamlash, jismoniy sog‘lom va ma’naviy boy yosh avlodni tarbiyalash, fuqarolarning jismoniy tarbiya va sport bilan faol shug‘ullanishiga keng jalb etilishini ta’minlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan faol islohatchilik siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Sog‘lom turmush tarzi haqida so‘z borar ekan, uning eng avvalo inson tani va vujudining betob bo‘lishiga sabab bo‘luvchi zararli odatlardan forig‘ bo‘lishni tasavvur qilishga o‘rganib qolganmiz. Bu atama, eng avvalo, sog‘liqni saqlash xodimlari faoliyati bilan bog‘liq tarzda tushuntiriladi. Ammo, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda - tan va vujud, aql hamda idrok bevosita odamniki, unga bog‘liq bo‘lgani uchun ham inson ruhiyati qonuniyatlari va sirlarini o‘rganuvchi fan bo‘lmish psixologiyaning unga aloqasi bor. Shuning uchun ham psixologiya fanida sog‘lom turmush tarzi psixologiyasi tushunchasi mavjudki, u sog‘lom turmush tarziga eng avvalo, inson ongi va tafakkurining in’ikosi sifatida qaraydi. Demak, har birimiz uchun suv va havodek zarur bo‘lgan sog‘ligimizni ta’minlash va bunga erishish uchun sog‘lom turmush tarziga odat qilish nafaqat tibbiyot xodimlari, balki psixologlarning, psixologiya fanining ham izlanish predmeti sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu ma’noda, psixologiya sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda inson fe’li, xulq-atvori va turli psixologik holatlari nuqtai nazaridan o‘rganganda: asosan, har birimiz guyoki sirdek tuyulgan ruhiyatimizning o‘zimizni sog‘-salomat, beshikast va tetik his qilishimizga aloqador qanday jihatlari borligini, uni boshqarish orqali o‘z boyligimiz – salomatligimizni saqlash borasida qo‘limizda qanday imkoniyatlar mavjudligini va sog‘lom turmush tarzi psixologiyasini shakllantirish har birimizga o‘z ruhiy holatimizni boshqarish, ongu-shuurimizda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni vaqtida ilg‘ash orqali uni mo‘tadil tutish, o‘zgaruvchan shart-sharoitlarga moslashish yo‘llarini, bu boradagi profilaktikani o‘rganadigan fan hamda foydali amaliyot sifatida tobora hayotimizga dadil kirib kelmoqda [1].

Manbalarda qayd etilishicha, sog‘lom turmush tarzi psixologiyasi – bu kundalik turmushni muayyan qonuniyatlar asosida tashkil etib, salomatlikni saqlash va mustahkamlashga qaratilgan turmushimiz ekan, turmushning qanday bo‘lishi, o‘z hayotini qay yusunda va shaklda tashkil etishga bog‘liq, buning uchun har bir inson yashash madaniyatiga va ma’naviyatiga, dunyoqarashiga ega bo‘lishi kerak.

Salomatlikni, kishining o‘z salomatligiga bo‘lgan munosabatini shaxsning muhim komponenti sifatida ko‘zdan kechirish lozim. Aytish mumkinki, mazkur soha jamiyat o‘z kuchi bilan salomatlik muammolarini hal etishga ojiz ekanini anglay boshlashi sharofati tufayli vujudga kelgan. “Xavf-xatar omillari” kasallik va o‘lim bilan bog‘liq, demakki uni o‘rganish va baholash ham psixologiyaga ham tibbiyotga dahldordir [2]. Ammo ko‘plab tadqiqotlar natijalariga asoslanadigan bo‘lsak, shuni alohida e’tirof etish kerakki, bugungi kunda tibbiyot sohasi vakillari salomatlik muammosini pedagog va psixologlarga murojaat etmasdan, o‘z kuchiga

tayangan xolda xal eta olmayapti. Zotan tibbiyot sohasi xodimlarining o‘zlarida ham salomatlik bilan bog‘liq muammolar yildan-yilga ko‘paymoqda [3].

Aholi o‘rtasida va ayniqsa, yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi psixologiyasini shakllantirishda qator ijtimoiy-psixologik muammolarga duch kelinadi. Quyida sog‘lom turmush tarzi psixologiyasini shakllantirishdagi ana shunday ayrim ijtimoiy-psixologik muammolar borasida fikr yuritishga harakat qilamiz.

Birinchidan, sog‘lom turmush tarzining negizi hisoblangan psixik salomatlik sohasi qisqa muddat davomida yirik tadqiqotlar sohasiga aylanib ulgurgani ayni haqiqatdir. Mazkur holatni quyidagi raqamlar isbotlab turganini qayd etishimiz lozim. Agar 1975 yili AQShda psixik salomatlikni muhofazasiga oid 200 dastur tatbiq etilgan bo‘lsa, 1990 yilga kelib bunday dasturlar 5000 ga ortgan. Hozirgi kunda ular salmoqli iqtisodiy samaradorlikni ko‘rsatmoqda. Ayni paytda AQShdagi psixologlarning har o‘n nafaridan bittasi psixik salomatlikning u yoki bu muammosi bilan shug‘ullanmoqda, shuningdek, ingliz zabon psixologik jurnallarda chop etilayotgan har uchta maqoladan bittasi ushbu sohaning turli jihatlari bilan bog‘liqligini e’tirof etish joiz [4].

Shu yo‘nalishga doir maxsus jurnallar, kitoblar va monografiyalar chop etilyapti. Uning kengqamrovli amaliy ifodasi turli tashkiliy qarorlar yordamida mustahkamlanmoqda. Masalan, Buyuk Britaniyada “Millat salomatligi” hujjati qabul qilingan bo‘lsa, Yevropadagi populyatsiyaning psixik va jismoniy salomatligini yaxshilashga qaratilgan bunday tashabbus “Salomatlik barcha uchun” nomini olgan.

Butun G‘arb mamlakatlari bo‘ylab faoliyat yuritayotgan psixik salomatlik markazlari va klinikalari, xususiy salomatlikni mustahkamlashga yordam ko‘rsatish guruhlari soni kundan-kunga ko‘payib bormoqda.

Salomatlik psixologiyasi sohasi mutaxassislari nafaqat umumpsixologik tayyorgarlikka, balki psixogigiyena, psixoprofilaktika, shuningdek, psixosomatik salomatlik va psixoterapiya masalalari bo‘yicha ham chuqur bilimga ega bo‘lishlari lozim.

Ikkinchidan, biz ko‘pincha shahar va qishloqda yashovchi insonlarni bir-biriga taqqoslaymiz, solishtiramiz va turmush tarzidagi ba’zi kamchiliklarni “e, bu qishloqchilikda, imkoniyati yo‘q”, - deb qo‘ya qolamiz. Ammo insonning yashash tarzini bunga, menimcha hech bir aloqasi yo‘q. Har qanday odam qayerda, qanday sharoitda yashamasin, birinchi novbatda o‘ziga qulaylik yaratish uchun harakat qiladi. Chunki bu qulaylik uning kundalik hayoti, uning hayot tarzi va salomatligini belgilab beradi. Oddiygina kundalik turmushimizda asqatadigan, kun davomida bir necha bor kirib chiqadigan hojatimiz uchun yaratilgan xonani olib qaraylik. Ba’zi insonlar ana shu hojatga boradigan joyini noqulay, har tomondan shamol esib turadigan, o‘tirishga qulay bo‘lmagan, hattoki atrofini sholcha bilan o‘rab qo‘yadigan xonadonlarni ham guvohi bo‘lamiz. Qishli-qirovli kunlarda borishga qiynaladigan joylardan tanlab qurilishini aytmaysizmi? Loy va qorning ustidan

bolalarning oyoq bosib, borib kelishi esa, ularning kasalga chalinishiga sabab bo‘ladi. Xo‘sh, bu shunchalik katta mablag‘ talab etadimi? Yoki kishining e’tiborsizligimi, yoyinki, uning oqibatlari nimalarni keltirib chiqarishini bilmaslikmi? Shunga o‘xshash insonlarning qimmatboho mebellar, jihozlar bilan bezatilgan uylari borligi, to‘y-hashamlarni meyoridan ortiq bo‘lishiga pul sarflaganligini ko‘rib, “nohatki, oddiygina xojatxonasini risoladagidek qilib qo‘yishga imkoni yetishmasa” deb o‘ylaysiz. Shuningdek haftada bir bo‘lsada kirib yuvinib chiqadigan xammomning yo‘qligini aytmaysizmi. Agar mahallada yoki qishloqda xammom bo‘lmasachi? Bularning hammasi yana takror bo‘lsada, insonda turmush tarzi madaniyatining yetishmasligi, ma’naviyatining pastligi deb baxolash mumkin. Oqibatda ayniqsa, turli ayollarga xos kasalliklarni kelib chiqishiga, kasallikni tarqatuvchi omilga aylanishiga yo‘l ochib beramiz va o‘zimizning madaniyatsizligimizni oshkor namoyon etamiz. Biz hamma qishloqda yashovchilar shunday ahvolda deyishdan yiroqmiz, ba’zi xonadonlarda yaratilgan imkoniyat, shaharliklarnikidan a’lo desak bo‘ladiganlarni uchratish mumkin.

Uchinchidan, sog‘lom turmush tarziga amal qilib yashash ko‘nikmasi insonda birdan paydo bo‘lib qolmaydi, u o‘ziga xos malaka ham talab etgani bois ilk bolalik chog‘laridanoq, unga oilada o‘rgatib borish lozim. Bu ota-ona zimmasidagi eng muhim, mas’uliyatli vazifalardan biridir. Barcha ota-onalar farzandlarini tarbiyalar ekanlar, doimo ogoh bo‘lishga, sergak turishga intiladilar. Bu e’tibor bolaning barcha narsalari yetarli bo‘lishi, sihat-salomatligi joyidaligi, darslariga muntazam qatnashishini nazorat qilish kabi meyorlar bilan chegaralanib qolishi mumkin. Masalan, uyqudan uyg‘onamiz, fikrimiz bugungi kun rejalari va ularni amalga oshirish bilan band, katta-kichik, yoqimli-yoqimsiz, lekin bugun bajarilishi zarur va kechiktirib bo‘lmaydigan ishlar. Eng muhim “tashvishimiz” – farzandimiz. Uyg‘otish, yuvintirish, qornini to‘ydirish, kiyintirish va o‘z vaqtida bog‘chasi yoki maktabiga eltib qo‘yish, kundalik yumushlarimiz asnosida u yana yodimizga tushadi, maktabdan keldimikin deb o‘ylaymizu, qo‘ng‘iroq qilib odobli bola bo‘lib, darslarini qilib o‘tirishi lozimligini ta’kidlaymiz. Ishdan qaytgach, tuganmas uy yumushlariga sho‘ng‘iymiz, ular orasida bolaning darslarini tekshirgan bo‘lamiz, u bilan ozgina vaqt ajratib suhbat qura olamiz yoki yo‘q... ertasiga yana shu zayl takrorlanadi. Bunga shu qadar ko‘nikib keganmizki, xatti-harakatlarimiz haqida deyarli o‘ylab ko‘rmaymiz, aksincha shu ishlar asnosida miyamiz butunlay boshqa xayollar bilan band bo‘ladi. Bola uyqudan qay ahvolda uyg‘ondi? Nonushta tayyorlashga, dasturxonni yig‘ishtirishga ko‘maklashdimi? Maktabga qanday kayfiyatda ketdi? Qanday xayrlashdi? Oxirgi tanbehingizga qanday javob qaytardi? Vaqtini qanday o‘tkazyapti? Uni to‘g‘ri taqsimlay olyaptimi? Umuman shaxs sifatida qanday shakllanyapti? Shu va shunga o‘xshash minglab savollar balki erish tuyulishi mumkin, ammo bularning barchasi jamiyatning bo‘lg‘usi a’zosi kelajakda qanday shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratuvchi muhit hisoblanadi.

Kuzatishlarimizning ko‘rsatishicha, yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi psixologiyasini shakllantirish muammosini hal etishga xizmat qiladigan quyidagi ijtimoiy-psixologik muammolarga yechim topish talab etiladi:

- sog‘lom turmush tarzi psixologiyasini shakllantirishning ijtimoiy - psixologik jihatlarini pedagogik va psixologik nuqtai-nazardan ochib berish;
- sog‘lom turmush tarzi psixologiyasini rivojlantirish bo‘yicha xorijiy davlatlar tajribalarini o‘rganish va yoshlarning tarbiya tizimida qo‘llanilish ko‘lami, mazmunini ochib berish;
- yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi psixologiyasini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik jihatlari nazariy jihatdan asoslanib uning samaradorligini amaliy tajribalarda aniqlash;
- yoshlarning sog‘lom turmush tarzi psixologiyasini shakllantirishning ta’lim tizimi o‘quv-tarbiyaviy jarayonidagi o‘rnini va mavqiyeni aniqlash va samarador tizimini ishlab chiqish;
- yoshlarning sog‘lom turmush tarzi psixologiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ijtimoiy-psixologik treninglar ishlab chiqish, ularning mazmuni va samaradorligini baholash.

Yuqoridagilarni muxtasar qilib qayd etish mumkinki, sog‘lom turmush tarzi psixologiyasi bir tomondan, insonning jismoniy salomatligi va kamolotini nazarda tutsa, ikkinchi tomondan, inson ma’naviy, mafkuraviy va ruhiy salomatligi, uning shaxs sifatida barkamol voyaga yetishining asosini tashkil qiladi. Nafaqat jismoniy, balki ijtimoiy, ruhiy jihatdan o‘zini sog‘lom xis qilgan odamgina jamiyatning faol a’zosi bo‘lib, o‘ziga va atrofidagilarga naf keltirishi mumkin. Zero, oila va yosh avlod sog‘lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqarordir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oila psixologiyasi. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun darslik. /Prof. F.B.Shoumarov tahriri ostida. - Toshkent, 2008.
2. Каримова В.М. Оила психологияси: Дарслик. Педагогика олийгоҳлари талабалари учун . Т.: “Fan va texnologiya”, 2008 – 152 б.
3.Allen, I. (1988) Doctors and their Careers. London: Policy Studies Institute.
4. Bennet, G. (1987) The Wound and the Doctor: Healing Technology and Power in Modern Medicine. London: Seeker & Warburg.
5. Borril, C. S., Wall, M. A., West, G. E., et al (1996) Mental Health of the Workforce in NHS Trusts. Leeds: Institute of Work Psychology, University of Sheffield & Department of Psychology, University of Leeds.

UDK 159.922.1:15



Ergashev Po‘lat Sobirovich,
Al-Beruniy Xalqaro maktabi bosh psixologi,
psixologiya fanlari doktori, dotsent



Xudoyqulova Ziyoda Anvarovna,
O‘zbekiston Milliy universiteti
“Psixologiya” kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

OILA OMILINING BOLALARDA ME’YOR HISSI SHAKLLANISHIDAGI O‘RNINI O‘RGANISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya. Mazkur ishda oila omilining bolalar psixik taraqqiyotiga ta’sirida nafaqat “ota-ona – rol-model” sxemasi hamda oilaviy muhitning ahamiyati, balki oilaviy turmush tarzi tashkil etilishi, bundagi tartiblar kabi o‘zgaruvchining ham rolini o‘rganishning istiqboli ko‘rsatib o‘tiladi. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar, jumladan, bolalarda me’yor hissi rivojlanishini o‘rganish muammosi doirasida samarali amalga oshirilishi mumkinligi asoslanadi.

Tayanch so‘zlar: oilaviy muhit, oila turmush tarzi, ijtimoiylashuv, psixik rivojlanish, me’yor hissi.

ПЕРСПЕКТИВЫ ИЗУЧЕНИЯ РОЛИ ФАКТОРА СЕМЬИ В РАЗВИТИИ ЧУВСТВА МЕРЫ У ДЕТЕЙ

Аннотация. В статье показана перспектива изучения семейного фактора в психическом развитии детей с точки зрения влияния образа жизни, уклада семьи, не ограничиваясь схемой "родители – роль-модель" или психологическим климатом в семье. Обоснована возможность продуктивных исследований в этой области, в частности, в рамках изучения особенностей развития чувства меры у детей.

Ключевые слова: климат в семье, уклад жизни семьи, социализация, психическое развитие, чувство меры.

PROSPECTS FOR STUDYING THE ROLE OF THE FAMILY FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF CHILDREN'S PROPORTION SENSE

Annotation. The article shows the prospect of studying the family factor in the mental development of children in terms of the influence of lifestyle, family structure, not limited to the "parents – role-model" scheme or the psychological climate in the family. The possibility of productive research in this area is substantiated, in particular, in the framework of studying the peculiarities of the development of a sense of proportion in children.

Key words: family climate, family lifestyle, socialization, mental development, sense of proportion.

Insonning shaxs sifatidagi kamolotida oilaning hal qiluvchi o‘rni so‘zsiz tan olinadigan haqiqat. Biroq oila omilining qaysi psixologik sifatlar rivojlanishiga qanday tarzda ta’sir ko‘rsatishi, bu jarayon qaysi qonuniyatlarga muvofiq kechishini bilish zarurati psixologiya fani oldida ko‘plab vazifalarni qo‘yadi.

Avvalo, shunga e’tibor qaratmoqchi edikki, ko‘pincha oilaning bola psixik rivojlanishiga ta’siri haqida gap ketganda, ota-onaning o‘zi shaxsan qanday namuna bo‘layotgani, ya’ni bolalar oilada qanday xulq-atvor modellarini ko‘rib ulg‘ayotgani diqqat markazida bo‘ladi. Jumladan, ota-onaning ijtimoiy xulq-atvorda infantillikni namoyon etishi va bolalarda deviant xulq shakllanishi, agressivlik, addiktiv odatlar rivojlanishi o‘rtasida aloqadorlikni ochib berayotgan izlanishlar [4], autoagressiya darajasi yuqori ota-onalarning qiz farzandlari orasida suitsidal xatti-harakatlar ko‘proq uchrashini isbotlovchi tadqiqotlar [6] shunga misol bo‘ladi.

To‘g‘ri, bir guruh tadqiqotlarda oiladagi muhitning ahamiyati ko‘tariladi va ularda, masalan, oilada ma’naviy qadriyatlarga bepisandlik, bolaning kasb tanlash masalasiga e’tiborsizlik muhiti hukm sursa, voyaga yetmagan jinoyatchilar shaxsi shakllanishiga yo‘l ochilishi [8], talabalar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovlarda ularning to‘rtdan uch qismi oila muhiti ularning emotsional holati, o‘quv muvaffaqiyatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi isbotlanadi [3]. Biroq bu o‘rinda asosan oiladagi muhit oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarning o‘ziga xosligi hosilasi sifatida anglanadi. Ayni

vaqtda oilaning hayot tarzi, kundalik turmushi qanday tashkil etilishi, oila hayotining maishiy tomonlari ham muhim ijtimoiylashtiruvchi omil bo‘lib gavdalanishiga e’tibor qaratmoqchimiz. Xususan, bu omil bolalarda me’yor hissi shakllanishida o‘zini yaqqol namoyon etishini kutish mumkin.

Bizning talqinimizda, me’yor hissi odamga murakkab va rang barang olamda narsa-buyumning tarkibiy tuzilishi vazifasi va ichki mohiyatiga mosligi holatidagina mukammal bo‘lishini anglatib turadigan bir vaqtda intellektual, ma’naviy va estetik kechinma. Me’yor hissi narsa-hodisalardagi ichki mohiyat va tashqi ko‘rinish uyg‘unligini bilishga xizmat qilib, ushbu his-tuyg‘usiz narsa-hodisalardagi shakl va mazmun uyg‘unligini, ular qanday darajagacha o‘zgartirilganda bu uyg‘unlik saqlanib turishini anglab bo‘lmaydi [5]. Me’yor hissi miqdor va sifatning o‘ziga xos chegarasi bo‘lib, bu chegaradan tashqariga chiqish narsa-hodisa mohiyatini buzadi [1],[5]. Me’yor hissi did tarkibiga kirgani sababli birovda didsiz kiyim, bezak, tashqi qiyofaga berilgan ishlovni ko‘rganda ikkilanmay bu yerda me’yor hissi yaxshi rivojlanmaganini aytishimiz mumkin.

Odamzotning ko‘pgina muammolari, ishda va hordiqda, turmushda va munosabatlarda me’yorni, foyda va zarar, yetarli va ortiqcha o‘rtasidagi chegarani bilmaslik oqibati ekanini tushunish uchun ulkan aql-zakovat egasi bo‘lish shart emas. Aynan me’yorni his etmaslik va bilmaslik sababli odam xoh eskini buzayotgan bo‘lsin, xoh yangini tuzayotgan bo‘lsin yakunda xunuk natijaga duch kelaveradi. Qadimgi yunonlar xudolar odamga ato etgan eng oxirgi va eng oliy in’om – me’yor hissidir, degan fikrga bejizga kelmaganlar [2].

Tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, oilaning hayot tarzida bola uchun kun tartibiga rioya etmaslik faol harakatlanish, uyqu, psixoemotsional yuklamalar, ovqatlanish va jismoniy charchoq borasida me’yorlarning buzulishiga olib keladi [7]. Tabiiyki, inson salomatligining eng asosiy ushbu bo‘g‘inlarida me’yor saqlashni oiladan o‘rgana olmagan bolalarning keyingi psixofiziologik rivojlanishida nuqsonlar kuzatilishini kutish mumkin. A.I.Markova, A.V. Lyaxovich, M.R.Gutman o‘tkazgan tadqiqotdagi oila kundalik turmushining tashkillashtirilmagani, vaqtning foydalanish me’yorlariga e’tiborsizlik ko‘p holatlarda o‘smir bolalarning chekishga odatlanib qolishiga olib kelishi haqida keltirilgan ma’lumotlar [7] ham yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi.

Y.A.Yumkinaning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, oilaviy hayotda hamkorlikdagi faoliyat elementlari ko‘p bo‘lsa, bolalarda boshqa odam bilan munosabatda tenglik, uning ham manfaatlarini hisobga olish kabi altruizm elementlari kuzatiladi [9]. Bunday vaziyatda bolada moddiy-ma’naviy ne’matlar taqsimoti jarayonida ham me’yorlarga rioya etish ko‘nikmalari rivojlanishini kutish mumkin.

Masalaning amaliy-uslubiy jihatlariga keladigan bo‘lsak, bolalar psixologiyasi sohasida to‘plangan ilmiy tajribaga tayangan holda, me’yor hissini bolalikdan rivojlantirishning bir necha ayniqsa samarador yo‘llarini ajratib olish mumkin:

1.Bola vaqtini behuda, uning jismoniy va aqliy, ma'naviy va madaniy o'sishiga xizmat qilmaydigan ishlarga sarflayotgan bo'lsa, buning ortida vaqt me'yorlarini yaxshi his etmaslik turishi mumkinligini e'tiborga olib, birinchi navbatda shu sohada me'yorni his etishga o'rgatish maqsadga muvofiq. Buning uchun:

a) bola bilan o'yin o'ynaganda, masalan, ishga tushirilgan qaysidir o'yinchoq ma'lum vaqtdan keyin harakatdan, ovoz chiqarishdan to'htashiga uning e'tiborini alohida jalb etish mumkin;

b) bola bilan televizion ko'rsatuv ko'rganda, ertak o'qiyotganda, ularda tasvirlanayotgan voqealar nimadan boshlanib, nimalar bilan tugayotganiga uning e'tiborini alohida jalb etish maqsadga muvofiq;

v) bola bilan ko'chada sayir qilyotganda, biror yerga ketayotganda atrof olamdagi hodisalar, masalan, qor yog'ishi va tinishi, bekatga avtobuslarning kelishi va ketishi yoki boshqa bola ko'z o'ngida ro'y berayotgan voqea-hodisalar ma'lum vaqtda boshlanib, o'zining yakuniy chegarasiga yetgach, tamom bo'lishiga uning e'tiborini alohida jalb etish foydadan xoli emas.

2. Bola biror narsa buyumni takomillashtirish maqsadida uni aksincha xunuk darajaga yetkazib qo'yar ekan, buning ortida fazoviy me'yorlarni yaxshi his etmaslik turishi mumkinligi e'tiborga olib, bu sohadagi rivojlanishni qo'llab quvvatlash uchun birinchi navbatda:

a) bolaga qandaydir narsa-buyumni berayotganda, ko'rsatayotganda uning o'rta qismi qayerdaligini, bu yerdan ikki tomonga bir xil o'lcham davom etishi va agar markaz tomonlarning biriga yaqinlashtirilsa, buyum o'z muvozanatini yo'qotishiga uning e'tiborini alohida jalb etish mumkin;

b) bola bilan narsa-buyumlarning qismlari haqida suhbat qurganda, bu qismlarning qaysilarini qanday darajada olib tashlagandan keyin buyumni tanib bo'lmasligiga uning e'tiborini alohida jalb etish maqsadga muvofiq;

v) bola bilan biror joyga ketayotganda, sayir qilayotganda yo'lda uchrayotgan qandaydir narsa-buyumgacha yetib borish uchun taxminan qancha qadam tashlash kerakligi, qancha qadamda undan o'tib ketish yoki unga yetib bormaslik mumkinligiga uning e'tiborini alohida jalb etish foydadan holi emas.

3. Bola muayyan harakatni boshlab, vaqtida to'xtatmasligi sababli o'ziga ham, birovga va atrof-muhitga ham ziyon yetkazib qo'yar ekan, buning ortida harakat me'yorlarini yaxshi his etmaslik turishi mumkinligini e'tiborga olib, bu sohada rivojlanishni ta'minlash uchun, avvalo:

a) bola bilan o'yin o'ynagan, ish qilganda qanday harakatlarni bajarmay tegishli amalni ro'yobga chiqarib bo'lmasligi, qanday harakatlarni esa bunda amalga oshirish zarur emasligi, hatto, ortiqcha va xalaqit beruvchi ekaniga uning e'tiborini alohida jalb etish mumkin;

b) bola ishtirokida narsa-buyumlar bilan turli amallarni bajarayotganda, masalan, uni kiyintirayotganda qanday qanday harakatlar buyumlarga ziyon yetkazishi mumkinligiga uning e'tiborini alohida jalb etish maqsadga muvofiq;

v) bola ko‘z o‘ngida biror ish harakatni bajarayotganda harakat qanday amal bilan yakunlanayotgani, qaysi amal ishning yakuni belgisi ekanligiga uning e’tiborini alohida jalb etish foydadan xoli emas.

Yuqoridagi mulohazalar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, oilaning ijtimoiylashtirish funksiyasini o‘rganishda nazarimizda,

birinchidan, nafaqat ota-ona shaxsi, oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlar kabi sof psixologik hodisalar, balki oilaning kundalik maishiy turmush tarzi, ichki tartibini ham bolalar psixik rivojlanishida muhim determinant sifatida ko‘rib chiqish;

ikkinchidan, oila turmush tarzining bu boradagi ta’sirini me’yor hissi kabi bazaviy psixologik o‘zgaruvchilar misolida o‘rganish ilmiy tadqiqotlarning istiqbolli yo‘nalishi bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абрамов А.И. Мера //Эстетика: словарь/ Под ред. А.А.Беляева. – М.: Политиздат, 1989. – С.200-201.
2. Каримова В.М. Ижтимоий психология. Олий ўқув юртлари талаба ва магистралари учун дарслик.-Т., 2012 – 196 б.
3. Афоризмы. Золотой фонд мудрости/Сост. Ермишин О. – М.: Просвещение, 2006. - 1695 с.
4. Богачева А.В., Мальцева С.М., Лужкова Е.А. Влияние семейного климата на развитие личности современного студента// Инновационная экономика: перспективы развития и совершенствования. – 2019. – №5 (39). – С.11-17.
5. Гребенникова В.М., Руденко Е.Ю. Социальная инфантильность родителей как фактор формирования отклоняющихся моделей поведения детей// Международный научно-исследовательский журнал. – 2018. – №1-4 (67). – С.31-34.
6. Григорьева О.Н. Развитие чувства меры как фактор становления музыкально-эстетического вкуса учащихся// Искусство и образование. – М., 2011. №4. – С.95-101.
7. Лукашук А.В. Саморазрушающее поведение родителей девушек, совершивших попытку самоубийства// Здравоохранение Югры: опыт и инновации. – 2017. – №4. – С.61-64.
8. Маркова А.И., Ляхович А.В., Гутман М.Р. Образ жизни родителей как детерминанта здоровья детей // Гигиена и санитария. – 2012. – №2. – С.55-61.
9. Цветкова Е.В. Влияние семьи на формирование личности несовершеннолетнего преступника// Аграрное и земельное право. – 2025. – №5. – С.400-402.
10. Юмкина Е.А. Социально-психологические критерии типологии семейного уклада// Russian Journal of Education and Psychology. – 2014. – №12 (44). – С.155-166.

UDK 159.91:159.



Ibodullayev Zarifboy Radjabovich,
tibbiyot fanlari doktori, preofessor

PSIXOLOG – INSON QALBINING DIRIJYORI

Fransuzchadan “diriger” boshqarmoq, yo‘naltirmoq degan ma’nolarni anglatadi. Bu so‘zlar o‘zbek psixologiyasining darg‘alaridan biri, zabardast olima ayol, ustoz Vasila Mamanosirovna Karimova haqida bitilgandek go‘yo. Olimning ilm-fan va jamiyatda tutgan o‘rnini nafaqat uning yaratgan asarlari va tayyorlagan shogirdlari, balki vatan va millat ravnaqi yo‘lida ko‘rsatgan jonbozliklari ham belgilab beradi.

Vasila Karimova ilmiy asarlar va shogirdlar sonini ko‘paytirish ketidan quvmadi (afsuski bunday olimlar oramizda yo‘q emas), balki ilmiy asarlar zarurati, sifati va iqtidorli yoshlarni tanlab olib ulardan o‘ziga shogird tanlashga asosiy urg‘uni berdi. Shu bois uning shogirdlari kam sonli bo‘lsa-da, juda iqtidorli va ilm-fanning haqiqiy fidoyilaridir.

Vasila Karimovaning asosiy ilmiy yo‘nalishi ijtimoiy psixologiya bo‘lib, bu sohada yirik ilmiy asarlar, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari yaratdi. Ustoz tomonidan yaratilgan ushbu asarlar nafaqat umumiy psixologlar, balki tibbiy psixologlar tomonidan ham sevib mutolaa qilinadi. Ayniqsa olimaning “Salomatlik psixologiyasi” asari biz – tibbiy psixologlarning sevimli kitobiga aylangan. Vasila Karimova “Oila” ilmiy-amaliy markazining asoschilaridan biri hisoblanadi. Ushbu markazni bir necha yillar boshqargan olima “Oila” ilmiy jurnalining bosh muharriri sifatida faoliyat ko‘rsatdi, oila va jamiyat muammolarini dadil ko‘tarib chiqdi, shu masalaga oid ilmiya asarlar yaratdi, shogirdlar tayyorladi va ular nafaqat markazda, balki chekka viloyatlarda ham faoliyat ko‘rsatib kelishmoqda.

Vasila Karimova bilan tanishishimiz ham qiziqarli voqealarga boy bo‘lgan. Kamina 2008-yili “Tibbiyot psixologiyasi” darsligini yozadi va uni professor Ergash G‘oziyev yoniga taqrizga olib boradi. Chunki ushbu darslik O‘zbekistonda ilk bora tayyorlanayotgani uchun Toshkent tibbiyot akademiyasi rahbariyati psixologiya

sohasidan taqrizchilardan biri albatta Ergash G‘oziyev bo‘lishi kerakligi ko‘rsatib o‘tilgan edi. E.G‘oziyev menga “Qanday qilib nevrolog olim tibbiyot psixologiyasidan darslik yozishi mumkin?” deb taqriz yozib berishdan bosh tortdi va men ularning oldiga ko‘p bora qatnab yurishimga to‘g‘ri keldi. Meni aslo tanimaydigan inson, ya’ni Vasila Karimova bundan xabar topib, Ergash G‘oziyevga yuzlanib “Bu yigit juda настырный” ekan, axir tibbiyotchi olimning o‘zi psixologiyaga intilayotgan bo‘lsa, keling uning ko‘kragidan itarmaylik, aksincha bunday harakatni olqishlash kerak. Vaqti kelib bu yigit tibbiyotchilar bilan psixologlar orasida ko‘prik rolini o‘ynashi mumkin” dedi. Bu so‘zlar o‘jar olimga sehrli ta’sir qildi va kitobga taqriz yozib berishga rozilik berdilar.

O‘zbekistonda ilk bora tayyorlangan “Tibbiyot psixologiyasi” darsligimiz 2009-yili “Yilning eng yaxshi darsligi” sovriniga sazovor bo‘ldi, darslikning keyingi nashrlariga Vasila Karimovaning o‘zlari taqrizchi bo‘ldilar. Ular tibbiyot psixologiyasiga juda qiziqadilar, agar ilmiy anjumanlarda uchrashib qolsak, darrov kaminani yonlariga chaqirib olib salomatlik psixologiyasi haqida suhbat qurishni boshlab yuboradilar. Men boshqa zabardast psixolog ustozlar singari, Vasila Mamanosirovnani o‘zimga ustoz deb bilaman. Mana keyingi paytlarda “Klinik psixologiya” yo‘nalishuni rivojlantirish borasida boshqa professor olimlar singari o‘zlarining qimmatli maslahatlarini berib kelmoqdalar.

“Psixolog – inson qalbining dirijyori” dedik. Bu so‘zlar to‘laqonli ravishda Vasila Karimova kabi bag‘rikeng, yuksak ma’naviatli va seqirra olimga tegishli. Tavallud ayyomingiz muborak bo‘lsin, Ustoz!

UDK 159.91:159.



Qodirov Umarali Do‘stqobilovich,
psixologiya fanlari doktori, professor

FIDOYI INSON VA OLIMA

Har bir yurtning ziyolilari, olimlari, ulug‘ insonlari bo‘ladi — ularning hayoti yoshlarga, avlodlarga ibrat, faoliyati esa millat ma’naviyatining oynasiga aylanadi. Ana shunday yuksak insoniy fazilatlarga va namuna bo‘lgulik hayot yo‘liga ega insonlardan biri — psixologiya fanlari doktori, professor Vasila Mamanosirovna Karimovadir.

Vasila Karimova 1998-yili Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti (hozirda O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti) aspiranturasida o‘qib yurganimizda bizga darsga kirardi. O‘sha vaqtlarda O‘zbekistonda ayol fan doktorlari juda kam edi va Vasila Karimova psixologiya fanlari bo‘yicha birinchi o‘zbek olimasi hisoblanardi.

Opa bosh ko‘tarmay ma’ruzani o‘qib beradigan ayrim o‘qituvchilardan farqli ravishda hech qachon qog‘ozga qaramasdi va darslari juda jonli, qiziqarli bo‘lardi. Moskva psixologiya ilmiy maktabi vakilasi sifatida bilganimiz uchun Vasila Karimovaning biror darsini o‘tkazib yubormaslikka harakat qilardik.

Rus yozuvchisi Anton Pavlovich Chexovning “Insonda hamma narsa go‘zal bo‘lishi kerak: yuzi ham, kiyimi ham, qalbi ham, fikrlari ham” degan fikri bor. Mening nomzodlik dissertatsiyam ulug‘ o‘zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriy asarlarida aks etgan ijtimoiy-psixologik fikrlar, qarashlarni psixologiya fani nuqtai nazaridan tadqiq qilishga bag‘ishlangan edi. “Mehrobdan chayon” asarida adibning Ra’no obraziga bergan bir ta’rifi yodimda qolgan. Ya’ni, “Ra’no Farg‘onaning kuylarga qo‘shilib maxtalaturg‘an go‘zallaridan edi”. Men adibning romanlarini bir necha marta o‘qiganman. Lekin, negadir, 1998-yildan keyingi har bir mutolaamda shu ta’rifni o‘qisam, ko‘z oldimga farg‘onalik professor, surati ham, siyrati ham go‘zal ayol Vasila Karimova kelardi. Bu gaplarimda zarracha yolg‘on, bo‘rttirish yoki mubolag‘a yo‘q.

Vasila Karimova davlat rahbari, Birinchi Prezident Islom Karimov 2000-yil 6-aprel kuni Oqsaroy qarorgohida milliy istiqlol g‘oyasi masalalariga bag‘ishlab

o‘tkazgan yig‘ilishda ta’lim, yoshlarni o‘qitish bilan bog‘liq o‘z fikrlarini bildirdi. Fikrlarki, tosh bosadigan, mantiqli mulohazalar edi. Agar o‘sha vaqtlarda kim shu yig‘ilishga bag‘ishlangan ko‘rsatuvni ko‘rgan bo‘lsa, Islom Karimov alohida Vasila Karimovaning takliflari, fikr-mulohazalarini qo‘llab-quvvatlagan, ustozning shaxsiga e’tibor qaratgandi.

Men yuqorida Vasila Karimovaning Moskva psixologiya maktabini xatm qilganligini esladim. Moskva psixologiya maktabining tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bu maktabni o‘tagan olimlar uning ko‘plab qoidalarini butun umri davomida o‘z faoliyatlarida tatbiq etadilar. Bular — psixikani o‘rganishda tizimli yondashuvni ishlab chiqish, psixikani tadqiq qilishda ob’ektiv usullarga e’tibor qaratish, psixikaning shakllanish, rivojlanishi jarayonida biologik va ijtimoiy tarkibiy qismlarni taqqoslab tahlil qilish, umumpsixologik, ijtimoiy amaliyot muammolarini o‘rganishda fanlararo yondashuv mezonlariga amal qilishdir. Aytaylik, Moskva davlat universiteti professori, Galina Mixaylovna Andreyevaning “Ijtimoiy psixologiya” nomli klassik darsligi bir necha o‘n yil davomida Rossiya va turli MDH davlatlari institut va universitetlarida asosiy darslik sifatida qo‘llangan bo‘lsa, Galina Andreyevaning shogirdi Vasila Karimovaning “Ijtimoiy psixologiya” darsligi O‘zbekistonda mustaqillikdan keyin oliy ta’lim muassasalarida hozirgacha o‘qitilayotgan asosiy darsliklardan biri bo‘lib qolmoqda.

Vasila Karimovaning turli yillarda nashr etilgan “Psixologiya”, “Ijtimoiy psixologiya”, “Boshqaruv psixologiyasi”, “Oila psixologiyasi” singari o‘nlab darsliklari, o‘quv qo‘llanmalarida shaxs fenomeni, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar, ijtimoiy muhitga moslashish, oilaviy munosabatlar psixologiyasi, konflikt holatlari, ijtimoiylashuv jarayonlari va boshqaruv psixologiyasining o‘ziga xos jihatlari kabi masalalar tadqiq etilgan.

Olimaning pedagogik faoliyati ham serqirra bo‘lib, u Farg‘ona davlat universiteti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Boshqaruv Akademiyasi talabalari va tinglovchilari uchun ko‘p yillar davomida qiziqarli ma’ruzalarni o‘qidi va hozir ham O‘zbekiston milliy pedagogika universitetida professor lavozimida faoliyat olib bormoqda.

Mamlakatimizda psixologik ta’lim sifatini yuksaltirishda, jahon psixologiyasi metodologik taraqqiyoti umumiy yo‘nalishiga hamohang muammolarning O‘zbekiston kontekstida tadqiq etilishida Vasila Karimova rahbarligidagi, u asos solgan ilmiy maktab vakillarining ham xizmati kattadir.

Hozirgi kungacha Vasila Karimova 5 nafar fan doktoriga ilmiy maslahatchilik qilgan bo‘lsa, 30 dan ziyod fan nomzodi, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ustoz ilmiy rahbarligida dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli yoqlab, o‘zbek psixologiya fani rivojiga o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqdalar.

Men dastlab filologiya yo‘nalishini bitirganim, o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchisi bo‘lganim uchun poliglot insonlarga doim havasim keladi. Vasila

Karimova respublikamizdagi psixologlar orasida rus va o‘zbek tillarida hech qiynalmay, fikrini mukammal, ravon, chuqur ilmiy tafakkur va mushohada asosida bayon qiladigan kam sonli zullisonayn olima, professorlardan biri bo‘lib, bu ham ustozimizning o‘rnak olish zarur bo‘lgan fazilatlaridan hisoblanadi.

Vasila Karimova ancha yillar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Oila" ilmiy-amaliy markaziga rahbarlik qildi. Poytaxtda faoliyat yuritgan kezlarimda turli masalalar yuzasidan bu maskanga tez-tez borib turardim. Markazda do‘stlarim, ko‘p tanishlarim ishlardilar. O‘sha vaqtlarda e'tiborimni tortgan jihat shu bo‘ldiki, Vasila opaning rahbar sifatida me'yorga rioya qilish singari juda yaxshi bir odati bor ekan (darvoqe, ayni shu xislat nazarimda turli bo‘g‘indagi ayrim rahbarlarda hozirgi kunda yetishmayotganday). O‘zi ijtimoiy psixolog, olima bo‘lgani uchunmikan, boshqaruv uslublarini mukammal tadqiq qilib, bu yo‘nalishda darsliklar yozgani vajhidandir yoki boshqa sabablari bormi - Vasila opa qo‘l ostidagi xodimlarga xushmuomalalik, ayni paytda talabchanlik, xullas, zargarona mohirlik bilan munosabatda bo‘lardi. Ya'ni, amaliyotchi psixolog sifatida boshqaruvdagi avtoritar, liberal, demokratik uslublarning barcha imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanar, o‘z kitoblarida talqin qilgan partisipativ boshqaruvni amalda – bir vaqtning o‘zida iqtisodiyot universitetidagi "Ijtimoiy psixologiya" kafedrasida ham joriy qila olgan edi. Kuzatishlarimga ko‘ra, opaning xodimlari rahbar tomonidan bo‘ladigan doimiy bosim ostida asabiylik, stress holatiga ham tushishmasdi, shu bilan birga topshiriqlar ijrosiga beparvo qarab, ularni o‘z holiga ham tashlab qo‘yishmasdi. Jamoada qat'iy tartib, intizom, ayni paytda, o‘zaro hurmat, e'tibor, empatiya, ijobiy psixologik iqlim muhiti hukm surardi, shunga mos ravishda samara, natija ham yuqori ko‘rsatkichlarni namoyon qilardi. Kafedrada haqiqiy lider borligi har nafasda sezilib turardi.

Vasila Karimova chin, haqiqiy ma'noda O‘zbekiston Respublikasidagi psixolog olimlarning darg‘a ("korifey")laridan biridir. Bir necha yillardan buyon Vasila Karimova bilan birgalikda O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi psixologiya fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash va ilmiy seminar a'zosi sifatida faoliyat yurityapmiz (ustoz ko‘p yillar kengash va seminar raisi bo‘lib ham ishladilar). Tadqiqotchi, dissertantlar ishlarining seminar va kengashdagi muhokamalari jarayonida shunga amin bo‘ldimki, Vasila Karimovada tadqiqotchilarga nisbatan onalarcha mehribonlik, g‘amxo‘rlik, ularni tushunish bilan birgalikda talabchanlik, prinsipiallik, fanning hurmati uchun kerak bo‘lsa, yuzing-ko‘zing demaslik kabi xarakter xususiyatlari bor ekan (o‘zimning nomzodlik va doktorlik dissertatsiyam himoyasida ustozning beg‘araz, xolisanillo juda katta yordam berganlarini ham aytib o‘tmasam bo‘lmaydi). Seminar yoki ilmiy kengashda ishi muhokama yoxud himoya qilinayotgan tadqiqotchi Vasila opa tomonidan berilgan savollarga qoniqarli, ma'qul javob bersa, ustoz tomonidan maqtaladi (albatta, me'yor darajasida), mabodo aksi bo‘lsa, talabgorning holiga (u kim bo‘lishidan qat'i nazar, hatto shogirdlarining shogirdi yoki opa bilan bir viloyatdan bo‘lsa ham) havas qilib bo‘lmaydi.

Vasila Karimovaning aytish mumkin bo‘lsa, psixologik portretiga chizgilar sifatidagi fikrlarimiz davomida bir narsaga alohida e’tibor qaratishni istardim. Yana Abdulla Qodiriy ijodiga murojaat qilsak, “O‘tkan kunlar” romanidagi O‘zbek oyim obrazidagi bir xususiyatni men Vasila Karimova shaxsida ham uchratganday bo‘laman. O‘zbek oyim o‘z qadrini biladigan ayol sifatida (zero, inson birinchi navbatda o‘zini qadrlamasa, uni boshqalar hurmat qilmaydi) uncha-muncha chaqiruvlarga “kavushim ko‘chada qolgan emas” deb boravermaydi. Vasila opa yuqorida ta’kidlaganimizdek, kamtarin, e’tiborli, diplomat inson, biroq zarur paytda tegishli odamlarga o‘zining asl bahosini ham bildirishni uddalaydi, kerak vaqtda boshqalarni o‘z fikri bilan hisoblashishga ham unday oladi.

Vasila Karimovani haqli ravishda nafaqat olima, balki kuchli voiz, notiq sifatida ham e’tirof etishadi. Pedagogik faoliyat uchun nihoyatda zarur bo‘lgan bu xususiyat opaning respublikamiz turli hududlaridagi ta’lim tashkilotlari, ilmiy-pedagogik muassasalar jamoalari, talabalar bilan bo‘lgan uchrashuvlarida, ilmiy anjumanlardagi chiqishlarida yorqin namoyon bo‘ladi. Vasila Karimovaning har bir ma’ruzasini yoshlar uchun master-klass (mahorat saboqlari) sifatida baholash mumkin. Jumladan, Termiz davlat universiteti, Termiz pedagogika instituti, Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi talaba va tinglovchilari, professor-o‘qituvchilar jamoasi bilan olima bir necha marta uchrashuvlar o‘tkazgan bo‘lib, bu singari taassurotlarga boy uchrashuvlar o‘ylaymizki, hali ko‘p tashkil etiladi.

Vasila opaning “Ilm-insonni qaritmaydi” degan bir gaplari bor. Buni majoziy ma’noda olimning umri, nomi yaratgan asarlari, tarbiyalagan shogirdlari, amalga oshirgan ishlari bilan avloddan-avlodga o‘tib borishi, xalq yodidan chiqmasligi nuqtai nazaridan ham tushunish mumkin. Ikkinchi tomondan, hozirgi ilm-fanning shahodat berishicha, ilmiy faoliyat bilan muntazam shug‘ullanadigan, bosh miya faolligi doimiy qo‘llab-quvvatlab turiladigan shaxslar, ijodkor insonlar, ko‘p mutolaa qiladigan odamlar, olimlarda umrning davomiyligi nisbatan yuqori bo‘lar ekan. Vasila opa esa ko‘p o‘qiydigan, yangi ma’lumotlardan doimiy xabardor bo‘lib boradigan, o‘z ustida muntazam ishlaydigan, sportchilar ta’biri bilan aytganda “formani” yo‘qotmaslikka harakat qiladigan olimadir. Shu jihatdan kutib olinayotgan tug‘ilgan kunlari opaning hali juda ko‘plab nishonlanadigan yubileylari, tavalludlaridan biri hisoblanadi va nasib bo‘lsa, an’anaviy bo‘lib qoladigan “Vasila Karimova o‘qishlari” ilmiy anjumanlarini yubilyarning o‘zlari bir asrlik pog‘onani hatlab o‘tganlarida ham shaxsan ochib beradilar, deb umid qilaman, ishonaman. Ustozga esa tug‘ilgan kunlarida chin dildan tabriklarimni bildirib, doim oilaviy, kasbiy muvaffaqiyatlar, kuch-quvvat, shijoat, baxt-saodat, yaxshiliklar hamroh bo‘lishini, ilm yo‘lidagi xizmatlari, mehnati va fidoyiligi samarasini ko‘rib yurishlarini tilayman!

УДК: 159.9.072.432



Абидова Зиёда Аскаровна
Доцент кафедры психологии Национального университета Узбекистана,
доктор философии по психологическим наукам



Джалалов Уктам Джалилович
Доцент кафедры Медико-биологических дисциплин EMU University,
кандидат медицинских наук

ВОЗРАСТНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ТОЛЕРАНТНОСТИ ЛИЧНОСТИ: АНАЛИЗ В КОНТЕКСТЕ НАУЧНЫХ ВОЗЗРЕНИЙ В.М.КАРИМОВОЙ

Аннотация. В статье приводятся результаты исследования возрастных особенностей проявления толерантности личности в контексте научных взглядов В.М.Каримовой. В эмпирическом исследовании приняли участие 772 человека, разделенные на четыре возрастные группы: отрочество, юность, ранняя зрелость и средний возраст. Для анализа данных использовался критерий Краскала-Уоллиса. Установлено, что общий уровень толерантности значимо различается возрастными группами, достигая максимума в период ранней зрелости. Выявлена возрастная динамика компонентов толерантности: с переходом от отрочества к зрелости доминирующая роль смещается от эмоционального компонента к когнитивному и далее к поведенческому.

Ключевые слова: Исследования В.М.Каримовой, возрастные особенности, отрочество, юность, ранняя зрелость, средний возраст,

толерантность, интолерантность, эмоциональный компонент, когнитивный компонент, поведенческий компонент, личность.

SHAXS TOLERANTLIGINING YOSH XUSUSIYATLARI: V.M.KARIMOVA ILMIY QARASHLARI KONTEKSTIDA TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada V.M.Karimovaning ilmiy qarashlari kontekstida shaxs tolerantligining namoyon bo'lishidagi yosh xususiyatlari tadqiqoti natijalari keltirilgan. Empirik tadqiqotda 772 kishi ishtirok etdi, ular to'rtta yosh guruhiga: o'spirinlik, yoshlik, erta etuklik va o'rta yoshga bo'lingan. Ma'lumotlarni tahlil qilish uchun Kruskal-Uollis mezonidan foydalanilgan. Tolerantlikning umumiy darajasi yosh guruhlar orasida sezilarli darajada farq qilishi, erta yetuklik davrida maksimal darajaga yetishi aniqlandi. Tolerantlik komponentlarining yosh dinamikasi ochib berildi: o'spirinlikdan kattalik davriga o'tish bilan dominant rol hissiy komponentdan kognitiv komponentga va keyin esa xulq-atvor komponentga o'zgarishi aniqlandi.

Kalit so'zlar: V.M.Karimova tadqiqotlari, yosh xususiyatlari, o'spirinlik, yoshlik, erta yetuklik, o'rta yosh, tolerantlik, intolerantlik, hissiy komponent, kognitiv komponent, xulq-atvor komponent, shaxs.

AGE-RELATED FEATURES OF PERSONALITY TOLERANCE: AN ANALYSIS IN THE CONTEXT OF V.M. KARIMOVA'S SCIENTIFIC VIEWS

Abstract. The article presents the results of a study on the age-related features of personality tolerance manifestation in the context of V.M. Karimova's scientific views. The empirical study involved 772 individuals divided into four age groups: adolescence, youth, early adulthood, and middle age. The Kruskal-Wallis test was used for data analysis. It was found that the overall level of tolerance differs significantly among age groups, reaching its maximum in the period of early adulthood. The age dynamics of tolerance components were revealed: with the transition from adolescence to maturity, the dominant role shifts from the emotional component to the cognitive and further to the behavioral component.

Keywords: Research of V.M. Karimova, age-related features, adolescence, youth, early adulthood, middle age, tolerance, intolerance, emotional component, cognitive component, behavioral component, personality.

Васила Маманасировна Каримова является одним из ведущих и наиболее цитируемых психологов Узбекистана, чья научная деятельность оказала значительное влияние на развитие социальной психологии не только в республике, но и в целом в регионе Центральной Азии. Её вклад многогранен и охватывает теоретические, эмпирические и практические аспекты науки.

Анализ возрастных особенностей личности является важной составляющей частью научных исследований профессора В.М.Каримовой, хотя она в первую очередь известна как социальный и этнический психолог. Её подход к возрастной психологии уникален тем, что она никогда не рассматривала развитие личности в отрыве от социального и культурного контекста Узбекистана. Возрастные особенности изучаются ею как динамические характеристики, на которые напрямую влияют этнические нормы, семейные традиции и социальные преобразования в обществе.

В своих работах В.М.Каримова уделяет особое внимание формированию личности в период детства и отрочества, акцентируя роль культурной среды. По её мнению, в процессе социализации у ребёнка формируется чувство принадлежности к своему народу (узбекскому, каракалпакскому и др.) и к государству Узбекистан. Это ключевая задача подросткового и юношеского возраста.

Профессор анализирует, как традиционные культурные нормы (например, уважение к старшим, скромность, гостеприимство) и современные влияния формируют разные модели поведения у мальчиков и девочек. В её работах изучается влияние семейного воспитания и подчёркивается роль расширенной семьи (несколько поколений, проживающих вместе) в передаче ценностей и норм, что накладывает отпечаток на процесс становления самостоятельности и личностной автономии у подростков.

Юношеский возраст (молодость) является центральным для её исследований, так как именно в юности, по мнению ученного, закладываются основы будущей жизни. В.М.Каримова изучала, как молодые люди в Узбекистане выбирают профессию, и какие факторы оказываются ведущими: личный интерес, мнение родителей, престиж профессии в обществе или экономическая целесообразность. Также исследуется динамика ценностных ориентаций молодежи в условиях глобализации. Как сочетаются традиционные ценности (семья, религия, уважение к традициям) с современными (карьера, личный успех, индивидуальность).

В узбекской культуре юношеский возраст тесно связан с подготовкой к созданию семьи. Работы В.М.Каримовой затрагивают социально-психологические установки молодежи на брак, выбор партнёра и распределение ролей в семье.

Зрелый возраст и период поздней зрелости представлено менее широко. В.М.Каримова рассматривает и эти возрастные этапы через призму социальных ролей и культурных ожиданий. Ею анализируется, как человек реализует себя в зрелом возрасте как профессионал, супруг, родитель и хранитель семейных традиций. Особое внимание уделяется роли зрелого человека в поддержании межпоколенческих связей. Рассматривается социальный статус пожилых людей в узбекском обществе, где традиционно высоко уважение к старшим ("аксакал"). Исследуется, как изменение

социальной ситуации (например, переход на пенсию) влияет на самоощущение и удовлетворенность жизнью.

В.М.Каримова убедительно доказывает, что не существует универсальных "возрастных особенностей". Кризисы, задачи развития и специфика каждого возрастного этапа (например, подростковый бунт или кризис среднего возраста) проявляются по-разному в зависимости от конкретной социокультурной среды Узбекистана, которая характеризуется коллективистской ориентацией (важность семьи и общества превыше индивидуальных целей), почитанием старших, сильными традициями и религиозными нормами.

Таким образом, вклад Василы Маманасировны заключается в том, что она "пропустила" классические возрастные периодизации через призму узбекской ментальности и культурных практик, показав уникальный путь становления личности в условиях современного Узбекистана. Её работы служат основой для разработки образовательных и социальных программ, учитывающих национально-культурную специфику.

Анализируя научные воззрения В.М.Каримовой мы решили проанализировать возрастные особенности толерантности личности. Ведь возраст влияет на поведение, предпочтения и потребности людей. Как утверждают многие исследователи, возраст человека играет важную роль в развитии толерантности. Чем моложе человек, тем более открыт к новым идеям и различиям, возможно это и способствует развитию толерантности.

Поскольку возрастные рамки могут немного варьироваться в зависимости от различных теорий и культурных особенностей в данном исследовании мы решили исследовать следующие возрастные периоды:

1. Период отрочества: ученики 7-8 класса - подростковый возраст (13-15 лет) - 199 человек. Данный возраст также называется пубертатным, в котором наблюдаются физиологические изменения, поиск своей идентичности, бунт против авторитетов.

2. Период юности: ученики 9-11 классов - юность (16-18 лет) - 135 человек. Как известно именно в этом возрасте наблюдаются формирование мировоззрения, профессиональных планов, активная социальная жизнь.

3. Период ранней взрослости: магистры и клинические ординаторы (20-25 лет) - 360 человек. Данный период наблюдается в основном окончание образования, начало самостоятельной жизни, создание семьи, карьера.

4. Период средней взрослости: клинические ординаторы старше 30 лет (30-35 лет) - 78 человек. Данный период максимальной продуктивности, реализация жизненных целей. Всего в исследовании возрастных особенностей личностной толерантности участвовало 772 человек.

Возрастные особенности толерантности личности изучили с помощью авторской методики «Самоопределение уровня толерантности». Методика даёт возможность определить уровень толерантности личности, с её помощью

можно оценить эмоциональный, когнитивный и поведенческие компоненты толерантности. Данные компоненты в свою очередь имеют статические и динамические свойства по шкалам «Я – для себя», «Я – для окружающих» и «Идеальное Я». Методика применяется как для самооценки уровня личностной толерантности, так и для осуществления мониторинга эффективности осуществляемых программ по развитию толерантности.

Анализ возрастных особенностей проявления толерантности наглядно представлено на нижеследующей рисунке.




Рис. Возрастные особенности проявления толерантности личности

Как видно из рисунка, в период отрочества больше проявляется эмоциональный компонент толерантности, в юности больше наблюдается когнитивный компонент, тогда как в ранней зрелости у большинства встречается одинаково выраженность двух или всех трех компонентов толерантности, а в среднем возрасте больше поведенческого компонента толерантности. Анализ возрастных особенностей показал наличие значимых различий (таблица).

Таблица

Возрастные различия проявления толерантности личности

Компоненты толерантности	Отрочество		Юность		Ранняя зрелость		Средний возраст		Критерий Краскала-Уоллиса	Уровень значимости (P)
	n	Сред. ранг	n	Сред. ранг	n	Сред. ранг	n	Сред. ранг		
Эмоциональ-ный	69	98,76	40	80,08	69	108,78	19	104,21	6,609	0,085
Когнитивный	40	66,49	58	87,11	58	109,72	20	75	19,056	0,000*
Поведенческий	34	80,79	15	75	90	98,03	34	69,31	10,037	0,018*
Одинаково выражены два или три компонента	56	60,79	22	64,7	143	140,85	5	136,4	74,465	0,000*
Всего уровень толерантности	199	301,87	135	333,75	360	461,75	78	346,43	79,831	0,000*

*Примечание: *отмечены статистически значимые различия*

Анализ возрастных различий проявления толерантности показывает, что среди участников периода ранней зрелости наблюдается более высокий уровень толерантности. Возможно это связанно с возрастными особенностями, свойственными данному периоду. Ведь именно это возраст психическигармоничной развитости личности, обеспечивающий ее эффективную включенность в социальные отношения.

Таким образом, в нашем исследование выявлено наличие статистически значимых возрастных различий в проявлении толерантности личности. Наиболее высокий общий уровень толерантности наблюдается в период ранней зрелости (20-25 лет), что связывается с психической гармоничностью и активной социальной включенностью личности в этом возрасте. Структура толерантности меняется с возрастом: в отрочестве (13-15 лет) преобладает эмоциональный компонент, в юности (16-18 лет) — когнитивный, в ранней зрелости наблюдается сбалансированность двух или трех компонентов, а в среднем возрасте (30-35 лет) ведущим становится поведенческий компонент.

Результаты анализа возрастной специфики толерантности с учетом социокультурного контекста Узбекистана, развивая идеи профессора В.М.Каримовой, могут быть использованы при разработке возрастно-

ориентированных педагогических и психологических программ формирования и развития толерантности личности.

Литература:

1. Каримова В. Ижтимоий психология ва ижтимоий амалиёт // Т.: Университет. – 2000. – Т. 268.
2. Karimova V. Psixologiya. (o'quv qo'llanma) // T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti. – 2002. – T. 205.
3. Каримова В. Оилавий ҳаёт психологияси // Ўқув қўлланма. – 2006. – Т. 142.
4. Karimova V. M., Sunnatova R. I., Tojibayeva R. N. Mustaqil fikrlash //T.: Sharq. – 2000. – T. 111.
5. Karimova V., Akromova F., Lutfullayeva N. Ijtimoiy psixologiya //Toshkent-2007. – 1994.
6. Абидова З.А. Сущность и реалии феномена «толерантность»: монография / З.А.Абидова; Отв.ред. Г.Б.Шоумаров; Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека. – Ташкент: Navro'z, 2016. – 187 с.
7. Абидова З.А. «Толерантность как фактор развития эмоционального интеллекта». European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Том 4, No 10 (2016).
8. Абидова З. А. Педагогические методики раскрытия и развития индивидуальной толерантности // Австрийский журнал гуманитарных и социальных наук. 2016. No9-10. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/pedagogical-techniques-to-disclose-and-develop-individual-tolerance (дата обращения: 27.03.2024).
9. Абидова З.А. Авторское описание методики «Самоопределение уровня толерантности»// Деп. в ГУП «Intellekt Ekspert» 29.04.2016, № 000184. – Ташкент, 2016. – 4 с.
10. Абидова З.А., Джалалов У.Д. Взаимосвязь уровня толерантности и психологического здоровья личности. Психологическое здоровье личности: теория и практика 2022 (pp. 3-6).
11. Джалалов У.Д., Абидова З.А. Особенности саморегуляции клинического мышления молодых врачей в зависимости от педагогических технологий. Личностные и регуляторные ресурсы человека в условиях социальных вызовов 2023 (pp. 100-105).

UDK 159.91:159



Turayeva Dilafruz Rustamboyevna,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

QALBIMGA ILM CHIROG'INI YOQQAN USTOZIM...

Inson hayotida haqiqiy yo'lboshchiga aylana oladigan, fikr va ruhiyatga ta'sir o'tkazadigan buyuk insonlar uchraydi. Men uchun ana shunday ulug' shaxs — ustoz, pedagog va olim Vasila Karimovadir.

U kishi menga ilmni faqat nazariy bilim sifatida emas, balki qalbdan anglash, hayot bilan bog'lash, shaxsiy taraqqiyotning asosi sifatida qabul qilishni o'rgatdilar. Ustozning har bir maslahati, har bir mulohazasi mening ilmiy faoliyatimda yo'l ko'rsatuvchi mayoq bo'ldi.

Dissertatsiya yozish, tadqiqot olib borish jarayonida ustoz menga ma'lumot yig'ishdan avval savol qo'ya bilish, kuzatish, tahlil qilish va eng muhimi, o'zini anglashni o'rgatdi. U kishi ilmni inson qalbi bilan uyg'un holda olib borish kerakligini ta'kidlar edilar: "Haqiqiy tadqiqotchi — qalbi bilan izlanadi", degan so'zlari mening ilmiy dunyoqarashimga aylandi.

Vasila Karimova menga ishonch bildirdi, va aynan shu ishonch mening ilk ilmiy qadamlarimda tayanch bo'ldi. Ustozning ta'siri ostida men faqat ma'lumot emas, balki inson ruhiyatiga bo'lgan hurmat, ijtimoiy mas'uliyat va izlanish ruhini o'rgandim.

Ustoz Vasila Karimovaning ilmiy faoliyati va yaratgan merosi bugungi kunda ham o'zining nazariy va amaliy ahamiyati bilan ajralib turadi. U kishining "Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot" nomli ilmiy-uslubiy qo'llanmasi nafaqat ta'lim jarayonidagi muhim manba, balki zamonaviy jamiyatda insonning psixologik holati, o'zaro munosabatlari va ijtimoiy muhit ta'sirini chuqur tahlil qiluvchi ilmiy tadqiqot sifatida yuqori baholanadi.

Asarning differensial xususiyati shundaki, u ijtimoiy fikr, ijtimoiy idrok, guruh ierarxiyasi va shaxsning jamiyatdagi mavqei kabi tushunchalarni milliy

madaniyat, an’ana va ruhiy omillar bilan uyg‘unlashtirgan holda tahlil etadi. Karimova ijtimoiy psixologiyani mustaqil fan sifatida keng yoritib, uning falsafiy, psixologik va sotsiologik asoslarini milliy zaminga mos ravishda shakllantirish zarurligini ilgari suradi.

Qo‘llanmada ijtimoiy psixologiyaning predmeti, vazifalari, tadqiqot metodlari hamda boshqa fanlar bilan bog‘liqligi tizimli va izchil ravishda yoritilgan. Asarning markaziy ilmiy g‘oyalaridan biri — shaxs va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirchan munosabatlarni faqat nazariy emas, balki hayotiy misollar asosida tahlil etishdir. Jumladan, shaxsning ijtimoiylashuvi, guruhdagi adaptatsiya jarayonlari, ijtimoiy identifikatsiya va marginalizatsiya kabi murakkab jarayonlar zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida talqin etiladi.

Ustoz Karimova ijtimoiy va amaliy psixologiyaning yangi metodologik paradigmalarini shakllantirish, milliy psixologik maktabni rivojlantirish yo‘lida faol ilmiy izlanishlar olib bormoqda. U kishi pedagogika va psixologiya sohalaridagi chuqur bilim, tahlil qobiliyati va metodologik madaniyatni yosh tadqiqotchilarga samarali o‘rgatib kelmoqda.

Vasila Karimovaning ilmiy faoliyati nafaqat nazariy bilimlar bilan boyitilgan, balki inson shaxsiyati, ruhiyati va ijtimoiy muhit o‘rtasidagi murakkab bog‘liqliklarni anglashga yo‘naltirilgan. U kishining ishi va ijodi ko‘plab yosh mutaxassislar uchun ilhom manbai bo‘lib xizmat qilmoqda.

Hurmatli Vasila Mamansirovna sizni tavallud ayyomingiz munosabati bilan samimiy muborakbod etar ekanman, butun umringizni ezgulik, ma’rifat va ilm taraqqiyotiga bag‘ishlagan inson sifatida chin qalbimdan chuqur ehtirom va minnatdorlik izhor etaman.

Sizning O‘zbekistonda ijtimoiy psixologiya fanining shakllanishi va rivojida tutgan o‘rningiz beqiyosdir. Sizning ilmiy merosingiz, mutaxassis kadrlar tayyorlashdagi xizmatlaringiz va o‘ziga xos pedagogik maktabingiz – bugungi va kelajak avlod uchun barchaga ibrat manbai bo‘lib xizmat qilmoqda.

Sizdan ta’lim olgan shogirdlaringiz nafaqat bilimli mutaxassis, balki insonparvar, vatanparvar va hayotda o‘z o‘rnini topgan shaxslar sifatida kamol topmoqda. Sizning mehnatsevarlik, fidoyilik va yuksak insonparvarlik fazilatlaringiz barchamiz uchun munosib namunadir.

Tavallud kuningizda Sizga ilm yo‘lida yanada katta zafarlar, bardavom sog‘lik, tinch va fayzli hayot, oilaviy osoyishtalik va ilmiy ilhom tilayman!

UDK 159.922.8:159.922.7:3



Нарзикулова Фируза Батыровна,
доктор психологических наук (DSc), профессор
кафедры «Педагогика, психология и физическая культура»,
Самаркандский государственный институт иностранных языков

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ВЫЗОВЫ ПОДГОТОВКИ МОЛОДЕЖИ К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ РЕАЛЬНОСТИ

Аннотация: В статье анализируются психологические особенности подготовки молодежи к семейной жизни в условиях цифровой трансформации. Рассматриваются вызовы цифровой реальности, влияющие на эмоциональную зрелость и коммуникативную культуру. Подчеркивается значимость формирования ответственного отношения к семье и предлагаются рекомендации по психолого-педагогической поддержке, развивающей эмоциональную, социальную и цифровую компетентность молодежи.

Ключевые слова: молодежь, семейная жизнь, цифровая реальность, эмоциональная зрелость, межличностные отношения, психолого-педагогическая поддержка, нормативно-правовая база.

PSIXOLOGIK CHAQIRIQLAR: YOSHLARNI RAQAMLI HAQIQAT SHAROITIDA OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH

Annotatsiya. Maqolada raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Raqamli haqiqatning yoshlarning emotsional yetukligi va kommunikativ madaniyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi chaqiriqlari ko‘rib chiqiladi. Oilaga mas’uliyatli munosabatni shakllantirish ahamiyati ta’kidlanadi va yoshlarning emotsional, ijtimoiy hamda raqamli kompetensiyasini rivojlantiruvchi psixologo-pedagogik qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: yoshlar, oilaviy hayot, raqamli haqiqat, emotsional yetuklik, shaxslararo munosabatlar, psixologo-pedagogik qo'llab-quvvatlash, normativ-huquqiy baza.

PSYCHOLOGICAL CHALLENGES OF PREPARING YOUTH FOR FAMILY LIFE IN THE CONTEXT OF DIGITAL REALITY

Abstract. The article analyzes the psychological aspects of preparing youth for family life under conditions of digital transformation. It examines the challenges of digital reality that affect emotional maturity and communicative culture. The importance of fostering a responsible attitude towards family is emphasized, and recommendations are proposed for psychological and pedagogical support aimed at developing the emotional, social, and digital competence of young people.

Keywords: youth, family life, digital reality, emotional maturity, interpersonal relations, psychological and pedagogical support, regulatory framework.

В условиях цифровизации всех сфер жизни, включая межличностные отношения, формируется новое поколение молодых людей, чьи представления о семье, браке и партнёрстве существенно отличаются от традиционных моделей. Цифровая среда, с одной стороны, открывает новые возможности для общения и самовыражения, с другой — формирует поверхностные связи, снижает уровень эмпатии и способности к глубокой эмоциональной близости. В этом контексте актуализируется необходимость формирования у молодежи не только правовых и социальных знаний о семейной жизни, но и устойчивой психологической готовности к ней. Решение данной задачи требует системного подхода, включающего разработку и внедрение психолого-педагогических программ, адаптированных к вызовам цифровой эпохи. Современное общество переживает цифровую трансформацию, в рамках которой формируется новая модель межличностных взаимодействий. Молодежь как активный участник цифрового пространства сталкивается с новыми психологическими вызовами, затрудняющими формирование зрелой семейной идентичности. Актуальность данной темы подтверждается рядом нормативных документов Республики Узбекистан и международных соглашений, в которых подчеркивается необходимость воспитания гармонично развитой личности, готовой к созданию устойчивых семейных отношений.

В частности, в Конституции Республики Узбекистан (статья 63) семья признана основой общества, подлежащей особой защите государства. В Законе "О государственной молодежной политике" (2016) указано, что одним из направлений политики является содействие духовно-нравственному и интеллектуальному развитию молодежи, включая подготовку к семейной

жизни. Стратегия гендерного равенства Узбекистана на 2022–2030 гг. также акцентирует внимание на формировании гендерно-чувствительных установок в семье. Международные нормы, такие как Цель 5 Повестки ООН в области устойчивого развития на период до 2030 года, направлены на достижение гендерного равенства и расширение прав женщин и девочек, включая равенство в браке и семье. ЮНЕСКО подчеркивает важность интеграции жизненных навыков, включая семейную грамотность, в систему образования[4].

Цифровая эпоха, или информационно-коммуникационная революция XXI века, принесла с собой не только технологические прорывы, но и глубокие трансформации в сфере психологии человека. Особенно ярко эти трансформации проявляются у молодёжи, находящейся на этапе личностного, эмоционального и социального становления. На основе обзора психологической литературы установлено[5], что у современной молодежи наблюдается цифровая зависимость и отчуждение, которое проявляясь в постоянном доступе к интернету, соцсетям, мессенджерам и видеоконтенту, формирует зависимость от цифровых стимулов. Это нарушает способность концентрироваться, снижает уровень эмпатии и усиливает ощущение одиночества. В свою очередь это ведет к таким психологическим последствиям, как нарушению сна и внимания, эмоциональное выгорание и тревожные расстройства, замещение реального общения виртуальным, дефицит навыков эмпатии.

Современные социальные сети формируют «глянцевый» образ семейной жизни, где преобладают идеализированные визуальные образы, отфильтрованные эмоции и демонстративное благополучие. Такая медийная реальность оказывает мощное влияние на сознание молодежи, формируя завышенные ожидания относительно семейных ролей, уровня эмоциональной зрелости, способов решения конфликтов и стиля общения в паре. Молодые люди, ориентируясь на виртуальные «модели» отношений, нередко сталкиваются с когнитивным диссонансом при столкновении с реальностью первых лет брака — в результате возникает разочарование, эмоциональная неудовлетворенность, тревожность, а самооценка начинает зависеть от внешних критериев одобрения и сравнения.

Цифровые платформы усиливают эмоциональное давление на молодежь, особенно в вопросах самоопределения, социальной репутации и построения межличностных связей. Виртуальное общение часто оказывается поверхностным, лишенным эмоциональной глубины и эмпатийного отклика. Это приводит к утрате навыков «живого» выражения чувств, конструктивного разрешения конфликтов и заботливого взаимодействия. Подобная эмоциональная неграмотность обусловливает снижение уровня эмоционального интеллекта, рост агрессии, раздражительности, неспособность к открытому обсуждению проблем и принятию

ответственности в отношениях. Скорость цифровых коммуникаций формирует иллюзию легкости и быстрой заменяемости партнёров, что приводит к снижению мотивации к сохранению и развитию отношений, к утрате устойчивости и ответственности. Как следствие, формируются тревожные и избегающие типы привязанности, затрудняющие формирование зрелых и доверительных связей.

Особое внимание в современном профессиональном дискурсе специалистов в области психологии, психиатрии и медицины уделяется новым формам цифровых нарушений социального взаимодействия. Распространение таких феноменов, как «цифровой призрак» (ghosting), свидетельствует о дефиците этики общения и неспособности к конструктивному завершению отношений. Исследователями активно изучаются такие явления, как номофобия (страх остаться без мобильного телефона), страх выпасть из информационного потока, киберостракизм (исключение из цифрового общения), техноференс (вмешательство технологий в личные отношения) и другие[1]. Подготовка к семейной жизни в условиях цифровой реальности требует учета множества психологических вызовов, обусловленных трансформацией форм общения и взаимодействия. Цифровая среда не только расширяет возможности для установления и поддержания отношений, но и порождает новые риски, связанные с нарушением эмоциональной близости и социальной стабильности, которые, в свою очередь свидетельствуют о снижении способности к эмпатии, ответственности и конструктивному завершению межличностных связей. Эти феномены указывают на необходимость формирования у будущих партнеров не только цифровой культуры, но и устойчивых навыков эмоционального интеллекта, способствующих гармоничным и зрелым отношениям в условиях цифровой эпохи.

В условиях стремительного развития цифровых технологий и трансформации форм межличностного взаимодействия психологи и педагоги играют ключевую роль в формировании у молодежи устойчивых жизненных ориентиров, эмоциональной зрелости и готовности к осознанному вступлению в брак. Их профессиональная деятельность направлена не только на передачу знаний, но и на развитие навыков, обеспечивающих гармоничное сосуществование в семье в условиях информационной перегрузки и социальных вызовов. Одной из главных задач психолога и педагога становится развитие у молодежи способности к открытому, уважительному и конструктивному диалогу. В условиях цифровой среды, где преобладают краткие и искаженные формы коммуникации, молодые люди часто испытывают трудности в выражении чувств и понимании эмоций партнёра. Через тренинги, ролевые игры, арт-терапевтические техники и психологические практикумы специалисты обучают будущих супругов

базовым навыкам эмпатии, управления эмоциями, активного слушания и ненасильственного общения.

В рамках образовательных и воспитательных программ важно формировать у молодежи представление о распределении ролей в семье, об ответственности каждого партнёра, а также о правах и обязанностях в браке. Такие занятия позволяют снизить уровень конфликтности в будущих семьях, научить компромиссу и взаимной поддержке, предотвратить формирование ложных ожиданий. Групповая форма работы стимулирует обмен мнениями, моделирование типичных ситуаций и формирует устойчивые ценностные ориентиры.

Психологи и педагоги активно используют игровые, симуляционные и тренинговые методы (например, деловые игры, тренинги по построению доверительных отношений, тренинги семейной совместимости), позволяющие молодежи "примерить на себя" различные семейные роли, оценить собственные поведенческие установки и найти адекватные модели поведения. Это способствует формированию критического мышления и осознанного подхода к построению брачных отношений. Не менее значимым является вовлечение родителей в процесс подготовки молодежи к семейной жизни. Психологи и педагоги организуют консультации, семейные клубы, открытые уроки и круглые столы, направленные на укрепление внутрисемейных связей, передачу положительного опыта и традиций, развитие доверия и поддержки между поколениями. Родители становятся важными социальными моделями, транслирующими ценности взаимного уважения и заботы.

Таким образом, влияние цифровой среды на социальную и эмоциональную сферу жизни современной молодежи становится не просто предметом внимания, а ключевым направлением научного анализа и практической работы. В условиях информационной перенасыщенности, деформации социальных сценариев и навязывания медийных стереотипов особую актуальность приобретают вопросы цифровой гигиены, развития эмоционального интеллекта, формирования зрелой привязанности и укрепления навыков живого, эмпатийного общения. Цифровая реальность, при всех своих возможностях, несет и риски — эмоционального отчуждения, искажения представлений о семейных ценностях, фрагментации идентичности личности. В этой связи профессиональная деятельность педагогов и психологов приобретает стратегический характер: она направлена не только на коррекцию возникающих искажений, но и на создание психолого-педагогических условий, способствующих становлению зрелой, ответственной и гармоничной личности, готовой к построению устойчивой семьи в динамично меняющемся мире. Подготовка молодежи к семейной жизни в условиях цифровизации должна основываться на комплексном междисциплинарном подходе, включающем психологическую просвещенность, развитие навыков саморегуляции, социальную

ответственность и цифровую грамотность. Важно не только информировать, но и формировать личность, способную к осознанному выбору, к конструктивному диалогу и к построению партнерских, доверительных отношений.

Объединение усилий психологов, педагогов, государственных структур и международных институтов становится необходимым условием создания эффективных программ, обеспечивающих эмоциональную, социальную и цифровую зрелость будущих супругов, что в конечном итоге служит укреплению института семьи и устойчивому развитию общества.

Список литературы:

1. Бойкина Е.Э. Современные лики социального остракизма: гостинг, орбитинг, фаббинг, культура отмены. // Современная зарубежная психология. – 2022 - Том 11. № 2. - С. 131–140.
2. Каримова В.М. Оила психологияси: Дарслик. Педагогика олийгоҳлари талабалари учун . Т.: "Fan va texnologiya", 2008 – 152 б.
3. Каримова В.М. Ижтимоий психология. Олий ўқув юртлари талаба ва магистралари учун дарслик.-Т., 2012 – 196 б.
4. Кусс Д.Ж., Гриффитс М.Д. Социальные сети в интернете и зависимость: обзор психологической литературы. // Международный журнал экологических исследований и общественного здравоохранения (International Journal of Environmental Research and Public Health). — 2011. — Сентябрь; Т. 8, № 9. — С. 3528–3552. DOI: 10.3390/ijerph8093528
5. Нарзикулова Ф.Б. Использование цифровых технологий в создании психолого-педагогических условий формирования здорового образа жизни. //BIO Web Conf., 120 (2024) 01045. DOI: doi.org/10.1051/bioconf/202412001045
6. Руководство по реализации жизненных навыков для устойчивого развития. Paris: UNESCO, 2019. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000261625_rus
7. Нарзикулова Ф.Б. и др. Использование цифровых технологий в создании психолого-педагогических условий формирования здорового образа жизни. //BIO Web Conf., 120 (2024) 01045. DOI: doi.org/10.1051/bioconf/202412001045; **Кусс Д.Ж., Гриффитс М.Д.** Социальные сети в интернете и зависимость: обзор психологической литературы. // Международный журнал экологических исследований и общественного здравоохранения (International Journal of Environmental Research and Public Health). — 2011. —**Т. 8**, № 9. — С. 3528–3552. DOI: 10.3390/ijerph8093528.

UDK 159.922

Jo‘rayev Bahrom,
Qarshi davlat universiteti
“Psixologiya” kafedrasi professori,
psixologiya fanlari doktori (DSc)
Abdirashidova Qurbonoy Baxtiyor qizi,
psixologiya yo‘nalishi 2-bosqich magistri

VOYAGA YETMAGAN BOLALAR TARBIYASIDA AXBOROTLARNING PSIXOLOGIK XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING ASOSIY JIHATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqola voyaga yetmagan bolalar tarbiyasida axborotlarning psixologik xavfsizligini ta’minlashning asosiy yo‘nalishlari mavzusiga bag‘ishlangan. Shuningdek, maqola matni mazmunida axborot tushunchasining mazmun-mohiyati, axborotlarning psixologik xavfsizligiga oid chora-tadbirlar hamda muammoga oid qator psixolog, sotsiolog, faylasuf, siyosatshunos olimlarning fikr-mulohazalari, ilmiy izlanishlari mazmuni kabilar ham keng miqyosda yoritilgan.

Kalit so‘zlar: axborot, yoshlar, voyaga yetmagan yoshlar, psixologik xavfsizlik, axborotlarning psixologik xavfsizligi, tahdidlar, globallashuv, ijtimoiy tarmoqlar, internet, ommaviy madaniyat, telekommunikatsiya, ijtimoiy tarmoqlar, mafkuraviy tahdid, psixologik himoya.

ОСНОВНЫЕ АСПЕКТЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ИНФОРМАЦИИ В ВОСПИТАНИИ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ ДЕТЕЙ

Аннотация. Данная статья посвящена основным направлениям обеспечения психологической безопасности информации в воспитании несовершеннолетних детей. В содержании статьи раскрываются сущность и значение понятия «информация», меры по обеспечению психологической безопасности информационных потоков, а также представлены взгляды и научные исследования ряда психологов, социологов, философов и политологов по данной проблематике.

Ключевые слова: информация, молодежь, несовершеннолетние, психологическая безопасность, психологическая безопасность информации, угрозы, глобализация, социальные сети, интернет, массовая культура, телекоммуникации, идеологические угрозы, психологическая защита.

KEY ASPECTS OF ENSURING THE PSYCHOLOGICAL SAFETY OF INFORMATION IN THE UPBRINGING OF MINORS

Annotation. This article is devoted to the main directions of ensuring the psychological safety of information in the upbringing of minors. The content of the article reveals the essence and significance of the concept of "information," measures aimed at maintaining the psychological safety of information flows, as well as the opinions and scientific research of psychologists, sociologists, philosophers, and political scientists related to this issue.

Keywords: information, youth, minors, psychological safety, psychological safety of information, threats, globalization, social networks, internet, mass culture, telecommunications, ideological threats, psychological protection.

Ma'lumki, inson hayoti nafaqat tabiiy muhitda, balki o'zi yaratgan ijtimoiy muhitda ham kechadi. Ijtimoiy muhitni shartli ravishda ikki qism: texnosfera (texnika, texnologiyalar va h.k.) va infosfera (axborot muhiti)ga ajratish mumkin. Shunga ko'ra, insonning hayotiy faoliyati tabiat bilan birgalikda, kishilik jamiyatining o'ziga xos axborot muhitida ro'y beradigan jarayondan iboratdir. Axborot sohasi esa o'ziga xos qonuniyatlar asosida rivojlanadi.

Jamiyat axborot sohasining birinchi xarakterli xususiyati shundaki, u inson (alohida insonlar, ayrim guruhlar, tashkilotlar, muayyan ijtimoiy institutlar va h.k.) tomonidan doimiy ravishda va tez sur'atlarda kengayib boradi. Ayniqsa, keyingi vaqtlarda jamiyatning axborot sohasi jadal kengaymoqda, uning sur'atlari doimiy oshmoqda.

Shu bilan bir vaqtda, jamiyatda ro'y berayotgan tub o'zgarishlar axborot sohasining ham keskin miqdoriy va sifatiy o'zgarishlariga olib kelmoqda. Ushbu hodisalar telekommunikatsion vositalar va axborot texnikasining jadal rivojlanishi, sifat jihatdan tubdan yangi axborot texnologiyalari va tizimining yaratilishi sharoitlarida ro'y bermoqdaki, ular esa jamiyatni ijtimoiy boshqarishda axborot-kommunikativ jarayonlar va turli darajali axborot omillarini belgilovchi o'rinlarga chiqarmoqda.

Haqiqatan ham, ijtimoiy rivojlanish mantig'ining o'zi ushbu muammolarni birlamchi darajaga chiqarmayotganligi bejiz emas. Zotan, axborot-psixologik xavfsizligi ta'minlanmasdan shaxs, davlat, jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, harbiy va boshqa sohalardagi xavfsizligini himoya qilish qiyin. Ana shularni nazarda tutadigan bo'lsak, har qanday darajadagi xavfsizlikni ta'minlashda belgilovchi o'rin tutuvchi shaxs, uning axborot xavfsizligini ta'minlash muammolarini tadqiq-tahlil etish dolzarb vazifalardan biridir.

Maqola mavzusining dolzarbligini yana quyidagilar bilan izohlash mumkin:

- bugungi kunda kundalik xalqaro munosabatlarda "axborot urushi", "axborot qarama-qarshiligi", "axborot bosimi" va h.k. kabi tushunchalar ko'p ishlatilayotganligi aholini, xususan, yoshlarni axborot xurujidan himoyalash bo'yicha zarur choralar ko'rish muhimligini yanada oshiradi;

- hozirda yoshlar ongi ma'lum darajada ommaviy axborot vositalarining faoliyati va axborot resurslarining ta'siridadir;

- ochiq axborot tizimi sharoitida shaxs, jamiyat va davlatning axborot xavfsizligi bilan bog'liq muammolarni hal qilishning ahamiyati yanada oshadi;

- ayni vaqtda, axborot tizimi imkoniyatlarini milliy manfaatlarni himoyalash va rivojlantirish, shuningdek, global axborot makonida yoshlarning manfaatlarini amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratish yo'lida foydalanish juda muhim hisoblanadi va hokazo.

Siyosatshunos A.G.Muminovning fikricha, murakkab tizimli tuzilma bo'lgan axborot sohasi tarkibidagi axborot-kommunikativ jarayonlar orqali dinamik va o'zgaruvchan qism sifatida individual, guruhiy va ijtimoiy ruhiyat (individual, guruhiy va ommaviy ong)ga faol ta'sir ko'rsatadi". Axborot ta'sirlarga eng ko'p darajada jamiyatning ma'naviy sohasi uchraydi. Bu ba'zan qadriyatlar tizimi sifatida ham tushuniladi.

Bundan farqli ravishda, S.K.Roshin ma'naviy qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar o'z navbatida ijtimoiy hayotning boshqa asosiy sohalariga, jumladan, siyosiy va iqtisodiy sohalarga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun o'tgan asrning 90-yillari o'rtalaridan tadqiqotchilar va amaliyotchi-mutaxassislar shaxs, davlat, jamiyatning axborot-psixologik xavfsizligi muammolariga katta e'tibor qaratishmoqda deb ta'kidlaydi.

S.N.Averinsev esa, axborot sohasining bunday tezlik bilan rivojlanishi, uning potensiali va imkoniyatlarining o'sishi, uning jamoatchilik va davlat hayotidagi turli xil yo'nalishlarda keng tarzda ishlatilishi, yangi – XXI asrdagi odamzot taraqqiyotini aniqlab beruvchi muhim omillarning biri bo'la oladi deb tushuntiradi.

Hozirga qadar yoshlarni axborot xurujlaridan psixologik jihatdan asrash, global sharoitda axborotlarning psixologik xavfsizligi muammolarining psixologik, falsafiy, pedagogik hamda siyosiy masalalari, qator tadqiqotchi olimlar tomonidan o'rganilgan. Axborot almashuvi, xavfsizlik haqidagi qarashlar qadimgi o'rta asr va yangi davrlarda mavjud bo'lsa-da, biroq bu tendensiya, asosan, XX asrda dolzarb muammo sifatida ko'tarildi, chunki bu asrning ikkinchi yarmida dunyoning qiyofasi tubdan o'zgarib, ushbu masalani uzil-kesil hal qilishga yetarli ehtiyoj sezildi.

Shaxs axborot xavfsizligining nazariy-metodologik va amaliy jihatlari O'zbekistonning birinchi prezidenti I.A. Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari", "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" va boshqa asarlarida keng yoritilgan.

Axborot psixologik xavfsizligiga shaxs tafakkuri, ma'naviyatiga ta'siri G'arb olimlaridan P.Byukenennning "G'arbning halokati", F.Tofflerning "Uchinchi

to‘lqin”, S.Xantington asarlarida o‘z ifodasini topadi. Biroq bu asarlarda ushbu mavzuga sivilizatsiyalarning halokati nuqtai nazaridan yondashilgan.

Rossiyada axborot-psixologik xavfsizligini ta’minlash haqidagi ilmiy ishlar Lisichkin V.A., Shelepin L.A., Grinyayev S.N., Viner N., Viktorov A.F., Grachev G., Melnik I., Zelinskiy S.A., Anosov V.D., Yarochkin V.I., Smolyan G.L., Zarakovskiy G.M., Rozin V.M., Voyskunskiy A.Y. tomonidan yaratilganiligini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Biroq ular olib borgan tadqiqotlar axborot xavfsizligini ko‘proq siyosiy nuqtai nazardan, davlatlararo munosabatlarda yoritadi.

Yurtimizda axborot xavfsizlik masalalarini o‘rganish faqat mustaqillikka erishganimizdan so‘ng boshlandi. Sababi, dunyodagi mafkuraviy qarama-qarshiliklarning kuchayishi, global axborot bozorining shakllanishi va unda asosiy ishtirokchilar mavqeining kuchayishi natijasida ushbu masala yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizning taniqli olimlari – A.A.Azizxo‘jayev, Q.N.Nazarov, R.Z.Jumayev, Sh.Paxrutdinov, A.Mo‘minov, F.Mo‘minov, R.S.Samarovlarning asarlarida bu masalaga katta e’tibor berilgan. Xususan, Alisher Mo‘minovning “O‘zbekiston: axborotlashgan jamiyat sari” monografiyasida jamiyatimizni demokratlashtirish va axborot sohasidagi liberallashtirish jarayonlarining mazmun-mohiyati va ahamiyati chuqur tadqiq etilgan. Lekin mazkur tadqiqotlarda voyaga yetmagan yoshlarning axborot psixologik xavsizligining ta’minlashning psixologik yo‘nalishlari va usullari yetarlicha yoritib berilmagan.

Axborot-psixologik xavfsizlikni ta’minlashning vazifalari, quyidagi yo‘nalishlari va usullari ilmiy asoslangandir. Bu yerda bola, jamiyat va davlatning axborot sohasidagi milliy manfaatlarini himoya qilish bilan bog‘liq vazifalar, turli tahdidlarga qarshi kurash usullarini nazariy jihatdan o‘rganilishi va tahlil etib borilishi zarur. Zotan, voyaga yetmagan bolalarda axborot xavfsizligini ta’minlashning psixologik jihatlarini boshqarish siyosiy-huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik yo‘llar orqali amalga oshiriladi. Bularning negizida avvalo informatsion boshqarish mavjud. Voyaga yetmagan bolalarda axborot xavfsizligini ta’minlashning psixologik jihatlarini axloqiy me’yorlariga qat’iy amal qilish axborot-psixologik xavfsizligining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Axborot-psixologik xavfsizlik – davlat, jamiyat va voyaga yetmagan bolalarga ziyon yetkazishi mumkin bo‘lgan tasodifiy yoki qasddan qilingan axboriy ta’sirlardan himoyalashga qaratilgan muhim sa’y-harakatdir.

Bugun kompyuterlashtirilgan dunyo, yalpi axborotlashtirilgan global tizimning vujudga kelishida millatlar va butun insoniyat taqdirini bir-biriga bog‘lab qo‘ydi. Axborot olish va tarqatish texnologiyasi g‘oyat taraqqiy etib ketdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Internet orqali axborot xavfsizligini ta’minlashning psixologik jihatlarini voyaga yetmagan bolalarda yer yuzining istalgan joyidagi boshqa bolalar bilan aloqa o‘rnatishi, qator saytlarga axborotini joylashtirishi mumkin. Bunday mo‘jizakor imkoniyatlardan ba’zilar g‘arazli maqsadlarda foydalanib, “axborot xuruji”,

axborot-psixologik hujumlar uyushtirishga harakat qilmoqda. Axborot-psixologik hujumning bola ruhiyatiga salbiy ta'siri haqida ko'p fikrlar ilgari surilayotgani bejiz emas.

Birinchidan, bolaning dunyoqarashi irodasi, mustahkam bo'lishi uchun uning hayotga, ertangi kunga, o'zining kuch va imkoniyatlariga ishonchi barqaror bo'lishi kerak. Ayniqsa, farzandlarimiz qalbida kelajakka ishonch tuyg'usini oshirish uchun ularning, yuqorida ta'kidlanganidek, asosli va haqqoniy ma'lumot va axborotlarga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu borada ommaviy axborot vositalari bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni, yangilanish va o'zgarishlar jarayonlarini har tomonlama chuqur, ta'sirchan usullar orqali yoritib borishi zarurligini tushuntirib o'tirishning hojati yo'q.

Ikkinchidan, biz o'z yurtimizni o'zimiz, o'z mehnatimiz, peshona terimiz bilan obod etmasak, buning uchun belni mahkam bog'lab ishlamasak, hech kim chetdan kelib bu ishni qilib bermaydi. Shuning uchun ham biz ota-bobolarimiz xoki yotgan bu yurt, bu muqaddas zamin – bizniki, uning buguni va istiqboli faqat o'zimizga bog'liq, mustaqillik poydevorini qurgan insonlar boshlagan ishlarni davom ettirish – bizning ezgu burchimiz, degan tushunchani, kerak bo'lsa, hayotiy e'tiqodni yoshlarimizning ongu shuuriga chuqur singdirishimiz darkor.

Voyaga yetmagan o'smirlarni axborot-psixologik xavfsizligiga rioya qilinmasa, ularga ta'sirchan choralar ko'rilmasa, buzg'unchi g'oyalar milliy qadriyatlarni barbod etish orqali tarixan mavjud bo'lgan xalqlar va millatlarni genotsidga olib kelishi muqarrar.

H.N.Sherbaning fikricha, axborotlar inson tafakkuri rivojlanishi dinamikasini ta'minlab, keyinchalik unga yaqin bo'lgan psixologik xususiyatlar, ya'ni kreativlik, intellekt, sotsial intellekt, iste'dod kabilarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday mulohazalar axborotlarning ijobiy funksiyasini nazarda tutadi.

Hozirgi kunda ham yurtimizga nisbatan qilinayotgan axborot xurujlari va boshqa buzg'uncha xatti-harakatlar zamirida o'sha g'oyalarning deyarli hammasini amalda kuzatish mumkin. Ularga qarshi kurashda avvalo o'sha masalaga nisbatan maqsad va rejalarini aniq bilib olish maqsadga muvofiqdir. Mana shu o'rinda maqola mavzusi yuzasidan o'tkazilgan dastlabki empirik tadqiqotimiz natijalarini taqdim etmoqchimiz. Tadqiqotda obyekti sifatida talaba yoshlar tanlab olindi.


Tadqiqot uchun ayrim maxsus psixologik yozma so'rovnoma ishlab chiqildi.

Tadqiqot 2018-yilning may oyida O'zMU va Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti talabalari orasida o'tkazildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi bu – maqola mavzusida ilgari surgan nazariy xulosalarimizni empirik materiallar yordamida, amaliy jihatlarda asoslashdan iborat.

Empirik tadqiqotda jami 128 ta respondent qatnashib, ularning 56 tasi O'zMU, 72 tasi Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti (TDSHI) talabalari hisoblanadi. Shuningdek, tadqiqotda 95 ta erkak va 33 ta ayol jinsiga mansub respondentlar ishtirok etishdi.

Tadqiqotning ilk savolini "Ommaviy axborot vositalaridan qay darajada foydalanasiz?" deb shaklantirdik va unga munosabat bildirishni respondentlardan so'radik. Savolning natijalari esa quyidagi diagrammada o'z aksini topdi.

1-rasm



Oliy ta'lim muassalari kesimida esa O'zMU talabalarining 41%i muntazam foydalanaman, 52%i bo'sh vaqtimda foydalanman va atigi 7%i foydalanmayman deb javob bergan bo'lsa, sharqshunoslik instituti talabalarining esa 55%i muntazam foydalanaman, 46%i bo'sh vaqtimda foydalanman va 9%i esa foydalanmayman degan natijani qayd etishgan.

Ma'lumki, hozirda axborot olish vositalarining soni kundan-kunga ko'payib bormoqda. So'rovda ishtirok etganlarning 40%i o'zi uchun kerakli ma'lumotlarni TV va Internetdan olishini ma'lum qilgan bo'lsa, 11%i matbuotdan va atigi 7%i radiodan olishini ma'lum qildi. 2% respondent esa bu savolga javob bera olmadi.

Navbatdagi savol bilan respondentlarni davriy matbuot materiallari bilan qiziqishlari darajasini o'rganishga harakat qildik. Tadqiqotda ishtirok etganlarning 26%i ha, doim o'qiyman, 61%i ha, ba'zan o'qiyman va 13%i esa yo'q, o'qimayman deb munosabat bildirishdi.

Mazkur munosabat sabablarini yana konkretlashtirish maqsadida "Qaysi nomdagi matbuotni o'qiysiz?" degan savolni ilgari surdik.

Respondentlarning har uchtasidan biri "Darakchi", har beshtadan biri esa "Xalq so'zi"ni muntazam o'qishini e'lon qildi, yana shunchasi esa hech qanday gazetani o'qimasligini ma'lum qildi. Demak, davriy matbuot materiallari yoshlarni qiziqtiradigan ma'lumotlar sifatida yetkazish bo'yicha ancha sustkashlik bo'layapti degan xulosaga keldik.

Matubotni doimiy ravishda kuzatib borayotganlarning deyarli yarmi ma'lumot olish uchun gazeta o'qishini ma'lum qilgan bo'lsalar, 15% oshig'i esa dunyoqarashini kengaytirishi va bo'sh vaqtini o'tkazish maqsadida bunday mashg'ulot bilan shug'ullanayotganliklarini ma'lum qilishdi.

Ma'lumki, hozirgi davrda yoshlarni o'qishlari va bo'sh vaqtlarini o'tkazishlarida Internet tarmog'iga murojaat qilishlari harakati kun sayin kengayib bormoqda. Tadqiqotda ishtirok etganlarning ham mutloq qismi, ya'ni salkam 75%i Internetdagi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanashini bildirgan bo'lsa, 25%i esa bu savolga salbiy javob qaytarishdi.

Yuqoridagi natajalardan ko'rinib turibdiki, bugungi kunda yoshlarning axborotga bo'lgan talabi juda katta. Ommaviy axborot vositalari va internet bugungi kundagi hayotimizning ajralmas qismiga aylangan, biroq undan qay darajada oqilona foydalanish esa hozirgi globallashgan davrning asosiy muammolaridan biridir. Ijtimoiy saytlar va internet portallari haqidagi quyidagi savollarimizga talabalarning bergan javoblarini tahlil qilamiz.

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanashini ma'lum qilganlarning har uchtasidan biri Ziyonet.uz va Google.ruga murojaat etishlarini ma'lum qilgan bo'lsalar, qolgan respondentlar Yozuvchi.uz, Kutubxona.uz va Aadabiyot.uznet.biz kabi saytlardagi materiallardan foydalanishlarini bildirdilar.

"Ijtimoiy saytlarning siz uchun qanday foydasi bor?" degan savolni ilgari surib, respondentlardan bu masalaga oydinlik kiritmoqchi bo'ldik va natijalar O'ZMU va TDSHI respondentlari kesimida quyidagi jadvalda o'z ifodasini topdi.

1-jadval

Ijtimoiy saytlarning talabalar uchun foydasi. % larda

№	Javoblar	O'ZMU	TDSHI
1	Ish yoki o'qishimga doir ko'p ma'lumotlarni olaman	57	46
2	Do'stlarim bilan aloqada bo'laman	17	37
3	Bo'sh vaqtimni o'tkazaman	7	12
4	Javob berishim qiyin	19	5

Ma'lumki, ijtimoiy hayotimizda milliy va diniy qadriyatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu omillar yoshlarimizni axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlashda salmoqli rol o'ynaydi. Ushbu ilmiy farazlarimizni amaliy materiallar misolida tekshirib ko'rish maqsadida respondentlar hukmiga "Milliy va diniy qadriyatlarga munosabatingiz qanday?" degan savolni havola qildik va natijalar quyidagi ko'rinish hosil qildi.

2-rasm



Mazkur savolga OO'YU kesimidagi javoblar quyidagi natijaga ega.

2-jadval

Milliy va diniy qadriyatlarga munosabat. % larda

№	Javoblar	O'ZMU	TDSHI
1	Ijobiy hamda muhim deya hisoblayman	54	67
2	Faqat foydali tomonlarini inobatga olaman	43	27
3	E'tiborsizman	0	2
4	Salbiy munosabatdaman	2	4
5	Javob berishi qiyin	1	0

Globallashuv jarayonida bir mamlakatga boshqasidan turli-tuman hodisalar kirib kelmoqda, jumladan G'arb jamiyatining "ommaviy madaniyat" hodisasi o'zining g'ayriinsoniy mazmunini Sharq mamlakatlarinig axloqiy me'yorlariga ham tatbiq etishga urinmoqda.

Xo'sh, yoshlarning o'zlari "ommaviy madaniyat" deganda nimani tushunmoqdalar? Mazkur savolga javob topish maqsadida ularga "Ommaviy madaniyat" deganda nimani tushunasiz?" degan savol bilan murojaat qildik.

Natijalar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, respondentlarning 42%i xorijdan kirib kelayotgan madaniyat elementlarini, har respondentning to'rtdan biri zamonaviy o'zbekona turmush tarziga oid hamma narsani, beshdan biri esa milliy qadriyatlarga zid bo'lgan madaniyatni va atigi har o'ntasidan biri esa axloqsizlikni targ'ib etuvchi madaniyatni degan munosabatlarini ilgari surishgan.

3-jadval

"Ommaviy madaniyat" haqidagi tasavvurlar (% larda)

№	Javoblar	O'ZMU	TDSHI
1	Zamonaviy o'zbekona turmush tarziga oid hamma narsani	30	21
2	Xorijdan kirib kelayotgan madaniyat elementlarini	38	42
3	Milliy qadriyatlarga zid bo'lgan madaniyatni	20	27
4	Axloqsizlikni targ'ib etuvchi madaniyatni	9	9
5	Javob berishi qiyin	3	1

Agarda bu hodisa haqida ma'lumotlar yetarli bo'lsa, unda unga bo'lgan munosabat qanday ekan? Bunday dolzarb masalani tahlili uchun amaliy ma'lumot olish juda zarurdir va shu maqsadda "Ommaviy madaniyat"ga munosabatingiz qanday?" degan savolni ilgari surdik.

So'rovda ishtirok etganlarning 27%i milliy qadriyatlar barham topadi, 16%i nafaqat matbuot, balki ommaning umumiy saviyasini tushiradi, 10%i sifatsiz materiallar ko'payadi va muammolarga munosabatda e'tibor bir xil fikrlashga qaratiladi degan javobni bergan bo'lsalar, lekin 36% respondent bu savolga javob bera olmagani ajabnarli holdir.

Ma'lumki, G'arb jamiyatida qadimiy illatlardan hisoblangan – fohishabozlik ham legallashtirilgan bo'lib, hozirgi kunda u ommaviy madaniyatning bir elementi sifatida e'tirof etilmoqda. Xo'sh, talaba yoshlarning bu axloqsizlikka munosabatlari qanday ekan? Mazkur savolga javob olish niyatida biz ularga "Ommaviy madaniyat" mahsuli bo'layotgan fohishabozlikka munosabatingizni bildiring degan savol bilan murojaat qildik.

So'rovda ishtirok etganlarning 75%i mutlaqo qoralayman, 14%i qoralamayman va 3%i e'tiborsizman degan munosabatni bildirgan bo'lsa, 8% respondent bu savolga javob berishni lozim topmadi. Demak, 25% respondent bu illatning millat uchun o'ta xatarli muammo ekanligini hali to'liq anglab yetmagan ko'rinadi.

Lekin, uning ta'sir doira kengayib borayotgani bizni sergaklikka undashi lozim. "G'arb jamiyatida qonunlashtirilayotgan bir jinsli nikohlarni bizda paydo bo'lish xavfi mavjudmi?" degan savolga so'rovda ishtirok etganlarning 43%i agarda biz yoshlar tarbiyasiga e'tiborsiz bo'lsak uni bizda paydo bo'lishi xavfi bor deb ogohlantirishsa, 42% respondent yo'q, milliy o'zligimiz bunga sira yo'l bermaydi

deb xotirjamliklarini izhor qilishgan. 15% respondent esa bu masalada hali fikrlari to‘liq shakllanmaganligini ma’lum qilishdi.

Demak, bu masalada ham yoshlar tarbiyasida olib boradigan ishlarimizni yanada takomillashtirish taqozo etilar ekan. Buning uchun birinchi galda, tabarruk zaminimiz – ona Vatanimizning qadriga yetish lozim. Yurt tuprog‘i nechog‘li tabarruk va aziz ekanligini yosh avlod qalbiga buyuk ajdodlarimiz ma’naviy jasoratini ulug‘ meros sifatida singdirish muhimdir.

Mazkur maqola orqali voyaga yetmagan yoshlar axborot-psixologik xavfsizligini ta’minlashning yo‘nalishlari va usullari atroflicha psixologik, pedagogik va sotsiologik konsepsiyalar orqali atroflicha yoritildi.

Maqola yuzasidagi nazariy tahlillarga tayanib, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

axborot ulkan ishlab chiqarish, kerak bo‘lsa, qayta ishlab chiqarish vositasiga aylanmoqda:

jamiyatning axborotlashuv jarayoni dunyodagi globallashuv hodisasi bilan o‘zaro uyg‘unlikda kechmoqda;

boshqa jamiyatlarda sog‘lom g‘oyalar bilan birgalikda milliy mafkuramizga zid keladigan ijtimoiy salbiy hodisalarining kirib kelishi xavf-xatari kuchaydi.

Voyaga yetmagan yoshlarni milliy xususiyatimizga zid keladigan zararli axborot oqimlaridan ishonchli va mustahkam himoya qilish ijtimoiy fanlar, ayniqsa, psixologiya fani mutaxassislari oldiga murakkab vazifalarni qo‘yyapti. Shaxsning psixologik himoya mexanizmi bu yot ta’sirlarga berilmaslik, turli vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilish shartlaridan biri sifatida ekanligini har bir psixolog mutaxassislar unutmasligi lozim.

Mazkur ma’suliyatli vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagilarni tavsiya etamiz:

axborotlashtirish vositalari faoliyatidagi mavjud shakl va usullarini o‘zgartirishimiz, ularni milliy manfaatlarimiz va zamonaviy mezonlarga muvofiqlashtirish;

axborot tahdidlariga qarshi barcha zamonaviy vositalardan foydalanish; ichki va tashqi siyosatda ro‘y berayotgan fakt va voqealarni yoritishda yangicha yondashuvlarni qo‘llash;

mahalliy ommaviy axborot vositalarining xalqaro miqyosdagi jamoatchilik fikriga ta’sirchanligini oshirish;

mamlakatimizga nisbatan g‘arazli kayfiyatda bo‘lgan xorijning ayrim ommaviy axborot vositalarini mafkuraviy xurujlariga munosib javob berish chora-tadbirlarini takomillashtirishni keskin jadallashtirishimiz hayot-mamot masalasidek namoyon bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мўминов А. Г. Ўзбекистон: ахборотлашган жамият сари. – Т.: “Турон замин зиё”. 2013. 95-97-бетлар.
2. Лисичкин В. А. Третья мировая информационно-психологическая война. -Москва.: «Bookap» 246 с.
3. Рощин С.К., Соснин В.А. Психологическая безопасность: новый подход к безопасности человека, общества и государства. //Российский монитор. 1995. № 6. – 36 с.
4. Общая теория безопасности (актуальные методологические и социально-политические проблемы). -Москва.: 1994. – 122 с.
5. Аверинцев С. «Тоталитаризм-ложный ответ на реальные вопросы - электронная библиотека культуры» М. ВЛАДОС. – 219. – с.
6. Информационно-психологическая безопасность личности: состояние и возможности психологической защиты. – Москва.: «Изд-во РАГС». 1998. – 223 с.
7. Доценко Е.Л. Психология манипуляции: феномены, механизмы и защита. – Москва.: 1997. – 226 с.
8. Щерба Н.Н. Безопасность человека. Безопасность общества. – Санкт-Петербург.: 1994.

UDK: 159.923.5-34

Jo'rayev Bahrom,
Qarshi davlat universiteti
"Psixologiya" kafedrasi professori,
psixologiya fanlari doktori (DSc)
To'raqulov Elyorjon Jamol o'g'li,
Psixologiya yo'nalishi 2-bosqich magistri

ICHKI ISHLAR XODIMLARIDA KASBIY ADAPTATSIYANI TAKOMILLASHTIRUVCHI PSIXOLOGIK DASTURIY IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy adaptatsiyasini kelib chiqishining takomillashtiruvchi dasturiy imkoniyatlarini yoritib berish, shuningdek, muvaffaqiyatli faoliyat jarayoniga ta'sir qiluvchi o'ziga xos xususiyatlar va omillar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: ichki ishlar xodimi, adaptatsiya, kasbiy adaptatsiya, psixologik barqarorlik, social adaptation.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОГРАММНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ АДАПТАЦИИ СОТРУДНИКОВ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ

Аннотация. В данной статье рассматриваются программные возможности совершенствования профессиональной адаптации сотрудников органов внутренних дел, а также специфические особенности и факторы, влияющие на успешность их профессиональной деятельности.

Ключевые слова: сотрудник органов внутренних дел, адаптация, профессиональная адаптация, психологическая устойчивость, социальная адаптация.

PSYCHOLOGICAL PROGRAMMATIC TOOLS FOR IMPROVING THE PROFESSIONAL ADAPTATION OF INTERNAL AFFAIRS PERSONNEL

Annotation. This article will consider the theoretical methodological foundations of the problem of professional adaptation of employees of internal affairs bodies, as well as the features and factors affecting the successful process of activity.

Keywords: internal affairs officer, adaptation, professional adaptation, psychological stability,

Ichki ishlar organlari xodimlarining xizmati ortiqcha yuklardan iborat bo‘lib, ularning kundalik faoliyati o‘qotar qurol, jismoniy kuch va maxsus vositalardan foydalanish bilan bog‘liq og‘ir, qiyin sharoitlarda amalga oshiriladi, shuning uchun ichki ishlar organlari xodimining psixologik holati kuchli bo‘lishi kerak, nafaqat ish natijalari, balki xodimlarning hayoti va sog‘lig‘i ham xodimning vijdonliligi va kasbiy mahoratiga bog‘liq. Davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev o‘z nutqida shunday dedi: “biz hammamiz yaxshi bilamizki, ichki ishlar tizimida, boshqa sohalarda bo‘lgani kabi, islohotlarning taqdiri, avvalambor, o‘z kasbiga, vataniga va xalqiga bag‘ishlangan yuqori malakali, zamonaviy fikrlaydigan xodimlar tomonidan belgilanadi”. Bugungi kunda mamlakatimiz taraqqiyotining hal qiluvchi bosqichiga kirib, har bir xodim etarli bilimga ega bo‘lish, muloqot va xulq-atvor madaniyatini oshirish, har qanday qiyin vaziyatda to‘g‘ri qarorlar qabul qilish, o‘ziga Yuklangan vazifalarni vijdonan bajarish uchun o‘z ustida ishlashi kerak. Ichki ishlar xodimlarida kasbiy moslashuvchanlik — bu xodimlarning o‘z xizmat vazifalarini samarali bajarish uchun doimiy o‘zgarib turadigan sharoitlarga moslashish qobiliyatidir. Bu tushuncha xodimning psixologik, intellektual, va ijtimoiy ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Kasbiy moslashuvchanlik xavfli va stressli vaziyatlarda samarali ishlash, doimiy o‘zgarishlarga moslashish va yangi bilim hamda ko‘nikmalarni tezda o‘zlashtirishni talab qiladi. Adaptatsiya - atrof-muhitning obyektiv omillari ta’siri ostida shaxs psixikasini qayta qurish, shuningdek, insonning ichki noqulaylik his qilmasdan va atrof-muhit bilan ziddiyatsiz atrof-muhitning turli talablariga moslashish qobiliyatini anglatadi[1, 18-19].

Ichki ishlar xodimlarida kasbiy adaptatsiyani takomillashtirish uchun mo‘ljallangan dasturiy imkoniyatlar va texnologik yondashuvlar samaradorlikni oshiradi, xodimlarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytiradi va ularning ijtimoiy-psixologik moslashuvini qo‘llab-quvvatlaydi.

Quyida bunday dasturiy imkoniyatlarning asosiy yo‘nalishlari bayon etilgan.

1. Elektron o‘quv platformalari

Ichki ishlar organlari uchun maxsus o‘quv platformalar ishlab chiqish kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishning muhim qismidir. Bu platformalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Onlayn kurslar: Xodimlar uchun huquqiy, psixologik va texnik bilimlarni oshiruvchi kurslar.
- Interaktiv treninglar: Voqea modellashtirish, muammolarni hal qilish va stressni boshqarish mashg‘ulotlari.
- Imtihon va baholash tizimlari: O‘z bilimlarini mustahkamlash va aniqlash uchun test va amaliy topshiriqlar.

Misol: Ichki ishlar xodimlari uchun masofaviy ta’lim berish platformasi orqali jamoaviy muloqot, huquqiy biliklar va favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish bo‘yicha darslar.

2. Virtual reallik (VR) treninglari

Virtual reallik texnologiyalari ichki ishlar xodimlari uchun real voqealarni modellashtirish orqali stressni boshqarish va kasbiy moslashuvni kuchaytirishga yordam beradi.

- Amaliy mashg‘ulotlar: Jinoyat sodir bo‘lgan joyni o‘rganish, xavfli vaziyatlarni boshqarish va tezkor reaksiya ko‘rsatish bo‘yicha mashqlar.
- Stressni boshqarish: Og‘ir psixologik sharoitlarda qaror qabul qilish malakalarini mustahkamlash.

Misol: VR orqali to‘qnashuv, xavfli vaziyat va jinoyatchini qo‘lga olish jarayonlarini mashq qilish.

3. Psixologik trening va diagnostika dasturlari

Xodimlarning ijtimoiy-psixologik moslashuvini baholash va takomillashtirish uchun maxsus dasturiy ta’minotlar ishlab chiqilishi mumkin:

- stress darajasini baholash tizimlari: xodimlarning psixologik holatini aniqlash va stress darajasini aniqlash uchun diagnostik vositalar.
- moslashuvchanlikni rivojlantiruvchi dasturlar: shaxslararo muloqot, o‘zini boshqarish va konfliktlarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun trening dasturlari.

Misol: Rodjers yoki Rodina metodikalari asosida yaratilgan diagnostik dastur.

4. Mobil ilovalar

Mobil ilovalar orqali xodimlar o‘zlarining kasbiy ko‘nikmalarini va moslashuvchanliklarini takomillashtirishlari mumkin.

- O‘quv materiallari va qo‘llanmalar: Qoidalar, qonunlar va kasbiy jarayonlar bo‘yicha qulay ma’lumot olish.
- Psixologik yordam bo‘yicha ilovalar: Stressni boshqarish bo‘yicha maslahatlar va mashqlar.
- Hisobot va monitoring tizimlari: Xodimlarning faoliyatini nazorat qilish va baholash uchun foydalaniladigan ilovalar.

5. Sun’iy intellekt (AI) asosidagi dasturlar

Sun’iy intellekt ichki ishlar organlarida adaptatsiyani takomillashtirishda samarali vositaga aylanishi mumkin:

- Shaxsiylashtirilgan tavsiyalar: Har bir xodimning psixologik va kasbiy ehtiyojlarini aniqlash uchun individual dasturlar ishlab chiqish.
- Stressni oldindan aniqlash: Xodimlarning faoliyati va psixologik holatini kuzatib boruvchi AI tizimlari stress va charchoqni aniqlaydi.
- Ish samaradorligini tahlil qilish: Xodimlarning faoliyat natijalarini baholab, moslashuv darajasini yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar berish.

6. Statistik va tahliliy dasturlar

Xodimlarning moslashuv jarayonini monitoring qilish uchun statistik tahliliy vositalar.

- Kasbiy moslashuv jarayonidagi o‘zgarishlarni kuzatish.
- Xodimlarning stress darajasi va psixologik moslashuvini baholash.

• Jamoaning samaradorligini o‘lchash va individual rivojlanish bo‘yicha tavsiyalar berish.

Misol: SPSS yoki boshqa statistik dasturlar yordamida xodimlarning adaptatsiya natijalarini tahlil qilish.

7. Ichki aloqa tizimlari

Ichki ishlar tizimida xodimlarning jamoa ichidagi moslashuvini qo‘llab-quvvatlovchi ichki kommunikatsiya platformalari:

• Jamoaviy muloqotni kuchaytirish uchun ichki chat va forumlar.

• O‘zaro yordam va psixologik maslahatlar uchun onlayn guruhlar.

3.11-jadval

Ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlik so‘rovnomasining treningdan oldin va keyingi natijalari (Uilkoksonning W-mezoni bo‘yicha)

Omillar	Treningdan oldin	Treningdan keyin	Farqlar	
			W	P
Adaptatsiya	92,16	97,69	2,89	0,09
Dezadaptatsiya	89,13	74,55	3,48	0,003**
O‘zini qabul qilish	33,86	42,82	2,28	0,005*
Boshqalarni qabul qilish	27,14	32,42	1,38	0,12
Emotsional komfort	25,38	31,14	1,65	0,13
Emotsional diskomfort	24,57	18,59	2,46	0,006*
Ichki nazorat	33,96	36,31	1,56	0,14
Tashqi nazorat	25,75	29,23	1,34	0,10
Eskapizm (muammolardan qochish)	17,81	14,45	1,28	0,15
Yolg‘on shkalasi	14,13	12,19	1,08	0,18

Izoh: * – $p \leq 0,05$; ** – $p \leq 0,01$; *** – $p \leq 0,001$.

Ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlik so‘rovnomasi bo‘yicha olingan natijalar treningdan oldin va keyin o‘lchangan omillarni taqqoslashning psixologik tahlilini quyidagicha ko‘rib chiqish mumkin: Adaptatsiya shkalasi: treningdan oldin (92,16) va treningdan keyin (97,69) qiymatlari o‘rtasida sezilarli o‘zgarish mavjud, ammo bu farq statistik jihatdan ahamiyatsiz ($p = 0,09$). Bu shuni anglatadiki, trening adaptatsiya jarayonida ijobiy o‘zgarishlarga olib kelgan bo‘lsa-da, bu o‘zgarish aniq darajada ko‘zga tashlanmaydi.

Dezadaptatsiya shkalasi: treningdan oldin 89,13, treningdan keyin esa 74,55 ko‘rsatkichlaridagi farq statistik jihatdan ahamiyatli ($p = 0,003$). Dezadaptatsiya darajasi treningdan so‘ng sezilarli darajada kamaygan, bu esa treningning salbiy psixologik holatlar ustidan samarali ta’sir ko‘rsatganini ko‘rsatadi. O‘zini qabul qilish: treningdan oldin (33,86) va treningdan keyin (42,82) qiymatlarida sezilarli

ijobiy o‘zgarish mavjud va bu o‘zgarish statistik jihatdan ahamiyatli (p = 0,005). Bu, treningning ishtirokchilarning o‘zini qabul qilish darajasini yaxshilashga yordam berganligini bildiradi.

Boshqalarni qabul qilish shkalasi: treningdan oldin (27,14) va treningdan keyin (32,42) qiymatlaridagi farqning statistik ahamiyati yoki sezilarli emas (p = 0,12). Boshqalarni qabul qilish darajasi treningdan so‘ng biroz o‘zgarish ko‘rsatgan, ammo bu farq katta ahamiyatga ega emas. Emotsional komfort shkalasiga ko‘ra: treningdan oldin (25,38) va treningdan keyin (31,14) qiymatlarida ijobiy o‘zgarish mavjud, ammo bu farq statistik jihatdan ahamiyatli emas (p = 0,13). Emotsional komfortning oshishi sezilarli bo‘lsa-da, statistik jihatdan bu farq ishonchli emas.

Emotsional diskomfort shkalasi: treningdan oldin (24,57) va treningdan keyin (18,59) qiymatlaridagi farq statistik jihatdan ahamiyatli (p = 0,006). Trening emotsional diskomfortni kamaytirgan, bu treningning salbiy psixologik holatlarga qarshi samarali ekanligini ko‘rsatadi. Ichki nazorat shkalasi: treningdan oldin (33,96) va treningdan keyin (36,31) qiymatlaridagi farq statistik jihatdan ahamiyatli emas (p = 0,14). Ichki nazoratning ko‘tarilishi treningning ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi, ammo bu farqning statistik jihatdan sezilarli bo‘lmaganligi ko‘rsatilmoqda.

Xulosa qilib aytganda ichki ishlar xodimlarida kasbiy adaptatsiyani takomillashtirish uchun zamonaviy texnologiyalar va dasturiy ta’minotlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ushbu dasturlar nafaqat xodimlarning moslashuv jarayonini tezlashtiradi, balki ularning psixologik holatini barqarorlashtirishga va ish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ichki o‘quv dasturlari, VR texnologiyalari va psixologik treninglarni kombinatsiyalash orqali kompleks yondashuvni ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Постовалова Г.И. О факторах, определяющих адаптационную способность человека // Психологические и социально-психологические особенности адаптации студентов. Ереван, 1973.С.18-19

2. Мещерякова А.В. Профессиональная адаптация и морально-психологическая подготовка сотрудников правоохранительных органов: учебное пособие : Изд-во ЮФУ, 2019.с.12.

3. Тернер Дж. Социальное влияние. – М.: Концентрированная психология, 2003. – С.62.

4. Каримова В.М. Ижтимоий психология. Олий ўқув юртлари талаба ва магистралари учун дарслик.-Т., 2012 – 196 б.

UDK 159.922.11:159.923.2:316.46:355/35



Shermatov Fayzullo Toshtillayevich,
O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instiuti boshlig‘ining o‘rinbosari, psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent, podpolkovnik

INTELLEKTUAL LIDER IMIJINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI HARBIY XIZMATCHILAR MISOLIDA

Annotatsiya. Mazkur maqola intellektual lider imijining ijtimoiy-psixologik mexanizmlariga bag‘ishlangan bo‘lib, u mudofaa tizimidagi harbiy xizmatchilarning kasbiy, ilmiy, psixologik tayyorgarligi kabilarni tadqiq etishni nazarda tutadi. Maqola mazmunida harbiy xizmatchi imijining axloqiy, ma’naviy, emotsional, ijtimoiy-psixologik komponentlari ham konseptual asosda tahlil etilgan. Shuningdek, imijning komandir faoliyatidagi roli, harbiy rol, harbiy unvon, psixologik imij va shaxs tushunchalari ham ushbu tadqiqot mazmunidan chetda qolmagan.

Kalit so‘zlar: lider, harbiy xizmatchi, harbiy qism, harbiy intizom, harbiy imij, imijeologiya, ijtimoiy-psixologik imij, harbiy rol, harbiy unvon, harbiy professional, harbiy psixolog, harbiy faoliyat, kasbiy fidoiylik.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ИМИДЖА ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО ЛИДЕРА НА ПРИМЕРЕ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

Аннотация. Данная статья посвящена социально-психологическим характеристикам имиджа военнослужащего, систему военнослужащих обороны включает в себя профессиональной, научной, психологической подготовки. Смысл статьи раскрывает концептуальные основы поведенческого, духовного, эмоционального, и социально-психологического компонентов имиджа военнослужащих. В связи с этим, роль имидж в деятельности военнослужащего, военная роль, военное звание,

психологический имидж, и понятие личности также не осталось в стороне от исследования.

Ключевые слова: лидер, военнослужащий, военная часть, военный устав, военный имидж, имиджеология, социально-психологический имидж,военная роль, военное звание, военный профессионал, военный психолог, военная деятельность, профессиональный патриотизм.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF THE INTELLECTUAL LEADER'S IMAGE: A CASE STUDY OF MILITARY PERSONNEL

Annotation. The provided article devoted the social-psychological characteristics of image of military servant, it includes the system of defense, professional, scientific, psychological preparation. The meaning of given article illustrates the conceptual foundations of behavioral, spiritual, emotional, and social-psychological components of image of military servants. That is why, the role of image in activity of military servants, military role, military rank, psychological image, as well as the notion of person also did not stay out of research.

Key words: lider, military servant, military part, military regulations, military image, social-psychological image, military role, military rank, military professional, military psychologist, military activity, professional patriotism.

Davlatlar o‘z sarhadlari daxlsizligini, hududiy yaxlitligini, fuqarolarning tinchligini va osuda hayotini ishonchli himoya qilishga qodir, zamonaviy qurol-aslaha va texnika bilan ta’minlangan, o‘z kasbining yetuk mutaxassisi, harbiy professional va bugungi kun talablariga to‘liq javob beradigan, ekstremal vaziyatda vujudga keladigan har qanday qurolli to‘qnashuvlarni oldini oladigan harbiy kadrlarni tayyorlash – har bir davlatning buyuk kelajagini barpo etish yo‘lidagi eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonida “...davlatning mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash, Qurolli Kuchlarning jangovar shayligini, uning imkoniyatlari va qobiliyatini kuchaytirish” chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi. Bu esa, psixologiya sohasi mutaxassislarini Mudofaa vazirligi tizimidagi rahbar imijining ijtimoiy-psixologik konsepsiyasini yaratish hamda takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish bo‘yicha yangi yechimlar topishga undaydi.

Olib borilayotgan tadqiqotlar avvalo, nazariy va amaliy faoliyat jarayonlarida imijni shakllantirish muammosining paydo bo‘lishi va taraqqiyoti bosqichlarini belgilashimiz muhim bo‘ladi. Bunda falsafa, psixologiya, pedagogika va mavzuga oid qator tadqiqot ishlaridagi mavjud manbalarni atroflicha tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, biz tadqiqotimizda imij fenomeni va uning ta’rifi, imijning psixologik komponentlari, uni shakllanish rivojida ijtimoiy-psixologik,

sotsiologik, madaniy-tarixiy va ilmiy-nazariy asoslarini xronologik tizimda tahlil etishga harakat qilamiz.

Avvalambor, imijning paydo bo‘lishi, shakllanishi va taraqqiyoti tarixini nazariyotchi olim Y.V.Yakovlevning ilmiy qarashlariga asoslanib, shartli uch davrga ajratishimiz mumkin:

1) tarixiy davr (miloddan avvalgi 9-7 ming yillik–XVIII asr);
2) tizimlash (tartibga solish) davri (XVIII-XX asr o‘rtasi);
3) axborotlashgan davr (XX asr o‘rtasi-hozirgi vaqtgacha)[1].

Tadqiqotlarda qaysi vaqtda imijni yaratishga zaruriyat paydo bo‘lganini taxmin qilishning imkoni yo‘q. Aynan qaysi bir mamlakatda ilk bora unga ehtiyoj tug‘ilganini va uning asoschisi kim ekanligini aytish ham mushkul. Imijni shakllantirishning ibtidoiy ko‘rinishlarini dastlabki jamoaviylik tuzumi bosqichida paydo bo‘la boshlagan, degan farazni ilgari surishimiz mumkin. Imijelogiya zaruriyat sabab shakllantirilgan qiyofa va joziba yordamida insonlarni ishontirish, ta’sir o‘tkazish, ularning hayot tarzini o‘zgartirishga asoslanadi. Imij XX asrning favqulodda hodisasi, biroq uning tub ildizi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Jamoatchilik fikriga ta’sir etish vositasi sifatida hali ta’riflanmagan termin qadimgi zamonlardayoq faoliyatda mavjud bo‘lgan.

Imij fenomeni bo‘yicha dastlabki mutaxassis sifatida hukmdor Moiseyning yordamchisi ruhoniy Aaron (miloddan avvalgi 1445-yil) tomonidan e’tirof etiladi. Moiseyning duduqlanishi sababli uning o‘rniga xalq oldida Aaron gapirishga majbur bo‘lgan. Shu sabab ham uni xukmdorning og‘zi va bashoratchisi deb atashgan[2].

“Imij” tushunchasi asrlar davomida shakllanib, taraqqiy etib bordi. Antik davrning mashhur mutafakkiri Aristotelning (miloddan avvalgi 384–322-yillar) ta’biricha, auditoriyaning xayrixohligi va mayliga erishibgina, ularni ishontirish mumkin[3]. Qadimgi Rimning davlat va siyosiy arbobi, ajoyib notiq Sitseron (miloddan avvalgi 106-43 yillar) ommaning psixologiyasi, qiziqishlari va didini o‘rganish muhim ekanligiga urg‘u bergan. Uning fikricha, notiqning vazifasi tinglovchilarni estetik ko‘nglini olish, ularning axloqi va irodasiga ta’sir o‘tkazishdir. Siyosiy arbob va sarkarda Y.Sezar (miloddan avvalgi 102–44-yillar) ommaga ta’sir ko‘rsatuvchi yorqin mahorat egasi edi. U harbiy janglar oldidan o‘z murojaatlari va sahna ko‘rinishlari yordamida xalqning qo‘llab-quvvatlashiga erishgan.

Insoniyat tarixi shuni isbotlaydiki, imijni shakllantirish asrlar davomida o‘z samarasini berib kelayotgan turli xil usul, uslub va omillarni o‘z ichiga qamrab oladi. Notiqlik mahoratidan tashqari ramzlar, imijning har xil atributlari (kiyim, hidlar, bezak, imo-ishora, mimika va boshqalar). Tarixiy manbalarga asoslanib shuni aytishimiz mumkinki, jamoatchilikka ta’sir etish asoslari janglarga tayyorgarlik ko‘rish, siyosiy saylovlar jarayonida, mahsulotni savdoga olib chiqish, mablag‘ yig‘ish, odamlar va hodisalarni ommalashtirishda keng qo‘llanilgan.

Siyosatshunos olim N.Makiavelli (1469–1527-yillar) imijning ilk nazariyachilardan biri hisoblanib, yuqori darajadagi “imij tuyg‘usi” yoki yuksak

"imij tafakkuri" unga xos bo'lgan. Bunday tafakkurning ahamiyatli tomoni shaxslararo makonda mulohaza qilish va ta'sir ko'rsatish, atrofdagilarning harakatini taxmin qilish, odamlar bilan iliq munosabatlarni o'rnatishni uddalashdan iborat edi[4].

Bu davrda imijmeyking professional faoliyat turi sifatida qonunlar, qadriyatlar va jamiyatning ehtiyoji bilan o'zaro bog'liqligi, shuningdek, imijni idrok qilishga tayyorgarlik orqali paydo bo'ldi. Bu faoliyat AQShda professional soha tariqasida shakllantirilib, rasmiylashtirildi.

"Imij" tushunchasi XX asr boshida AQShda paydo bo'lgan. Bu davrda mamlakatda yuzaga kelgan iqtisodiy inqiroz oqibatida jamiyatda mamlakat obrazi salbiy ko'rinishga ega bo'lib borishi uning xalqaro maydondagi biznes harakatiga halaqit bera boshlaydi. Dastlabki "Imijmeyker"larga dunyo madaniyatini zabt etish va jahonda andoza bo'la oladigan mamlakatning ijobiy imijini yaratish vazifasi yuklatiladi. Mamlakat prezidenti va birinchi xonimining imij andozasi ishlab chiqilgan. Ayni shu paytlarda "amerikacha hayot tarzi" tushunchasining paydo bo'lishi, imijmeykerlarda "butun dunyoni egallash" falsafasini yuzaga keltirgan va shaxsning imijini shakllantirish texnologiyasi ishlab chiqilgan. "Imij" termini dastlab ishlab chiqarish sohasida iste'molchilarga psixologik ta'sir o'tkazish vositasi sifatida, tijorat reklamalarida mahsulotlarni farqlashda faydalanilganligi sabab yetarlicha tor ma'no-mazmunga ega bo'lgan. Keyinchalik esa jamoat arboblarini differensiatsiyalashga ehtiyoj paydo bo'ladi. XX asrning 30-yillarida "Nyu-York Tayms" gazetasida chop etilgan maqolalarning asosiy qismini imijni yaratish, taraqqiy ettirish sohasidagi mutaxassislar tomonidan nashrga tayyorlangan materiallar tashkil etgan.

XX asrning boshlarida Rossiyada ham imijni shakllantirishning ijtimoiy roliga bag'ishlangan izlanishlar olib borilgan. M.Shepkin, V.Nemirovich-Danchenko, Y.Vaxtangov va K.Stanislavskiylar badiiy obrazni yaratish usullarini tadqiq qilib, imijning ijtimoiy-psixologik jihatlariga e'tibor qaratishgan. K.Stanislavskiyning yozishicha, imij – inson faoliyati, muloqoti, xulq-atvori va tafakkurining obrazidir[5].

Tadqiqotchilar I.Nefedov va Y.Vlasovlarning ta'kidlashicha imij – shaxsning odamlar nazaridagi obrazi degan, imij haqidagi eng lo'nda talqinni beradi[6].

Bizning fikrimizcha, G.Andreyevaning talqini imij mohiyatini ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida obyektiv aks ettiradi: "Imij – bu idrok etish hodisasining maxsus obrazidir. Shuning uchun ham obyekt yoki hodisaning xayoliy tasviri hissiy murojaatlar asosida yaratiladi"[7].

D.Yagerning ta'rifi ijtimoiy-psixologik xususiyatlardan tashqari shaxsiy tashqi ma'lumotlarini ham o'z ichiga oladi. U imij – tashqi qiyofaning o'ziga xos majmui, nutq, xulq-atvordan hosil qilinadi, deb yozadi. Imij – "taassurotlarni boshqarish" san'atidir[8]. Demak, imij nafaqat ko'riladigan obraz, balki shakl va mazmun jihatidan ichki va tashqi yaxlitlikning bir ko'rinishi sifatida ham tushuniladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib, Qurolli Kuchlarning imiji haqida alohida fikr yuritish lozim. Ta'kidlash kerakki, armiyaning imiji odamlar ongida stixiyaviy (tasodifan paydo bo'lib qoluvchi) tarzda shakllangan siymo emas, balki, alohida subyektlar tomonidan maxsus yaratilgan va singdirilgandir.

General-leytenant V.Serebryannikov bu borada shunday yozadi: "Davlat tomonidan armiya xususida yaratiladigan imij katta ijtimoiy kuchga ega. Ishning to'g'ri yo'lga qo'yilganligi davlat imijini ko'taradi, armiyaga nisbatan hurmat va harbiy xizmatchilarga ishonchni uyg'otadi, harbiylar va fuqarolarning jipsligini ta'minlaydi, aholining harbiy xizmatga hurmatini oshiradi. Bir so'z bilan aytganda, armiya va mamlakatning xavfsizligini har tomonlama mustahkamlaydi"[9]. Demak, berilgan tasniflardan ko'rinib turibdiki, armiyaning imiji bir qisqa vaqt davomida yaratib bo'lmaydigan, balki yetarli darajada tarixiy asoslarga ega va doimiy rivojlanib borilayotgan holatdir.

Shuning uchun, Qurolli Kuchlarning har bir obyektida ijobiy imij yetarli darajada yaratilmaguncha muntazam tarzda tadqiq etishni talab etadi. Ta'kidlash kerakki, armiyaning imiji uni alohida okrug, qo'shilmalar, harbiy qismlar va bo'linmalarni hamda barcha turdagi komandirlar, ofitserlar, shartnoma asosidagi harbiy xizmat serjantlari va oddiy askarlar toifasi hamda muddatli harbiy xizmatchi (askarlar) faoliyatini targ'ib etish asosida shakllanadi.

Qurolli Kuchlar imijining amaliy ahamiyatini qanday aniqlash mumkin yoki uni qanday ko'rsatkichlar asosida tavsiflash lozim? Buning uchun quyidagi asosiy omillar e'tiborga olinishi zarur:

birinchidan, armiya safida xizmat qiluvchilar sonining o'sib borishi;

ikkinchidan, mamlakat aholisida armiyaga nisbatan xayrixohlarcha munosabatning ifodalanishi;

uchinchidan, turli toifadagi harbiy xizmatchilarning o'z kasbidan yuqori darajada qoniqqanligi.

Har bir kasb o'z rivojlanish tarixiga ega bo'lib, bir-biridan farqli jihatlari mavjud. Masalan, harbiylik, jurnalistika, tibbiyot va uchuvchilik kabi ixtisosliklar zo'riqish (stress)ning kuchli darajada namoyon bo'lishi tufayli boshqa kasblardan ajralib turadi. Bu kasb egalari turli vaziyat, holat va hududlarda, vaqtning chegaralanganligida faoliyat yuritishi zarurligi, hatto xavf bilan bevosita yuzma-yuz bo'lgan davrda ham o'z vazifalarini bajarishlari zarur ekanligi bilan ajralib turadi.

Harbiy yo'nalishga bag'ishlangan tadqiqotlarda ko'plab harbiy ixtisosliklar ma'lum darajada tadqiq etilgan bo'lib, ijtimoiy-kasbiy tavsifnomalar, kasbiy talabnomalar ishlab chiqilgan. Biroq, mazkur ishlarda kasb egallovchining individual fazilatlari, psixofiziologik va ijtimoiy xususiyatlariga (etnomadaniyat, gender, yosh va boshqalar) e'tibor qaratilmay, faqat kasbiy layoqatlilik darajasi, ya'ni "inson-kasb" tizimi doirasidagi jihatlar hisobga olingan.

Harbiy kasblar o'z xarakteri va tendensiyasiga ega bo'lib, unda harbiy xizmatchi shaxsining xususiyatlari alohida o'rin tutadi va ularni to'rtta guruhga ajratib ko'rsatishimiz mumkin[10]:

harbiy xizmatchining umumiy sifatlari;
harbiy xizmatchining mutaxassis sifatidagi fazilatlari;
harbiy xizmatchining jangovar sifatlari;
harbiy mutaxassisning xizmat-vazifaviy sifatlari.

4. Strengthening motivational mechanisms – It is recommended to combine material incentives with non-material motivators such as recognition, career development opportunities, and supportive feedback, in order to sustain employee engagement and improve the effectiveness of managerial decisions.

5. Establishing effective control mechanisms – Systematic and psychologically sensitive monitoring of decision implementation should be ensured. Control processes must be carried out in a constructive manner, focusing on problem-solving rather than punishment, thereby maintaining trust and motivation within the workforce.

6. Promoting research-based management practices – Leaders should be encouraged to apply scientific findings in organizational psychology and management sciences, adapting innovative decision-making models to the specific socio-economic conditions of their organizations.

By implementing these recommendations, organizations can significantly improve the quality of managerial decisions, strengthen the authority of leadership, and enhance overall competitiveness and sustainability in the market.

REFERENCES

1. Umarov B. M., Nazarov A.S. Social and psychological characteristics of the leader in the implementation of management decisions //Science Time. – 2021. – №. 10 (94). – С. 31-35.

2. Umarov B. M., Nazarov A. S. Socio-psychological aspects and mechanisms affecting management decision-making in the activities of the head //Международный научно-практический электронный журнал «Моя профессиональная карьера». Выпуск № 29 (том 1)(октябрь, 2021). Дата выхода в свет: 31.10. 2021. – С. 91.

3. UMAROV B. M., NAZAROV A. S. Psychological models of behavior of managers in the process of making management decisions.

4. Nazarov A. S. Decision making as a key part of management activity //Международный научно-практический электронный журнал «Моя профессиональная карьера». Выпуск № 33 (том 1)(февраль, 2022). Дата выхода в свет: 28.02. 2022. – С. 77.

5. Sottarovich N. A., Zilola K. Psychological mechanisms for making managerial decisions in management activities //Science Time. – 2022. – №. 2 (98). – С. 27-33.

6. Назаров А. С. Основные психологические детерминанты, обеспечивающие процесс принятия решений в управлении //Международный научно-практический электронный журнал «Моя профессиональная карьера». Выпуск № 36 (том 1)(май, 2022). Дата выхода в свет: 01.06. 2022. – С. 7.

UDK: 152.26:157.1

Kulatova Svetlana Yuldashevna
Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi,
psixologiya kafedrasi dotsenti, psixologiya f.f.d. (PhD)

ZAMONAVIY PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA DESTRUKTIV AXBOROTLARNI O'RGANISHGA DOIR YONDASHUVLAR

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy psixologik tadqiqotlarda destruktiv axborotlarni o'rganishga doir yondashuvlar mazmun-mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, destruktiv axborotlar fenomenining o'ziga xosligiga oid nazariy tadqiqotlar tahlil qilib berilgan. Kibermakonning jamiyatga ta'siri tahliliy yoritib berilgan va destruktiv tashkilotlar va manipuliyativ ta'sir jarayoniga oid ilmiy tadqiqot ishlaga to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, destruktiv axborotlarga qaramlik so'rovnomasining natijalari Uilkiksonning W-mezoni bo'yicha tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: o'smir, zamonaviy psixologiya, destruktiv axborotlar, fenomen, kibermakon, manipuliyativ ta'sir, Uilkiksonning W-mezoni, psixologik madaniyat.

ПОДХОДЫ К ИЗУЧЕНИЮ ДЕСТРУКТИВНОЙ ИНФОРМАЦИИ В СОВРЕМЕННЫХ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ

Аннотация. В статье раскрыта сущность подходов к изучению деструктивной информации в современных психологических исследованиях. Также были проанализированы теоретические исследования, касающиеся специфики явления деструктивной информации. Аналитическое освещение влияния киберпространства на общество. Научное исследование деструктивных организаций и процесса манипулятивного воздействия было сосредоточено на работе. Результаты исследования деструктивной информационной зависимости были проанализированы в соответствии с W-критерием уилкиксона.

Ключевые слова: подросток, современная психология, деструктивная информация, феномен, киберпространство, манипулятивное влияние, W-критерий Уилкиксона, психологическая культура.

APPROACHES TO THE STUDY OF DESTRUCTIVE INFORMATION IN MODERN PSYCHOLOGICAL RESEARCH

Annotation. The article reveals the essence of approaches to the study of destructive information in modern psychological research. Theoretical studies on the specificity of the phenomenon of destructive information have also been analyzed.

Analytical coverage of the impact of cyberspace on society has been given. Scientific research on the process of destructive organizations and manipulative influence has been touched upon. The results of the destructive information addiction survey were analyzed according to Wilkickson's W-criterion.

Keywords: adolescent, modern psychology, destructive information, phenomenon, cyberspace, manipulative influence, Wilkickson's W-criterion, psychological culture.

Zamonaviy psixologiyada destruktiv axborotlar inson ruhiy salomatligi, kognitiv faoliyati, ijtimoiy munosabatlari va axloqiy orientatsiyalariga ko‘rsatuvchi salbiy ta’siri jihatidan alohida tadqiqot obyektiga aylangan. Avvalgi yillarda bu mavzu ko‘proq ijtimoiy psixologiya doirasida muhokama qilinib kelgan bo‘lsa, so‘nggi yillarda neyropsixologiya, kognitiv psixologiya, media-psixologiya, raqamli psixodiagnostika va klinik psixologiya doiralarida ham chuqur o‘rganilmoqda. Destruktiv axborotlar fenomenining o‘ziga xosligi – u faqat mazmun jihatidan emas, balki taqdim etilish usuli, qabul qilinuvchanlik sharoitlari, auditoriyaning emotsional tayyorgarligi va ong osti mexanizmlariga qiladigan ta’siri bilan bog‘liq bo‘lib, shu tufayli zamonaviy psixologlar uni o‘rganishda multidisiplinar yondashuvlardan foydalanmoqdalar.

O‘tgan 2019-yilda amerikaliklar orasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, feyk xabarlar terrorizmdan ko‘ra xavfliroq ekanligi e’tirof etilgani ham, muammoning naqadar dolzarb ekanligini ko‘rsatadi. Feyk xabarlar tarqalishining oldini olish anchayin mushkul, ba’zan imkonsiz ham deyish mumkin. Feyklarga qarshi kurashda, turli manipulyatsiyalarga qarshi tura olishda auditoriyaning immuniteti oshishi har jihatdan muhim. Insonlarning axborot jamiyati hayotida faol va samarali ishtirok etishi uchun yangi bilim, ko‘nikma va ko‘rsatmalar zarur[1. 61].

Kibermakonning jamiyatga ta’sirini inkor etib bo‘lmaydi. U butun dunyo bo‘ylab shaxslar va tashkilotlar o‘rtasida tezkor aloqa, savdo va o‘zaro aloqalar uchun platformani taqdim etdi. Kiberkosmosning mashhurligi oshgani sayin, afsuski, kibermadaniyatlarning soni va xilma-xilligi ham oshib bormoqda. Bu yerda kibermadaniyatlar tizimning (texnik yoki ijtimoiy-texnik) yaxlitligini, maxfiyligini yoki mavjudligini buzishga qaratilgan hodisalar sifatida tavsiflanadi. Ushbu hujumlar xakerlik va xizmatlarni rad etish (DOS), to‘lov dasturlari va josuslik dasturlari infeksiyalarigacha o‘zgarib turadi va jamoatchilikdan tortib mamlakatning muhim milliy infratuzilmasigacha bo‘lgan barchaga ta’sir qilishi mumkin [2. 2018].

D.G.Ribaltovich hamda V.V.Zaysevlarning xulosalariga ko‘ra, destruktiv axborotlarga tobelik fenomenining kattalarda uchraydigan quyidagi turlari ajratiladi: turli noodatiy o‘yinlariga tobelik, ko‘p pul sarflashga tobelik, jinsiy yaqinlikka tobelik, qimor o‘yinlariga tobelik, kliptomaniyaga tobelik (o‘g‘irlikka moyillik), trikotillomaniya mazmunidagi tobelik (organizmning biror sohasiga shikast yetkazishga qaratilgan patologik moyillik), piromaniyaga bo‘lgan tobelik (o‘t qo‘yishdan o‘zini to‘xtata olmaslik) va hokazo [3. 23]. Tadqiqotchilar ushbu

mulohazalarida shaxsning normal hayot tarzidagi tobelik holati va patologik xarakterdagi tobelik xususiyatlari o‘rtasidagi o‘ziga xosliklarni tushuntirishga harakat qilganlar.

Y.G.Noskovning so‘ziga ko‘ra, destruktiv axborotlar orqali inson ongini zabt etish o‘z-o‘zidan ularni o‘z aqidalaridan, e’tiqodidan ayirish ham sanaladi [4. 45]. Bundan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, axborot-psixologik xavfsizligiga ehtiyoj, eng avvalo, bevosita inson va jamiyat, inson va davlat, shaxs va uning daxlsizligi, millat va milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an’analar, tarixiy va madaniy meros, avlodlarga ta’sir etuvchi buzg‘unchi g‘oyalar va tajovuzkor mafkuralarning mavjudligidan kelib chiqadi.

Boshqa bir tadqiqotchi Sh.F.Mustafayeva ham, o‘z ilmiy tadqiqot ishida destruktiv tashkilotlar va manipuliyativ ta’sir jarayoniga to‘xtalib o‘tar ekan, ushbu masalaga quyidagicha fikr bildirib o‘tadi. Muallifga ko‘ra, destruktiv g‘oyalarda, inson ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishning qat’iy psixologik usullarini qo‘llaniladi. Shu bilan birga, g‘oya ta’siridagi insonni jismoniy va ruhiy holdan toyishdirish, jamiyatdan izolyatsiya qilish, jamoaning qonun-qoidalariga qat’iy bo‘ysundirish, ijtimoiy deprivatsiya bilan tashqi dunyodan uzoqlashtirish kabi manipulyativ ta’sirlar orqali, muntazam tarbiyalab boradi [5.11]. Muallif mazkur holatda manipulyativ ta’sir, ongni egallash, fikrlarni o‘zgartirish masalasiga alohida e’tibor qaratadi.

Mazkur yo‘nalishda yetakchi tadqiqotchilardan biri sanalgan V.V.Batishevning ta’kidicha, tobe xulqning quyidagi turlari ajratiladi [6. 54]:

–giyohvand moddalarga tobelik;
–kimyoviy ta’sir kuchiga ega bo‘lgan moddalarga tobelik;
–psixotrop dorilar hamda antideressant tabletkalarga tobelik;
–oziq-ovqatlarga bo‘lgan tobelik;
–alkogolizmga bo‘lgan tobelik va hokazo.

Mamlakatimiz psixolog olimlaridan U.D.Qodirov ham mazkur muammo yuzasidan izlanishlar olib borgan bo‘lib, destruktiv g‘oyalardan yosh o‘g‘il-qizlarni himoya qilish yuzasidan shunday deydi: “Yoshlar shaxsining shakllanishi butun dunyoda murakkab siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy o‘zgarishlar kechayotgan bir paytga to‘g‘ri kelayotgan ekan, ularni to‘g‘ri tarbiyalashda, albatta, katta avlodning ko‘magi zarur bo‘ladi. Yigit va qizlarga zaruriy psixologik-pedagogik maslahat, yordam ko‘rsatish, ularda tegishli xulq-atvor ko‘nikmalarini shakllantirish, kuch-g‘ayratini to‘g‘ri o‘zanga yo‘naltirish, ongini destruktiv g‘oyalar ta’siridan muhofaza qilish shaxs, davlat va jamiyat xavfsizligini ta’minlashning muhim omillaridan biridir deb ta’kidlab o‘tadi [7.65]. Mazkur ilmiy yondashuvning mazmuni ko‘proq profilaktik chora-tadbirlarni olib borishga qratilgan sanalib, bunda vazifalarni amalga oshirishda o‘qituvchilar, ota-onalar va kattalarning ko‘magi ko‘proq nazarda tutilgan.

Professor N.G.Kamilova ham, o‘z tadqiqot ishlarida deviant xulqli o‘smirlar muammosiga alohida e’tibor qaratib, ularni turli jinoiy xatti-harakatlardan

himoyalash, deviant xulqli o‘smirlar bilan profilaktik ishlash bilan bog‘liq, reabilitatsion jarayonning asosiy maqsadi haqida shunday deydi: “Yoshlarning kelgusidagi ijtimoiy muhitda moslashuvini ta’minlash, va kriminal olamdan uzoqlashtirish, turli yot g‘oyalardan ta’siridan himoyalashdir. Shuning uchun, psixologik xizmat har bir o‘smir shaxsining rivojlanishini, o‘z muammolarini anglash kobiliyatini oshirishni, muammolarni hal etish ko‘nikmalarini shakllantirishni maqsad qilgan bo‘lishi lozim” [8. 28]. Demak, muallifning fikr-mulohazalaridan shuni anglash mumkinki, yoshlar tarbiyasi va ongini yot ta’sirlardan himoya qilishga qaratilgan reabilitatsion tadbirlar faqatgina bir maqsadni emas, ularning butun bir qadriyatlari tizimini, axloqiy sohasini qayta tiklash va takomillashtirishni maqsad etishi kerakligini muhim vazifa sifatida e’tirof etadi.

1-jadval

Destruktiv axborotlarga qaramlik so‘rovnomasining natijalari (Uilkiksonning W-mezoni bo‘yicha)

Shkalalar	Psixologik treningdan oldin	Psixologik treningdan keyin	W-statistika bo‘yicha
Destruktiv axborotlarga befarqlik	6,4	10,5	0,005*
Destruktiv axborotlarni qabul qilishga moyillik	5,1	3,4	0,004*
Destruktiv axborotlarga qaramlik	4,6	2,7	0,08

Izoh: * – $p \leq 0,05$; ** – $p \leq 0,01$; *** – $p \leq 0,001$.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, destruktiv axborotlarga befarqlik ko‘rsatkichi psixologik treningdan oldin 6,4 bo‘lgan bo‘lsa, treningdan keyin 10,5 gacha oshgan. Bu o‘zgarish Uilkikson mezoniga ko‘ra $p = 0,005$ darajasida ahamiyatli bo‘lib, bu statistik ishonch bilan ijobiy o‘zgarish mavjudligini ko‘rsatadi. Psixologik jihatdan bu natija shuni anglatadiki, treningdan so‘ng ishtirokchilar destruktiv axborotlarga nisbatan ilgari sezgir yoki reaksion bo‘lgan bo‘lsa-da, endi ular ularga nisbatan emosional barqarorlik bilan qarashni, befarq bo‘lishni, ya’ni ruhiy jihatdan masofani saqlashni o‘rganganlar. Bu esa destruktiv axborotlarning ruhiy holatga kirib borishiga to‘sqinlik qiluvchi psixologik bufer zonasi shakllanganini bildiradi. Shuningdek, bu natija shaxsning axborotni baholashda ob’yektivlikka, o‘z holatini boshqarishga, va hissiy himoya mexanizmlarini qo‘llashga o‘rganganini anglatadi.

Umuman olganda, uchta ko‘rsatkichdan ikkitasida (befarqlik va qabul qilishga moyillik) psixologik treningning samarasi isbotlangan tarzda aniq namoyon bo‘lgan, bu esa psixologik immunitet va informatsion mustaqillikni shakllantirish borasida muhim qadam hisoblanadi. Destruktiv axborotga qaramlikdagi o‘zgarish esa ijobiy tendensiyani ko‘rsatadi, bu esa treningning samarasi borligini bildiradi, lekin yanada kuchliroq metodikalar bilan mustahkamlash zarur bo‘lishi mumkin.

O‘smirlarda destruktiv axborotlarga nisbatan beriluvchanlik psixologik omillarning murakkab va o‘zaro bog‘liq tizimi orqali shakllanadi. Bu omillar shaxsiy, emotsional, kognitiv va ijtimoiy jihatlar bilan chambarchas aloqador bo‘lib, har bir omil alohida holda emas, balki o‘zaro ta’sirda o‘smir shaxsiyatining rivojlanishiga ta’sir qiladi. Ayniqsa, shaxsiy identitet inqirozi kechayotgan, o‘z-o‘zini anglashda qiyinchiliklar yuzaga kelgan o‘smirlar salbiy va radikal axborotlarga ko‘proq ochiq bo‘ladi. Ular ushbu axborotlarni o‘zini tasdiqlash, e’tibor qozonish yoki jamiyatdagi o‘rnini topish vositasi sifatida qabul qilishi mumkin. Bu holat psixologik zaiflik fonida yanada chuqurlashadi.

Xulosa. Umuman olganda, zamonaviy psixologik yondashuvlar destruktiv axborotlar fenomenini har tomonlama, kompleks ravishda tahlil qilishga intilmoqda. Ular faqat kontentning mazmunini emas, balki inson psixikasining qabul qilish mexanizmlarini, ijtimoiy kontekstdagi ta’sirchanlikni, texnologik vositalar orqali bu ta’sir qanday kuchaytirilayotganini o‘rganishga qaratilgan. Shu sababli destruktiv axborotlar endilikda faqat yolg‘on yoki salbiy ma’lumot emas, balki murakkab psixologik va axborot muammosi sifatida qaralayapti. Bu esa undan himoyalanish uchun insonda tanqidiy fikrlash, emotsional ong, raqamli madaniyat va kognitiv barqarorlik kabi ko‘nikmalarni shakllantirish zarurligini taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Рукавишникова И.С. Симулятивность культуры постмодерна // «Magister Dixit». 2011. № 3. С. 61–66.

2. Nurse, J. R. C. (2018). Cybercrime and You: How Criminals Attack and the Human Factors that They Seek to Exploit. In Attrill-Smith, A., Fullwood, C. Keep, M. & Kuss, D.J. (Eds.), Oxford Handbook of Cyberpsychology 2nd Edition. Oxford: OUP. https://doi.org/10.1093/oxfordhb/9780198812746.013.35

3. Рыбалтович Д.Г., Зайцев В.В. Интернет-зависимость: реальная патология или норма развития информационного человечества // Вестник психотерапии. - СПб.: МИРВЧ, 2011. - №40 (45). – С.23-34.

4. Носков Ю.Г. Опасность и безопасность с позиции деятельностного подхода// Информационный сборник «Безопасность». 1998. - №1-2. – С.45.

5. Мустафаева Ш.Ф. Психологические особенности манипулятивного воздействия в деструктивных культовых организациях (на примере молодежных групп). Автореф. ... канд. психол. наук. - Т., 2012. – С.11.

6. Батищев В.В. Методология организации программы психотерапии и реабилитации больных с зависимостью от психоактивных веществ, имеющих низкий уровень мотивации на лечение / В.В. Батищев, Н.В. Негериш. М., 2001. – С.54.

7. Қодиров У.Д. Ёшларни деструктив гуруҳлар таъсиридан ҳимоялашнинг долзарб муаммолари. “Психология” журнали, 2011 йил №1, Б.65-70.

UDK: 152.22



Eshmuradov Olmosbek Elamanovich,
Termiz davlat pedagogika instituti "Amaliy psixologiya" kafedrasi mudiri,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY PSIXOLOGIYA FANINING SHAKLLANISHI

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida oila psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya sohasining rivojiga hissa qo'shgan psixologiya fanlari doktori, professor V.Karimovaning ilmiy izlanishlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy ustanovkalar, oiladagi munosabatlar, oiladagi ijtimoiy rollar, oilaviy muhit, ma'naviy-psixologik tayyorgarlik, ijtimoiy qadriyatlar.

ФОРМИРОВАНИЕ НАУКИ СОЦИАЛЬНОЙ ПСИХОЛОГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В данной статье рассматриваются научные исследования доктора психологических наук, профессора В. Каримовой, внесшей вклад в развитие направления семейной психологии и социальной психологии в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: социальные институты, семейные отношения, социальные роли в семье, семейная среда, духовно-психологическая подготовка, социальные ценности.

THE FORMATION OF THE DISCIPLINE OF SOCIAL PSYCHOLOGY IN UZBEKISTAN

Annotation. This article discusses the scientific research of Doctor of Psychology, Professor V. Karimova, who contributed to the development of the field of family psychology and social psychology in the Republic of Uzbekistan.

Keywords: social institutions, family relationships, social roles in the family, family environment, spiritual and psychological preparation, social values.

Oilaning jamiyatdagi o‘rni va roli ham milliy, etnik xususiyatlar asosida shakllanadi. Oilaning saqlanishi va barqarorligi ko‘p jihatdan etnik guruhning an’analari, diniy e’tiqodlari, gender rollari va ma’naviy qadriyatlari bilan bog‘liq. Etnik guruhlarning oila tushunchasi, o‘zaro munosabatlarni shakllantirish usullari jamiyatda oila mustahkamligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy qadriyatlar jamiyatdagi oila munosabatlarining asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, oilaning mustahkamligini ta’minlashda asosiy omil hisoblanadi. Turli millatlarda oila hayotiga oid qarashlar, mas’uliyatlar, o‘zaro hurmat va yordam qadriyatlari turlicha ifodalanadi va ular oila mustahkamligini mustahkamlashda asosiy ijtimoiy ustanovkalar sifatida qaraladi.

Etnopsixologik xususiyatlar oilada konfliktlar va ularning yechilish usullariga ham ta’sir etadi. Har bir etnik guruhda nizolarni hal qilishning o‘ziga xos yo‘llari mavjud bo‘lib, ularning ijtimoiy ustanovkalari bunga ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, milliy qadriyatlar va an’analar oila a’zolari o‘rtasida kelib chiqadigan nizolarni oldini olishda muhim rol o‘ynaydi.

Burhoniddin Marg‘iloniyning “to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish”, “ishonchli qo‘llanma” ma’nolarini anglatadigan shoh asari – “Hidoya”da islom huquqi – fiqhga doir ko‘p masalalar qatori alohida “Nikoh kitobi” mavjuddir. “Hidoya”da ko‘rsatilishicha, “Musulmonlarning nikohlari kamida ikkita guvoh ishtirokida bog‘lanadi. Guvohlar ikkisi ham hur, oqil musulmon erkaklar yoki bir er, ikki ayol bo‘lmog‘i lozim”. Burhoniddin Marg‘inoniy yozadi: “Bilginki, nikoh bobida guvohlik shartdir”. Chunki Rasulullоh (s.a.v.) “Guvohlarsiz nikoh nikoh emas” deganlar. Islom huquqi yaqin qarindoshlar o‘rtasida nikohni taqiqlaydi. “Hidoya”da bu qoida Qur’onning Niso sur’asidagi 22-23-oyatlar keltirilgan holda asoslab berilgan.

Abu Ali ibn Sino “Donishnoma”, “Risolai ishq” asarlarida axloq madaniyati, oila qoidalari, urf-odatlari yuzasidan teran fikrlar bildirgan. Ibn Sino e’tiqodicha, sevgi, muhabbat oila baxti, barqarorligining negizidir. U “Eng yuksak sevgi – bu insoniy sevgi bo‘lib, bunday sevgi kishini saxovatli qiladi, uni oqko‘ngil va jozibali insonga aylantiradi”, deb yozadi.

XI asrda yashagan G‘arbiy Eron podshohining nabirasi Kaykovus ibn Iskandarning mashhur «Qobusnoma”sida ham sog‘lom va ahil oila qadriyatlari tilga olinadi: “Ey farzand, agar xotin olmoq tilasang, o‘z hurmatingni yaxshi saqlag‘il. Garchi mol aziz bo‘lsa ham, xotin va farzandingdin darig‘ tutmag‘il. Ammo xotinni pokdil, farzandni farmonbardor va mehribon tutg‘il, bu ish sening qo‘lingdadir”.

Amir Temur ham oila qurish masalalariga davlat yumushlaridek juda jiddiy e’tibor bergan. Buyuk Sohibqiron, xususan, kelin tanlash haqida quyidagi fikrlarni bildirgan: “O‘g‘illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e’tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko‘rdim. Kelin bo‘lmishning nasl-nasabini, yetti pushtini surishtirdim. Xos odamlar orqali sog‘liq-

salomatligini, jismonan kamolatini aniqladim. Kelin bo‘lmish nasl-nasabi, odob-axloqi, sog‘lom va baquvvatligi bilan barcha qusurlardan xoli bo‘lsagina el-yurtga katta to‘y-tomosha berib, kelin tushirdim”.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, nikoh, oila shakllari, o‘zbek oilalarining ijtimoiy va milliy xususiyatlarini xolis o‘rganish, tahlil etish imkoniyati mustaqillik yillaridagina tug‘ildi. Ma’lumki, sho‘ro hukumati davrida boshqa masalalar qatori oila munosabatlariga ham sinfiy mafkura nuqtai nazardan yondashilar edi.

O‘z davrining yetuk namoyandasi Abdurauf Fitrat oila asoslari to‘g‘risidagi mulohazalarida nikoh masalasida to‘xtaladi. U avvalo deydi: “…Odamda ikki xil mavjudlik bor. Biri shaxsiy borliq, ikkinchisi ijtimoiy mavjudlik”. U shaxsiy mavjudlikka odamning vujudi va manfaatlarini kiritadi. Ijtimoiy mavjudlik esa insoniyatdir, deydi va qayd etadi: “...Odam o‘rtasidagi jinsiy munosabat Bani Odamning (insoniyatning) ijtimoiy borlig‘ini ta’minlaydigan sababdir. Agar u tamoman dunyodan ko‘tarilsa, bashariyatning inqirozga duch kelishi aniq”.

Fitrat nikohni (turmush qurish yoki uylanishni) hirsiy instinktni qoniqtirish deb emas, balki odamzotning davomiyligini ta’minlaydigan ijtimoiy odat deb tushuntiradi. To‘g‘ri fikr, chunki odamning hayvonlardan farqli o‘laroq madaniyligi ana shu Nikoh masalasiga madaniy munosabatda bo‘lishida bilinadi.

Fitrat bu masala to‘g‘risida fikr yuritar ekan, o‘sha paytda islom olamida keng tarqala boshlagan «uylanmasdan (turmushga chiqmasdan) yolg‘iz o‘tish» illatini tanqid qiladi. Nikoh qurishning islomda farzligini Qur’on oyatlari va payg‘ambar hadislari bilan asoslab ko‘rsatadi. Bu o‘sha davr uchun eng maqbul yo‘l edi. Fitrat keltirgan hadislardan biri shunday: “Sizlarning eng yomonlaringiz xotin olmagan kishidir”. Agar e’tibor berilsa, bu hadis zamirida odamiylikni saqlashdek g‘oya bor. Kishi oilasi bo‘lsa insoniyat dardiga o‘zini sherik his etadi. Yolg‘iz, so‘qqabosh odam esa egoistga aylanib boradi. Shu sababli Fitrat o‘sha davr sharoitidan kelib chiqib nikohsizlikning oldini olishga eng maqbul usul bilan kurashadi. Bundan tashqari, Fitrat masalaning ilmiy jihatiga ham e’tiborni qaratib deydi: “...Qodir Xudo uylanish mehnatidan qochib izdivojini (nikohidagi kishini) tark etmasliklari uchun odamlarga shaxvatni berib, ularning mijozlariga uni singdirgan, toki shahvat talabi bilan odamlar bir-birlarini xohlab uylansinlar”. Demak, oila qurish insonni badkirdorlikdan saqlaydi, shahvat tuyg‘usini madaniy jilovlashda asos bo‘ladi.

Fitratning oila asoslari haqidagi fikrlarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki u o‘zbek oila tizimini o‘ziga xos tarzda ma’rifiy usul bilan isloh qilishni nazarda tutgan. Shu sababli u oila muammolarining eng dolzarblariga alohida-alohida to‘xtalib, o‘z qarashlarini bildirib o‘tadi. Biz ularni kuzatsak, bu fikrlar bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligiga bugun ham ulardan unumli foydalanish mumkinligiga ishonch hosil qilamiz. Shu ma’noda Fitrat oila qurishda munosib yor tanlashga e’tibor berish; er-xotinning o‘zaro mos bo‘lishi va nikoh to‘yining ortiqcha harajatlardan holi bo‘lishini uqtirishdan iborat. Bu masalalar nihoyatda jiddiy bo‘lib, uning to‘g‘ri yechimini topish oilaning baxtli va mustahkam

bo‘lishiga asos bo‘ladi. Fitratning fikricha, bu masalalarning yechimini topish uchun oila qurish ostonasida turgan yoshlar to‘rt narsaga e’tibor berishlari lozim. Bular: mol, nasab, husun va iymon e’tiqod. Aslida bu to‘rt tushuncha asrlar davomida Sharq mutafakkirlari tomonidan ta’kidlab kelingan. Misol uchun, XI asr donishmandi Yusuf Xos Xojib ham shu to‘g‘risida alohida ta’kidlab o‘tgan. Fitrat ham ana shu an’anaga sodiq qolib, oila qurishda ushbu masalalarga diqqat qilish lozimligini uqtiradi. Bu o‘rinda “mol” ro‘zg‘or tebratish uchun yetarli mablag‘ning bo‘lishini, “nasab” - nasliy kasalliklarning bo‘lmasligi va teng-tengi bilan turmush qurishini, “husn” - er-xotinning o‘zaro mos bo‘lishini va “iymon” esa - ma’naviy pok va axloqli bo‘lishini anglatadi. Oila qurishga chog‘lanayotgan erkak va ayol ana shu to‘rt masalada mos tushishi lozim va shundagina ularning turmushi baxtli kechadi.

Sharqda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga qadimdan jiddiy ahamiyat berilgan, ko‘p asarlarda birinchi navbatda oila muqaddasligi, uni avaylab-asrash zarurligi haqida turli tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan fikrlar yoritilgan.

O‘zbekistonda oila va oilaviy munosabatlarni mustahkamlashga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni o‘zbek olimlaridan G‘.B.Shoumarov, V.M.Karimova, B.M.Umarov, R.S.Samarov, Z.A.Rasulova, M.Utepbergenov, U.Qodirov, N.A.Sog‘inov, F.A.Akramova, R.Dushanov, G.Niyazmetova, N.X.Lutfullayeva, R.Abdullayeva, H.Abdusamatov, A.E.Kadirova, X.K.Karimov, F.Ro‘ziqulov, U.S.Saribayeva, E.N.Sattarov, E.Sh.Usmanov, M.Fayziyeva, M.E.Morshinina, G.T.Yadgarova, G.Niyozmetova, N.X.Lutfullayeva va boshqalar tadqiq etganlar.

O‘zbekistonda oila psixologiyasi yo‘nalishida ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarning kattagina qismi oilashunos olim G‘.B.Shoumarov ilmiy maktabida yetishgan. Olim birinchilardan bo‘lib doktorlik dissertatsiyasi darajasida oila psixologiyasi muammolarini maxsus psixologiyaning tadqiqot predmeti doirasida tadqiq etgan. Uning izlanishlarida, ruhiy rivojlanishi sustlashgan farzandlar bilan ota-ona munosabatlari misolida oilaviy muloqot xususiyatlari ham alohida o‘rganilgan. Jumladan, mazkur tadqiqotda aynan ota-onada pedagogik va muloqot madaniyatining sustligi, ularning nizolashuvchanligi maxsus maktab bitiruvchilari bo‘lgan ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar oila qurishida turmush o‘rtog‘i xususiyatlariga, o‘rtadagi yosh farqiga e’tiborsizlikning sabablari sifatida ochib beriladi. Olimning izohiga ko‘ra, bu holat bolaning ota-ona oilasidagi nosog‘lom munosabatlar muhitidan imkon qadar tezroq qochib qutilishga intilishi oqibatida ro‘y beradi.

O‘zbekiston psixologiya fanida oila va ijtimoiy psixologiya sohasida o‘ziga xos ilmiy maktab shakllangan. Bunda, avvalo, V.M.Karimovaning mustaqillik yillarida birinchilardan bo‘lib, yoshlarning oilaviy hayot, oilaviy munosabatlar haqidagi tasavvurlarini ijtimoiy tasavvurlarning alohida ko‘rinishi sifatida o‘rganishga qaratilgan fundamental tadqiqotlariga suyanish mumkin. Xususan, V.M.Karimovaning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarni shaxs ijtimoiy tasavvurlarining bo‘lagi sifatida oila bilan bog‘liq bo‘lgan voqeliklarni va

jarayonlarni tasavvur qilish sifatida tushunishni taklif etgani mazkur tadqiqot ishimizda o‘ziga xos metodologik pozitsiya sifatida olindi. Shuningdek, V.M.Karimova oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarni yuqori darajada shakllangan ijtimoiy tasavvurlar sifatida e’tirof qilishi, oila psixologiyasi sohasidagi ko‘plab muammolarning yechimini aynan shu sohadan qidirish to‘g‘ri ekaniga ishora qiladi.

Qolaversa, V.M. Karimovaning oxirgi yillarda chop etilayotgan maqola va kitoblarida aynan oilaviy munosabatlar va ular turining farzandlar ijtimoiy tasavvuriga bevosita ta’sir ko‘rsatishi, ularning oilaviy hayotga tayyorligi, oilaviy ijtimoiy tasavvurlari mazmunini tashkil etuvchi muhim mezon ekanligi fikrini ta’kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari, - T,: «Ma’naviyat», 1998, - 112 b.

2. Shoumarov G‘., Qodirov U., Hojiboyev I. Oilaga psixologik yordam ko‘rsatish asoslari. O‘quv qo‘llanma, Toshkent, -Tafakkur bo‘stoni, 2014, 231 bet.

3. Shoumarov G‘., Qodirov U., Solihova G., Arslanova M. Oilaviy hayotga tayyorlash. Yordamchi maktab, maktab-internatlarning 9-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan uslubiy qo‘llanma. Toshkent, 2015.

4. Karimova V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi. T.: 2006. – 122 b.

5. Каримова В.М. О процессах формирования новых социально-психологических качеств личности узбечки // Психол. журнал. – М.: 1987 - Т.8 – 4 –С.24-30

6. Каримова В. Национальная программа по подготовке кадров и психологизация экономического образования. - Доклад на Международной конференции «Психологическое образование в высшей школе», М., 2000 - 18-19 марта

7. Akramova F.A. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning asosiy omillari va ularning psixologik xususiyatlari. Zamonaviy ta’lim // 2015, №10. 45-52 b.

8. Davletshin M.G., Shoumarov G‘.B. Zamonaviy o‘zbek oilasi va uning psixologik xususiyatlari. O‘zbek oilasining etnopsixologik xususiyatlari. Ilmiy ishlar to‘plami. – Toshkent, 1993. – B. 5-11.

9. Eshmuradov O.E. Oila mustahkamligini ta’minlashning ijtimoiy-psixologik omillari mavzusidagi psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasi. TDPU huzuridagi ilmiy kengash, 2022.

10. Eshmuradov O.E. Oila mustahkamligiga ta’sir etuvchi ijtimoiy ustanovkalarning etnopsixologik xususiyatlari. Monografiya. Termiz 2024. - 39 b.

UDK 159.922.11

Qo'ziyev Oybek Cho'lliyevich,
Qarshi davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasi dotsenti,
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
G'ayimova Ozoda Eshmurod qizi,
Psixologiya yo'nalishi 2-bosqich magistranti

ZAMONAVIY RAHBAR SHAXSIDA LIDERLIK QOBILIYATINI BELGILOVCHI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR

Annotatsiya. Ushbu maqola zamonaviy rahbarlarda liderlik qobiliyati rivojlanganligini belgilovchi psixologik xususiyalar tadqiqotiga qaratilgan. Rahbarlarda liderlik qobiliyati va samaradorligi hamda kasbiy faoliyatiga xos psixologik xususiyatlarni aniqlash borasida tadqiqot olib borilgan. Liderlik qobiliyatini rivojlantirish borasida korreksiya amaliyoti tashkil etilgan. Korreksiya amaliyoti samaradorligiga ko'ra liderlik qobiliyatini belgilovchi asosiy psixologik xususiyatlar ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: rahbar, lider, liderlik qobiliyati, liderlik samaradorligi, psixologik xususiyatlar, psixokorreksiya, psixologik trening.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ КАЧЕСТВА, ОПРЕДЕЛЯЮЩИЕ ЛИДЕРСКИЕ СПОСОБНОСТИ ЛИЧНОСТИ СОВРЕМЕННОГО РУКОВОДИТЕЛЯ

Аннотация. Целью данной статьи является изучение психологических особенностей, определяющих развитие лидерских качеств у современных лидеров. Проведено исследование с целью выявления лидерских качеств и эффективности лидеров, а также психологических особенностей, характерных для их профессиональной деятельности. Для развития лидерских качеств была организована коррекционная практика. Указаны основные психологические характеристики, определяющие лидерские качества, исходя из эффективности коррекционной практики.

Ключевые слова: лидер, лидер, лидерские качества, эффективность лидерства, психологические характеристики, психокоррекция, психологический тренинг.

PSYCHOLOGICAL TRAITS DETERMINING THE LEADERSHIP ABILITIES OF A MODERN LEADER

Abstract. This article is aimed at studying the psychological characteristics that determine the development of leadership skills in modern leaders. Research was conducted to identify the leadership skills and effectiveness of leaders, as well as psychological characteristics specific to their professional activities. A correctional practice was organized to develop leadership skills. The main psychological

characteristics that determine leadership skills are indicated according to the effectiveness of the correctional practice.

Keywords: leader, leader, leadership skills, leadership effectiveness, psychological characteristics, psychocorrection, psychological training.

Mehnat jamoasi faoliyatining natijasi uning samaradorligi bilan belgilanadi. Mehnat jamoasi faoliyatining samaradorligi rahbar va xodimlarning o‘zaro muvofiq ish faoliyatiga bog‘liq. Mehnat faoliyatini samarali tashkil etish, rejalashtirish hamda jamoani boshqarishda ayniqsa rahbarning muhim hisoblanadi. Bu jarayon zamonaviy rahbarlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirishni talab qiladi.

N.Xusanov tadqiqotida rahbar xodimlarning kommunikativ kompetentligi rivojlanganlik darajasi motivatsion, kognitiv, refleksiv, faoliyatli mezonlar asosida aniqlangan. [1] A.Truss rahbar o‘z faoliyati spesifikasini qanchalik to‘liq va yaxshi bilishiga uning o‘zi tomonidan boshqarilayotgan tashkilotning muvaffaqiyati shunchalik bog‘liq ekanligini ta’kidlagan. [2] D.Mayers fikricha, muvaffaqiyatli rahbar ishga aloqador masalalarga bog‘lanadi, maqsadlarni belgilaydi va muvofiq liderlik uslubini tanlaydi. [3] B. Avolio aytishicha, haqiqiy lider rahbar xodimlarda o‘ziga ishonch, optimizm, ochiq munosabatlar va ijobiy muhit yaratish orqali tashkilotda fundamental o‘zgarish qila oladi. [4] L.D. Kudryashova sakkiz tipli boshqaruv rollarini ajratadi: reglamentator, kollegial, namoyishkor, ob’ektiv, rasmiyatchi, maksimalchi, tashkilotchi, dispetcher. [5] A.Louton va E.Rouz rahbar liderlarning faoliyat samaradorligini oshirishga yordam beruvchi ushbu o‘nta sifatlarni ajratgan:uzoqni ko‘ra olish;eng muhim jihatlarni aniqlay olish;xodimlarga motivatsiya bera olish;siyosiy sezgirlik; muxolif shaxs oldida barqarorlik va ikkilanmaslik;xarizma;tavakkalga borish qobiliyati, vakolatni izdoshlarga topshirish;vaziyat talab qilganda qat’iy va barqaror bo‘lish.[6]

L.I.Umanskiy [7] tomonidan ajratilgan liderlik tiplari, D. Makgregor [8] tomonidan taklif etilgan boshqaruv jarayonida “X” va “U” nazariyasi, G.Minsberg [9] tomonidan belgilangan rahbarga xos shaxs tiplari, R.Bleyk va D.Muton [10] tomonidan kiritilgan tashkilotning ikki vektordagi qadriyatlarga yo‘nalganligi borasidagi qarashlar tadqiqotning metodologiyasi hisoblanadi.

Tadqiqotning diagnostik bosqichida zamonaviy rahbarlar shasxsiga xos psixologik xususiyatlarni aniqlash maqsadida “Rahbar shaxsining psixologik xususiyatlarini ekspert baholash metodikasi” (Yu.P. Platonov), “Liderlik qobiliyati diagnostikasi testi” (Ye.Jarikov, Ye.Krushelniskiy) va “Liderlikning samaradorligi so‘rovnomasi” (R.S. Nemov) metodikalaridan foydalanildi. Tadqiqotda tajriba guruhida (TG) 143 nafar, nazorat guruhida (NG) 93 nafar, jami 236 nafar rahbar hamda 101 nafar xodim jami 337 nafar ishtirokchi qatnashgan.


Xodimlar tomonidan “Rahbar shaxsining psixologik xususiyatlarini ekspert baholash metodikasi” (Yu.P. Platonov) yordmida rahbar ishtirokchilarning psixologik xususiyatlari baholandi (1-jadval).

1-jadval

Rahbar shaxsining psixologik xususiyatlari
n=337 / TG n=143/ NG n=93 / xodim n=101

		Rahbar (erkaklar)		Rahbar (ayollar)		Rahbar (erkaklar)		Rahbar (ayollar)	
		TG	%	TG	%	NG	%	NG	%
1	Aniqlik	26,3	58,4	25,8	57,3	27,4	60,9	26,1	58,0
2	Anglanganlik	29,4	65,3	27,9	62	28,7	63,8	27,2	60,4
3	Maqsadga intilish	28,2	62,7	27,1	60,2	27,6	61,3	26,7	59,3
4	Tanlash	27,4	60,9	26,5	58,9	28,3	62,9	25,7	57,1
5	Xushmuomala	28,7	63,8	29,3	65,1	27,6	61,3	28,6	63,6
6	Samaradorlik	29,6	65,8	27,7	61,6	28,2	62,7	30,1	66,9
7	Talabchanlik	27,6	61,3	26,8	59,6	29,1	64,7	27,3	60,7
8	Tanqidiylik	29,1	64,7	25,6	56,9	30,2	67,1	27,5	61,1
9	Mas'uliyat	28,3	62,9	26,4	58,7	26,7	59,3	26,3	58,4
	M	28,3	62,9	27,0	60	28,2	62,7	27,3	60,6

Rahbar shaxsining psixologik xususiyatlarini xodimlar tomonidan baholash natijalari1-rasmda diagramma ko'rinishida tasvirlangan.



1-rasm. Rahbar shaxsining psixologik xususiyatlari

Tadqiqotning diagnostik bosqichi natijalariga asosan ishtirokchi rahbarlar shaxsiga xos psixologik xususiyatlar quyi va o'rta darajada ifodalangan. Psixologik xususiyatlarning o'rtacha ko'rsatgichi TGda Rahbar (erkaklar) 62,9%; Rahbar (ayollar) 60 %; NGda Rahbar (erkaklar) 62,7%; Rahbar (ayollar) 60,6 % namoyon

bo‘lgan. Olingan natijalarga asosan rahbar shaxsida liderlik qobiliyatini rivojlantirish talab etiladi.

Ishtirokchi rahbarlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish maqsadida psixokorreksiya amaliyoti olib borildi. Psixokorreksiya amaliyoti tajriba guruhi ishtirokchilarida tashkil etildi. Psixokorreksiya amaliyoti dastur asosida 4 bosqichda olib borilgan.

1-bosqichda psixoanaliz va analitik usullar qo‘llanilgan. Ushbu bosqichda "Uch yo‘lak" nomli yangi assotsiativ test ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan assotsiativ test yordamida liderlik qobiliyatini rivojlanishiga to‘siq bo‘lgan psixologik komplekslar aniqlandi.

2-bosqich geshtalt va kognitiv xulq-atvor yondashuvi asosida olib borildi. Tugallanmagan geshtaltlar aniqlanib, shaxs ichki nizolarini bartaraf etish, emotsional intellektni takomillashtirish, kasbiy faoliyatga xos psixologik xususiyatlarini takomillashtirishga erishildi.

3-bosqich transakt analiz texnikalari asosida tashkil etildi. Ushbu bosqichda jamoada ijobiy shaxslararo munosabatni ta'minlash, maqsadga intilishi, mukammallikka intilish xususiyatini shakllantirish vazifasi bajarildi.

4-bosqich gumanistik yondashuv va psixodrama texnikalari asosida tashkil etildi. Ushbu bosqichda yashirin layoqatlarini yuzaga chiqarish, liderlik qobiliyatini rivojlantirish vazifasi bajarildi. Shu bilan birga ishtirokchilarning liderlik qobiliyatini shakllantirish maqsadida "Tashkilotchi lider" nomli psixologik trening mashqi ishlab chiqildi.

Psixokorreksiya amaliyoti samaradorligini aniqlash maqsadida korreksiya amaliyotidan keyingi diagnostik bosqich tashkil etildi. Rahbarning shaxsining kasbiy faoliyatga xos psixologik xususiyatlari tajribadan oldingi va keyingi ko‘rsatgichlari dinamikasi tahlil qilindi (2-jadval).

2-jadval

Rahbar shaxsining psixologik xususiyatlari
n=337 / TG n=143/ NG n=93 / xodim n=101 (t-styudent mezoni bo‘yicha)

shkala	TG NG	TO	%	TK	%	t
Aniqlik	TG	26,1	57,9	41,6	92,4	3,51***
	NG	26,8	59,5	27,2	60,4	2,27*
Anglanganlik	TG	28,7	63,7	42,1	93,6	3,58***
	NG	27,9	62,1	28,6	63,6	2,41*
Maqsadga intilish	TG	27,6	61,4	42,8	95,2	3,71***
	NG	27,2	60,3	27,9	61,9	2,36*
Tanlash	TG	27,0	59,9	43,2	96,1	3,93***
	NG	27,0	60,0	27,6	61,3	2,29*
Xushmuomala	TG	29,0	64,4	42,4	94,2	3,85***
	NG	28,1	62,4	28,8	64,0	2,52*

Samaradorlik	TG	28,7	63,7	42,9	95,4	3,78***
	NG	29,2	64,8	29,1	64,7	2,57*
Talabchanlik	TG	27,2	60,4	42,0	93,4	3,59***
	NG	28,2	62,7	28,8	63,9	2,47*
Tanqidiylik	TG	27,4	60,8	41,9	93,1	3,63***
	NG	28,8	64,1	28,7	63,8	2,36*
Mas'uliyat	TG	27,4	60,8	43,4	96,3	3,87***
	NG	26,5	58,9	27,0	59,9	2,17*

Izoh: *p≤0,05; ***r≤0,001

Jadvalda keltirilgan ko'rsatgichlarga asosan korreksiya amaliyotidan keyingi rahbar shaxsining kasbiy faoliyatiga xos psixologik xususiyatlar dinamikasi natijalari quyidagi tahlilga ega:

TGda aniqlik - 92,4%; anglanganlik - 93,6%; maqsadga intilish - 95,2%; tanlash - 96,1%; xushmuomala - 94,2%; samaradorlik - 95,4%; talabchanlik - 93,4%; tanqidiylik - 93,1%; mas'uliyat - 96,3% ko'rsatgichga erishilgan;

NGda aniqlik - 60,4%; anglanganlik - 63,6%; maqsadga intilish - 61,9%; tanlash - 61,3%; xushmuomala - 64,0%; samaradorlik - 64,7%; talabchanlik - 63,9%; tanqidiylik - 63,8%; mas'uliyat - 59,9% ko'rsatgich namoyon bo'lgan.

Korreksiya amaliyoti samaradorligini aniqlash maqsadida liderlik qobiliyati va liderlik samaradorligi shkalalarining tajribadan keyingi diagnostik natijalari hamda rahbar shaxsining kasbiy faoliyatiga xos psixologik xususiyatlari shkalalarining tajribadan keyingi diagnostik natijalari o'zaro korrelyatsion tahlil qilindi (3-jadval).

3-jadval

Liderlik qobiliyati va psixologik xususiyatlar shkalalarining tajribadan keyingi o'zaro bog'liqligi korrelyatsion tahlili (Pirson kor. koef. bo'yicha)

Shkalalar	Aniqlik	Anglanganlik	Maqsadga intilish	Tanlash	Xushmuomala	Samaradorlik	Talabchanlik	Tanqidiylik	Mas' uliyat
Liderlik qobiliyati	0,79**	0,81**	0,94***	0,67**	0,78**	0,93***	0,77**	0,68**	0,89***
Liderlik samaradorligi	0,81**	0,84**	0,91***	0,63**	0,81**	0,95***	0,67**	0,63**	0,92***

Izoh: *p≤0,05; **p≤0,01;

Jadvalda keltirilgan liderlik qobiliyati va psixologik xususiyatlar shkalalarning o'zaro korrelyatsion bog'liqligi qo'yidagi tahlilga ega:

- liderlik qobiliyati va maqsadga intilish shkalalari korrelyatsiya koeffitsienti r=0,94 bo‘lib yuqori korrelyatsiyaga ega. Liderlik qobiliyatida maqsadga intilish shkalasi bilan yuqori aloqadorlikka erishilgan.

- liderlik qobiliyati va samaradorlik korrelyatsiya koeffitsienti r=0,93 bo‘lib yuqori korrelyatsiyaga ega. Liderlik qobiliyati va samaradorlik shkalasi o‘rtasida yuqori aloqadorlikka erishilgan.

- liderlik qobiliyati va mas’uliyat shkalalari korrelyatsiya koeffitsienti r=0,89 bo‘lib yuqori korrelyatsiyaga ega. Liderlik qobiliyati va mas’uliyat shkalasi o‘rtasida yuqori aloqadorlikka erishilgan.

- liderlik samaradorligi va maqsadga intilish shkalalari korrelyatsiya koeffitsienti r=0,91 bo‘lib yuqori korrelyatsiyaga ega. Liderlik samaradorligida maqsadga intilish shkalasi bilan yuqori aloqadorlikka erishilgan.

- liderlik samaradorligi va samaradorlik korrelyatsiya koeffitsienti r=0,95 bo‘lib yuqori korrelyatsiyaga ega. Liderlik samaradorligi va samaradorlik shkalasi o‘rtasida yuqori aloqadorlikka erishilgan.

- liderlik samaradorligi va mas’uliyat shkalalari korrelyatsiya koeffitsienti r=0,92 bo‘lib yuqori korrelyatsiyaga ega. Liderlik samaradorligi va mas’uliyat shkalasi o‘rtasida yuqori aloqadorlikka erishilgan.

Zamonaviy rahbarlarda liderlik qobiliyati rivojlanganligini belgilovchi psixologik xususiyalar borasida tadqiqot olib borildi. Tadqiqot diagnostik va korreksion qismlardan iborat bo‘lib, dastlab liderlik qobiliyati rivojlanganligi diagnostika qilindi, diagnostika natijalariga asosan liderlik qobiliyati rivojlantiruvchi korreksion amaliyo tashkil etildi va tadqiqot yakunida korreksiya amaliyoti samaradorligi aniqlandi.

- korreksiya amaliyotining dastlabki bosqichida liderlik qobiliyati rivojlanishiga to‘siq bo‘luvchi omillarni aniqlash uchun psixoanalizni qo‘llash, jumladan yangi ishlab chiqilgan “Uch yo‘lak” nomli assotsiativ testdan foydalanish maqsadga muvofiq;

- korreksiya amaliyotining liderlik qobiliyati rivojlantirish bosqichida yangi ishlab chiqilgan “Tashkilotchi lider” nomli psixologik trening mashqini qo‘llash ijobiy samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xusanov N.B. Professional ta’lim tizimi rahbar xodimlarini boshqaruv faoliyatiga tayyorlashda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish metodikasi: Pedagogika fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) .. diss.avtoref.: 13.00.05. – T.: PIKHTBPKQTMOI, 2020.

2. Трусь А.А. Психология управления: практикум: учебное пособие для студентов учреждений высшего образования по специальностям управления и психологии. - Минск: Вышэйшая школа, 2015. - 348 с.

3. Myers D.G. Psychology. Book. 9th edition. Worth Publishers. NY:2010. p. 910.

4. Avolio B.J., Gardner W.L. Authentic leadership development: Getting to the root of positive forms of leadership. The Leadership Quarterly Volume 16, Issue 3, (2005) pg. 315-338

5. Строков Р.Р. Психологическое исследование влияния свойств темперамента на стиль руководства офицеров курсантских подразделений военных образовательных учреждений высшего профессионального образования. Вестник МГОУ. Серия «Психологические науки». № 2 / 2011. 59-66 с.

6. Евтихов О.В. Сравнительный анализ лидерских качеств руководителей разных управленческих уровней промышленного предприятия.// Психология. Журнал Высшей школы экономики. 2010. Т. 7, № 1. с. 114-121.

7. Каримова В.М. О процессах формирования новых социально-психологических качеств личности узбечки // Психол. журнал. – М.: 1987 - Т.8 – 4 –С.24-30

8. Каримова В. Национальная программа по подготовке кадров и психологизация экономического образования. - Доклад на Международной конференции «Психологическое образование в высшей школе», М., 2000 - 18-19 марта

9. Литвинова К.В. Психологические условия развития профессионально значимых лидерских качеств аспирантов – будущих преподавателей вуза: дисс. канд. психол. наук.: 19.00.07. – Ставрополь.: 2014. 251 с.

10. Landis E.A., Hill D., Harvey M.R. A synthesis of leadership theories and styles. Journal of Management, 15 (2). 2014. pg. 97-100

11. Батаршева А.В., Лукьянова А.О. Психология управления персоналом: Пособие для специалистов, работающих с персоналом / Под ред. 2-е изд., испр. - М.: Психотерапия, 2007. - 624 с.

12. Карымова О.С., Якиманская И.С., Молокостова А.М., Бендас Т.В. Психология управления в организации: учебно-методическое пособие/. Оренбург: ОГУ, 2015. – 285 с.

UDK 331.101.3:331.5

Sirojiddinova Feruza Xosilbekovna,
Andijon davlat pedagogika instituti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

XOTIN-QIZLAR MEHNAT SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimiz mustaqil rivojlanish yillari davomida ayollarning huquqlari va ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha katta muvaffaqiyatlari, xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va mavqeini mustahkamlash borasida davlat ahamiyati, ayollarning oilada ham, davlat va jamoat ishlarida ham emin-erkin faoliyat yuritishlari, ularning huquq va manfaatlarini ro'yobga chiqarish yo'lida mamlakatmiz miqyosida qator chora-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga joriy etilayotganligi, ayniqsa, xotin-qizlarimizni ish bilan ta'minlash, tabdirkorlik qilishlariga erkinlik berish, rag'batlantirish borasida fikrlar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: mehnat, samaradorlik, ayollar huquqlari, xotin-qizlar, tabdirkorlik, rag'batlantirish, muvaffaqiyat, jamiyat.

НЕОБХОДИМОСТЬ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ТРУДОВОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЖЕНЩИН

Аннотация. В данной статье рассматриваются значительные достижения в обеспечении прав женщин и защите их законных интересов в годы независимого развития нашей страны. Освещается государственная значимость укрепления роли и статуса женщин в обществе, их свободная деятельность как в семье, так и в государственном и общественном секторе. Приводятся меры, принимаемые на национальном уровне для реализации прав и интересов женщин, особенно в части обеспечения занятости, поддержки предпринимательства и стимулирования активности женщин.

Ключевые слова: труд, эффективность, права женщин, женщины, предпринимательство, стимулирование, успех, общество.

THE NECESSITY OF IMPROVING WOMEN'S LABOR EFFICIENCY

Annotation. This article discusses the significant achievements in protecting women's rights and legal interests during the years of our country's independent development. It highlights the importance placed by the state on strengthening the role and status of women in society, their free participation both in family life and in state and public affairs. The article outlines various nationwide measures being developed and implemented to realize women's rights and interests — particularly

in terms of employment, encouraging entrepreneurship, and providing support and incentives for women.

Keywords: labor, efficiency, women's rights, women, entrepreneurship, encouragement, success, society

Mamlakatimiz mustaqil rivojlanish yillari davomida ayollarning huquqlari va ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha katta muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritdi. O‘z-o‘zidan ayonki, respublikamizning ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotida xotin-qizlarning faol ishtirok etishini ta’minlash sohasidagi salmoqli muvaffaqiyatlarining ahamiyati ham salmoqlidir. Umuman, O‘zbekistonda xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va mavqeini mustahkamlash borasida davlat ahamiyatiga molik salmoqli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Zero, jamiyat rivojini xotin-qizlarsiz, ularning ishtirokisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu bois ayollarning oilada ham, davlat va jamoat ishlarida ham emin-erkin faoliyat yuritishlari, ularning huquq va manfaatlarini ro‘yobga chiqarish yo‘lida mamlakatimiz miqyosida qator chora-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga joriy etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qator farmon va qarorlari, jumladan, Davlat va jamiyat qurilishida ayollarning rolini oshirish to‘g‘risida, Ona va bola salomatligini muhofaza qilish, sog‘lom avlodni shakllantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida va boshqa ko‘plab hujjatlar bor. Har yili muayyan yo‘nalishda qabul qilinayotgan maxsus davlat dasturlarining hayotga tatbiq etilishi doirasidagi rejali ishlar ma’lum darajada ayollarimizning hayot sharoiti va sifatini yaxshilashga ham aloqadordir. Bundan tashqari, O‘zbekiston BMT va Xalqaro Mehnat tashkilotining qator konvensiyalarini Markaziy Osiyoda birinchilardan bo‘lib ratifikatsiya qilgan. Ular orasida Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida, Onalikni himoya qilish to‘g‘risida, Mehnat va ish turlari sohasida kamsitishlar to‘g‘risidagi va boshqa hujjatlar mavjud.

O‘zbekistonning mustaqillik yillarida xotin qizlarga e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Oila kodeksida turmushda, oilaviy munosabatlarda ayollarning erkaklar bilan teng huquqli ekani, oila davlat tomonidan muhofaza etilishi o‘z aksini topgan. Shu vaqtga qadar ayollar huquqi himoyalangan ko‘plab qonun hujjatlari qabul qilindi. Ayniqsa, xotin-qizlarimizni ish bilan ta’minlash, tabdirkorlik qilishlariga erkinlik berish, rag‘batlantirish borasida sezilarli ishlarni kuzatish mumkin.

Bugungi kunda jamiyatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida xotin-qizlarning faol ishtirokini ta’minlash, ularning mehnat samaradorligini oshirish va kasbiy salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Xotin-qizlar mehnat bozorida o‘z o‘rniga ega bo‘lib, turli sohalarda faoliyat yuritmoqdalar. Ammo ularning mehnat samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar hali ham yetarli darajada emas. Shu bois, ushbu masalani ilmiy asosda o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish zarurati ortib bormoqda.

Mehnat samaradorligini oshirish nafaqat iqtisodiy samaraga, balki xotin-qizlarning ijtimoiy mavqeini mustahkamlash, ularning shaxsiy rivojlanishi va turmush darajasini yaxshilashga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, xotin-qizlarning mehnat faolligiga ta'sir etuvchi omillarni chuqur o'rganish va ularni rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish orqali umumiy mehnat unumdorligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Shu nuqtai nazardan, xotin-qizlar mehnati samaradorligini takomillashtirish muammosi zamonaviy iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uni ilmiy asosda tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi globallashuv va raqobatbardosh iqtisodiyot sharoitida mamlakatlar taraqqiyotining asosiy ko'rsatkichlaridan biri — bu inson kapitali va mehnat resurslaridan samarali foydalanish hisoblanadi. Bu borada, ayniqsa, ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish, ularning mehnat bozorida to'laqonli ishtirokini ta'minlash dolzarb vazifalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ular uchun munosib mehnat sharoitlarini yaratish, kasbiy malakasini oshirish, ish bilan bandligini ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, amaliyot shundan dalolat bermoqdaki, xotin-qizlarning mehnat samaradorligini oshirishga to'sqinlik qilayotgan bir qator muammolar ham mavjud. Jumladan, mehnatga oid teng imkoniyatlarning to'liq ta'minlanmagani, ish joylarida gender stereotiplarining saqlanib qolgani, xotin-qizlarning ta'lim va kasbga yo'naltirishdagi muammolar, ular uchun moddiy va ma'naviy rag'batlantirish mexanizmlarining samarasizligi — bunday muammolarni ilmiy asosda tahlil qilish va yechimlar ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Xotin-qizlarning mehnat faoliyatini takomillashtirish masalasi faqat iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan emas, balki keng ma'noda ijtimoiy barqarorlik, gender tenglik, inson huquqlari, oilalar farovonligi va jamiyat taraqqiyotiga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri sifatida ko'rilishi lozim. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ayollarning mehnatga jalb etilishi, ularning bilim va malakasiga munosib shart-sharoit yaratilishi, mehnatdagi faolligi to'g'ridan-to'g'ri yalpi ichki mahsulot o'sishiga, innovatsion rivojlanishga va kambag'allik darajasini pasaytirishga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, xotin-qizlar mehnat samaradorligini takomillashtirish masalasini ilmiy tadqiq etish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi. Buning uchun aniq metodologik yondashuvlar, mehnat samaradorligiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni chuqur o'rganish, zamonaviy boshqaruv va rag'batlantirish vositalaridan foydalanish talab etiladi. Ilmiy asoslangan tahlillar asosida bu sohadagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqish mumkin bo'ladi.

Shu tariqa, xotin-qizlar mehnat samaradorligini oshirish masalasi nafaqat iqtisodiy sohalarni, balki ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy muhofaza va boshqa muhim sohalarni qamrab oladigan keng qamrovli tadqiqot ob'ektlaridan biri

hisoblanadi. Ushbu masalani chuqur o‘rganish, ilmiy-nazariy va amaliy tahlillar asosida tavsiyalar ishlab chiqish – mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Mamlakat iqtisodiyotini yangi bosqichga olib chiqishda, aholi bandligini ta’minlashda va ijtimoiy adolat mezonlarini hayotga tatbiq etishda xotin-qizlarning faol ishtirokini ta’minlash strategik ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda mehnat resurslaridan oqilona foydalanish hamda mehnat samaradorligini oshirish masalalari dolzarb bo‘lib bormoqda. Xotin-qizlarning iqtisodiy hayotdagi ishtiroki nafaqat ularning shaxsiy salohiyatini ro‘yobga chiqaradi, balki jamiyatning umumiy barqaror rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mehnat samaradorligi tushunchasi ko‘p omilli kategoriya bo‘lib, u xodimning ishlab chiqarishdagi unumdorligi, vaqtini maqsadli tashkil etishi, kasbiy malakasi, rag‘batlantirish usullari, ish muhiti, shuningdek, mehnat sharoitlari bilan uzviy bog‘liq. Xotin-qizlar mehnatiga xos bo‘lgan jihat shundaki, ular ko‘pincha ikkilamchi mehnat yuki — ya’ni ish joyidagi vazifalar bilan bir qatorda uy-ro‘zg‘or ishlari, bola parvarishi, qarindoshlarga qarash kabi faoliyat bilan ham shug‘ullanadi. Bu esa ularning mehnat samaradorligiga bevosita va bilvosita ta’sir qiladigan omillarni aniqlash, baholash va ularni bartaraf etish mexanizmlarini yaratish zarurligini ko‘rsatadi.

Rossiyalik olimlar В.Н.Бобков, В.Ф.Потуданская, Н.А.Тучкова va boshqalar ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarni yanada kengaytirib, ayollar mehnat hayoti sifatini oshirish uchun quyidagi omillarni asosiy deb belgilaganlar: adolatli mehnat haqi, xavfsiz sharoitlar, o‘zini ifoda qilish imkoniyati, huquqiy kafolatlar, kasbiy o‘sish imkoniyati va mehnatning ijtimoiy foydadorligi [5]. Ayniqsa, ayollar mehnatini kam baholash holati gender tengsizlikning muhim indikatorlaridan biri sifatida qaraladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, ko‘plab mamlakatlarda ayollar teng mehnat uchun erkaklarga nisbatan kamroq haq olishadi, ayniqsa sog‘liqni saqlash, ta’lim va madaniyat sohalarida [6].

Ayollar uchun mehnat hayoti sifati masalasi zamonaviy ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu muammo ularning ijtimoiy rollarining ko‘pligi bilan izohlanadi. Mehnat faoliyatini amalga oshirish bilan birga, ayol oiladagi generativ (nasl qoldirish), tarbiyaviy va maishiy majburiyatlarni ham o‘z zimmasiga oladi. Bunday murakkab rol strukturasi doimiy psixoemotsional bosim va roliy ziddiyatlarni yuzaga keltiradi. Bu esa, o‘z navbatida, ayollar mehnat unumdorligi, ishga nisbatan motivatsiyasi va kasbiy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy yondashuvlarga ko‘ra, mehnat hayoti sifati bu nafaqat moddiy barqarorlik, balki shaxsiy rivojlanish, o‘zini anglash, ijtimoiy adolat va xavfsizlik bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarni ham o‘z ichiga oladi. Xususan, “adolatli mehnat haqi” va “munosib mehnat haqi” tushunchalari jamiyatdagi ijtimoiy tenglikning namoyon

bo‘lish shakllaridan biri sifatida baholanadi. Bu tushunchalar ayollarning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va axloqiy ehtiyojlarini ham qamrab oladi.

Hozirgi kunda dunyo miqyosida iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikka erishish uchun mehnat resurslaridan foydalanishda gender tengligi muhim mezon sifatida qarala boshlandi. Xalqaro tashkilotlar, jumladan, Jahon banki, Xalqaro mehnat tashkiloti, BMT va boshqalar ayollar mehnatini qo‘llab-quvvatlashga doir ko‘plab dasturlarni amalga oshirmoqda. Ular tadqiqotlarida qayd etilganidek, xotin-qizlar mehnati samaradorligini oshirish uchun, eng avvalo, ularga teng huquq va imkoniyatlar yaratish, kasbiy rivojlanishda qo‘llab-quvvatlash, oila va mehnat vazifalari o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga ko‘maklashish lozim.

O‘zbekistonda ham xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishga qaratilgan normativ-huquqiy baza shakllantirilgan. Jumladan, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qarori va farmonlari bu boradagi siyosatning mustahkam asoslarini belgilab berdi. Biroq bu normativ hujjatlarning amaldagi ijrosi, hududiy va sohaviy xususiyatlarini inobatga olgan holda tahlil qilish, hamda xotin-qizlar mehnat samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash hamda ularga mos bo‘lgan aniq ilmiy asoslangan yechimlarni taklif etish zarurati mavjud.

Shuningdek, mehnat samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar qatorida ta’lim darajasi, kasbiy tayyorgarlik, ish muhiti, rahbariyatning munosabati, ijtimoiy himoya tizimi, oilaviy yuklamalar va jamoaviy qo‘llab-quvvatlash kabi ko‘plab psixologik, ijtimoiy va iqtisodiy faktorlar mavjud. Bu omillarni to‘liq o‘rganmasdan turib, xotin-qizlar mehnat samaradorligini tubdan oshirish choralarini belgilab bo‘lmaydi. Ayniqsa, iqtisodiy tahlillar va sotsiologik tadqiqotlar ushbu muammoning miqyosi, ko‘lami va mohiyatini aniqlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, xotin-qizlar mehnat samaradorligini takomillashtirish masalasini ilmiy tadqiq etish:

- mavjud muammolarni tizimlashtirish va ularning sabab-oqibat aloqalarini aniqlash;
- samaradorlikni oshirishga qaratilgan milliy va xalqaro tajribalarni tahlil qilish;
- tizimli yechimlarni ilmiy asosda ishlab chiqish;
- siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy dasturlar uchun ilmiy tavsiyalar berish kabi vazifalarni amalga oshirishda katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

Xotin-qizlarning mehnat faolligi va undagi samaradorligi turli xil ichki va tashqi omillar ta’sirida shakllanadi. Bu omillar iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, tashkilotchilik, ma’naviy-psixologik va madaniy xususiyatga ega bo‘lib, ular bir-biri bilan chambarchas bog‘liq holda faoliyat yuritadi. Xotin-qizlar mehnati samaradorligiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash va tahlil qilish, ularni tizimli

ravishda tasniflash mehnat unumdorligini oshirish bo‘yicha samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga egadir.

1. Ta’lim va kasbiy tayyorgarlik darajasi. Xotin-qizlarning bilim va malakasi, kasbiy salohiyati mehnat samaradorligining eng muhim omili hisoblanadi. Ilm-fan va texnologiyalarning tezkor rivoji sharoitida zamonaviy mehnat bozori yuqori darajada kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lgan mutaxassislarga ehtiyoj bildirmoqda. Ayollarning malakasini muntazam ravishda oshirib borish, qayta tayyorlash kurslari, ilg‘or ish usullari va innovatsiyalarga asoslangan o‘quv dasturlari mehnat unumdorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

2. Ish sharoitlari va mehnat muhiti. Xotin-qizlarning mehnat samaradorligi ko‘p jihatdan ular uchun yaratilgan ish sharoitiga bog‘liq. Bu joyda mehnat xavfsizligi, qulay ish jadvali, ijtimoiy kafolatlar, bolali ayollar uchun qulayliklar, jamoadagi muomala madaniyati va rahbariyatning munosabati muhim ahamiyatga ega. Ayollar uchun qulay va inklyuziv ish muhitini yaratish ularning ishga bo‘lgan rag‘batini oshiradi, stress darajasini kamaytiradi va mehnat unumdorligini ko‘tarishga xizmat qiladi.

3. Ijtimoiy-maishiy yuklama. Ko‘p hollarda ayollar mehnat faoliyati bilan bir vaqtda oila, farzand tarbiyasi, qarindoshlarga g‘amxo‘rlik qilish, uy ishlari kabi qo‘shimcha majburiyatlarni ham bajaradilar. Bu ortiqcha yuklama ularning kasbiy faolligiga, vaqtini boshqarish qobiliyatiga va ish unumdorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday holatlarda mehnat va hayot muvozanatini ta’minlovchi mexanizmlar — masalan, masofaviy ishlash imkoniyatlari, qisqartirilgan ish soatlari, bolalar bog‘chalari, ijtimoiy xizmatlar — ayollarning mehnat samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

4. Mehnatga doir teng imkoniyatlar va gender siyosatining holati. Ayollar ish joylarida ko‘pincha kam maoshli lavozimlarda faoliyat yuritadilar yoki yuqori rahbarlik lavozimlariga ilgarilash imkoniyati cheklangan bo‘ladi. Bu holat “shisha shift” (glass ceiling) fenomeni bilan izohlanadi. Bundan tashqari, ba’zi sohalarda ayollar mehnati hanuzgacha ikkinchi darajali deb qaraladi. Mehnatga doir teng huquqlar kafolatlangan va amalda ta’minlangan jamiyatlarda esa ayollarning mehnat unumdorligi va ishdan qoniqishi ancha yuqori bo‘ladi.

5. Rag‘batlantirish va moddiy-ma’naviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari. Mehnat samaradorligini oshirishda moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish asosiy omillardan biridir. Xotin-qizlar mehnati yetarlicha baholanmasa, maosh darajasi past bo‘lsa, faoliyat natijalari e’tirof etilmasa, ularda ishga bo‘lgan qiziqish pasayadi. Shu bois, ish unumdorligi, tashabbuskorlik va mas’uliyatni rag‘batlantiruvchi aniq va shaffof tizimlarni joriy etish talab etiladi.

6. Jamoa ichidagi munosabatlar va rahbariyatning qo‘llab-quvvatlashi. Ish joyidagi muomala madaniyati, psixologik muhit va jamoa bilan munosabatlar xotin-qizlarning mehnat samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayollarni tinglaydigan, ularning fikrini qadrlaydigan rahbarlar va samarali ichki

kommunikatsiya tizimi mavjud jamoalarda ayollar o'zini xavfsiz va qadrlangan his qilib, o'z salohiyatini to'liq namoyon etadilar.

7. Madaniy va ma'naviy omillar. Jamiyatdagi genderga oid qarashlar, ayollarga nisbatan ijtimoiy intizom, urf-odatlar, diniy va milliy qadriyatlar ham mehnat faolligiga ta'sir ko'rsatadi. Ayollarning ishlashga bo'lgan huquqini keng jamoatchilik qabul qilgan va qo'llab-quvvatlagan jamiyatlarda ularning mehnat unumdorligi ham yuqori bo'ladi.

Yuqorida qayd etilgan omillar nazariy jihatdan o'zaro bog'liq bo'lib, har bir sohadagi tadqiqotlar shu omillarning aniq miqyosi, ta'siri va xususiyatini o'rganishga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, xotin-qizlar mehnat samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish uchun mustahkam ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, xotin-qizlar mehnat samaradorligini takomillashtirish masalasini ilmiy tadqiq etish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi. Buning uchun aniq metodologik yondashuvlar, mehnat samaradorligiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni chuqur o'rganish, zamonaviy boshqaruv va rag'batlantirish vositalaridan foydalanish talab etiladi. Ilmiy asoslangan tahlillar asosida bu sohadagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqish mumkin bo'ladi. Shu tariqa, xotin-qizlar mehnat samaradorligini oshirish masalasi nafaqat iqtisodiy sohalarni, balki ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy muhofaza va boshqa muhim sohalarni qamrab oladigan keng qamrovli tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Ushbu masalani chuqur o'rganish, ilmiy-nazariy va amaliy tahlillar asosida tavsiyalar ishlab chiqish mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ivanov P., Zufarova M. Umumiy psixologiya. Darslik. – T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2008. –312-b.
2. Abdurahmonov Q. Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot / Darslik. T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti davlat korxonasi, T.: 2019. –420-b.
3. Давлетшин М.Г., Захарина М.С. Профессиональная ориентация учащихся: реформа в действии / учебное пособие. – Ташкент, 1986- С.108-109.
4. Umarov B.M., Shoyimova Sh.S. Kasbiy psixologiya. Darslik. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi-T.: LESSON PRESS.2018. –120-b.
5. Hayitov O.E. Tadbirkorlik faoliyati motivatsiyasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixol. fan. doktori. dis. – T.: 2005. –7-b.
6. Arziqulov D.N. Kasbiy kamolotning psixologik o'ziga xos xususiyatlari. Psix.f.n.dis.- T., 2002. - 17 b.

UDK: 159.923.2:316.48:378:159.955

Eshquvvatov To'lqinjon Eshquvvatovich,
Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti, "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" kafedrasi dotsenti, (PhD)

OLIY TA'LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARIDA KONFLIKTOLOGIK KOMPETENSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH PSIXOLOGIK FENOMEN SIFATIDA

Annotatsiya. Maqolada pedagogik nizolar, OTMda pedagogik nizolarning mohiyati, ularning bevosita sabablari va ularning tahlili, tashkiliy va boshqaruv tipidagi nizolar va ular qanday yo'llar bilan hal etilishi, ularni boshqarish san'atini o'rganishlarni o'z ichiga olgan bo'lib, ular oliy maktabga psixologik xizmat ko'rsatish maqsadida bajarilgan va bo'lajak pedagoglarga metodik yordam qiladi deb o'ylaymiz.

Kalit so'zlar: nizolar, nizo sabablari, nizoning vazifalari, pedagogik munosabatlar.

ПОВЫШЕНИЕ КОНФЛИКТОЛОГИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ ПРОФЕССОРСКО-ПРЕПОДАВАТЕЛЬСКОГО СОСТАВА ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ КАК ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ФЕНОМЕН

Аннотация. В статье рассматриваются педагогические конфликты, сущность педагогических конфликтов в вузе, их прямые причины и анализ, конфликты организационного и управленческого характера, способы их разрешения, изучение искусства управления ими. Исследования выполнены с целью психологического сопровождения высшей школы и, как мы считаем, предоставляют методическую помощь будущим педагогам.

Ключевые слова: конфликты, причины конфликтов, функции конфликта, педагогические отношения.

IMPROVING CONFLICTOLOGICAL COMPETENCIES OF PROFESSORS AND TEACHERS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS AS A PSYCHOLOGICAL PHENOMENON

Abstract. The article covers pedagogical conflicts, the essence of pedagogical conflicts in higher education institutions, their direct causes and analysis, organizational and managerial types of conflicts and ways to resolve them, as well as the study of the art of managing these conflicts. The research was conducted to provide psychological support to higher education institutions and, as we believe, offers methodological assistance to future educators.

Keywords: conflicts, causes of conflicts, functions of conflict, pedagogical relations.

Respublikamizning so‘nggi yillarida oliy ta’lim sifatini oshirish, professor-o‘qituvchilarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish hamda ta’lim muassasalarida ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Ilm-fan sohasini rivojlantirish konsepsiyasi” doirasida akademik jamoalarda nizolarning oldini olish, konstruktiv muloqot madaniyatini rivojlantirish va konfliktologik kompetensiyalarni oshirish bo‘yicha huquqiy-me’yoriy asoslar yaratildi. Bu jarayonlar “Ta’lim muassasalarida sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish”, “O‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi ijobiy muloqotni mustahkamlash” kabi strategik vazifalar bilan uyg‘un holda, professor-o‘qituvchilarda konfliktologik kompetensiyalarni rivojlantirishni ilmiy jihatdan chuqurlashtirishga yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Oliy ta’lim muassasalarida sub’ektlar o‘rtasidagi muloqot shakllari ko‘p jihatdan yuqoridagi komponentlar bo‘yicha ijtimoiy-madaniy va individual psixologik sifatlarga, shuningdek, universitet jamoasida o‘rnatilgan an’analar, me’yorlar va o‘rnatilgan qoidalariga bog‘liq.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, 80% nizolar ularning ishtirokchilari xohish va irodasiga qarama-qarshi o‘laroq, ular istagiga qarshi ravishda vujudga keladi, ya’ni kamdan kam hollarda nizo ataylab tayyorlanib, amalga oshiriladi. Inson boshqalardan kelayotgan axborotni diqqat bilan filtrlab, o‘zi yuborayotgan axborotni esa – filtrlamasdan, to‘g‘ri jo‘natadi. Odatda o‘zgalardan kelayotgan axborotga emotsional yondashib, ketayotgan axborotni esa ko‘proq boricha yuborish kuzatiladi. Nizoli vaziyat esa yuborilayotgan va qabul qilayotgan axborotlar orasidagi hissiy - emotsional hamda psixologik muvozanat buzilganda yuzaga kelishi mumkin.

Bugungi kunda jahon miqyosida turli pedagogik vaziyatlarda nizolarning yuzaga kelish bosqichlari, ularda sub’ekt xususiyatlarining o‘rni, ijtimoiy-pedagogik muhit ziddiyatlari, nizoli muammolarni bartaraf etishning aniq mexanizmlariga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish pedagogik-psixologik tajribalarnini umumlashtirish asosida quyidagicha muammolar mavjudligi ko‘rinadi: o‘qituvchi faoliyatida nizoli vaziyatlar pedagogik jarayonlarni izdan chiqishiga asosiy sabab bo‘lishi ilmiy asoslangan bo‘lsa-da, ayni sharoitda tayyorlanayotgan pedagoglar kelgusi faoliyatlarida ijtimoiy hamkorlikdagi inqirozlarni hal qilish, pedagogik jarayon sub’ektlari bilan yuzaga keladigan pedagogik nizolar oldini olish, bunday jarayonlarga nisbatan pedagogik jihatdan mos konstruktiv munosabatlarga kirishisha olish layoqatiga yetarlicha ega emasliklari, bo‘lajak o‘qituvchilarni nizoli vaziyatlarga tayyorlashning hozirgi holati o‘quv mazmunini ishlab chiqish va o‘quv jarayonlarni tashkil etishda nizoli vaziyatlarga oid kompetensiyaviy yondashuvlar

asosiga qurilmaganligi, talabalarni bu borada layoqatlarini baholash tizimi hal etilmagan.

Aniqlovchi-ta'kidlovchi tajriba-sinovlarda o'tkazilgan so'rovnomalarda qatnashgan talabalarning (jami respondentlar 120 ta) 37 foizi professor-o'qituvchilar nizolarining salmoqli qismi o'qituvchilarning kasbiy saviyasi yetarli emasligi tufayli yuzaga keladi, deb hisobladilar. Aksariyat o'qituvchilar fanlar mazmunining real hayotdan ajratilganligiga, 32% o'qituvchi o'quv kursi dasturlari tuzilishiga salbiy munosabat bildirdi.

O'z navbatida professor-o'qituvchilar (jami o'qituvchi respondentlar 86 ta) ta'lim jarayonining past samaradorligi va muloqotdagi nizoli vaziyatlarni quyidagi sabablar bilan izohladilar:

- bilim olishga bo'lgan salbiy munosabat, dangasalik, o'rganishni istamaslik (34%);
- mustaqil fikrlash yo'qligi, umumiy ta'lim va siyosiy madaniyatning pastligi, fanlarning ahamiyatini anglamaslik (12%);
- bo'lajak kasbiga qiziqishning yo'qligi yoki o'z istiqbolini ko'rmaslik (56%);
- o'ta izzattalablik (27%).

Ishtirokchi respondentlar "O'qituvchi-o'qituvchi" munosabatidagi nizoli vaziyatlarni aksariyat hollarda hamkasblarning ishchanlik salohiyatini yetarli emasligi (22%), o'zgalarning faoliyat natijalari soyasiga o'tib olish (27%), o'quv materiallari mazmuniga shaxsiy hissa qo'shmaslik (24%), faoliyatdagi o'zaro hamkorlikning yetishmasligi bilan bog'ladilar.

Shu bilan birga "Universitet-o'qituvchi" munosabatlaridagi noqulay vaziyatlar omili sifatida oliy ta'lim muassasasi tomonidan o'qituvchidagi tashabbuskorlikning yetishmasligi, dars o'tishdagi bepisandlik, jamoat ishlaridagi mas'uliyatsizlik, muassasa rivojlanishi va istiqboliga befarqlik, o'z ustida ishlamaslik, axborot texnologiyalari bilan ishlash va tillarni o'rganishga bo'lgan harakatning yetarli emasligi kabilar keltirilgan bo'lsa, professor-o'qituvchilar tomonidan bildirilgan asosiy e'tirozlar muassasadagi infratuzilmaning yetarlicha rivojanmaganligi (38%), o'qituvchilarning mehnatiga yarasha munosabat ko'rsatilmasligi (44%), tashabbus qo'llab-quvvatlanmasligi (36%) kabilarda namoyon bo'ldi.

Tadqiqotning "Universitet-talaba" munosabatlariga qaratilgan qismida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra amaldagi vaziyatda oliy ta'lim muassasasi talabalarning ichki tartibga rioya qilmasliklari, shaxslararo muloqotlardagi mas'uliyatsizliklari va madaniy saviyaning pastligi, bilim olishga nisabatan dangasalik, shijoat va tashabbuskorlikning pastligi, axborot texnologiyalari va til o'rganishga bo'lgan motivatsiyani yetishmasligini ta'kidlagan bo'lsalar, talabalar tomonidan oliy ta'lim muassasasidagi ichki tartib-qoidalarning o'ta rasmiyligi (72%), erkin muloqot va harakatning cheklanganligi (64%), infratuzilmaning qoniqarsizligi (64%), anonim tarzda esa ayrim hollarda yashirish korrupsiyaning davom etayotganligini bildirib o'tdilar.

Mazkur tahlil oliy ta'lim muassasalarida o'rganilgan sub'ektlarning o'zaro munosabatlarida ma'lum nizoli vaziyatlarni yuzaga kelishi uchun sharoit yaratayotganligini ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida "Universitet-jamiyat" munosabatlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Bizning nazarimizda "Universitet-jamiyat" munosabatlaridagi qarama-qarshiliklarning asosiy mazmuni bu ikki sub'ektning birbiriga qo'yayotgan talablarining o'lchamli ko'rinishga keltirilmaganligida, ya'ni o'z funksional vazifalaridan kelib chiqib, amalga oshirilayotgan natijaning o'zaro solishtirma qiymati belgilanmaganligida.

Olib borgan tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdiki, oliy ta'lim muassasalarining bevosita ishtirokchi sub'ektlari munosabatlaridagi yuzaga keluvchi nizoli vaziyatlar profilaktikasiga oid tashkiliy-pedagogik shart-sharoit yaratish orqali yuqorida ta'kidlangan "Universitet-jamiyat" munosabatlaridagi talablarni yagona o'lchamli ko'rinishga keltirish, ya'ni maqbullashtirish asosida o'quv jarayonlari samaradorligini oshirish, kutilayotgan ta'lim sifatini ta'minlash imkoniyatlari ortadi.

Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdiki, bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan pedagogik nizolar turlari va hajmining bu borada profilaktik harakatlar samaradorligini oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni pedagogik jarayon hisoblanganligi sababli undagi nizolar profilaktikasi ma'lum tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni talab qiladi.

Umumiy holda tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar mazmunida maqsadga qaratilgan harakatlarni amalga oshirish imkoniyatlariga ta'sir etuvchi omillarni tushunish mumkin.

Shunday qilib, oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayoni nizolari profilaktikasining tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari ta'lim samaradorligini oshirish va sifatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilayotgan ta'lim sub'ektlari o'rtasida sog'lom muhitni saqlash, nizoli vaziyatlar va ularning keskinlashuvini oldini olish, erta aniqlash va bartaraf etish faoliyatlarni yo'lga qo'yishdagi ma'lum tartib, imkoniyatlar majmui hamda pedagogik munosabat yo'nalishlarining mazmuni, deb hisoblashimiz mumkin.

Oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayoni sub'ektlarining o'zaro munosabatlari keltirilgan tahlillarimiz asosida nizolar profilaktikasining tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlariga jamiyatning o'z ulushi mavjud, ya'ni jamiyat o'zi qo'yayotgan talablarga mos ravishda zarur majburiyatlarni ham amalga oshirishi lozim.

Mustaqilligimizning dastladki yillarda mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida bir qator muammolar kuzatildi. Jumladan, oliy ta'lim tizimida o'z yo'nalishlari bo'yicha dunyoning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatish, o'quv jarayoniga ilg'or xorijiy tajribalarini joriy etish, ayniqsa, istiqbolli pedagog va ilmiy kadrlarni xorijning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalarida stajirovkadan o'tkazish va malakasini oshirish borasidagi ishlar

yetarli darajada olib borilmadi. Oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko'rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun tegishli sharoitlar yaratish zarurati yuzaga keldi [1]. Moliyaviy qiyinchiliklar, professor-o'qituvchilar ijtimoiy nufuzining pasayishi va qo'shimcha daromad manbalarini izlab o'qituvchilar va talabalar o'z funksiyalaridan og'ishishi natijada o'zaro munosabatlarda bir qator pedagogik nizolar yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Muammolarni bartaraf etish maqsadida o'tgan qisqa davr (2017-2025-yillar) mobaynida oliy ta'lim tizimida qator islohotlar olib borildi hamda malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar yaratilmoqda. Ushbu shart-sharoitlarga misol sifatida:

- amaldagi me'yoriy huquqiy hujjatlargaga ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;
- oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimini takomillashtirish;
- professor-o'qituvchilar uchun "vaqt me'yorlari"ning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish;
- oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarini o'tkazish va nazorat qilish usullarini takomillashtirish;
- jamoatchilik kengashlari faoliyatini yo'lga qo'yish;
- nostrifikatsiyalash tartibini takomillashtirish;
- oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, yosh olimlar va talabalarning ilmiy izlanishlari amaradorligini oshirish;
- innovatsion va texnologik g'oyalarni har tomonlama rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, yosh olimlar va talabalarning innovatsion texnologiyalarni yaratish borasidagi tashabbuskorligini oshirish kabi yo'nalishlarni keltirish mumkin [2].

Yuqorida keltirilganlar oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayoni bilan bog'liq nizolarni barataf etish borasida jamiyat tomonidan katta islohotlar orqali majburiyatida bo'lgan ham tashkiliy, ham pedagogik shart-sharoitlar bir yoqlamalilik tarzida bosqichma-bosqich ta'minlanmoqda.

Navbatdagi masala esa, bevosita oliy ta'lim muassasalarining "ichki" sub'ektlari (muassasa, o'qituvchi, talaba, ota-ona) o'rtasidagi munosabatlarga oid pedagogik nizolar profilaktikasining tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarga ahamiyat qaratilishi zarur deb hisoblaymiz.

Oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayonlariga konstruktiv yondashib, undagi nizolar profilaktikasining tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar yo'nalishlarini quyidagicha belgilashimiz mumkin (1.2-rasm):


- o'quv reja va dasturlarini shakllantirish bilan bog'liq (o'quv mazmunining sub'ektlar talabi va ehtiyojiga mosligi, asoslantirilganligi, tushunarliligi, natija istiqbolining kafolatlantirilganligi va boshqalar asosida);

- ta'lim jarayonlarini texnologiyalashtirish bilan bog'liq (mashg'ulotlarni tashkil etish va olib borishning zamonaviyligi, o'quv jarayonining interaktivligi, erkin axborot almashuv imkoniyati va boshqalar asosida);

- o'quv-texnik ta'minot bazasi bilan bog'liq (o'quv adabiyotlar va resurslari bazasining yetarliligi, foydalanish sharoitlari va qulaylashtirilgan tizimi, moddiy-texnik infratuzilmaning rivojlanganligi va istiqbollari va boshqalar asosida);

- boshqaruv tuzilmasi va faoliyati bilan bog'liq (boshqaruvning ochiqligi, raqamlashtirilganligi, o'rnatilgan tartib va qoidalarning asoslantirilganligi va boshqalar asosida);

- ta'lim natijalarini baholash bilan bog'liq (faoliyatni baholash tartibining asoslantirilganligi, shaffofligi, xalqaro muvofiqligi va boshqalar asosida).



1.2-rasm. O'quv jarayonlaridagi nizolar profilaktikasining tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari yo'nalishlari.

Shuningdek, jahonda yuqori texnologiyalar va innovatsiyalarni oliy ta'lim jarayonlariga joriy etish, muassasalarni innovatsion infratuzilmasini shakllantirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Oliy ta'lim muassasalari innovatsion infratuzilmasini shakllantirishda turli innovatsion (texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startap, akselerator) markazlarni tashkil etish, professor-o'qituvchilar, ilmiy izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalarning ilmiy va innovatsion faoliyatini yo'lga qo'yish, nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish, fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, nufuzli xorijiy oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalari faol hamkorlikni yo'lga qo'yish, turli ma'lumotlarning elektron bazasini yaratish kabilar nazarda tutiladi [4].

Shu nuqtai nazardan oliy ta'lim muassasalarini innovatsion rivojlantirishda yuzaga keluvchi nizoli vaziyatlar profilaktikasi tadqiq etish, innovatsion rivojlantirish asosida modellashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari talabalarni pedagogik faoliyatga samarali tayyorlanishiga ham ahamiyat qaratish, jumladan, ularning o'quv-tarbiya jarayonidagi nizoli

vaziyatlarda tegishli pedagogik pozitsiyaga ega bo‘lib yetishib chiqishlariga ta’sir etuvchi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni inobatga olish maqsadga muvofiq. Bu borada Prezident Sh.Mirziyoyevning "...Hurmatli domlalarimiz va professor-o‘qituvchilarning eng muhim vazifasi – yosh avlodga puxta ta’lim berish, ularni jismoniy va ma’naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir" [10; 14-b], deb aytgan ta’kidiga asoslanish mumkin.

Pedagogik-psixologik jihatdan bo‘lajak pedagoglarning nizolar va ularning tabiatini o‘rganish faqat nazariy emas, balki juda muhim amaliy ahamiyatga ham egadir.

Tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatdiki, bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari o‘quv jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lgan pedagogik nizolar turlari va hajmining bu borada profilaktik harakatlar samaradorligini oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Bizning nazarimizda, Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoni nizolari profilaktikasi atamasini ta’lim sub’ektlari o‘rtasida sog‘lom muhitni saqlash, nizoli vaziyatlar va ularning keskinlashuvi ta’lim samaradorligi va sifatiga salbiy ta’sir etishini hisobga olib, mazkur holatlarni avvaldan oldini olish, erta aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan amaliy faoliyatlar majmui sifatida izohlash mumkin.

Oliy ta’lim muassasalari o‘quv jarayonlariga konstruktiv yondashib, undagi nizolar profilaktikasining tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari yo‘nalishlarini (o‘quv reja va dasturlarini shakllantirish bilan bog‘liq, ta’lim jarayonlarini texnologiyalashtirish bilan bog‘liq, o‘quv-texnik ta’minot bazasi bilan bog‘liq, boshqaruv tuzilmasi va faoliyati bilan bog‘liq, ta’lim natijalarini baholash bilan bog‘liq) belgilab olindi.

Shuningdek, tadqiqot rejasi oliy ta’lim muassasalarini innovatsion rivojlantirishda yuzaga keluvchi nizoli vaziyatlar profilaktikasini tadqiq etish, bo‘lajak o‘qituvchi-murabbiylarni nizoli vaziyatlarga tayyorlashga qaratilgan izlanishlar kiritildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Засобина Г. А., Кабыльницкая С. Л., Савин Н. В. Практикум по педагогике: учебное пособие. – Москва: Просвещение, 1986. – 111с

2. Баныкина С.В., Степанов Е.И. Конфликты в современной школе: Изучение и управление

3. Козырев Г.И. Введение в конфликтологию: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Гуманит. изд. Центр ВЛАДОС, 2001. – 176 с.

4. Поенко О.Н. Понимание учителем личности ученика подросткового возраста как фактор решения межличностных и педагогических конфликтов: дис. канд. психол. наук: 19.00.07. – Киев, 2001. – 199 с.

5. Зайцев, А. К. Социальный конфликт Текст. / А. К. Зайцев. — М. :1. Academia, 2000. 464 с.

UDK 159.944:316.624

Adilova Shoxida To'ychiyevna,
Qarshi davlat universiteti
"Psixologiya" kafedrasi v.b.dotsenti, psi.f.f.d. (PhD)

SUITSID OLDI XULQ-ATVOR SHAKLLANISHIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

Annotatsiya. Maqolada suitsid oldi xulq-atvor shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik omillar mazmun-mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, voyaga yetmagan o'smirlarning shaxs sifatida shakllanish jarayonidagi muammoli vaziyatlar tahlil qilib berilgan. Suitsidal xulq-atvor tabiatini tushuntiruvchi psixologik tadqiqotlar tahliliy yoritib berilgan. Suitsidial xulq-atvorning uch guruhi haqiqiy suitsid, namoyishkorona suitsid, yashirin suitsid haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. O'z joniga qasd qilish xavfi bo'yicha so'rovnomasi umumiy o'rtacha ko'rsatkichlari obyektlar o'rtasida tahlil qilib berilgan.

Kalit so'zlar: o'smir, suitsid xulq-atvor, psixologik omillar, shaxs sifatlari, zamonaviy psixologiya, muammoli vaziyatlar, haqiqiy suitsid, namoyishkorona suitsid, yashirin suitsid, terapevtik dasturlar.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ СУИЦИДАЛЬНОГО ПОВЕДЕНИЯ

Аннотация. В статье раскрыта сущность психологических факторов, влияющих на формирование предсуицидного поведения. Также дан анализ проблемных ситуаций в процессе становления несовершеннолетних подростков как личности. Аналитически освещены психологические исследования, объясняющие природу суицидального поведения. Приводятся данные о трех группах суицидального поведения: истинное самоубийство, демонстративное самоубийство, скрытое самоубийство. Общие средние показатели обследования суицидального риска даны путем анализа между объектами.

Ключевые слова: подросток, суицидальное поведение, психологические факторы, качества личности, современная психология, проблемные ситуации, реальное самоубийство, демонстративное самоубийство, скрытое самоубийство, терапевтические программы.

PSYCHOLOGICAL FACTORS INFLUENCING THE FORMATION OF SUICIDAL BEHAVIOR

Annotation. The article revealed the content and essence of psychological factors affecting the formation of suicidal behavior. Also, problematic situations in the formation process of underage adolescents as individuals are analyzed. Psychological studies explaining the nature of suicidal behavior have been given analytical coverage. Three groups of suicidal behavior have been cited regarding the true suicide, demonstrative suicide, latent suicide. The overall suicide risk survey averages are analyzed between objects.

Keywords: adolescent, suicidal behavior, psychological factors, personality qualities, modern psychology, problem situations, real suicide, demonstrative suicide, hidden suicide, therapeutic applications.

Shaxsning ma'naviy shakllanishiga ta'sir etuvchi muhim omillar orasida oila, maktab, mahalla, jamiyat va undagi ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy, iqtisodiy sohalarning umumiy holati ayniqsa muhimdir. Voyaga yetmagan o'smirlarning shaxs sifatida shakllanish jarayoni muammoli vaziyatlarda ularning maqbul qarorlar qabul qilishlariga to'sqinlik qiladi. O'z joniga qasd qilish-aksariyat holatlarda oldini olish qiyin bo'lgan ofat. Insonni o'z hayoti bilan vidolashishga undagan sabablar hatto uning qarindoshlari va yaqinlari uchun ham jumboqligicha qolmoqda.

Suitsidni davolash olimlar oldiga bir qator murakkab masalalarni qo'ymoqda. Hali o'z joniga qasd qilishga moyilligi bo'lgan o'smirlar uchun muvaffaqiyatli terapiya usullarini ishlab chiqish dolzarbligicha qolmoqda. Suitsidning oldini olish bo'yicha bir qator psixologik, terapevtik dasturlar ishlab chiqilgan, ammo bunday dasturlar real voqelikda umumiy xavf omillari va o'smirlar orasida o'z joniga qasd qilish darajasini qanday qilib kamaytirishi mumkinligi noaniqligicha qolmoqda.

Suitsid oldi xulq-atvor namoyon bo'lish xarakteriga ko'ra, ko'plab psixologik xususiyatlar, omillar, determenantlar va o'zgarishlar asosida kechib, uni tadqiqotning maqsadiga mos yoritish eng muhim vazifalardan biri sanaladi. Qolaversa, suitsidal xulq-atvor tabiatini tushuntiruvchi psixologik jihatlarning juda ko'pligi bois, ayrim nazariy tadqiqotlar ma'lumotlarini tizimlashtirish lozim hisoblanadi. Quyida ushbu masalalarni yorituvchi o'ziga xos tadqiqotlarning tavsifiga e'tibor qaratishga harkat qilamiz. Suitsid xulq-atvorni o'ziga qaratilgan agressiya sifatida tahlil qilish holati K.Abraxim va D.Lesterlar asralarida o'z aksini topgan. Ular agressiyani psixometrik testlar yordamida o'rganish orqali, suitsidga moyil va moyil emas guruhlar turini aniqlashga muvaffaq bo'ldilar [1. 223]. Bundan tashqari, ularning aytishicha, suitsidal do'q-po'pisa qilgan shaxslar, o'z joniga qasd qilishga uringanlarga nisbatan agressivroq tajovupkorroq bo'lishlari ta'kidlanadi. Suitsidal xulqning o'hshash belgilarini aniqlash maqsadida ko'p omilli shaxsni o'rganuvchi testdan foydalanishga urinishlar ham mavjud. Biroq, suitsidga moyil shaxslarni o'rganuvchi ko'p omilli testlar suitsidentlarning maxsus profillarini aniq ko'rsatib bera olmadi.

Suitsidal xulq-atvorda namoyon bo'luvchi psixologik xususiyatlar borasida A.G.Abrumovaning fikri o'ta o'rinlidir sanaladi. Muallifning fikricha, "Mutaxassilar ko'p xollarda suitsidal xulqning sabablarini emas, balki bevosita

ifodalanish usullarini, belgilarini izlaydilar, tadqiqot bunday yo‘lga qo‘yilganda imkoni boricha aniq va yuqori natijalarga erishishga mo‘ljallangan birmuncha umumiy nazariy muammolarga kam e’tibor beriladi” deb ta’kidlaydi [2. 48].

S.V.Vaulinning aytishicha, moddiy yetishmovchilik va suitsidal harakatni amalga oshirish ehtimoli o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri korrelyativ bog‘liqlik kuzatilmaydi. U suitsidal xulq-atvorni xarakterlab, olti xil vaziyatli reaksiyalarni ajratib ko‘rsatdi hamda ruhiy sog‘lom kishilarda psixologik tanglik patologik bo‘lmagan “vaziyat reaksiyalari” darajasida namoyon bo‘lishini qayd etadi [3. 47]. Birinchisi, o‘lish xohishi bilan bog‘liq bo‘lgan haqiqiy urinish bo‘lsa, ikkinchisi, nizoli vaziyatni o‘z foydasiga hal qilishga qaratilgan namoyishkorona urinish hisoblanadi. I.A.Pogodin turli ekstremal vaziyatlarga nisbatan javob reaksiyalarini tartibga keltirishni, nazariy asoslashga katta hissa qo‘shgan. U sog‘lom shaxslar va ruhiy bemorlar tomonidan amalga oshirilgan suitsidlarni tahlil qilish asosida, ijtimoiy-psixologik dezadaptatsiya - suitsidal xulqning umumiy sharti ekanligini isbotlab berdi [4. 269]. N.M.Kiyning izlanishlari natijalariga ko‘ra, suitsidga uringanlarning 25% tirik qolib, ulardan 60% keyinchalik, yana suitsidga urinadilar. Bu esa, ularning malakali psixologik yordam olmaganliklari hamda o‘z muammosi yechimini topmaganligidan dalolat beradi [5. 252]. Shuningdek, suitsidga urinib, tirik qolgan har to‘rtta odamdan faqat bittasigina (24%) mutaxassislarga murojaat qilishlari aniqlangan. Bundan tashqari, N.N. Ovcharova aytishicha, suitsid oldi xulq-atvor asosan uchta sabab orqali namoyon bo‘ladi. Ya’ni, suitsidentga yaqin do‘stlar, uning ota-onalari va pedagog xodimlar o‘rtasidagi munosabatlarning ziddyatli holatlari sabab bo‘ladi. Tabiiyki, suitsid doimo individual tarzda yuzaga keladi, shu sababli uning yagona yoki bir guruh sabablarini aniq ko‘rsatib berish mumkin emas [6. 95]. Shu nuqtai nazardan suitsidal xavf ehtimolligini bashorat qilishga yordam beruvchi bir qator mezonlarini ajartish lozim bo‘ladi.

O‘z joniga qasd qilishning biologik determinantlari orasida shu holatni ta’kidlash zarurki, ruhiyati og‘ir buzilgan odamlar ruhan sog‘lom individlarga nisbatan ko‘proq o‘zini o‘zi o‘ldirishni sodir etadilar.

1-jadval

O‘z joniga qasd qilish xavfi bo‘yicha so‘rovnomasi umumiy o‘rtacha ko‘rsatkichlari

shkalalar	Yosh oilalar		SamDU talabalari		QarDU talabalari	
	Eks. oldin	Eks. keyin	Eks. oldin	Eks. keyin	Eks. oldin	Eks. keyin
Namoyishkor	3	4	2	3	1	3*
Affektiv	3	3	1	3*	1	2
Unikal	3	5*	2	4*	2	3
Inqirozli vaziyat	2	5**	2	3	1	2
Pessimizm	3	5*	1	3*	2	3

Madaniy to‘siqlar	2	4*	1	3*	2	3
Maksimalizm	3	5*	2	3	1	3*
Pesrpektiv qarash	3	4	2	2	1	2
Antisuidsidal xulq	2	3	2	4*	3	5*

O‘z joniga qasd qilish xavfi bo‘yicha so‘rovnomasi bo‘yicha olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, namoyishkor, inqirozli vaziyat, perspektiv qarash va affektiv shkalalar pastroq, unikal-o‘ziga xoslik, pessimizm, madaniy to‘siqlar, maksimalizm va antisuidsidal xulq-atvor kabi shkalalar o‘rtacha darajani tashkil etgan. Yosh oilalarda bu natijalar o‘rtacha natijani, talabalarda esa pastroq natijani namoyon qilgan.

Shubhasiz, inson ongi foniylikni mutanosib ravishda o‘zlashtirishga qodir emas, lekin, shunday bo‘lsada, o‘zini o‘zi o‘ldirish ehtimolini ko‘rib chiqayotgan odam qanchalik agnostik va skeptik bo‘lmasin, u beixtiyor o‘limdan keyingi, hatto yanada ma’qulroq hayot mavjudligini tan oladi. O‘z-o‘zidan bu hali o‘zini o‘zi o‘ldiruvchi shaxsning aqldan tashqari fikrlashi va voqeiy bo‘lmagan narsalarni afzalroq ko‘rishini isbotlamaydi, lekin shu bilan bir vaqtda o‘zida o‘limdan keyingi hayotga bo‘lgan ishonch har doim ko‘plab xalqlarning madaniy-diniy udumlari predmetini tashkil qilib kelgan.

Bunday holda, potensial o‘zini o‘zi o‘ldiruvchilar tafakkurining irratsionalligi va xayoliyligi tushunarli bo‘ladi. O‘zini o‘zi o‘ldirish hodisa sifatida quyidagi tarkibiy elementlar bilan tavsiflanishi mumkin. Birinchidan, bu qotillik. Ko‘p tillarda uning tub, tashkil qiluvchi so‘zi "qotillik" hisoblanadi. Biroq, atamaning ikkinchi qismi -"o‘zini o‘zi" so‘zi insonning o‘zi tomonidan sodir etilgan qotillikni nazarda tutadi. Boshqacha qilib aytganda, qotil va qurbon bir kishining o‘zi bo‘lgan vaziyat yuzaga keladi.

Demak, o‘zini o‘zi o‘ldirishni o‘limning uchta ajralmas elementi: o‘lish elementi, o‘ldirish elementi va qotillik qurboni elementini anglatuvchi o‘ziga xos turi deb hisoblash mumkin. Ayrim mualliflar o‘zini o‘zi o‘ldirishga moyillikni xarakterning, ularning fikricha, shoirlar, rassomlar, artistlarga xos bo‘lgan alohida badiiy tipiga moyillik deb ta’kidlaydilar.

Ba’zan odamlar o‘zlarini yashashning qiyinligi va imkoniyatsizligi sabab bo‘lgan ekstremal vaziyatlarda: masalan, konsentratsion lagerlardagi shafqatsiz sharoitlarda, qiynash, azoblash, xo‘rlash va ochlik ta’siri ostida o‘zlarini o‘ldirishga urinadilar. O‘zini o‘zi o‘ldirish to‘g‘risida fikrlarga shuningdek, chidab bo‘lmaydigan og‘riq beruvchi og‘ir, davosiz kasalliklar – saraton va ba’zi boshqa kasalliklar ham olib kelishi mumkin. Agar bunda ong xiralashmasdan qolgan bo‘lsa, unda azobuqubatlarga barham berish haqida tabiiy istak paydo bo‘ladi.

Suitsidial xulq-atvor-bu suitsidial faollikning-o‘y xayollar, niyatlar, mulohazalar, tahdidlar, urinishlar, o‘zini o‘ldirishga harakat qilish kabilarning yuzaga chiqishidir.

Suitsidial xulq-atvor, odatda, uch guruhga bo‘linadi:

- haqiqiy suitsid;
- namoyishkorona suitsid;
- yashirin suitsid.

Haqiqiy suitsid odamda o‘z joniga qasd qilish uchun jiddiy sabablar borligi bilan xarakterlanadi. Odatda, uni qariyalar yoki o‘smirlar amalga oshiradi. Bu yosh toifasidagi kishilar boshqalardan ko‘ra ko‘proq o‘z-o‘zini tahlil va tanqid qilishga moyillar, shuning uchun ular orasida o‘zini o‘zi o‘ldiradiganlar ko‘p uchraydi. O‘rta yoshdagilar yo ota-onalari, yoki farzandlari oldida javobgarlik his qiladilar, shuning uchun ular bunday harakatlarni kamdan-kam sodir etadilar. Suitsidning bu turida odamlar ko‘pincha ruhiy tanglikni his qiladilar, ularda siqilish kayfiyati kuzatiladi va hayotning mazmuni qolmaydi.

Suitsid oldi xulq – atvorni diagnostika qilish hamda uni psixokorreksion usullar asosida yo‘qotish ishlari, murakkab jarayon sanalib, uni bartaraf etishning usuli sifatida tezkor psixodiagnostik usullar va psixologik ta’sir vositalarini qo‘llash, eng muhim maqsadlardan biri sanaladi. Bundan tashqari, ushbu xavf guruhlariga o‘z-o‘zini namoyon eta olish imkoniyatlarini topishiga yordam berish, ularning qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda, ularni ijtimoiy foydali faoliyatga yo‘naltirish asosiy maqsadlardan biri sanaladi.

Shaxsda suitsid oldi xulq-atvor shakllanishining psixologik xususiyatlariga shaxsning koping-indikator sifatlari, xarakter aksentuatsiyasi, o‘limga hamda inqirozli vaziyatlarga munosabat va o‘z joniga qasd qilish xavfi kabi omillar asosiy shart-sharoit gavdalanishi va ularning o‘quv va oilaviy faoliyatiga mazkur omillar jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shaxsda suitsid oldi xulq-atvor shakllanishining psixologik jihatlarini belgilovchi sifatlar: o‘limga munosabatning destruktivligi, o‘limni qabul qilmaslik, rigidlik, emotiv xususiyatlarning ustunligi va namoyishkorlik kabi psixologik xususiyatlar, ta’sir kuchiga ko‘ra, suitsid oldi xulq-atvor rivojlanishini yanada kuchaytirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abraham K., D. Lester Handbook of Suicidology: Principals, Problems and Practice. N.Y., 2004. – 223 pp.
2. Амбрумова А.Г. Диагностика суицидального поведения: Методические рекомендации / А.Г. Амбрумова, В.А. Тихоненко. –М.: Владос., вт. изд. 2009. – 48 с.
3. Ваулин С.В. Суицидальные попытки и незавершенные суициды: госпитальная диагностика, оптимизация терапии, профилактика: автореферат дис. ... доктора мед. наук: 14.01.06 / С.В. Ваулин. - Москва. 2012.– 47 с.

4. Клейберг Ю.А. Социальная психология девиантного поведения: учебное пособие для вузов. – М.: Сфера Юрайт, 2004. – 269 с.
Погодин И.А. Суицидальное поведение: психологические аспекты:
5. Кий Н.М. Педагогическая профилактика суицидального поведения подростков / Дисс. на соиск. . канд. пед. наук. Петропавловск-Камчатский. 2005. – 252 с.
6. Н.Н.Овчарова. О психологическом смысле суицидов// Психологический журнал. Т.10. - № 5. - 2006. - С.95-102.
7. Каримова В. Ижтимоий психология: университет талабалари учун ўқув қўлланма- Фарғона, 1993 –100 б.
8. Каримова В. Ижтимоий психология асослари. Ўқув қўлланма – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1994 – 96 б.
9. Каримова В. Мустақил фикрлаш. Ўқув қўлланма.- Т.: Шарқ, 2000.- 112 б. (ҳаммуаллифлар Р. Суннатова, Р. Тожибоева)

UDK 159.923.2:159.922.7:316.356.2

Bozarboyeva Namuna Davronbek qizi,
Andijon davlat universiteti
"Psixologiya va pedagogika" kafedrasi o'qituvchisi (PhD)

OILAVIY MUNOSABATLARDA TOLERANTLIKNI TA'MINLOVCHI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR

Annotatsiya. Mazkur ishda oilaviy munosabatlarda tolerantlikni ta'minlash mexanizmlari yoritib berilgan. Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida insonlar orasidagi ijtimoiy, psixologik va madaniy munosabatlarni shakllantiradi. Oila a'zolari o'rtasida bag'rikenglik va o'zaro hurmat muhitini yaratish – barqaror va sog'lom oilani ta'minlashning muhim omillaridan biridir. Ishda tolerantlik tushunchasining mohiyati, uning oilaviy munosabatlardagi o'rni, shuningdek, muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilingan. Tolerantlikni shakllantirishda milliy an'ana va qadriyatlarning, zamonaviy psixologik yondashuvlar va ta'lim-tarbiyaning o'rni alohida ko'rsatib o'tilgan. Oilaviy nizolarni oldini olish va ijobiy muhitni yaratish uchun kommunikativ, tarbiyaviy va huquqiy mexanizmlarga e'tibor qaratilgan.

Tayanch so'zlar: oila, tolerantlik, oilaviy munosabatlar, bag'rikenglik, ijtimoiy-psixologik muhit, o'zaro hurmat, konfliktologiya, milliy qadriyatlar, tarbiya, kommunikatsiya, huquqiy mexanizmlar.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИЕ ТОЛЕРАНТНОСТЬ В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ

Аннотация. В данной работе раскрыты механизмы обеспечения толерантности в семейных отношениях. Семья, как основное звено общества, формирует социальные, психологические и культурные отношения между людьми. Создание атмосферы терпимости и взаимоуважения между членами семьи является одним из важных факторов обеспечения стабильной и здоровой семьи. В работе проанализированы сущность понятия толерантности, её роль в семейных отношениях, а также существующие проблемы и пути их устранения. Особое внимание уделено роли национальных традиций и ценностей, современных психологических подходов и системы воспитания в формировании толерантности. Рассмотрены коммуникативные, воспитательные и правовые механизмы, направленные на предотвращение семейных конфликтов и создание позитивной атмосферы.

Ключевые слова: семья, толерантность, семейные отношения, терпимость, социально-психологическая среда, взаимоуважение,

конфликтология, национальные ценности, воспитание, коммуникация, правовые механизмы.

MECHANISMS OF TOLERANCE IN FAMILY RELATIONS

Abstract. This paper examines the mechanisms of tolerance in family relations. The family as the basic unit of society forms social, psychological and cultural relations between people. Creating an atmosphere of tolerance and mutual respect among family members is one of the important factors in ensuring a stable and healthy family. The paper analyzes the essence of the concept of tolerance, its role in family relations, as well as problems and ways to overcome them. The role of national traditions and values, modern psychological approaches, education in the formation of tolerance is emphasized. The main attention is paid to communicative, educational and legal mechanisms for the prevention of family conflicts and the creation of a positive environment.

Keywords: family tolerance, family relations, tolerance, social, psychological environment, mutual respect, conflictology, national values, education, communication, legal mechanisms.

Tolerantlik turli qarashlar, manfaatlar va shaxsiy xususiyatlar o‘rtasida o‘zaro hurmatni ta’minlashga yordam beradi. Tolerantlik faqatgina sabr-toqat emas, balki boshqalarning qadr-qimmatini tan olish va hurmat qilish madaniyati hamdir. Bu tushuncha ijtimoiy-psixologik va madaniy aspektlarga ega bo‘lib, inson faoliyati va munosabatlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada oilada tolerantlikni ta’minlovchi asosiy ijtimoiy va psixologik mexanizmlar tahlil qilinadi. Oila – jamiyatning asosiy bo‘g‘ini va inson hayotidagi eng muhim ijtimoiy institutlardan biri hisoblanadi. Oilaviy munosabatlar inson shaxsiyatining shakllanishiga, uning ijtimoiy ko‘nikmalari va qadriyatlariga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bugungi globalizatsiya jarayonida turli madaniyatlar va dunyoqarashlarning o‘zaro ta’siri ortib borayotgan bir sharoitda oilada tolerantlikni shakllantirish muhim vazifalardan biriga aylanmoqda. Tolerantlik – bu faqat sabr-toqat emas, balki har bir shaxsning qarashlari, urf-odatlari va qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish madaniyatidir[2]. Oilada tolerantlikning mavjudligi oila a’zolari o‘rtasida o‘zaro hurmat, tushunish va hamkorlik muhitini yaratishda katta ahamiyatga ega. Ota-ona va farzandlar, turmush o‘rtoqlar va boshqa qarindoshlar o‘rtasidagi munosabatlarda tolerantlik tamoyillariga rioya qilish orqali ziddiyatlar va kelishmovchiliklarning oldini olish mumkin. Tolerantlik muhitida o‘sgan bolalar keyinchalik jamiyatda muvaffaqiyatli va bag‘rikeng shaxslar bo‘lib voyaga yetadilar. Ushbu maqolada oilada tolerantlikni ta’minlovchi asosiy ijtimoiy va psixologik mexanizmlar tahlil qilinib, uning jamiyat taraqqiyoti va mustahkamligi uchun ahamiyati yoritiladi [4]. Tadqiqotda ijtimoiy ta’lim nazariyasi, kognitiv rivojlanish nazariyasi, ijtimoiy

aloqalar nazariyasi va emotsional intellekt nazariyasi kabi nazariy yondashuvlar asosida oilada tolerantlikning shakllanishi va uning mexanizmlari ko‘rib chiqiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Oilaviy munosabatlarda tolerantlikni shakllantirish va ta’minlashning bir necha nazariy yondashuvlari mavjud.

Oilaviy munosabatlarda tolerantlik oilaning har bir a’zosining huquq va qadr-qimmatini tan olish, farqli fikr va qadriyatlarni hurmat qilish orqali barqaror va uyg‘un muhit yaratishga xizmat qiladi. Oila – jamiyatning asosiy ijtimoiy institutlaridan biri bo‘lib, undagi munosabatlar tizimi inson shaxsiyatining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Oila doirasida tolerantlik prinsiplari amalda bo‘lgan hollarda nizolar kamayadi, o‘zaro tushunish va bir-birini qo‘llab-quvvatlash kuchayadi [3].

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oilada tolerantlik muhitining mavjudligi psixologik sog‘lomlikni ta’minlaydi, oilaning ijtimoiy funksiyalarini samarali bajarishiga yordam beradi va bolalarda ijobiy ijtimoiy ko‘nikmalar shakllantiradi.

Tolerantlikni ta’minlovchi mexanizmlarga quyidagilar kiradi:

Psixologik mexanizmlar: o‘zaro empatiya, tinglash madaniyati, stressni boshqarish va hissiy barqarorlikni saqlash.

Tarbiyaviy mexanizmlar: ota-onaning namunali xulqi, farzandlarga bag‘rikenglik va hurmat ruhida tarbiya berish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish.

Kommunikativ mexanizmlar: ochiq va to‘g‘ri muloqot, nizolarni muzokara orqali hal etish, fikr almashish va murosaga erishish.

Huquqiy mexanizmlar: O‘zbekiston Respublikasining “Oila kodeksi” va boshqa normativ hujjatlar orqali oilaviy nizolarni oldini olish va hal etish tartiblarini belgilash [2].

Zamonaviy jamiyatda oilada tolerantlik madaniyatini shakllantirish nafaqat oilaning ichki muhitini sog‘lomlashtiradi, balki jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta’minlashga ham xizmat qiladi. Shu nuqtai nazarga ko‘ra quyidagi nazariy yondoshuvlarga tayanadi.

Ijtimoiy ta’lim nazariyasi (A. Bandura, 1977) – ushbu nazariyaga ko‘ra, bolalar va oila a’zolari tolerantlikni uzatish va o‘rganish jarayonida ota-ona va atrofdagi insonlarning xulq-atvoriga asoslanib shakllantiradi. Agar bola tolerantlikka asoslangan muhitda ulg‘aysa, u kelajakda boshqalarga nisbatan sabrli va hurmatli munosabatda bo‘ladi.

Kognitiv rivojlanish nazariyasi (J. Piaget, 1952) – insonning tafakkur rivojlanish bosqichlariga ko‘ra, bolalar va kattalarda tolerantlik darajasi tajriba va ta’lim jarayonida shakllanadi. Oilada ochiq muloqot va fikrlar xilma-xilligiga bo‘lgan hurmat tolerantlikning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ijtimoiy aloqalar nazariyasi (E. Goffman, 1959) – insonning ijtimoiy munosabatlari va ularning tashqi muhitga moslashuvchanligi tolerantlik darajasini belgilaydi. Oilada muloqot madaniyati va o‘zaro hurmat qanchalik yuqori bo‘lsa, jamiyatda tolerantlik shu qadar mustahkam bo‘ladi [5].

Emotsional intellekt nazariyasi (D. Goleman, 1995) – ushbu nazariyaga ko‘ra, tolerantlik shaxsning emotsional intellekt darajasi bilan uzviy bog‘liq. Oilada bir-birini tushunish va hissiy qo‘llab-quvvatlash tolerantlikni mustahkamlashga yordam beradi. Oilaviy munosabatlarda tolerantlikni ta’minlash uchun bir qator mexanizmlar mavjud. Ular quyidagi asosiy yo‘nalishlarda ko‘rib chiqilishi mumkin:

1. Tarbiya va ta’lim mexanizmlari

Bolalikdan oilada o‘zaro hurmat va bag‘rikenglikni shakllantirish.

Inson huquqlari va etik normalarga asoslangan ta’lim berish.

Bolalar va kattalarga ijtimoiy tanqidiy fikrlashni o‘rgatish.

2. Ijtimoiy-psixologik mexanizmlar

Empatiya va emotsional intellektni rivojlantirish.

Oilaviy muammolarni hal qilishda ochiq muloqotni qo‘llash.

Konfliktdan olishlardan qochish emas, balki ularni to‘g‘ri hal qilish madaniyatini shakllantirish.

3. Kommunikativ mexanizmlar

Oila a’zolari o‘rtasidagi muloqotni samarali tashkil qilish.

Bir-birining fikriga hurmat bilan yondashish.

Noto‘g‘ri tushunishlardan qochish uchun aniq va ochiq fikr bildirish.

4. Ijtimoiy-madaniy mexanizmlar

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganish va qo‘llash.

Turli madaniyat va an’analarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish.

Oilaviy an’analar va bayramlarning tolerantlikni shakllantirishdagi o‘rnini e’tirof etish.

5. Huquqiy va institutsional mexanizmlar

Oila huquqiy me’yorlar va normalar asosida barqaror munosabatlar qurishi kerak.

Davlat va jamoat tashkilotlarining tolerantlikni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash [6].

Tadqiqot metodologiyasi:

1.Insonparvarlik (gumanistik) yondashuv

Bu yondashuv inson qadr-qimmati, huquqlari va ehtiyojlarini birinchi o‘ringa qo‘yadi. Oilaviy munosabatlarda har bir a’zo ehtiyojlarini hurmat qilish, ularni qabul qilish va tushunishni ta’minlash orqali tolerantlik muhitini yaratishni nazarda tutadi. Karl Rojers va A. Maslou kabi gumanistik psixologiya namoyandalari tomonidan ushbu yo‘nalish ishlab chiqilgan.

Ijtimoiy yondashuv (sotsial-psixologik)

Bu yondashuv oila a’zolari o‘rtasidagi ijtimoiy rollar, maqomlar va munosabatlar tizimini o‘rganishga asoslanadi. Tolerantlikni shakllantirishda fuqarolik madaniyati, ijtimoiy normalar, qoidalar va oiladagi muomala standartlariga ahamiyat qaratiladi. Oila – bu ijtimoiy institut sifatida qaralib, fuqarolik ongi va muloqot madaniyati orqali tolerantlik tarbiyalanadi.

Ilmiy-psixologik yondashuv

Bu yondashuv tolerantlikni psixologik mexanizm sifatida ko‘radi va uning shakllanishiga ta’sir etuvchi ichki (shaxsiy) va tashqi (ijtimoiy) omillarni o‘rganadi. Shaxslararo munosabatlardagi kommunikativ kompetentlik, emotsional barqarorlik va psixologik moslashuvchanlikni rivojlantirish tolerantlikni ta’minlashda asosiy o‘rin tutadi.

Taraqqiyot psixologiyasi Oilada tolerantlikni shakllantirish va rivojlantirish shaxs o‘sishining turli bosqichlariga qarab baholanadi. Bu metodologik yondashuv bola va kattalar psixologiyasining rivojlanish jarayonlarini hisobga oladi va oilada muvozanatli hamkorlik muhitini ta’minlashga qaratilgan.

Tahlil va natijalar

№	Mexanizmlar	Tadqiqot ishtirokchilarining bahosi (%)
1	Emotsional yaqinlik va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash	85%
2	Muloqot madaniyati va konstruktiv munosabatlar	78%
3	Oilaviy qadriyatlar va milliy an’analarga rioya qilish	73%
4	Teng huquqlilik va adolat tamoyillari	70%
5	Farzandlarga mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini berish	65%

1. Emotsional yaqinlik va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash – 85%

Bu ko‘rsatkich oilangizda juda yuqori darajada ekan. Demak, oila a’zolari bir-biriga hissiy jihatdan yaqin va doimo bir-birini qo‘llab-quvvatlashga tayyor. Bunday muhitda oila a’zolari o‘zlarini xavfsiz va ishonchli his qilishadi, bu esa oilaviy mustahkamlik va barqarorlik uchun asosiy omil hisoblanadi.

2. Muloqot madaniyati va konstruktiv munosabatlar – 78%

Bu natija ham yaxshi darajada, ya’ni oilangizda umumiy muloqot madaniyati shakllangan va ko‘pincha konstruktiv, ya’ni muammolarni hal etishga qaratilgan munosabatlar mavjud. Biroq, ba’zi vaziyatlarda muloqotda tushunmovchiliklar yoki bahslar paydo bo‘lishi mumkin. Shu jihatga biroz e’tibor berib, bu ko‘rsatkichni yanada yaxshilash mumkin.

3. Oilaviy qadriyatlar va milliy an’analarga rioya qilish – 73%

Bu ko‘rsatkich o‘rtacha yuqori. Oilangiz milliy an’analar va qadriyatlarga asosan hayot kechiradi, lekin ba’zi hollarda zamonaviylik va an’analar o‘rtasida muvozanat izlanishi mumkin. Demak, ayrim an’analarga rioya qilishda erkinlik ham borligi ehtimoli bor.

4. Teng huquqlilik va adolat tamoyillari – 70%

Bu ham yaxshi natija. Oilada teng huquqlilik va adolatga intilish bor, lekin ba’zan ayrim qarorlar yoki munosabatlarda bir oz noaniqlik yoki adolatsizlik hissi paydo bo‘lishi mumkin. Buni teng huquqlilikni yanada kuchaytirish orqali yaxshilash mumkin.

5. Farzandlarga mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini berish – 65%

Bu ko‘rsatkich nisbatan pastroq. Demak, farzandlar qaror qabul qilishda mustaqillikka ega, lekin ba’zi masalalarda ularga hali ham kattalar tomonidan ko‘proq nazorat yoki yo‘l-yo‘riq berilayotgan bo‘lishi mumkin. Bu esa bolalarning shaxsiy rivojlanishi va mas’uliyat hissini shakllantirishda to‘sqinlik qilishi ehtimolini anglatadi.

Oilangizda emotsional yaqinlik va qo‘llab-quvvatlash juda yaxshi rivojlangan, muloqot madaniyati va milliy an’analarga ham yetarli darajada rioya qilinadi. Ammo farzandlar mustaqilligini oshirish va teng huquqlilik masalalariga yanada e’tibor qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu bilan birga, muloqot va adolatli munosabatlarni yanada mustahkamlash orqali oilaviy muhit yanada sog‘lom va barqaror bo‘lishi mumkin.

Oilaviy munosabatlarda tolerantlikni ta’minlash uchun ta’lim, ijtimoiy-psixologik va madaniy mexanizmlar o‘zaro bog‘liq holda ishlashi kerak. Tolerantlik oilada shakllanib, jamiyatda namoyon bo‘ladi. Oilaviy bag‘rikenglik mustahkam va totuv jamiyat qurishning asosiy shartlaridan biridir. Shuning uchun, oilaviy tarbiya jarayonida tolerantlik madaniyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratish lozim.

Bu zamonaviy jamiyatda sog‘lom va barqaror oilani shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Oila a’zolari o‘rtasida bag‘rikenglik, sabr-toqat, o‘zaro hurmat va tushunish muhitini yaratish orqali ko‘plab nizolar va muammolar oldi olinadi. Tolerantlikni shakllantirishda milliy an’ana va qadriyatlar, zamonaviy psixologik yondashuvlar, ta’lim-tarbiya va huquqiy normalarning o‘rni beqiyosdir. Oila a’zolarining ijtimoiy-psixologik savodxonligini oshirish, to‘g‘ri muloqot va murosaga intilish, bir-birini tinglash va qo‘llab-quvvatlash orqali oilada ijobiy muhit qaror topadi. Tolerantlik oilaviy barqarorlik va farovonlikni mustahkamlovchi eng asosiy tamoyillardan biri hisoblanadi va bu yo‘lda kompleks yondashuv – tarbiyaviy, kommunikativ va huquqiy mexanizmlarni uyg‘un qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримова В.М. Оила психологияси: Дарслик. Педагогика олийгоҳлари талабалари учун . Т.: “Fan va texnologiya”, 2008 – 152 б.

2. Mahmudov N. va boshqalar. Oilaviy psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015.

3. Jo‘raqulova Z.B. Ijtimoiy psixologiya asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.

4. Xudoyberganov M. Oilaviy nizolar va ularni hal etish yo‘llari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.

5. G‘ofurov K. Sotsiologiya. – Toshkent: Universitet, 2020.

6. Tohirov S. Tolerantlik va o‘zaro munosabatlar madaniyati. – Samarqand, 2021.

7. O‘zbekiston Respublikasining “Oila kodeksi”. – Toshkent: Adolat, 2022.

UDK 37.013.3:159.922.8:159.922.7:3

Yaziyev Erkin Sa'dullayevich,
Qarshi davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasi dotsenti

Sa'dullayeva Parizod Erkin qizi,
Turon universiteti 2-kurs magistri

O'ZBEK OILALARIDA YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. Maqolada o'zbek oilalarida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik-psixologik jihatlari o'rganilgan. Unda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalalari bo'yicha sharq mutafakkirlarining qarashlari, mamlakatimiz pedagog va psixolog olimlari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha ma'lumotlar berilgan. Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotlar mazkur muammoni o'rganish bugungi kunda ham juda dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: jamiyat, oila, nikoh, ota-ona, er-xotin, yoshlar, muloqot, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy rollar, qadriyat, nizo.

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОДГОТОВКИ МОЛОДЕЖИ К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ В УЗБЕКСКИХ СЕМЬЯХ

Аннотация. В статье рассмотрены педагогико-психологические аспекты подготовки молодежи к семейной жизни в узбекских семьях. В нем представлены взгляды восточных мыслителей на вопросы подготовки молодежи к семейной жизни, информация о научно-исследовательской работе, проводимой учеными-педагогами и психологами нашей страны. Исследования, проведенные автором, показывают, что изучение данной проблемы и сегодня очень актуально.

Ключевые слова: общество, семья, брак, воспитание детей, пара, молодежь, общение, семейные отношения, социальные роли, ценности, конфликт.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF PREPARING YOUNG PEOPLE FOR FAMILY LIFE IN UZBEK FAMILIES

Annotation. The article examines the pedagogical and psychological aspects of preparing young people for family life in Uzbek families. It presents the views of Eastern thinkers on the issues of preparing young people for family life, information about the research work carried out by scientists, educators and psychologists of our

country. The research conducted by the author shows that the study of this problem is still very relevant today.

Key words: society, family, marriage, parenting, couple, youth, communication, family relations, social roles, values, conflict.

Mustaqillik yillarida oila masalalariga oid olib borilayotgan davlat siyosatida juda katta ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi. Zero, oilaning jamiyat ma’naviy hayoti, uning barqarorligidagi o‘rni va nufuzi yuqori bo‘lib, oila, nikoh, onalik, otalik va bolalik tushunchalari jamiyat va davlat shakllanishini ta’minlovchi muhim omillar hisoblanadi. Bunda oilalarning mustahkamligi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, milliy xavfsizligini, uning ravnaqi va taraqqiyotini belgilovchi hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qilishini e’tirof etish o‘rinlidir. Ayniqsa, hozirgi vaqtda jamiyatimiz, insoniyat taraqqiyoti uchun jiddiy xavf tug‘dirayotgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ekologik, ichki va tashqi omillarni tahdidi ortib borayotgan ayni vaqtda oilalar mustahkamligini ta’minlash va masalani to‘g‘ri hal etilishining asosiy yo‘li bo‘lmish yoshlarni oilaga qadriyat sifatida qarashi, ularning oilaviy hayotga, kelajakka bo‘lgan munosabatlarini o‘zgartirish bugungi kunning dolzarb masalalaridandir.

Ma’lumki, oila jamiyatning negizi, har bir shaxsning ongida, xatti-harakatida bolaligidan boshlab shakllanadigan barcha fazilatlari, niyatlari, maslaklari amalga oshadigan maskan hisoblanadi. Shuning uchun ham xalqimiz azal-azaldan oilani muqaddas dargoh deb bilgan, uni qadrlagan, mehr va muhabbat bilan e’zozlagan. Ajdodlardan avlodlarga ota-onaning birgalikdagi o‘zaro muhabbati asosiga qurilgan oilani muqaddas saqlash, uning moddiy va ma’naviy barqarorligini ta’minlashda hamkor va hamfikr bo‘lish kabi vazifalar o‘tib kelishi ham muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda ham yoshlar oila jamiyatning dastlabki muhim bo‘g‘ini sifatida mustahkam qurilishi, nikohga kiruvchilar ota yoki ona bo‘lishning yuksak mas’uliyat ekanligini anglashlari lozim. Chunki oilaning farovonligi jamiyat farovonligi va ravnaqini ta’minlaydi, uning farovonligi esa oila quruvchilarning o‘zaro hamjihatligiga, ro‘zg‘or va farzand tarbiyasi borasidagi mas’uliyatni birday his qilishlariga bevosita bog‘liqdir.

Oilaviy munosabatlar va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalalari uzoq asrlardan buyon sharq ilm-fanining eng ilg‘or vakillari, olimlar, buyuk allomalar va donishmandlarning diqqat markazidagi asosiy masalalardan bo‘lib kelgan. Jumladan, sharq donishmandlining buyuk vakillari hisoblangan Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg‘ariy, Unsurulmaoliy Kaykovus, Mir Alisher Navoiy, Zaxiriddin Muhammad Bobur, Muhammad Aminxo‘ja Muqumiy, Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat, Ubaydullo Solih o‘g‘li Zavqiy, Jahon otin Uvaysiy, Maxlarayim Nodira, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabi ko‘plab mutafakkirlar, olimu yozuvchilar ushbu masalalar yuzasidan o‘zlarining durdona fikrlarini tarixda qoldirib ketganlarki, ular hozirgi zamon fani uchun ham katta ijtimoiy va mafkuraviy ahamiyatga egadir.

Yuqorida nomlari keltirilgan ulug‘ ajdodlarimizning asarlarida oila munosabatlar muammolari, undagi er va xotinning tenglikka asoslangan ijtimoiy rollari, yoshlarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash, oilada nizo va kelishmovchiliklarning kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf qilish yo‘l-yo‘riqlari haqida muhim ma’lumotlar ilgari surilgan.

Bizga ma’lumki, yoshlarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash muammolari dastlab miloddan avvalgi II ming yillik boshlarida Markaziy Osiyoda shakllangan Zardushtiylikning asosiy kitobi “Avesto”da ham keng o‘rganilgan bo‘lib, ushbu muqaddas kitobda nikoh-oila munosabatlari o‘zaro tenglik va adolat g‘oyalari asosida qurilishi kerakligiga alohida e’tibor qaratiladi. Mazkur kitobning ahamiyati shundaki, unda er-xotin munosabatlari, erning ayoliga munosabati, o‘z navbatida ayolning turmush o‘rtog‘iga munosabati, ayol va erkakning oiladagi rollari, vazifalari, shuningdek nikoh qurish uchun ma’qul bo‘lgan yosh davrlari haqida muhim ma’lumotlar berilgan. Biz ushbu kitob bilan tanishganimizda nafaqat er-xotin munosabatlarini, balki insonlarning bir-birlariga bo‘lgan munosabatlari ko‘rinishlarini, shaxslararo muloqotning o‘ziga xos shakllari, qonun-qoidalari va tartiblari haqida ham muhim ma’lumotlarni ko‘rishimiz mumkin [5;9-b].

Sharq ilm-faniga ulkan hissa qo‘shgan va o‘z qarashlari bilan XX asr Turkiston jadidchiligining ulkan namoyandalaridan biriga aylangan Abdurauf Fitrat ham o‘z ijodida oilaviy munosabatlar masalalariga alohida e’tibor bilan qaragan. Muallif “Oila” deb nomlangan asarida uylanish odoblari to‘g‘risida qimmatli fikrlarni bayon qiladi. Fitrat uylanishda qanday xotin (turmush o‘rtoq) tanlash lozimligi mavzusida gapirib, “er-xotin mushkulotdan iborat bo‘lgan hayot safarida birga bo‘lib, jismoniy va ruhiy osoyishtalikka sherik, insoniy vazifalarni bajarishda dastyor, qayg‘u va umidsizlik damlarida g‘amxo‘r, saodat va baxtiyorlik chog‘lari bir-birlariga hamdam bo‘lishlari lozim. Shunday ekan, ular albatta, eng avvalo, bir-birlarini kamoli diqqat va tajriba yuzasidan imtihon qilishlari zarur. Xotin erkak holidan va yigit qiz ahvolidan yaxshigina xabardor bo‘lib, keyin turmush qurishlari lozim”, deb ogohlantiradi. Fitratning fikricha, uylanish uchun yana to‘rt narsaga alohida e’tibor berish lozim, bular mol, nasab, husn va imonu-e’tiqod hisoblanadi. “Uylanish orzusida bo‘lgan er bilan xotinning mol (boylik)lari va nasablari taqriban bir xil bo‘lishi lozim. Aks holda er bilan xotin bir-birlariga teng bo‘lmay, hayotini mudom azobga qo‘yadi”, deydi [1;15-b].

Mustaqillik yillarida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalalari mamlakatimiz pedagog va psixolog olimlari tomonidan ham samarali o‘rganildi. Biz bunday tadqiqotlar sirasiga pedagogika fani sohasida Z.F.Mirtursunov, A.Q.Munavvarov, M.I.Sangilov, H.Uzoqov, O.To‘rayeva O.M.Musurmonova, M.M.Mahmudova, M.O.Inomova, Z.T.Saliyeva, psixologiya fani sohasida esa G‘.B.Shoumarov, E.G‘.G‘oziyev, V.M.Karimova, N.A.Sog‘inov, B.Z.Umarov, F.A.Akramova, M.X.Fayziyeva, S.A.Oxunjonova, T.M.Adizova, Sh.SH.Jo‘rayeva, R.S.Samarov kabi olimlar tomonidan olib borilgan ishlarni kiritishimiz mumkin.

M.M.Mahmudova o‘zining ilmiy izlanishlarida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalalarini samarali o‘rgangan olimalardan biri hisoblanadi. Uning fikricha, yoshlarni oilaga tayyorlash jarayoni har bir millatning madaniy va ma’naviy-ruhiy qadriyatlaridan hisoblanadi. Ayniqsa, hozirgi globallashuv davrida insonlarning o‘zaro munosabatlarida keskinliklarning o‘sib borayotganligi, zamonaviy ziddiyatlarning inson tafakkuri va ongiga ta’sir etish orqali uning psixologik holatida salbiy va asabiy oqibatlarning vujudga kelishi, yosh oilalardagi ajrim holatlarning muntazam o‘sib borayotganligi, bolalar va o‘smirlardagi agressiya holatlarining vujudga kelayotganligi kabi muammolar yoshlarni oilaga tayyorlash vazifasini to‘laqonli olib borish talabini kun tartibiga qo‘ymoqda. Bunda muallif yoshlarni oilaviy hayotga pedagogik, psixologik, jismoniy va jinsiy tomondan tayyorlash ishlari quyidagi yo‘nalishlarda olib borilishi maqsadga muvofiq ekanligini ta’kidlaydi: oila salomatligi, oiladagi jinslararo munosabatlar, oila axloqi va estetikasi, oila a’zolari o‘rtasida oilaviy majburiyatlar taqsimoti va tomonlar huquqlari, oilaviy inqirozlar va ularning oldini ola bilish, oilaviy konfliktlar yechimiga tayyorlik, oiladagi sog‘lom muhit va oilaviy muloqot, oila an’analari va ularga nisbatan yangicha qarash [3;37-45-b]

Z.T.Saliyeva esa o‘zining ilmiy izlanishlarida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalalariga alohida e’tibor qaratib, oilaparvar shaxs sifatida talabalarda rivojlantirish lozim bo‘lgan sifatlarga quyidagilarni kiritadi: oilaga va farzandlariga sadoqatli, turmush o‘rtog‘iga vafodor; g‘ururli va or-nomusli; mehnatkash, g‘ayratli; sabrli, hayotni sevuvchi; qat’iyatli, tadbirli; mas’uliyatli; lafzli, o‘z va’dasining ustidan chiquvchi, halol; kirishimli, tashabbuskor; yaxshi va yomonni, savob va gunohni ajrata biladigan; ruhiy jihatdan sokin, bosiq, mulohazali, dono; aniq, yuksak hayotiy maqsadga ega; oilaviy an’analar va qadriyatlarga saqodatli; e’tiqodli va boshqalar. Muallif gender xususiyatlari bilan bog‘liqlikda bo‘lajak oilaparvar talaba-yigitlarda qat’iy xarakter va mustahkam iroda; aqliy salohiyat va jismoniy kuch-quvvat; mehnatkashlik; uddaburonlik; fidokorlik; turmush o‘rtog‘i va ayollarga nisbatan oliyjanoblik; mardlik, qat’iyatlilik; qattiqqo‘llik; o‘z-o‘zini boshqara olish; uddaburonlik, tadbirkorlik; muomala madaniyatiga egalik; oila sha’ni, ornomusi va qadr-qimmatini e’zozlash, unga dog‘ tushmasligini ta’minlash; sog‘lom turmush tarziga egalik; axloqiy va maishiy buzuqlikdan or qiladigan; farzandlar, ayniqsa, o‘g‘illarga nisbatan ibrat bo‘la olish kabi sifatlarni tarkib toptirish muhimligini ta’kidlaydi [4;35-36-b].

V.M.Karimova o‘zining ilmiy izlanishlarida o‘zbek yoshlarida oila to‘g‘risidagi ijtimoiy tasavvurlar shakllanishi, o‘zbeklarning oilaviy psixologiyasining o‘ziga xos tomonlari hakida salmoqli tadqiqot ishlarini olib borgan. U tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida o‘zbek xalq og‘zaki ijodida, islom dinining muqaddas manbalarida, sharq mutafakkirlari asarlarida, taniqli pedagog va psixolog olimlar asarlarida nikoh va oila, oilaviy hayot muammolariga alohida to‘xtalinib, olingan natijalar psixologik tahlil etilgan hamda zarur tavsiyalar ilgari surilgan. Muallifning fikricha, oilaviy-ijtimoy tasavvurlar

murakkab va ko‘p komponentli psixologik tizimlar bo‘lib, ularning tarkibiga oilaning umumiy qadriyatlari, shaxslararo munosabatlarga xos tasavvurlar, erkak va ayol fazilatlari, ularning oilaviy munosabatlardagi o‘rni va ahamiyati to‘g‘risidagi, oilaviy rollar va ularni amalga oshiruvchi ijtimoiy ustanovkalar, reproduktiv tasavvurlar va boshqa ijtimoiy-psixologik tushunchalar kiradi [2].

Yuqorida olimlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarga yakun yasab, shu narsani alohida ta’kidlab o‘tish kerakki oilaviy munosabatlarning mustahkam bo‘lishi yoshlarning oilaviy turmushga qay darajada tayyor ekanligi bilan belgilanadi. Sohaga oid ilmiy adabiyotlarda yoshlarni oilaviy turmushga tayyorlash masalalariga alohida e’tibor qaratilib, uning tibbiy, huquqiy, ijtimoiy, psixologik, gender, jinsiy, diniy va ma’rifiy, mafkuraviy va boshqa bir qancha turlari o‘rganilgan. Bizga ma’lumki, yoshlarni oilaviy hayot va undagi shart-sharoitlarga tayyorlash jarayoni ma’lum bir murakkabliklarga ega bo‘lib, u o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra bir necha dolzarb masalalar yechimini qamrab olishi bilan muhim ahamiyatga ega. Aynan ana shu masalalarning har bir oila qurayotgan yoshlar ongiga yetib borishi, singdirilishi va buning natijasida yoshlar ularni to‘g‘ri anglab yetishi o‘zbek oilalarning istiqboli, ravnaqi va rivoji, har bir xonadonning tinchligi uchun xizmat qiladi. Yetuk mutaxassislar ishtirokida mana shu ko‘p qirrali murakkab jarayonning o‘ziga xos tomonlarini ko‘rib chiqish va tahlil qilish masalaning naqadar keng qamrovli va tarmoqlangan ekanligini oydinlashtiradi va dolzarbligini asoslab beradi.

Bugungi kunda o‘zbek oilalarida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalalari hamma oilalarda ham talab darajasida borayapti, deb ayta olmaymiz. Hali-hamon ba’zi yoshlar orasida o‘zaro munosabatlarning nozik jihatlari haqida yetarli bilim, zaruriy ko‘nikma va malakaga ega bo‘lmaslik, qolaversa ikki yoshning bir-biri hamda oilaviy rollarning taqsimlanishi to‘g‘risidagi adekvat tasavvurlarning shakllanmaganligi ular o‘rtasidagi munosabatlarning ijobiy kechishi va dinamik jihatdan rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Afsuski, ba’zi bir hozirgi zamon yoshlarining oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari reallikka mos kelmasligi, aksariyat hollarda haqiqiy hayotdan tubdan farq qilishi kuzatilmoqda. Holbuki shunday ekan, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ularni imkon qadar hayotda kuzatiladigan past va baland, shirin va achchiq, rohat va tashvish, qorong‘u va yorug‘ tomonlari bo‘lishi muqarrarligiga o‘rgatib borishimiz va bu tomonlar haqida to‘g‘ri tasavvurlarni shakllantira olishimiz kerak bo‘ladi.

Mutaxassislar tomonidan nikoh ajrimlarining asosiy sabablari o‘rganilganda, aksariyat holatlarda bunga, birinchi navbatda, kelin-kuyovlarning oilaviy hayotga tayyor emasligi, er-xotinlarning o‘zaro kelishmovchiliklari, fe’l-atvorning bir-biriga mos kelmasligi, rashk, kelin bilan qaynona va boshqa yaqin qarindoshlarning chiqishmasliklari, erkakning zararli odatlarga berilib ketishi (ichkilik, giyohvand moddalar iste’mol qilish va hokazo), moddiy qiyinchiliklar (asosan erning ishlamasligi, oilani mustaqil boshqara olmasligi), qudalarning to‘ydan keyin o‘zaro kelishmay qolishlari sabab bo‘lgan. Bugungi kunda bunday muammolarga erning

boshqa shaharlarga ish qidirib ketib, qaytib kelmaganligi, boshqa bir ayol bilan yangi turmush boshlagani ham qo‘shildi. Shuning uchun ham yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash ishini muhim deb qarab, oilaga doir suhbatlar uyushtirish, hayotiy misollar vositasida nikoh qurish omillarining nikoh barqarorligiga ta’sirining ibratli jihatlarini ko‘rsatish orqali bu muammoga doir ijobiy tasavvurni shakllantira olish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O‘zbek oilalarida shaxslararo munosabatlar barqarorligini belgilashda er-xotin munosabatlaridagi o‘zaro hurmat va ishonch, bir-birini yaxshi tushunish, farzandlar, muomala odobi, onglilik va ma’naviy axloqiy mazqe, uning moddiy ta’minlanganligi, uy-joy bilan ta’minlanganlik, rollar taqsimotining mosligi, jinsiy moslik muhim omillar hisoblanadi. Bundan tashqari yosh kelin-kuyovlarning uy-ro‘zg‘or tutish haqidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, har bir turmush quradagan yoshlar nikohgacha bo‘lgan davrda xonadon gigiyenasi, er-xotin o‘rtasidagi uy yumushlari taqsimoti, ro‘zg‘or tutishning sir-asrorlari, xo‘jalik yuritish an’analari, oiladagi milliy urf-odat va qadriyatlar, mehmonlarni kutib olish va mehmonga borish odoblari, uy-hovli ozodaligi, zamonaviy kimyoviy ashyolardan foydalanish sirlari, dasturxon bezash qoidalari, salomlashish va suhbatlashish odoblari haqidagi bilimlarga ega bo‘lishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ayniqsa, yangi hayot ostonasida turgan qizlar o‘zga xonadonga kelin bo‘lib borar ekan, ulardan hayo, ibo, iffat, andisha, odob-axloq bilan birgalikda kelinlarga xos bo‘lgan burch, vazifa, urf-odat va kelinlarga qo‘yiladigan talablarni mukammal o‘rganish talab etiladi. Boy tajribaga ega bo‘lgan katta avlod vakillarining o‘gitlariga quloq solib, ular o‘rgatgan amallarni so‘zsiz bajargan qizlar oila qurgandan so‘ng yangi muhitga moslashishi oson kechadi. Bunda qizlarda bo‘lg‘usi kelin haqidagi tasavvurlarning shakllanishida tarbiya bilan bir qatorda bevosita ijtimoiy-psixologik muhit ham katta ahamiyat kasb etadi. Oiladagi tarbiya va oilaviy hayot haqidagi bilimlarning o‘zlashtirilishi qizlarni bo‘lg‘usi oilaga tayyorlashda saboq vazifasini bajaradi. Shuning uchun ham onalar nikohgacha bo‘lgan davrda qizlariga osh-ovqat pishirishni, uy-joyni saranjom-sarishta tutishni, did bilan mehmon kutishni, tejamkorlikni, oila budjetini iqtisod qilishni, uy anjomlari, jihozlaridan asrab-avaylab foydalanishni va shu kabi uy-ro‘zg‘or ishlarini o‘rgatishga alohida e’tibor berishlari zarur.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek oilalarida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalalari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu borada ma’lum tajribalar to‘plangan hamda avloddan-avlodga o‘tib, sayqallanib ma’lum bir tizimni tashkil etgan. Bu tizim nikoh va oila munosabatlarining sevgi-muhabbat asosiga qurilishi, farzandlarni nikohga tayyorlash, ularni uzatish va uylantirishga doir talablar, ota-onalar va farzandlarning burch hamda vazifalaridan iborat bo‘lib, oila qurishda ma’lum konseptual asosni tashkil etadi va katta imkoniyatlar yaratadi. Bunda xalqimizning boy ma’naviy merosidan foydalangan holda, yoshlarni oilaviy hayotga umuminsoniy, ma’naviy-axloqiy, huquqiy, psixologik, pedagogik, estetik, fizilogik-gigiyenik, iqtisodiy-xo‘jalik yo‘nalishlarda tayyorlash maqsadga muvofiq

hisoblanadi. Maktablar, o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlarida, nikoh uylarida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda nafaqat yoshlarni, balki ularning ota-onalarini ham hayotga tayyorlash juda muhim hisoblanadi. Oliy o‘quv yurtlarida “Oila hayoti pedagogikasi” bo‘yicha maxsus kursni joriy etish, bu kursda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash deb nomlangan maxsus bo‘lim bo‘lishi, ushbu bo‘limda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash yo‘l va vosilari ko‘rsatilgan bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримова В.М. Оила психологияси: Дарслик. Педагогика олийгоҳлари талабалари учун . Т.: “Fan va texnologiya”, 2008 – 152 б.
2. Arapbayeva D.K., Norkulova N.T. Oilaviy munosabatlar psixologiyasining nazariy va amaliy masalalari. // Metodik qo‘llanma // -T.: “GOLD-PRINT NASHR”, 2019. – 112 b.
3. Каримова В.М. Ижтимоий психология асослари. Ўқув қўлланма – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1994 – 96 б.
4. Maxmudova M. Oila tarbiyasi asoslari. O‘quv qo‘llanma. -S: SamDCHTI nashriyoti, 2021. -144 b.
5. Saliyeva Z.T. Talabalarni oilaviy hayotga tayyorlash – ma’naviy madaniyatning muhim yo‘nalishi sifatida. ZAMONAVIY TA’LIM/ ОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ 2017, №2. 35-40 b.
6. Fayziyeva M.X., Jabborov A.M. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. -T.: “Yangi asr avlodi”, 2006. –144 b.

UDK 37.015.3:159

Saidova Ozoda Toxirovna,
Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" kafedrasi assistent o'qituvchisi

O'QITUVCHINING KASBIY VA IJTIMOIY IMIDJINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY METODLAR

Annotatsiya. O'qituvchining kasbiy va ijtimoiy imidjini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim jihatlaridan biridir. Ushbu maqolada o'qituvchining professional va ijtimoiy imidjini shakllantirishda zamonaviy metodlar tahlil qilinadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchining innovatsion yondoshuvlar, kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish, pedagogik etika va axloqiy qoidalarga amal qilish, shuningdek, o'qituvchining jamoatdagi faoliyati va ijtimoiy mas'uliyati uning imidjini mustahkamlashda asosiy omillardan hisoblanadi.

Kalit so'zlar: O'qituvchining kasbiy imidji, ijtimoiy imidj, zamonaviy metodlar, pedagogik etika, innovatsion texnologiyalar, kommunikativ ko'nikmalar.

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО И СОЦИАЛЬНОГО ИМИДЖА УЧИТЕЛЯ

Аннотация. Развитие профессионального и социального имиджа учителя является важной частью современной образовательной системы. В данной статье анализируются современные методы формирования профессионального и социального имиджа учителя. В процессе обучения основными факторами укрепления имиджа учителя являются инноватsionные подходы, развитие коммуникативных навыков, соблюдение педагогической этики и моральных норм, а также общественная деятельность учителя и его социальная ответственность.

Ключевые слова: профессиональный имидж учителя, социальный имидж, современные методы, педагогическая этика, инноватsionные технологии, коммуникативные навыки.

MODERN METHODS FOR ENHANCING THE PROFESSIONAL AND SOCIAL IMAGE OF THE TEACHER

Annotation. The development of the teacher's professional and social image is an important aspect of the modern education system. This article analyzes the modern methods of forming the teacher's professional and social image. In the teaching process, the main factors in strengthening the teacher's image are innovative approaches, the development of communicative skills, adherence to

pedagogical ethics and moral norms, as well as the teacher's public activity and social responsibility.

Keywords: Teacher's professional image, social image, modern methods, pedagogical ethics, innovative technologies, communicative skills.

O‘qituvchining kasbiy va ijtimoiy imidji ta'lim tizimida muhim rol o‘ynaydi, chunki bu uning pedagogik faoliyatining samaradorligini, shuningdek, jamiyatdagi obro‘sini shakllantiradi. O‘qituvchi nafaqat bilimlarni o‘rgatish bilan cheklanmaydi, balki u o‘zining professional va shaxsiy xususiyatlari orqali talabalar, ota-onalar va jamiyat bilan aloqalar o‘rnatadi. Shuning uchun, o‘qituvchining imidjini rivojlantirish nafaqat uning kasbiy ko‘nikmalarini oshirish, balki ijtimoiy faoliyatdagi mas'uliyatini anglashni ham talab qiladi.

Zamonaviy ta'limda o‘qituvchining professional imidjini shakllantirishda innovatsion pedagogik metodlar, texnologiyalar va kommunikativ ko‘nikmalar muhim o‘rin tutadi. O‘qituvchi pedagogik etika va axloqiy qadriyatlarni saqlagan holda o‘z faoliyatini samarali bajarishi, shuningdek, jamiyatda ijobiy imidj yaratishi kerak. Shuning uchun, ushbu maqolada zamonaviy metodlar orqali o‘qituvchining kasbiy va ijtimoiy imidjini rivojlantirishning ahamiyati va usullari tahlil qilinadi. O‘qituvchining o‘z faoliyatida muvaffaqiyatga erishishi, shuningdek, uning jamiyatdagi obro‘sini oshirishga hissa qo‘shishi uchun zarur bo‘lgan metodik yondoshuvlar va pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning muhim jihatlari yoritiladi.

O‘qituvchining kasbiy va ijtimoiy imidji, uning ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatini, jamiyatdagi rolini va o‘ziga bo‘lgan hurmatini belgilovchi asosiy omillardandir. Bugungi kunda o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quvchilarga tarbiya beruvchi, ijtimoiy-psixologik muhitni yaratib, ularni hayotga tayyorlovchi shaxs sifatida qaralmoqda. O‘qituvchining ijtimoiy va professional imidjini shakllantirishning muhimligi o‘qituvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchini, ta'limga bo‘lgan qiziqishini va metodik yondoshuvlar samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Zamonaviy ta'lim tizimida o‘qituvchi o‘zining kasbiy imidjini yaratish jarayonida pedagogik innovatsiyalar, zamonaviy texnologiyalar, pedagogik etika va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish kabi bir qator muhim faktorlarga e'tibor qaratadi. Innovatsion metodlar va texnologiyalar o‘qituvchining faqat dars berish samaradorligini oshirmaydi, balki uning jamiyatdagi obro‘sini ham mustahkamlashga yordam beradi. Shuningdek, o‘qituvchining ijtimoiy imidji uning professional hayotida muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lishi mumkin. Jamiyatda o‘qituvchining kasbiy va ijtimoiy imidjini shakllantirish nafaqat uning pedagogik faoliyatini rivojlantirish, balki umuman ta'lim tizimining ijtimoiy maqomini oshirishga yordam beradi.

Ushbu maqolada o‘qituvchining kasbiy va ijtimoiy imidjini rivojlantirishda qo‘llaniladigan zamonaviy metodlar va ularning ta'lim tizimida qo‘llanishining ahamiyati ko‘rib chiqiladi. O‘qituvchining metodik faoliyatidagi innovatsiyalar,

uning jamiyatdagi ijtimoiy faoliyati va o‘zgaruvchan pedagogik sharoitlarga moslashuvchanligi kabi muhim jihatlar o‘rganiladi. Maqola, shuningdek, o‘qituvchining kasbiy imidjini shakllantirishda metodik yondoshuvlarni takomillashtirish uchun amaliy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Adabiyotlar tahlili. O‘qituvchining kasbiy va ijtimoiy imidjini rivojlantirish sohasidagi adabiyotlar ko‘plab yondoshuvlarni o‘z ichiga oladi. O‘qituvchining professional imidjini shakllantirishdagi metodik yondoshuvlar pedagogika, psixologiya va sotsiologiya sohalarini birlashtiradi. Ushbu tahlilda o‘qituvchining kasbiy imidjini shakllantirish, uning pedagogik faoliyati va jamiyatdagi roli haqida turli mualliflar tomonidan ilgari surilgan fikrlar keltiriladi.

G‘. X. G‘ulomov (2018) "O‘qituvchining pedagogik imidji" nomli tadqiqotida o‘qituvchining kasbiy imidjining shakllanishiga ijtimoiy va psixologik omillarni ta'sir qiluvchi asosiy faktor sifatida qaraydi. Muallif o‘qituvchining o‘zini jamiyatda qanday namoyon qilishining uning kasbiy faoliyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta'sir qilishini ta'kidlaydi. G‘ulomovning fikricha, o‘qituvchining ijtimoiy imidji uning o‘zining professional qobiliyatlari va pedagogik yondoshuvlariga bog‘liqdir. Shuningdek, o‘qituvchining axloqiy qadriyatlari va ta'lim tizimidagi o‘rni uning ijtimoiy imidjini shakllantiradi.

M. M. Tashkentova (2020) "O‘qituvchining ijtimoiy va professional imidjini shakllantirishda innovatsion metodlar" nomli maqolasida zamonaviy pedagogik metodlar va texnologiyalarni qo‘llash o‘qituvchining professional imidjini shakllantirishda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. U pedagogik jarayonlarda interaktiv yondoshuvlar, kompyuter texnologiyalari va virtual ta'limni keng qo‘llash orqali o‘qituvchining jamiyatdagi ijtimoiy obro‘sini oshirish mumkinligini ta'kidlaydi. Tashkentova, shuningdek, o‘qituvchining kasbiy imidji doimiy rivojlanishni talab qiluvchi jarayon ekanligini, uning o‘zini yangilab borishining zarurligini ko‘rsatadi.

B. A. Mahmudov (2017) "O‘qituvchining kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish" kitobida o‘qituvchining kasbiy faoliyatida kommunikativ ko‘nikmalarning o‘rni haqida to‘xtaladi. Mahmudovning fikricha, o‘qituvchining professional va ijtimoiy imidjini shakllantirishda uning kommunikatsiya qobiliyatlari, talabalar va ota-onalar bilan samarali muloqot o‘rnatish, muammolarni hal qilishdagi malakasi juda muhimdir. O‘qituvchining kommunikativ ko‘nikmalari uning imidjini mustahkamlashda va jamiyatda hurmat qozonishda asosiy omil hisoblanadi.

Z. S. Ismatov (2019) "Pedagogik etika va o‘qituvchining professional imidji" nomli tadqiqotida o‘qituvchining etika me'yorlari uning kasbiy obro‘sini shakllantirishdagi muhim jihatlarni ko‘rib chiqadi. Ismatov o‘qituvchining axloqiy qoidalarga rioya qilishi, shuningdek, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hurmat va ishonch munosabatlarini rivojlantirish uning imidjini yaratishda katta rol o‘ynashini ta'kidlaydi. O‘qituvchining etik qiymatlari nafaqat uning ta'limdagi

muvaffaqiyatiga, balki jamiyatdagi ijtimoiy faoliyatining natijalariga ham ta'sir ko‘rsatadi.

R. B. Rasulov (2021) "O‘qituvchining ijtimoiy faoliyati va uning imidjiga ta'siri" maqolasida o‘qituvchining jamiyatdagi ijtimoiy roli va uning imidjiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilgan. Rasulovning fikricha, o‘qituvchining jamoatchilikdagi faoliyati, uning ijtimoiy mas'uliyatini anglab, muammolarga yechim topishdagi roli uning professional obro‘sini oshiradi. O‘qituvchining jamiyatdagi o‘rni uning kasbiy imidjini mustahkamlash uchun muhim omil sifatida qaraladi.

Muhokama. O‘qituvchining kasbiy va ijtimoiy imidjini rivojlantirish, ta'lim tizimining muvaffaqiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchining imidji faqat uning pedagogik malakalariga asoslanmaydi, balki uning shaxsiy xususiyatlari, ijtimoiy faoliyati va jamiyat bilan aloqalari orqali ham shakllanadi. Maqolada keltirilgan metodik yondoshuvlar o‘qituvchining professional obro‘sini mustahkamlash uchun zarur bo‘lgan omillarni ko‘rsatadi.

Zamonaviy pedagogik metodlar va texnologiyalarni qo‘llash o‘qituvchining kasbiy imidjini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Innovatsion texnologiyalar, o‘qituvchining o‘z bilimlarini yangilab borishi, o‘quvchilarga o‘ziga xos yondoshuvlarni qo‘llash, ta'limda interaktiv usullarni joriy etish orqali o‘qituvchi nafaqat o‘z kasbiy imidjini, balki o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabatlarini ham mustahkamlashi mumkin. Misol uchun, interaktiv ta'lim texnologiyalari, masofaviy ta'lim va raqamli platformalar o‘qituvchining o‘z bilimlarini boshqalar bilan ulashishdagi samaradorligini oshiradi. Bunday texnologiyalarni to‘g‘ri qo‘llash o‘qituvchining innovatsion va zamonaviy pedagog sifatida obro‘sini oshiradi.

O‘qituvchining kommunikativ ko‘nikmalari ham uning ijtimoiy imidjini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchi o‘zining muloqot qilish uslubini rivojlantirib, talabalar bilan samarali aloqalarni o‘rnatish, ular bilan ishonchli munosabatlarni qurish orqali o‘z imidjini yaratadi. Bunda o‘qituvchining empatiyasi, tinglash qobiliyati, muloqotda ochiqlik va to‘g‘rilik muhim omillar sifatida ko‘riladi. O‘qituvchi nafaqat ta'lim jarayonini boshqaradi, balki o‘quvchilarga jamiyatda muvaffaqiyatli bo‘lish uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy ko‘nikmalarni ham o‘rgatadi.

Bundan tashqari, o‘qituvchining ijtimoiy mas'uliyati va uning jamiyatdagi roli uning imidjini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. O‘qituvchilar o‘z faoliyatlarida o‘quvchilarga jamiyatga foydali bo‘lishni, axloqiy qadriyatlarni hurmat qilishni, ekologik va ijtimoiy muammolarga e'tibor qaratishni o‘rgatadilar. O‘qituvchining o‘ziga xos ijtimoiy faolligi uning jamiyatda qanday qabul qilinishiga, unga qanday hurmat ko‘rsatilishiga ta'sir qiladi. Jamiyatda o‘qituvchining ijtimoiy faoliyati, shuningdek, o‘zining fuqarolik pozitsiyasini bildirishi, jamiyatdagi barcha guruhlar bilan samarali aloqalar o‘rnatish uning ijtimoiy imidjini shakllantiradi. O‘qituvchining bunday faolligi uning ta'lim

jarayonida muvaffaqiyatli bo‘lishini ta'minlaydi va jamiyatda unga bo‘lgan hurmatni oshiradi.

Shuni ta'kidlash lozimki, o‘qituvchining kasbiy va ijtimoiy imidjini rivojlantirish doimiy jarayon bo‘lib, uni shakllantirishda pedagogik etika, axloqiy qadriyatlar, zamonaviy pedagogik metodlar va texnologiyalar, shuningdek, kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish kabi bir qator omillarni hisobga olish zarur. Bu jarayonda o‘qituvchining shaxsiy rivojlanishi, o‘zining kasbiy malakalarini muntazam yangilab borishi, jamiyat bilan aloqalarini mustahkamlashi muhim o‘rin tutadi.

O‘qituvchining professional va ijtimoiy imidjini rivojlantirish nafaqat uning ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatini, balki butun ta'lim tizimining ijtimoiy maqomini oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta'limda o‘qituvchining obro‘si va imidji nafaqat uning shaxsiy yutug‘i, balki jamiyatning ta'limga bo‘lgan ishonchining kuchayishi sifatida ham qaralishi kerak. Shuning uchun, o‘qituvchining kasbiy imidjini rivojlantirish uchun zamonaviy metod va yondoshuvlarni qo‘llash, uning kasbiy va ijtimoiy rolini to‘g‘ri baholash, hamda o‘quvchilarga yaxshi namunalar ko‘rsatish juda muhimdir.

Xulosa. O‘qituvchining kasbiy va ijtimoiy imidjini rivojlantirish, ta'lim tizimining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki jamiyatda axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi, o‘quvchilarni hayotga tayyorlovchi shaxs sifatida qaralishi kerak. Uning professional va ijtimoiy imidji nafaqat uning kasbiy ko‘nikmalariga, balki kommunikativ qobiliyatlariga, axloqiy me'yorlarga va jamiyatdagi faoliyatiga ham bog‘liq.

Zamonaviy pedagogik metodlar, texnologiyalar va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish o‘qituvchining imidjini mustahkamlashda katta rol o‘ynaydi. Innovatsion texnologiyalar va interaktiv ta'lim usullari o‘qituvchining o‘z bilimlarini yangilab borishini ta'minlasa, uning o‘quvchilar bilan samarali aloqalari va ijtimoiy mas'uliyati imidjini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, o‘qituvchining kasbiy va ijtimoiy imidji uning jamiyatda qanday qabul qilinishiga, shuningdek, o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi ishonchli munosabatlarga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘ulomov, G. X. (2018). O‘qituvchining pedagogik imidji. Toshkent: Ma’rifat.
2. Tashkentova, M. M. (2020). O‘qituvchining ijtimoiy va professional imidjini shakllantirishda innovatsion metodlar. Pedagogika va psixologiya ilmiy jurnali, 12(3), 45-51.
3. Mahmudov, B. A. (2017). O‘qituvchining kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish. Toshkent: O‘qituvchi.
4. Ismatov, Z. S. (2019). Pedagogik etika va o‘qituvchining professional imidji. Pedagogik tadqiqotlar jurnali, 5(2), 78-84.

5. Rasulov, R. B. (2021). O‘qituvchining ijtimoiy faoliyati va uning imidjiga ta'siri. Ta'lim va rivojlanish, 10(4), 92-98.
6. Yunusov, A. R. (2016). Pedagogik mahorat va o‘qituvchining kasbiy imidji. Toshkent: Innovatsiya.
7. Xodjayeva, N. (2021). Zamonaviy pedagogik texnologiyalar: Ta'limda yangi yondoshuvlar. Toshkent: O‘qituvchi.
8. G‘afur, I. R. (2022). O‘qituvchining ta'lim jarayonida innovatsion metodlarni qo‘llash va uning ijtimoiy imidji. Pedagogik bilimlar, 6(1), 34-40.
9. Zohidov, U. (2017). O‘qituvchining shaxsiy va kasbiy imidjini shakllantirishning amaliy metodlari. Tashkent: Ma'naviyat.

UDK 159.922.6:159.928:37.015.3

Amirqulov Jamshed Rizvonqulovich,
Qarshi davlat universiteti “Psixologiya”
kafedrasi o‘qituvchisi

IQTIDORLI TALABALARNI PSIXOLOGIK O‘RGANISHNING ILMIY - AMALIY TAJRIBASI

Annotatsiya. Mazkur maqola iqtidorli talabalarni psixologik o‘rganishning ilmiy-amaliy tajribasi mavzusiga bag‘ishlangan. Shuningdek, maqolada iqtidorli talabalar shaxsi, iqtidor tushunchasining mazmun mohiyati, iqtidorlilikni o‘rganishning nazariy asoslari, iqtidorli talabalarga xos psixologik sifatlar, iqtidorlilik va qobiliyatlarning o‘zaro aloqadorligi hamda iqtidorli talabalarning savodxonlik xususiyatlari kabilar batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: iqtidor, iqtidorli o‘smir, psixologiya, pedagogika, qobiliyat, maxsus qobiliyat, umumiy qobiliyat, ta’lim, o‘quvchi, o‘qituvchi, maktab, intellektual qobiliyatlar, savodxonlik, talant, rivojlanish.

НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ОПЫТ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ИЗУЧЕНИЯ ОДАРЁННЫХ СТУДЕНТОВ

Аннотация. Данная статья посвящена теме научно-практического опыта психологического изучения одаренных школьников-подростков. Также в статье подробно описаны личность одаренных подростков, значение понятия одаренность, теоретические основы изучения одаренности, психологические качества одаренных подростков, взаимосвязь одаренности и способностей, характеристики грамотности одаренных подростков.

Ключевые слова: талант, одаренный подросток, психология, педагогика, способности, специальные способности, общие способности, воспитание, ученик, учитель, школа, интеллектуальные способности, грамотность, одаренность, развитие.

SCIENTIFIC AND PRACTICAL EXPERIENCE IN THE PSYCHOLOGICAL STUDY OF GIFTED STUDENTS

Annotation. This article is devoted to the topic of scientific and practical experience in the psychological study of gifted adolescent schoolchildren. The article also describes in detail the personality of gifted adolescents, the meaning of the concept of giftedness, the theoretical foundations for the study of giftedness, the psychological qualities of gifted adolescents, the relationship between giftedness and abilities, and the characteristics of literacy of gifted adolescents.

Key words: talent, gifted teenager, psychology, pedagogy, abilities, special abilities, general abilities, upbringing, student, teacher, school, intellectual abilities, literacy, giftedness, development.

Ma'lumki, iqtidorlilik muammosi psixologiya fanida tug'ma xususiyat sifatida qaralib, uning mohiyatini tushuntirish qobiliyatlar va layoqatlarning tabiatini tahlil etish bilan uzviy bog'liq sanaladi. Keng ma'noda, layoqatlar iqtidorlilikning irsiy alomatlari sanalib, uning yaqqol ko'rinishi bolalarda erta yoki kech namoyon bo'lishi bilan xarakterlanadi. Misol uchun musiqiy, matematik va lingvistik sohalarga bo'lgan iqtidor ayrim bolalarda to'rt yoshda namoyon bo'lsa, ba'zilarida besh yoki olti yoshda yuzaga chiqadi. Va bu keyinchalik, qobiliyatlar va uning keyingi rivojlanish darajasiga yaratib berilgan shart-sharoitlar bilan xarakterlanadi. Ilmiy jihatdan qaralganda, iqtidor bu-qobiliyatlarning yuqori darajada rivojlanganlik darajasi hamda shaxsning biror sohaga yo'nalgan muvaffaqqiyatli harakatlari shuningdek, boshqalardan ajralib turuvchi alohida ustunlik sifatlari sanaladi. Iqtidorlilik ko'plab umumpsixologik va ijtimoiy -psixologik sifatlar bilan bog'liq bo'lib, bunday o'smir o'quvchildar boshqa tengdoshlaridan kuchli darajada rivojlangan adolatlilik sifatlari, ijtimoiy sezgirlik, kognitiv sohaga qaratilgan ehtiyojlarning kuchi, oddiy yechimga ega masalalardan qoniqmaslik, yangicha fikrlashni va qaror qabul qilishni, yangi o'qitish usullarini yoqitirish, notsandart fikrlashga asoslangan masalalarni yoqitirish kabilar bilan ajralib turadilar. Ko'pincha, umumta'lim maktabi o'qituvchilari iqtidorli o'smir o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini yaxshi bilmasliklari va ular bilan yangicha metodik usulda ishlay olishni tushunmasliklari oqibatida, iqtidorli o'smir o'quvchilarning ta'limi bilan bog'liq ayrim mummolarga duch kelishadilar. Shunday ekan, iqtidorlilik va uning psixologik tabiati, iqtidorli o'smir o'quvchilarning o'ziga xos xarakterologik xususiyatlari, iqtidor turarini psixologik qo'llab quvvatlash, uning kurtaklarini o'z vaqtida aniqlash kabi ishlar hozirgi zamon psixologiyasi oldida turgan dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Xronologik jihatdan qaralganda, inson iqtidori va uni ta'riflash masalalari antik davr mutafakkirlarining ta'limotlari tarixi bilan uzviy bog'liq sanaladi. Ilk yunon faylasuflaridan Aflotun, Suqrotlarning aytishicha iqtidor - bu xudo tomonidan berilgan qobiliyatdir. Uning asosida qandaydir irsiy va tabiiylik xususiyatlari mavjud [1,58-59]. Shu bois, inson ruhiyati va uning iste'dodi antik davrda tan olinishi va tushunilishi eng qiyin muammolardan biri bo'lganligi sababli, alohida kishilarning sifat va qobiliyatlarini qudratli xudo yaratgan, deb hisoblangan. Aflotun o'zining ajoyib ijod namunalarini yaratuvchining kuchi bilan kechayotganligini tushundi. YA'ni insonda irsiylik va orttirilgan sifatlari alohida hodisa ekanligini nazarda tutdi. Hozirgi tilimiz bilan aytganda, bu bitmas-tuganmas iqtidor ko'rinishi edi. Uyg'onish davrida yevropalik olimlarning ko'pchigi iste'dodning tabiatini tan olish muammosi bilan shug'ullandilar. Ular orasida ispan shifokori Xuan Uarte o'z tadqiqotlarini sarhisob qilar ekan, mamlakat kelajagi uchun avvalambor, Ispaniya

imperiyasining tiklanishini, uning kelajak istiqboli uchun, davlat xizmatiga yuqori iqtidorli fuqarolarni jalb qilishdan iborat deb hisobladi[2,76]. Uning izlanishlaridan asosiy maqsad insonlarning qobiliyatlarini aniqlash va kelajakda mutaxassis tanlashda ularni hisobga olishdan iborat edi. O‘rta asr yevropaliklarining fikricha, agar odamlar bir xil sharoitda yashasalar, ularning aqli ham bir xil bo‘lar edi. Jon Lokk o‘zining "Inson ongi tajribasi" falsafiy asarida quyidagi fikrni bildiradi: insonda tug‘ma fikrlar bo‘lmaydi, ular tajriba asosida paydo bo‘ladi, insonning bolalikdagi ongi “toza varaq”ga o‘xshaydi; his etilmagan, o‘zlashtirilmagan narsa aqlda bo‘lolmaydi deb ta’kidlaydi[3,134]. Nemis mumtoz faylasuflari E.Kant ham iqtidor tushunchasining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganib, shu paytgacha tasavvurlarda hukmron bo‘lgan falsafiy tushunchalarni takomillashtirib, inson iqtidori va harakatlarining tabiatini amaliy o‘rganish imkoni mavjudligini ta’kidlab o‘tdi[4,94]. Vaqt o‘tib, bu muammo ko‘plab xorij psixologlari va pedagoglarining eng qiziq mavzusiga aylandi. O‘quvchilardagi iqtidorlilik xususiyatlarini pedagogik muammo sifatida o‘rganishning ilk pedagogik masalalari olimlardan Y. A. Komenskiy, I. G. Pestalotssi, A. Disterveg, J. Dyui, K.D.Ushinskiy kabi ko‘zga ko‘ringan pedagoglar ijodida aks etgan. Ular o‘z asarlarida bolalarning individual psixik xususiyatlariga, shuningdek, o‘smir o‘quvchilarning alohida qobiliyatlarini rivojlantirish zarurligiga alohida e’tibor berishgan. YA’ni ular o‘z g‘oyalari orqali xalq savodxonligini oshirish, individual qobiliyat va iqtidor turlarini rivojlantirish masalalarini keng ko‘lamda o‘rganishgan. Misol uchun, J.Dyui iqtidorlilik haqida shunday deydi: “Agar tabiiy aql faqat o‘zini o‘rab turgan narsalarni qamrab olsa, iqtidor bu - u ilgari hech qachon ko‘rmagan narsani tan olishga imkon beradigan ilg‘or bilimdir”[5, 321]. Muallif iste’dodning tug‘ma fazilat ekanligini e’tirof etib, inson qobiliyatini rivojlantirishga ta’lim va tarbiya, mehnat, atrof-muhitning ta’siri katta ekanligini ta’kidlab o‘tadi. A.Disterverg esa, iqtidorni - inson tabiatining bir bo‘lagi, tabiatning insonga bergan ajoyib sovg‘asi, tug‘ilishdanoq bilish va anglash istagi, deb ta’riflaydi”[6,57]. Ammo bola ulg‘aygan sari bu sifatni asta-sekin yo‘qotadi. Muallif insonning tafakkuri, ongi mehnat faoliyati jarayonida shakllanadi, degan xulosaga keladi. Yuqoridagi olimlarning qarashlaridan farqli o‘laroq, iqtidorlilik, iqtidorli o‘quvchi, iqtidorlilikning yosh xususiyatlari kabi masalalar ko‘plab xorij va mahalliy psixologlarning ilmiy izlanishlarida yaxshi aks ettirilgan. Bunday psixolog olimlar guruhiga L. S.Vigotskiy, B.G.Ananyev, V. A. Krutetskiy, N. Leytes, V. Teplov, V.V.Bogoslovskogo, A.G.Kovaleva, A.M. Matyushkin, K.K. Platonov, Y.A. Ponomarev, V.D. Shadrikov kabilar kiritilsa, mahalliy olimlarimizdan M.G.Davletshin, B.R.Qodirov, E.G‘.G‘oziyev, R.I.Sunnatova, Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova kabilarning izlanishlari bunga yaqqol misoldir. Rus psixologlarining iqtidorlilikni pedagogik va psixologik qo‘llab-quvvatlash borasidagi xulosalari, iqtidorlilikni rivojlantirishga yaxlit individual ta’lim sifatida qarash yoki unga tizimli yondashuvning tug‘ilishiga asos bo‘ldi. Va bu keyinchalik, inson iqtidorining tarkibiy qismlarini aniqlashga imkon keng berdi. Mahalliy psixologlarning ilmiy g‘oyalari esa, iqtidorli o‘quvchilar ta’limi va uni

psixodiagnostik o‘rganish, iqtidorlilik testlarini yaratish va mavjudlarini milliy muhitga moslashtirish ishlarini jadallik bilan rivojlantirdi. Oxirgi o‘n yil davomida yetakchi psixolog olimlar tomonidan, iqtidorlilikni tushuntiruvchi quyidagi nazariy konsepsiyalar ishlab chiqildi:

– Ya’ni yoshni intellektual iqtidor fenomeniga moslashtirish konsepsiyasi (N. S. Leites);

– Iqtidorlilikka inson ijodkorligining namoyon bo‘lishi sifatida yondashish (A. M. Matyushkin, V. S. Yurkevich):

– Iqtidorlilikning dinamik nazariyasi (Y.D. Babayeva, N. A.Darxanov, M. A. Xolodnaya):

– Shaxsning ekopsikologik rivojlanishi yoki iqtidor rivojlanishga ekopsixologik yondashuv (V. V. Panov).

Yuqoridagilarga muvofiq, ko‘plab psixologik, pedagogik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish biz uchun, iqtidorli o‘quvchilarni tadqiq qilishning eng asosiy yo‘nalishlarini aniqlashga imkon berdi.

Tadqiqotchi S.V. Kuznetsova iqtidorli o‘smirlarga xos bo‘lgan quyidagi keltirib o‘tadi: o‘smir o‘quvchining iqtidori – bu bilimlarni har qanday vaziyatda qo‘llay oladigan, bilimlarning kengligi, yoshiga qarab yuqori faollik, aqliy jarayonlarning yuqori darajada rivojlanishi, to‘g‘ri g‘oyalarga asoslangan va samarali faoliyatni ta’minlaydigan aqliy fazilatlar majmuidir[7,124]. N. Ojegov o‘zining ilmiy lug‘atida yozishicha, iqtidor bu - "tabiat" tomonidan berilgan maxsus qobiliyatdir. Biroq, psixologlar tomonidan tayyorlangan “Iste’dod tushunchalari” nomli hujjatda esa, “Iqtidorli bola alohida yutuqlarni va muvaffaqqityalarni qayd etuvchi shaxs sifatida ta’riflanadi[7,124].

Bundan tashqari, pedagogik ensiklopediyada quyidagi ta’rif berilgan: “Iqtidor” - bu insonning ma’lum bir faoliyat sohasida alohida muvaffaqiyatlarga erishishiga yordam beradigan qobiliyat rivojlanishining yuqori darajasidir. YA’ni “iqtidor” tushunchasi “qobiliyat” tushunchasiga juda yaqin tushunchadir. Fanda jamiyatda, umumta’lim maktablarida, ta’lim-tarbiya natijasida iste’dodni aniqlash va rivojlantirish imkoniyati mavjud. Iqtidor - bu insonning ma’lum bir dunyoga bo‘lgan psixologik qobiliyati. Bu qobiliyatni vaqtida aniqlash va uni yanada rivojlantirish lozim. Umuman olganda, inson tabiatan qobiliyatsiz emas. Ba’zilari yuqori qobiliyatga ega, boshqalari o‘rtacha yoki past qobiliyatga ega bo‘ladi. Iqtidorli bolani ko‘rmaslikning iloji yo‘q, tengqurlari ichida u o‘z harakati, mayl va qobiliyati bilan darhol ajralib turadi. Iqtidorli bolalarni qanday aniqlash mumkin? Taniqli tadqiqotchi N. S. Leytes iqtidorli bolalarning 3 toifasini aniqladi[8,39]. Birinchi toifa - intellektual qobiliyati erta yoshda sezilgan o‘quvchilar. Ikkinchi toifa - bu muayyan faoliyat turi va maktab fanining ma’lum bir turi bo‘yicha qobiliyatlari bilan ajralib turadigan o‘quvchilar. Uchinchi toifa - iqtidor va harakati bilan ajralib turadigan o‘quvchilar. Maktabda o‘qish paytida intensivlik erta yoshda fikrlash qobiliyati bilan ajralib turadigan o‘smir o‘quvchilar uchun xosdir. Ularning aqllari shu qadar yorqinki, ularni sezmaslikning iloji yo‘q. Biroq, o‘smir o‘quvchilarning

iqtidori sezilmaydigan holatlar ham mavjud. Ba'zida, hatto bolaning keyingi yosh yillarida ham kamdan-kam qobiliyatlar namoyon bo'ladi. Bolalarda muayyan qobiliyatlarning yorqin namoyon bo'lishi fikrlash darajasining umumiy rivojlanishi, fan va san'atning maxsus sohasiga moslashish bilan tavsiflanadi. Uchinchi toifaga mansub o'smir o'quvchilar umumiy rivojlanish bo'yicha tengdoshlari oldida turmaydi, lekin ular o'zlarining ruhiy o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi. Ko'pincha "Iqtidorli o'quvchi yaxshi o'qigan talabadir" degan fikr bor. Taniqli ingliz psixologi P.Torrensning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, bu fikr o'qituvchilar orasida ham keng tarqalgan. Ularga intizomli, uyushqoq, bilimli, barqaror, konseptual, o'z fikrini aniq va aniq ifoda eta oladigan o'quvchilar yoqadi. Mantiqsiz savollar beradigan, faqat o'z ishlari bilan band, mustaqil, ko'pincha tushunmovchiliklarga sabab bo'ladigan, xayolparast, hamma narsaga turlicha qarashli o'quvchilarni yoqtirishmaydilar. Muallifning xulosalariga ko'ra, bunday sifatlar o'quvchilarning ijodiy iqtidorini belgilab, ular konitiv soasining kuchi bilan boshqalardan ajralib turadi. Fanda iqtidorlilikni e'tirof etish uchun, ikki xil yondashuv mavjud:

1.Har bir bola iqtidorli;

2.Iqtidorli bolalar juda kam uchraydi. Iqtidor haqidagi fikrlar, ularning o'ziga xos xususiyatlaridan qat'i nazar, insonning bir yoki bir nechta faoliyat turlarida yuqori natijalarga erishish imkonini beradigan qobiliyatlarga asoslanadi. A.M.Prixojanning aytishicha, iqtidorli o'smir o'quvchilarga quyidagi sifatlar xos sanaladi[9,50]:

– Kognitiv ehtiyojning yuqori darajasi,
– Katta qiziqish, sevimli ishiga bo'lgan ishtiyoqli ishtiyoq
– Aniq ifodalangan ichki motivatsiyaning mavjudligi;
– Erta riovjlangan adolat tuyg'usi:
– Empatiyaga moyillik;
– Yuqori darajadagi falsafiy fikrlarga moyillik;
– Hayot va uning tashvishlarini erta o'ylash;
– Ko'p savollar bilan murojaat qilish;
– Nozik didlik;
– Berilgan topishiriqlarni ortig'i bilan bajarish va hokazo.

Quyidagi iqtidorli o'smir o'quvchilarning shaxslilik va intellektual sifatlarining o'zaro aloqadorligi bilan bog'liq, olib borilgan empirik tadqiqotimizning ayrim namunalariga e'tibor qaratamiz.

1.4-jadval

Iqtidorli o'smir o'quvchilarning Raven testi bo'yicha tajribadan oldingi va keyingi ko'rsatkichlari

Sinaluvchi guruhlar	Tajribadan oldin		Tajribadan keyin		t	Ishonchlilik darajasi (p)
	$\overline{x}$	δ	$\overline{x}$	δ		
Tajriba guruhi (n=30)	174,9	42,5	215,3	36,8	3,8	0,001

Nazorat guruhi (n=30)	126,7	38,8	129,4	41,5	0,2	—

Jadvaldan ko‘rinib turganidek, rivojlantiruvchi tajribadan so‘ng oddiy o‘smir o‘quvchilarga nisbatan, iqtidorli o‘smir aqliy qobiliyatlari, tafakkur darajalari ko‘rsatkichlari bo‘yicha yuqori ishonch darajasidagi ustunlik jihatlari bilan farqlangan. Ya’ni, iqtidorli o‘smir o‘quvchilar o‘rtacha qiymat tajribadan oldin 174,9 ni tashkil etgan bo‘lsa, tajribadan so‘ng bu qiymat 215,3 ni tashkil etgan. Bu esa, iqtidorli o‘smir o‘quvchilarda mashg‘ulotlardan so‘ng aqliy masalalarni bajara olish ko‘nikmasi ahamiyatli tarzda oshganligini ko‘rsatmoqda.

Xulosa qilib aytganda, umumta’lim maktablarining iqtidorli o‘quvchilari kelajakda yangi texnologiyalar ishlab chiqaruvchi, adolatli siyosatchi, ishonchli shifokor, mohir musiqachi, betakror san’atkor, mas’uliyatli mutaxassis kabi yuksak ma’naviyatli inson bo‘lishi milliy qadriyatdir. Bizning fikrimizcha, iqtidorli o‘qiuvchilar yangicha ta’lim, yangi muhit, innovatsion o‘qitish usullari, o‘z vaqtida psixologik va psixodiagnostik qo‘llab -quvvatlashni talab etuvchi, yuksak maqsadlarga intiluvchi, boshqalardan o‘zining ajoyib kognitiv olami bilan ajaralib turuvchi quvnoq, bilimga chanqoq, aniq hayotiy maqsadlarga to‘la ta’lim subyektlaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. А.С. Клеванов. Обозрение философской деятельности Платона и Сократа / А.С. Клеванов. - Москва: Гостехиздат, 2012. - 838 с.
2. Хуан Уарте. Исследование способностей к наукам: пер.с исп. - М., вт.Изд. 2015. – 235 с.
3. Каримова В. Ижтимоий психология асослари. Ўқув қўлланма – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1994 – 96 б.
4. Локк Дж. Два трактата о правлении. Политогия. - Х.: Фолио, 2001. – 831с.
5. Кант И. Критика чистого разума. Сочинения в шести томах. Т.3, М., «Мысль», вт. Изд. 1964. – 246 с.
6. Большой психологический словарь / сост. и общ. ред. Б. Мещеряков, В. Зинченко. – СПб. : Прайм-ЕВРОЗНАК. – 2003. – 672 с.
7. Джуринский А.Н. История образования и педагогической мысли. - М.: ВЛАДОС-ПРЕСС, 2003. – 400 с.
8. Кузнецова С.В. Основы психологии и педагогики : учебное пособия . М.: ТЦ Сфера, 2005. – 384 с.
9. Лейтес Н.С. Возрастная одаренность индивидуальные различия. - М.: Издательство.Институт практической психологии, Воронеж: НПО «МОДЭК», 1997 – 448 с.
10. Прихожан А.Н., Толстых Н.Н. Подросток в учебнике и в жизни. - М., вт. Изд. 2011. – 243 с.

UDK 159.922.7:004.9:316

Xudoyberganova Sharofat,
Xorazm viloyati pedagogik
mahorat markazi “Pedagogika va psixologiya,
ta’lim texnologiyalari” kafedrasi o‘qituvchisi

O‘SMIR YOSHLARNI RAQAMLI MANIPULYATSIYADAN HIMOYA QILISHDA AXBOROT-PSIXOLOGIK BARQARORLIKNI SHAKLLANTIRISH PSIXOLOGIK FENOMEN SIFATIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘smir yoshlarni raqamli manipulyatsiyadan himoya qilishda axborot-psixologik barqarorlikni shakllantirishning ahamiyati yoritilgan. Maqolada axborot-psixologik barqarorlik tushunchasi, uning tarkibiy qismlari, shakllanish mexanizmlari va himoya strategiyalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: o‘smir yoshlar, raqamli manipulyatsiya, himoya qilish, axborot-psixologik barqarorlik, psixologik fenomen.

ФОРМИРОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ КАК ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ФЕНОМЕНА В ЗАЩИТЕ ПОДРОСТКОВ ОТ ЦИФРОВЫХ МАНИПУЛЯЦИЙ

Аннотация. В данной статье освещается важность формирования информационно-психологической устойчивости для защиты подростков от цифровой манипуляции. В статье анализируются понятие информационно-психологической устойчивости, её составные элементы, механизмы формирования и стратегии защиты.

Ключевые слова: подростки, цифровая манипуляция, защита, информационно-психологическая устойчивость, психологический феномен.

DEVELOPING INFORMATION AND PSYCHOLOGICAL RESILIENCE AS A PSYCHOLOGICAL PHENOMENON IN SAFEGUARDING ADOLESCENTS AGAINST DIGITAL MANIPULATION

Annotation. This article highlights the importance of developing information-psychological resilience in protecting adolescents from digital manipulation. The article analyzes the concept of information-psychological resilience, its components, formation mechanisms, and protective strategies.

Keywords: adolescents, digital manipulation, protection, information-psychological resilience, psychological phenomenon.

Zamonaviy axborot jamiyatida raqamli texnologiyalar va internet tarmoqlarining keng tarqalishi hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Ayniqsa, o‘smir yoshlar uchun raqamli muhit keng imkoniyatlar bilan birga turli xavf-xatarlarni ham olib kelmoqda. Ushbu yosh avlod axborot oqimining doimiy ta’sirida bo‘lib, ular orasida axborot manipulyatsiyasi, noto‘g‘ri yoki yolg‘on ma’lumotlar tarqalishi, shuningdek, psixologik bosim va manipulyatsiya kabi salbiy holatlar keng tarqalgan. Bu esa o‘smirlarning ruhiy sog‘lig‘iga va shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, o‘smir yoshlarni raqamli manipulyatsiyadan samarali himoya qilish muhim ilmiy va amaliy vazifa sifatida qaralmoqda. Bunday himoyani ta’minlashda axborot-psixologik barqarorlikni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot-psixologik barqarorlik - bu shaxsning axborot maydonidagi turli ta’sirlarga qarshi chidamliligi va ruhiy muvozanatini saqlash qobiliyatidir. U o‘smirlarning ijtimoiy-psixologik moslashuvchanligini oshiradi hamda ularni raqamli manipulyatsiyadan himoya qilishda psixologik fenomen sifatida e’tiborga loyiqdir.

Shu sababdan o‘smir yoshlarning psixologik xususiyatlari, raqamli muhitda yuzaga keladigan manipulyatsiya shakllari va axborot-psixologik barqarorlikning shakllanish jarayoni, shuningdek, o‘smirlarni raqamli manipulyatsiyadan himoya qilish bugunki kundaki muhim vazifalardan biridir.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, o‘smir yoshlar uchun raqamli makon — nafaqat bilim olish, muloqot qilish va o‘zini ifoda etish uchun platforma, balki ularga nisbatan turli axborot ta’sirlarining manbai hamdir. Shu sababli, o‘smirlarning raqamli manipulyatsiyaga duch kelish holatlari xavfi ortib bormoqda. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha chet el olimlari tomonidan izlanishlar olib borilgan va ushbu masala yuzasidan o‘ziga xos ilmiy xulosalar keltirilgan Respublikamiz olimlaridan G‘.B.Shoumarov, B.Umarov, G.To‘laganova, Z.T.Nishinovalarning tadqiqot ishlarida ham o‘smir yoshlarning psixologik xususiyatlari,o‘smirlik yoshidagi avtonomiyalar,xulqi og‘ishga moyillik,asotsiallik va ularga ta’sir qiluvchi omillar atroflicha o‘z ifodasini topgan.

Raqamli manipulyatsiya - bu axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalari yordamida shaxs yoki guruhlarning ongiga, hissiyotlariga va xulqiga maqsadli ta’sir ko‘rsatish jarayonidir. Bu jarayonning asosiy maqsadi - odamlarning qarorlarini, e’tiqodlarini yoki harakatlarini nazorat qilish va boshqarishdir. Raqamli manipulyatsiya ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalgan bo‘lib, yosh avlodni, xususan o‘smirlarni sezgir guruh sifatida nishonga oladi.

O‘smirlik davri psixologik jihatdan o‘ziga xos va sezgir davr hisoblanadi. Bu yoshda shaxsiyat shakllanmoqda, mustaqil fikrlash va o‘zini anglash jarayoni davom etmoqda. Shu bois, o‘smirlar ijtimoiy va axborot bosimiga nisbatan beqaror, ko‘pincha oson ta’sirlanadigan guruh sifatida qaraladi. Raqamli manipulyatsiya aynan shu xususiyatlarni hisobga olib, o‘smirlarning ongiga maqsadli ta’sir

ko‘rsatadi, ularni noto‘g‘ri qarorlar qabul qilishga, zararli xulq-atvor yoki fikrlarga ergashishga olib keladi.

Bu holatni oldini olish va o‘smirlarni himoya qilish uchun psixologiyada axborot-psixologik barqarorlik tushunchasi katta ahamiyatga ega. Axborot-psixologik barqarorlik — bu shaxsning turli axborot ta’sirlariga qarshi psixologik chidamliligi, o‘z fikrini shakllantirish va himoya qilish qobiliyatidir. Bu fenomen shaxsning axborot muhitida o‘zini himoya qilish, emotsional va intellektual muvozanatni saqlash, manipulyatsiyalardan samarali tarzda qochish imkonini beradi.

Axborot-psixologik barqarorlik bir qator psixologik komponentlarni o‘z ichiga oladi: kritik fikrlash qobiliyati, emotsional intellekt, o‘z-o‘zini boshqarish, axborotni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalari va shaxsning axborot muhitidagi o‘z pozitsiyasini anglash. Bu komponentlar o‘smir yoshlarning raqamli manipulyatsiyadan himoyalanishida asosiy vositalar hisoblanadi.

Shunday qilib, axborot-psixologik barqarorlikni shakllantirish — bu o‘smirlarni raqamli xavflardan himoya qilishda samarali yo‘l bo‘lib, ularning shaxsiy rivojlanishi va ruhiy sog‘lig‘ini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu jarayon psixologik va pedagogik yondashuvlar orqali amalga oshirilishi, yoshlarni raqamli savodxonlik, tanqidiy fikrlash va emotsional barqarorlikka o‘rgatish orqali qo‘llab-quvvatlanishi lozim.

Hozirgi kunda raqamli manipulyatsiyaning turli shakllari mavjud. O‘smir yoshlarni raqamli manipulyatsiyadan himoya qilishda axborot-psixologik barqarorlikni shakllantirishda manipulyatsiyaning asosiy shakllarini tahlil qilish lozim.

Raqamli manipulyatsiyaning asosiy shakllari quyidagilardan iborat:

Disinformatsiya va yolg‘on axborot tarqatish - noto‘g‘ri, buzilgan yoki manipulyatsiya qilingan ma’lumotlarni tarqatish. Maqsad odamlarni chalg‘itish, noto‘g‘ri qaror qabul qilishga undash yoki ijtimoiy ishonchni kamaytirishdir. O‘smirlar uchun bunday axborot psixologik ta’sir ko‘rsatishi va ularning dunyoqarashini buzishi mumkin.

Emotsional manipulyatsiya - raqamli platformalarda emotsiyalarni o‘ynatish, qo‘rqitish, ayblash yoki umid berish orqali insonlarni boshqarish. Masalan, qo‘rquv va tashvish uyg‘otadigan xabarlar, shoshilinch his-tuyg‘ularni yuzaga keltiruvchi postlar yoshlarning emotsional holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ijtimoiy bosim va guruh ta’siri- ijtimoiy tarmoqlarda ommaboplikka intilish, do‘stlar va atrofdagilarning fikri orqali shaxsning qarorlariga ta’sir o‘tkazish. O‘smirlar guruh ta’siriga nisbatan juda sezgir bo‘lib, bu manipulyatsiyaning samaradorligini oshiradi.

Mikromarketing va profilaktika - o‘smirlarning onlayn xatti-harakatlari asosida maxsus reklamalar va kontentlar yo‘naltiriladi. Bu usul orqali individual psixologik xususiyatlar va ehtiyojlarga moslashtirilgan manipulyativ ta’sir ko‘rsatish amalga oshiriladi.

Botlar va sun'iy intellekt yordamida avtomatlashtirilgan ta'sir-sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan dasturlar yordamida ko'plab noto'g'ri yoki manipulyatsion xabarlar yaratilib, tarqatiladi. Bu jarayon o'smirlarning ongiga keng va tezkor ta'sir ko'rsatadi. Ushbu shakllar o'smirlarning ongiga, his-tuyg'ulariga va ijtimoiy munosabatlariga ta'sir qilib, ularni noto'g'ri qarorlar qabul qilishga, zararli odatlarga yoki noto'g'ri axborotga asoslangan fikrlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, raqamli manipulyatsiyani aniqlash va unga qarshi turish uchun axborot-psixologik barqarorlikni shakllantirish zarurdir.

O'smir yoshlarni raqamli manipulyatsiyadan himoya qilishda axborot-psixologik barqarorlikni shakllantirish yo'llari sifatida quyidagilarni tavsiya etish mumkin.

Axborot savodxonligini oshirish - o'smirlarni axborot manbalarini tanqidiy baholash, ma'lumotlarning haqiqiyligini tekshirish, yolg'on va manipulyativ axborotdan farqlash ko'nikmalariga o'rgatish. Bu ularning raqamli muhitda ongli va ehtiyotkor bo'lishlariga yordam beradi.

Tanqidiy tafakkurni rivojlantirish - o'smirlarni muammolarni tahlil qilish, savol berish, turli fikrlarni solishtirish va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatlari bilan ta'minlash. Bu ularga manipulyatsiyadan himoyalanish uchun zarur psixologik asos yaratadi.

Emotsional intellektni oshirish - o'z his-tuyg'ularini anglash va boshqarish, boshqalarning tuyg'ularini tushunish qobiliyatini rivojlantirish. Emotsional barqarorlik manipulyatsion ta'sirlarga nisbatan chidamlilikni kuchaytiradi.

Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish-o'smirlarni ijtimoiy bosim va guruh ta'sirini tan olish, unga qarshi turish va o'z qarorlarini mustaqil qabul qilishga o'rgatish.

Raqamli texnologiyalarni oqilona qo'llashni o'rgatish - internet va ijtimoiy tarmoqlardan xavfsiz foydalanish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, vaqtni samarali boshqarish bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish.

Psixologik yordam va maslahat xizmatlarini tashkil etish-o'smirlar uchun ishonchli psixologlar va maslahatchilarni taqdim etish, raqamli manipulyatsiya natijasida yuzaga kelgan stress yoki zo'riqishlarni bartaraf etish.

Oila va maktab muhitida qo'llab-quvvatlash - oila a'zolari va o'qituvchilar o'smirlarni raqamli xavflardan himoya qilish, ular bilan ochiq muloqot qilish va axborot-psixologik barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Ijodkorlik va mustaqil fikrlashni rag'batlantirish-o'smirlarni yangi g'oyalar yaratishga, muammolarni hal qilishga va o'z fikrlarini erkin ifoda etishga undash. Bu ularning psixologik mustaqilligini oshiradi.

Axborot-psixologik ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish - ta'lim muassasalarida axborot xavfsizligi, raqamli savodxonlik va psixologik barqarorlik mavzularini o'z ichiga olgan maxsus kurslar yaratish.

Psixologik ko'mak metodlari

1. **Konsultatsiya (individual va guruh shaklida).** O‘smirlarga shaxsiy muammolarini, raqamli manipulyatsiyadan kelib chiqadigan stress va zo‘riqishni aniqlash, tushunish va bartaraf etishda psixolog bilan suhbatlashish imkoniyatini yaratish. Guruh konsultatsiyalari orqali esa yoshlar o‘zaro tajriba almashishi, qo‘llab-quvvatlash muhitini shakllantirishlari mumkin.
2. **Psixologik treninglar va seminarlar.**Raqamli savodxonlik, stressni boshqarish, emotsional barqarorlik, kritik fikrlashni rivojlantirish kabi mavzularda maxsus treninglar o‘tkazish. Bu metod o‘smirlarning psixologik barqarorligini mustahkamlashga yordam beradi.
3. **Rahatlantirish va stressni kamaytirish texnikalari.**Nafas olish mashqlari, meditatsiya, progressiv mushaklar relaksatsiyasi kabi usullarni o‘rgatish. Bu metodlar o‘smirlarning zo‘riqish holatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.
4. **Kognitiv-xulq-atvor terapiyasi (KHT).**O‘smirlarning noto‘g‘ri fikr va qarashlarini aniqlash, ularni konstruktiv fikrlash bilan almashtirishga yordam beruvchi terapiya. Bu usul raqamli manipulyatsiya ta’sirida yuzaga keladigan salbiy fikrlarni kamaytirishda samarali.
5. **Psixodrama va ro‘l o‘ynash metodlari.**O‘smirlarni turli vaziyatlarda o‘zini qanday tutishni amaliy ravishda o‘rganishlari uchun imkon yaratadi. Bu metod ularning manipulyativ holatlarga qarshi reaktsiyasini mustahkamlashga yordam beradi.
6. **Oila psixologiyasi yordamida qo‘llab-quvvatlash.**Oila a’zolari bilan psixologik sessiyalar o‘tkazish, oila ichidagi muloqotni yaxshilash va o‘smirlarni raqamli muhitdagi xavflardan himoya qilishda birgalikda ishlash.
7. **Raqamli detox va vaqtni boshqarish bo‘yicha maslahatlar.**O‘smirlarga internet va ijtimoiy tarmoqlarda vaqtni oqilona taqsimlash, raqamli detoks qilish usullarini o‘rgatish orqali ruhiy salomatlikni saqlash.
8. **Muammoga yo‘naltirilgan psixoterapiya.**Agar o‘smir raqamli manipulyatsiya natijasida chuqur psixologik muammolar bilan yuzlashsa, individual psixoterapiya sessiyalari orqali ularni bartaraf etish.

Zamonaviy raqamli muhitda o‘smirlar tobora ko‘proq turli axborot ta’sirlari va manipulyatsion xavflarga duch kelmoqdalar. Ularning psixologik jihatdan shakllanish davrida bo‘lishi, emotsional va ijtimoiy jihatdan ta’sirchanligi raqamli manipulyatsiyaga nisbatan ularni ayniqsa zaif guruhga aylantiradi. Shu bois, o‘smirlarni bu xavflardan himoya qilish jamiyat, ta’lim tizimi, oila va mutaxassislar zimmasiga muhim mas’uliyat yuklaydi. Yuqorida ta’kidlanganidek, o‘smirlarni raqamli manipulyatsiyadan samarali himoya qilish uchun ularda axborot-psixologik barqarorlikni shakllantirish muhimdir. Bu esa, o‘z navbatida, tanqidiy fikrlash, emotsional intellekt, axborot savodxonligi, raqamli xavfsizlik ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, psixologik yordam, oila va maktab muhitining qo‘llab-quvvatlashi, maxsus treninglar va profilaktik ishlar bu barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Tadqiqot raqamli makondagi xavf-xatarlar fonida o‘smirlarning ruhiy barqarorligini ta’minlash zaruratini asoslaydi.

Zero, axborot-psixologik barqarorlikni shakllantirish orqali yosh avlodni nafaqat manipulyativ ta'sirlardan himoya qilish, balki ularning sog'lom, mustaqil fikrlovchi va axborotga nisbatan mas'uliyatli shaxslar sifatida kamol topishlariga zamin yaratish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Опарин Д.А. Информационно-психологические угрозы безопасности России // Вестник аналитики. 2001.-№4.-С.95-113.
2. Полат Е. С. Метод проектов на уроках иностранного языка // Иностранные языки в школе. – 2000. – № 4. – С. 3–10.
3. Савенков, А. И. Индоктринация личности / А. И. Савенков // Развитие личности. 2006. -№ 1. - С. 53-61 ; № 2. - С. 46-60.
4. Суслов.В.И. Скандинавия и Сибирь: потенциал и реалии // Совет директоров Сибири. – 2020. – № 4-5. – С. 18-19.
5. Yokoyama, O.T. Disbelief, Lies, and Manipulations in a Transactional Discourse Model / O.T. Yokoyama // Argumentation. 2009. – №2. – P.133–151.
6. Каримова В. Ижтимоий психология асослари. Ўқув қўлланма – Тошкент: "Ўқитувчи", 1994 – 96 б.

UDK 37.091.12:37.014.6

Umarov Baxodir Aripovich,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutining hududlarda uzluksiz kasbiy rivojlantirishni muvofiqlashtirish bo‘limi mustaqil tadqiqotchisi

PEDAGOGLAR MALAKASINI OSHIRISH – TA’LIM SIFATI GAROVIDIR

Annotatsiya. Maqolada, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, aniq va tabiiy fanlar bo‘yicha faoliyat yurituvchi pedagoglarni kaskad usuli asosida malakasini oshirish, maktab direktorlari tomonidan boshqaruv tizimini yaxshilash hamda xalqaro tajribalar asosida tabiiy fanlar (Science) va matematika fani bo‘yicha o‘quvchilarning bilimlarini sun’iy intellektga asoslangan raqamli ta’lim platformasi orqali baholash hamda muallif tomonidan amaliy va nazariy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: Kasbiy rivojlanish kuni, Kasbiy rivojlanish soati, mentor-o‘qituvchilar, ishtirokchilar, master-trenerlar, tayanch maktablar, elektron qaydnoma, ekspertlar guruhi, koordinator, yetakchi o‘qituvchi.

ПОВЫШЕНИЕ КВАЛИФИКАЦИИ ПЕДАГОГОВ – ЗАЛОГ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы вывода качества образования в общеобразовательных школах на новый уровень, повышения квалификации учителей, работающих по точным и естественным наукам на основе каскадного метода, совершенствования системы управления со стороны директоров школ, оценки знаний учащихся по естественным наукам (ЕН) и математике на основе международного опыта посредством цифровой образовательной платформы на основе искусственного интеллекта, выдвигаются практические и теоретические предложения.

Ключевые слова. повышения квалификации, час профессионального развития, преподаватели-наставники, мастера-тренеры, участники, базовые школы, электронный реестр, экспертная группа, координатор, ведущий преподаватель.

PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF TEACHERS AS A KEY TO ENSURING QUALITY EDUCATION

Abstract. The article discusses the issues of bringing the quality of education in comprehensive schools to a new level, improving the qualifications of teachers

working in exact and natural sciences based on the cascade method, improving the management system on the part of school principals, assessing students' knowledge in natural sciences (NS) and mathematics based on international experience through a digital educational platform based on artificial intelligence, and puts forward practical and theoretical proposals.

Key words. professional development day, professional development hour, teacher mentors, participants, master trainers, basic schools, electronic register, lead teacher.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, yoshlarning jahon andozalariga mos sharoitlarda zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashi uchun barcha kuch hamda imkoniyatlar safarbar etilmoqda.

Albatta, boshlangan islohotlar negizida yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz bosh hujjat sifatida muhim o‘rin tutadi. Xalqimiz xohish-irodasi ifodasi sifatida kuchga kirgan Qomusimizda yoshlar va ta’lim masalalari bilan bog‘liq normalar yanada mustahkamlandi. O‘qituvchi maqomi alohida belgilanib, ta’lim tizimini rivojlantirish davlatning asosiy vazifalari qatoriga kiritildi.

Bu harakatlarning ijobiy natijasiga ko‘ra, o‘tgan qisqa davr mobaynida maktab ta’limi katta o‘zgarishlarga yuz tutdi. “**Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi”** degan ezgu g‘oya asosida maktab ta’limini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylandi.

Agarda so‘nggi yillarni sarhisob qiladigan bo‘lsak, ta’lim sohasini rivojlantirish orqali ta’lim sifatini oshirish yo‘nalishidagi islohotlar bugunga kelib, o‘zining ijobiy natijalarini bera boshladi desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz. O‘zbekistonda bugungi kunda faoliyat ko‘rsatayotgan 37 mingdan ortiq bolalar bog‘chasi, 10 mingdan ortiq maktab bor bo‘lib, yangilari qurilmoqda .

Ma’lumki, respublika byudjetidan ta’lim sohasiga ajratilayotgan mablag‘lar yildan yilga oshib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil uchun Davlat byudjeti to‘g‘risida **2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1011-sonli** qonuniga ko‘ra mamlakatdagi umumiy ta’lim tizimi uchun **195 trillion 763 milliard so‘mdan** ortiq mablag‘ ajratilishi belgilangan.

Bundan ko‘rinib turibdiki, mablag‘lar ichida ta’lim sohasiga katta e’tibor qaratilgan bo‘lib, 2025-yil byudjeti loyihasiga ko‘ra ta’lim sohasiga ajratilgan mablag‘ miqdori va asosiy yo‘nalishlari quyidagicha:

-maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga 59,5 trillion so‘m;

-oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga 6,6 trillion so‘m.

Maktabgacha va maktab ta’limiga ajratilgan mablag‘lar quyidagi yo‘nalishlarda ishlatilishi rejalashtirilgan:

-rivojlantirish dasturlariga 6 trillion 631 milliard 679 million so‘m;

-darsliklarni yangilash uchun 1 trillion 300 milliard so‘m;

-ta'lim sohasidagi islohotlarga ko'maklashish jamg'armasini shakllantirish uchun 250 milliard so'm;

-vazirlik jamg'armasini shakllantirish uchun 120 milliard so'm;

-kompyuter sinflarini yangilash uchun 200 milliard so'm;

-sport jihozlari bilan ta'minlash uchun 62 milliard 79 million so'm;

-xorijiy o'qituvchilarni jalb qilish uchun 250 milliard so'm;

-milliy cholg'u asboblari bilan ta'minlash uchun 50 milliard so'm;

-maktablarga planshetlar xarid qilish uchun 50 milliard so'm;

-kambag'al oilalar reestridagi bolalar uchun to'garaklar tashkil qilish uchun 500 milliard so'm;

-davlat-xususiy sheriklik asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlariga subsidiyalar 3 trillion 809 milliard 600 million so'm;

-kapital qo'yilmalar, shu jumladan loyihalashtirish va qurilish ishlari uchun 4 trillion 10 milliard so'm.

Respublika byudjetidan 2024-yilda ta'lim sohasiga ajratilgan mablag'lar quyidagicha:

-Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi - 46 trillion 647 milliard 414,5 million so'm;

-Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi - 6 trillion 130 milliard 330 million so'm.

Taqqoslaganda, 2025-yilda ta'lim sohasiga ajratilgan mablag'lar 11 trillion so'mdan ortiq oshirilgan bo'lib, bu ta'lim tizimini yanada rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Ma'lumki, 2024-yilda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga 47 trln so'mga yaqin mablag' ajratilgan. Bunda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi davlat byudjetidan mablag'ajratilishi bo'yicha boshqa vazirlik va idoralar orasida ikkinchi o'rinni egallagan (birinchi o'rinda Iqtisodiyot va moliya vazirligi - 92 trln).

Alohida ta'kidlash joizki, davlat rahbari boshchiligida ta'lim sohasida bo'layotgan **islohotlardan kutilayotgan asosiy maqsad ta'lim sifatini ko'tarish** bo'lib qolmoqda.

Prezidentimizning 2024-yil 21-iyundagi "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-231-sonli qaroriga asosan Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi samaradorligini ta'minlash, ularning kasbiy bilim, ko'nikma va mahoratini muntazam oshirib borish, Prezident maktablarida to'plangan ilg'or tajribalarni umumiy o'rta ta'lim muassasalariga keng tatbiq etish vazifalari belgilandi.

Davlatimiz rahbari 30-sentabr kuni Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutiga tashrif buyurib, yangilangan sharoitlar bilan tanishdilar[1].

Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti hamda uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda pedagogik mahorat markazlari prezidentning 2024-yil iyun oyidagi qarori bilan Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti negizida tashkil etilgandi[2].

Mavjud majmua, kapital ta’mirlanib, yana ikkita qo‘shimcha bino qurildi va zamonaviy jihozlandi. STEAM laboratoriyasi, inklyuziv ta’lim hamda psixolog xonalari, media studiyasi va muzey tashkil etilgan. Tinglovchilar o‘rni ham, yo‘nalishlari ham ko‘paydi.

Muassasada malaka oshirish va qayta tayyorlashning an’anaviy, muqobil hamda dual shakllari, shu jumladan, sun’iy intellekt texnologiyalari asosida o‘qitish joriy etilgan.

Situatsion o‘quv xonasi Qoraqalpog‘iston va viloyatlardagi pedagogik mahorat markazlari bilan videoaloqa orqali ulangan. Uzluksiz kasbiy ta’lim, menejerlik o‘quv kurslari, pedagoglarni attestatsiyadan o‘tkazish hamda malaka toifasini berish, maktabgacha va maktab ta’limini boshqarish kabi dasturiy platformalar joriy etilgan. Bu hududlardagi direktor va o‘qituvchilarni yangi pedagogik texnologiya va uslublarga tezkor o‘qitish imkonini beradi.

Institut o‘quv dasturida direktorlarning boshqaruv mahoratiga ham e’tibor qaratilgan, ular uchun maktab yaratilgan. Inklyuziv ta’lim va psixolog xonalarida shu yo‘nalishda ishlaydigan defektolog va tarbiyachilar malakasi oshiriladi. Media studiyasida videodarslar tasvirga olinadi. Institutda konferensiya zali, kompyuter va seminar xonalari, oshxona bor.

Institutda o‘qish soatlari ko‘paytirildi, yotoqxona ta’mirlandi, o‘rinlar soni ko‘paytirildi. Prezident ushbu xonalarda bo‘lib, yangi qulaylik va imkoniyatlar bilan tanishdi.

“Bu institut kutib o‘tiruvchi emas, targ‘ibotchi, yetakchi bo‘lishi kerak. Hududlardagi o‘qituvchi va direktorlarni ko‘proq taklif etib, barcha maktablarda sifatni oshirish zarur. Yangi zamon kishisi, kelajagimiz bunyodkorlari maktabda tarbiyalanadi.

Prezidentimiz o‘qituvchilar va murabbiylarni xorijda tayyorlash, ularning malakasini jahon tajribasi bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

Yilning o‘tgan davrida ushbu institutda 4 ming 300 nafarga yaqin ta’lim muassasalari rahbarlari malaka oshirdi. Shuningdek, 2 ming nafarga yaqin direktor va direktorlikka nomzodlar menejerlik kurslarida o‘qitildi. “Uzluksiz kasbiy ta’lim” platformasi orqali darslarda 113 ming nafardan ortiq pedagoglar qatnashdi.
Singapur xalqaro ta’lim tashkiloti tomonidan 100 nafar maktab direktori, 200 nafar matematika va tabiiy fanlar o‘qituvchisi qayta tayyorlandi. Institut tuzilmasida Xalqaro tadqiqotlar markazi ham ish boshladi.

Rejaga ko‘ra, 2025-yildan professor-o‘qituvchilar har besh yilda bir marta ishdan ajralgan holda malaka oshiradi. Bundan tashqari, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Kasbiy rivojlanish soati” hamda “Kasbiy rivojlanish kuni” joriy

etiladi. Prezident maktablarida to‘plangan ilg‘or tajribalarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi orqali maktablarda qo‘llash kutilmoqda [1]. Yangi O‘zbekiston hayotining barcha sohalari kabi bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta’lim tizimida ham keng ko‘lamli chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda.

Albatta, ta’lim sohasida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar negizida yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz bosh hujjat sifatida muhim o‘rin tutadi. Xalqimiz xohish-irodasi ifodasi sifatida kuchga kirgan bosh Qomusimizda yoshlar hamda ta’lim masalalari bilan bog‘liq normalar yanada mustahkamlandi.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida shaxsning komil inson bo‘lib yetishishi uchun zarur bo‘lgan ta’lim-tarbiyaning barcha jarayonlari hamda bosqichlarini qamrab olgan. Unda ilk marotaba uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojini ta’minlash davlatning vazifalari qatoridan joy oldi.

Bosh Qomusimizda belgilangan normalarga ko‘ra, endilikda davlat nafaqat umumiy o‘rta ta’limni, balki boshlang‘ich professional ta’lim olishni ham bepul bo‘lishini kafolatlaydi.

Har kim ta’lim olish huquqiga egaligi, davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat hamda nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlashi, maktabgacha ta’lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishi mustahkamlandiki, pirovardida bularning barchasi ta’lim sifatini yanada oshirishga xizmat qilishi belgilab qo‘yildi**.**

Ilk bor o‘qituvchi maqomi alohida belgilanib, ta’lim tizimini rivojlantirish davlatning vazifasi qatoriga kiritildi. “O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma’naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e’tirof etiladi. Davlat o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi”-deb, belgilab qo‘yildi.

Fikrimizcha, zamonaviy yondashuv bilan ishlangan Prezidentimizning 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” **PQ-231-sonli qarori** qabul qilindi.

Qarorda, maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi samaradorligini ta’minlash, ularning kasbiy bilim, ko‘nikma va mahoratini muntazam oshirib borish, Prezident maktablarida to‘plangan ilg‘or tajribalarni umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga keng tatbiq etish vazifalari belgilangan.

Ma’lumki, maktablarda ta’lim sifatini oshirish har tomonlama yondashishni talab qiluvchi masaladir. Asosiy yo‘nalishlarga kadrlar salohiyatini oshirish, o‘quv-uslubiy ta’minotni takomillashtirish, o‘quv jarayonini optimallashtirish va innovatsion faoliyatni kuchaytirish kiradi.

Shuningdek, Abdulla Avloniy nomidagi institut pedagoglarda kasb mahoratini oshirishga mas'ul bo'lishi, institutning 12 ta hududiy markazlarini zamonaviy qiyofaga keltirish va jihozlash uchun 3 yilda byudjetdan har yili 50 milliard so'm ajratilishi, malaka oshirishda vazirlik – malaka oshirish markazi – maktab va bog'chani bog'laydigan vertikal tizim yo'lga qo'yildi.

Bundan tashqari, joylarda 1 ming 300 ta tayanch maktab va 200 ta bog'cha tanlab olinib, yosh pedagoglar uchun "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tashkil etilishi, buning uchun mentor o'qituvchilar ish haqqiga 20 foiz ustama qo'shilishi; ta'limda sifat va raqobatni ta'minlash uchun raqamlashtirish darajasi oshirilishi tufayli o'tgan 5 yilda 13 ming 500 tadan ortiq kompyuter sinf xonalari 200 mingta zamonaviy kompyuter bilan ta'minlandi. Kelgusi yil 2 mingdan kompyuter sinflari yangilanadi, bunga byudjetdan 400 milliard so'm berilishi belgilandi.

O'z navbatida, maktablarda sifatni oshirish bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy xulosalar va tadqiqotlar borasida izlanishlarini ko'rib o'tamiz. Muallif V.P.Borisenkov "Zamonaviy Rossiyada maktab ta'limi sifatini oshirish" nomli maqola orqali rus ta'limini isloh qilish va modernizatsiya qilish Yagona davlat imtihoniga o'xshash shubhali qarzlar va innovatsiyalar bilan emas, balki o'qituvchidan boshlanishi kerak. Mahalliy ta'limning va umuman mamlakatning harakat vektori ko'p jihatdan o'qituvchilarning malakasi va tayyorgarlik darajasiga bog'liq. Bu bizga ta'lim sohasidagi jahon yetakchilarining tajribasi shuni o'rgatishini ta'kidlagan.

Shuningdek Rossiya Federatsiyasi, Xakasiya Respublikasining Abaza shahridagi, 50-sonli boshlang'ich maktab o'qituvchilari Zherixova Larisa Semenovna, Lyashkova Lyudmila Timofeevna, Petrova Elena Anatolyevna fikrlariga ko'ra, "Boshlang'ich sinflarda ta'lim sifatini oshirish yo'llari" nomli maqola orqali ta'lim sifatini oshirish Rossiya ta'limini modernizatsiya qilish konsepsiyasi tomonidan e'lon qilingan asosiy vazifalardan biridir. Maktab o'quvchilarini o'qitish va tarbiyalashni o'z ichiga olgan ta'lim sifati bu – bilim, ko'nikma va malakalar ko'rsatkichlari tizimi, shuningdek, dunyoga va bir-biriga bo'lgan qadriyat-emotsional munosabatlar me'yorlaridir.

Bu yondashuv yakuniy natijalar asosida maktab faoliyatini baholashga qaratilgan bo'lib, ular orasida maktab samaradorligining quyidagi asosiy ko'rsatkichlarini ajratib ko'rsatish kerak: o'quvchilarning bilim darajasi, ularning ta'limni davom ettirishga tayyorligi, talabalarning tarbiya darajasi, bolalar salomatligi, bitiruvchilarning jamiyat hayotiga ijtimoiy moslashuv darajasi , ta'lim standartlarini bajarish darajasi. Tadqiqotlarni davom ettirgan holda maktab ta'limi sifatini oshirishga asos bo'lib xizmat qiluvchi indikatorlar tizimi va huquqiy asoslarini tadqiq etishga harakat qilamiz.

Prezidentimizning 2024-yil iyun oyidagi qaroriga qadar maktab ta'limi sohasida faoliyat ko'rsatayotgan rahbar, mutaxassis va pedagog xodimlarining

malakasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi **PQ-4963-son qaroriga** asosan oshirib kelindi.

Bunda institut tomonidan 6 ta yo‘nalishda tashkil qilingan malaka oshirish kurslarida 2023-yilda rejaga ko‘ra offlayn shaklda 6735 nafar (111,9%) umumta’lim maktab direktorlari, 197 nafar (105%) “Barkamol avlod” bolalar markazlari direktorlari, 103 nafar (117%) maxsus ta’lim muassasalari direktorlari, 61 nafar (0,5%) fan metodistlari va 195 nafar (46%) tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshliqlari kurslarni muvaffaqiyatli tamomlagan *(bu 2022-yilga nisbatan 5669 nafar ko‘p)*.

Shuningdek, rahbar va mutaxassis xodimlarning 1153 nafari, shu jumladan, 776 nafar rahbar xodimlar, 377 nafar mutaxassislar “Uzluksiz kasbiy ta’lim” elektron platformasida ishlab chiqarishdan ajralmagan holda mustaqil tarzda malaka oshirgan.

“Uzluksiz kasbiy ta’lim” elektron platformasi orqali 489238 nafari rahbar va xodimlar (Pedagogika markazlarida 246521 nafar, “Uzluksiz kasbiy ta’lim” elektron platformasi orqali 241309 nafar, malaka oshirishga ixtisoslashtirilgan oliy va nodavlat ta’lim muassasalarida 1408 nafar) kurslarni muvaffaqiyatli tamomlagan.

2024-yilgi malaka oshirishning yanvar-iyun oylari rejasiga binoan, jami 3459 nafar tinglovchilar o‘rniga 3629 nafar (105%) umumiy o‘rta ta’lim maktab rahbarlarining malakasi oshirildi. Uzrli sabablarsiz 6 soatdan ortiq dars qoldirgan 280 nafar tinglovchilar chetlashtirildi. Bundan tashqari, 7 nafar nodavlat ta’lim tashkilotlari rahbarlari shartnoma asosida malaka oshirdi.

Shuningdek, 2024-yilda 488830 nafar maktab ta’limi xodimlari uchun uzluksiz kasbiy rivojlantirish (malaka oshirish) kurslari rejalashtirilgan bo‘lib, shundan, Pedagogika markazlariga 291145 nafar, “Uzluksiz kasbiy ta’lim” maxsus elektron platformasi orqali 75099 nafar, malaka oshirishga ixtisoslashtirilgan oliy va nodavlat ta’lim muassasalariga 122586 nafar jalb etildi.

Masofaviy malaka oshirish tizimining kamchiliklari haqida tahliliy va tanqidiy yondashuvda fikr yuritsak, quyidagi asosiy nuqsonlar va muammolarni keltirish mumkin: masofaviy malaka oshirish tizimining kamchiligi ayrim o‘qituvchilar onlayn platformaga joylashtirilgan videodarslarni ko‘rishga ham toqat qilmay, malaka oshirish sertifikatlarini pulga sotib ola boshladi. Nukus shahridagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi Olga Piskunova fikriga ko‘ra hozirgi kunda O‘zbekiston umumta’lim maktablarida ta’lim sifatiga bir necha asosiy omil (muammo) salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bular:

-darsliklar, uslubiy adabiyotlar, masalan, boshlang‘ich sinf darsliklari umuman talabga javob bermaydi;

-o‘qituvchilarning professional darajasi pastligi (Respublika o‘qituvchilar malakasini oshirish institutida malaka oshirish ijobiy natija bermayapti);

-internet resurslaridan foydalanish imkonining deyarli yo‘qligi;

-davlat idoralarining xavfli guruhga kiradigan oilalar va bolalarni nazorat qilmasligi;

-maktablarda moddiy-texnik baza yetishmasligi;

-yangi o'qish tizimiga bosqichma-bosqich o'tilmayotgani – bu boradagi barcha ishlar me'yoriy hujjatlarni qabul qilish yoki bekor qilish bilan amalga oshirilmoqda;

-o'qituvchi faoliyati va ota-onalar majburiyatlarida aniq algoritmning yo'qligi.

2. Velosiped ixtiro qilish shart emas, rivojlangan mamlakatlarning ta'lim sohasidagi ilg'or tajribasiga murojaat qilishimiz va ayni paytda biz 1970-1990-yillarda sifatli ta'lim olganimizni unutmasligimiz kerak.

Mamlakatimizda o'rta ta'lim sifatini oshirish uchun takliflarim quyidagilardan iborat:

-barcha darsliklarni tahrir qilish zarur. Bu jarayonga malakali o'qituvchilarni jalb qilish kerak;

-barcha umumta'lim maktablarini qisqa muddatda internet resurslari bilan ta'minlash lozim. Bir necha yildan buyon bu haqda gapiriladi, lekin amalda siljish yo'q;

-o'qituvchilar oylik maoshini oshirish, ularning sifatli dam olishini ta'minlash, uy-joy, ijtimoiy imtiyozlar taqdim etish orqali ular mavqesini oshirishni davom ettirish zarur;

-maktab ta'limi vazirligi faoliyatida qat'iylik va izchillik yetishmayapti: maktab formasi goh qabul, goh bekor qilinadi; maktablar ta'miri uchun mablag' yig'ish taqiqlandi, biroq bunga pul ajratilmayapti; qog'ozbozlik rasman bekor qilingan bo'lsa-da, o'qituvchi har qanday komissiya uchun bir uyum qog'ozlarni taqdim etishi kerakligini bildirgan.

Tadqiqotda mavzuga oid adabiyotlarni tizimlashtirilgan holda, ta'lim sifatini ko'tarish me'yoriy-huquqiy jihatlarni tahlil etishda umumlashtirish, taqqoslash metodlaridan foydalaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 29-apreldagi **PF-5712-sonli Farmoni** qabul qilinganligi muhim qadam bo'ldi. Farmonga ko'ra, maktab ta'limi tizimini tubdan isloh qilish nazarda tutilgan bo'lib, istiqbolda rivojlanishni yangi bosqichga olib chiqilishini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Ta'lim sifatini oshirish bo'yicha qabul qilingan 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm – fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sonli Farmoni va "Ta'lim tarbiya tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi **PQ-4884-sonli qaroriда** xalq ta'limi tizimidagi islohotlarni yanada takomillashtirish va ilmiy jihatdan qo'llab-quvvatlash belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha va maktab ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 25-yanvardagi **PQ-4963-sonli qaroriga** muvofiq maktab ta'limi sohasida faoliyat

ko‘rsatayotgan rahbar, mutaxassis va pedagog xodimlarining malakasini oshirish belgilangan.

Bu farmonlar va qarorlar ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, o‘qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirish va ta’lim sifatini yaxshilashga qaratilgan muhim hujjatdir.

Ma’lumki, barcha davrlarda islohotlarni moliyalashtirish masalasi doimiy kun tartibida bo‘lganligi e’tiborga oladigan bo‘lsak, konsepsiyada ham moliyaviy ta’minotning muammoli masalalari quyidagi jihatlariga e’tibor qaratilgan:

- *maktab ta’limi tizimini moliyalashtirishda mablag‘larni samarali va shaffof tizim asosida taqsimlash va foydalanish talab etilmoqda;*

- *maktab ta’limi tizimiga davlat byudjetidan ajratilgan xarajatlarning asosiy qismi ish haqiga sarflanib, o‘quv jihozlari va materiallarini yangilashga, maktab binolarini ta’mirlashga yetarli mablag‘ yo‘naltirilmasdan qolmoqda.*

“Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to‘g‘ri yo‘lidir!” mavzusidagi zamonaviy darsliklar ko‘rgazmasi bilan tanishdi.

Ta’lim sifatini oshirish, bolalarni o‘qishga qiziqtirishning muhim omili, birinchi navbatda, yaxshi darslik. Davlatimiz rahbarining 2019-yil 29-apreldagi farmoni bilan tasdiqlangan Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o‘qitish metodikasini takomillashtirish vazifalari belgilangan edi. Shunga muvofiq, o‘tgan yillar davomida darsliklarni yangilash bo‘yicha ish olib borildi. Maxsus ishchi guruh tomonidan ilg‘or xorijiy metodika asosida 1-4-sinf kitoblari yangidan tayyorlandi. [7]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida tarixan qisqa davr mobaynida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, pedagog-o‘qituvchilar **kasbiy salohiyatini oshirish va ta’lim sifatini ko‘tarishda** keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan,

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28 yilligiga bag‘ishlangan bayram tabrigida Prezidentimizning **“Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi”,** degan ezgu g‘oya asosida umummilliy ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga misli ko‘rilmagan e’tibor qaratilmoqda. Ilm-fan, madaniyat va san’at, adabiyot, sport sohalarini rivojlantirish, ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, yoshlarning, ayniqsa, qizlarimizning iste’dod va qobiliyatini ro‘yobga chiqarish borasida ko‘p ishlar qilinmoqda. Bularning barchasi yurtimizda **Uchinchi Renessans** – milliy taraqqiyotimizning yangi davri poydevorini yaratishga xizmat qiladi”– deya ta’kidladi prezidentimiz..

“Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi”-degan g‘oya asosida maktab ta’limini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylandi. Pedagog-o‘qituvchilarni majburiy mehnatga jalb qilish amaliyoti bekor qilindi. Yurtimiz maktablarida ish yuklamasi maqbullashtirildi. An’anaviy yondashuvlardan voz kechilib, bosqichma-bosqich zamonaviy texnologiyalar, ilg‘or xorijiy tajribalar faol joriy etilishi munosabati bilan ta’lim tizimiga bo‘lgan yondashuv tubdan o‘zgardi.

2. **Ta'lim tizimidagi islohotlar asosini** - jamiyatda pedagog-o'qituvchilar maqomini oshirish, ularga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirish tashkil etdi. Bunda pedagog – o'qituvchilarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, yurtimizning olis hududlarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagog-o'qituvchilar uchun ustamalar joriy qilindi, uy-joylar bilan ta'minlash va yengil avtomobil xarid qilishlari uchun imtiyozli kreditlar ajratish belgilandi.

3. Pedagog-o'qituvchilarning **huquqiy maqomi ilk marotoba yangi tahrirdagi Konstitutsiyada** qat'iy belgilab qo'yildi. Unga ko'ra:

a) "O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi. Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi" (52-modda).

b) ta'lim sohasida **davlatning alohida majburiyatlari** sifatida **imkoniyati cheklangan bolalar** sifatli ta'lim olish imkoniyatlari kengaytirishga qaratilgan mexanizmlar belgilandi. Ta'lim muassasalarida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun **inklyuziv ta'lim ta'minlanishi** to'g'risida ijtimoiy norma kiritildi (50-modda).

4. O'zbekiston Respublikasining "**Ta'lim to'g'risida**"gi Qonuni yangi tahrirda qabul qilindi. Qonunning 15-moddasiga muvofiq, **"Dual ta'lim"** ta'lim olish shakllaridan biri sifatida kiritildi. Qonunga dual ta'lim bo'yicha alohida 17-modda kiritilib, dual ta'limni tashkil etish tartibi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi qarori bilan Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida Nizom tasdiqlandi. **Tizimni joriy etishdan ko'zlangan maqsad** iqtisodiyotning barcha sohalarida malakali va zamonaviy kasbiy ko'nikmalarga ega o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash hamda yoshlarning kasblar va mutaxassisliklarni egallashga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash uchun keng imkoniyatlar yaratishdan iborat. 2022-2023-o'quv yilida professional ta'lim muassasalariga 4,5 mingdan ortiq yoshlar dual ta'lim shaklida o'qishga qabul qilindi hamda axborot texnologiyalari, yengil sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish kabi sohalarda ham dual ta'lim shaklida kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021-yillarda mamlakatni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi, «Raqamli O'zbekiston – 2030» strategiyasi, "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi", "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi", "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" to'g'risida normativ-huquqiy hujjatlar qabuli qilindi. Normativ-huquqiy hujjatlar yoshlar salohiyatini oshirish, ularni har

tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning ta’lim-tarbiyasi uchun munosib shart-sharoitlarni yaratish uchun aniq vazifalar belgilandi.

6. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar markazida **“Inson qadri”** tamoyili Konstitutsiyada, qonunlarimizda va davlat idoralari faoliyatida bosh mezon bo‘lishi shartligi Davlat rahbarining qat’iy asosiy talabidir. **“Inson qadri” tamoyili,** avvalo, har bir fuqaro tinch va xavfsiz hayot kechirishi, fundamental huquq va erkinligini ta’minlash, shuningdek, munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish, **sifatli ta’lim,** ijtimoiy himoya tizimi, sog‘lom ekologik muhit yaratib berish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Bosh Qomusimizda inson qadri, manfaati uchun xizmat qiladigan normalar 3 baravarga ko‘paydi. Mamlakatimizda **inson kapitali – har qanday modernizatsiya va iqtisodiy muvaffaqiyatning** eng muhim poydevoridir**.**

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 20-dekabrida Oliy Majlis Senati va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasida **“Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekistonni rivojlantirishning yagona to‘g‘ri yo‘li”** deb, 2023-yilni **“Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”** deb e’lon qilgan edi.

Bugun biz misli ko‘rilmagan islohotlar, har bir soha va tarmoqlarda yangilanishlar yuz berayotgan tarixiy bir davrda yashayapmiz. Sifatli ta’lim — mamlakat taraqqiyotini belgilab beruvchi eng samarali va qisqa yo‘ldir.

Foydalanilgan resurslar:

1. https://www.gazeta.uz/oz/2024/09/30/avloni-institute/
2. https://daryo.uz/k/2024/09/30/shavkat-mirziyoyev-abdulla-avloniy-nomidagi-pedagogik-mahorat-milliy-institutida-boldi
3. https://sevcbs.ru/main/wp-content/uploads/2016/02/statya-k-zhurnalu-Pedagogika-201510.pdf
4. https://nsportal.ru/nachalnaya-shkola/raznoe/2023/10/11/statya-puti-povysheniya-kachestva-obrazovaniya-v-nachalnoy
5. https://www.uzanalytics.com/jamiyat/5110/
6. https://www.uzanalytics.com/jamiyat/5110/
7. https://fledu.uz/language/ru/povyshenie-kachestva-obrazovaniya-edinstvenno-pravilnyy-put-razvitiya-novogo-uzbekistana/

UDK 159.922.4:159

Jumabayeva Dildora Madaminovna,
Urganch innovatsion universiteti psixologi

KOMMUNIKATIV KO'NIKMALAR VA UNING ILMIY PSIXOLOGIK MANBALARDA YORITILISHI

Annotatsiya. Ushbu maqola kommunikativ ko'nikmalarning psixologik jihatlari va ularning ilmiy adabiyotlarda qanday yoritilganligini tahlil qiladi. Tadqiqot O'zbekiston, Rossiya va xorijiy psixologik manbalarning tahlili orqali kommunikativ ko'nikmalarning nazariy asoslari, rivojlanish bosqichlari va amaliy ahamiyati ko'rib chiqilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, kommunikativ ko'nikmalar zamonaviy psixologiyada kompleks kognitiv-ijtimoiy jarayon sifatida e'tirof etilgan va uning shaklllanishida bir necha omillar ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: kommunikativ ko'nikmalar, psixologik tadqiqotlar, nutqiy faoliyat, ijtimoiy psixologiya, shaxslararo muloqot, kognitiv jarayonlar.

КОММУНИКАТИВНЫЕ НАВЫКИ И ИХ ОСВЕЩЕНИЕ В НАУЧНЫХ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКАХ

Аннотация. В этой статье анализируются психологические аспекты коммуникативных навыков и то, как они освещаются в научной литературе. В исследовании рассмотрены теоретические основы, этапы развития и практическое значение коммуникативных навыков посредством анализа узбекских, российских и зарубежных психологических источников. Результаты показывают, что коммуникативные навыки признаны в современной психологии сложным познавательно-социальным процессом, и на их формирование влияет несколько факторов.

Ключевые слова: коммуникативные навыки, психологические исследования, речевая деятельность, социальная психология, межличностное общение, познавательные процессы.

COMMUNICATIVE SKILLS AND ITS COVERAGE IN SCIENTIFIC PSYCHOLOGICAL SOURCES

Abstract. This article analyzes the psychological aspects of communicative skills and how they are covered in the scientific literature. The study examined the theoretical foundations, stages of development and practical significance of communicative skills through the analysis of psychological resources of Uzbekistan, Russia and foreign countries. The results show that communicative skills are

recognized in modern psychology as a complex cognitive-social process, and several factors influence its formation.

Keywords: communicative skills, psychological research, speech activity, social psychology, interpersonal communication, cognitive processes

Kommunikativ ko‘nikmalar zamonaviy psixologiya fanida markaziy o‘rinni egallaydi va inson hayotining barcha sohalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu ko‘nikmalar shaxsning ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi, boshqalar bilan samarali muloqot qilishi va professional rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Psixologik tadqiqotlarda kommunikativ ko‘nikmalarning mohiyati, shaklllanish mexanizmlari va rivojlanish qonuniyatlari to‘g‘risida turli xil nazariy yondashuvlar mavjud bo‘lib, ularning har biri muammoning ma'lum jihatlarini ochib beradi.

Kommunikativ ko‘nikmalarning ilmiy-psixologik jihatlarini o‘rganish zarurati bir necha omil bilan belgilanadi. Birinchidan, globallashuv sharoitida turli madaniyatlar vakillari o‘rtasidagi muloqot intensivligi ortib bormoqda, bu esa samarali kommunikativ strategiyalarni ishlab chiqishni talab qiladi. Ikkinchidan, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi muloqot shakllarini tubdan o‘zgartirmoqda va yangi kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Uchinchidan, ta'lim va professional faoliyat sohalarida kommunikativ kompetentlikning ahamiyati kundan-kunga oshib bormoqda.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi shundaki, kommunikativ ko‘nikmalarning psixologik asoslarini chuqur tushunish orqali ularni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish mumkin. Maqolaning maqsadi kommunikativ ko‘nikmalarning psixologik manbalarda qanday yoritilganligini tahlil qilish va ushbu sohada mavjud nazariy yondashuvlarni sistemalashtirish hisoblanadi. Tadqiqot vazifalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: kommunikativ ko‘nikmalarning nazariy asoslarini aniqlash, turli psixologik maktablarning ushbu masalaga yondashuvlarini taqqoslash va zamonaviy tadqiqotlar natijalarini umumlashtirish.

Ushbu tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, kommunikativ ko‘nikmalar bo‘yicha mavjud ilmiy manbalarning muntazam tahlili metodologiyasi asosida amalga oshirilgan. Tadqiqot jarayonida O‘zbekiston, Rossiya va xorijiy psixologik adabiyotlarning keng doirasi o‘rganilgan. Manbalarni tanlashda ularning ilmiy ishonchliligi, nazariy ahamiyati va amaliy qo‘llanilishi mezonlari hisobga olingan.

Adabiyotlar tahlili natijasida ma'lum bo‘ldiki, kommunikativ ko‘nikmalar muammosi psixologiyaning turli yo‘nalishlarida keng o‘rganilgan. G‘aniev va Rahmonova [1, B.45] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kommunikativ ko‘nikmalarning kognitiv komponentlari batafsil tahlil qilingan. Mualliflar shuni ta'kidlaydiki, kommunikativ jarayonning samaradorligi birinchi navbatda shaxsning intellektual qobiliyatlari, nutqiy aparatining rivojlanganligi va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq. Ularning fikricha, kommunikativ ko‘nikmalar murakkab

kognitiv tuzilma bo‘lib, uning tarkibiga til bilishi, pragmatik kompetentlik, ijtimoiy sezgirlik va emotsional intellekt kiradi [1, B.52].

Xolmuradov [2, B.170] o‘z tadqiqotlarida kommunikativ ko‘nikmalarning ontogenetik rivojlanishini o‘rganib, ularning shakllanishida ijtimoiy muhit va ta'lim jarayonining hal qiluvchi ahamiyatga egaligini isbotlagan. Muallif kommunikativ faoliyatning turli bosqichlarini ajratib ko‘rsatgan: boshlang‘ich (imitatsiya), rivojlanish (differensiatsiya) va kamolot (integratsiya) bosqichlari. Har bir bosqichda ma'lum psixologik mexanizmlar faollashadi va kommunikativ repertuar kengayib boradi [2, B.185].

Qosimova va Toshmatova [3, B.78] kommunikativ ko‘nikmalarning shaxsiy xususiyatlar bilan bog‘liqligini tadqiq etganlar. Ularning natijalariga ko‘ra, ekstroversiya, ochiqlik, hamjihatlik kabi shaxsiy fazilatlar kommunikativ samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Biroq, mualliflar introvert shaxslarda ham yuqori kommunikativ kompetentlikka erishish mumkinligini, bunda faqat strategiya va usullar farqlanishini qayd etganlar [3, B.92].

Nosirova [4, B.134] kommunikativ ko‘nikmalarning professional faoliyatdagi rolini o‘rganib, ularning kasbiy muvaffaqiyat bilan qat'iy bog‘liqligini aniqlagan. Uning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, komunikativ kompetentlikning yuqori darajasi ishchilarning samaradorligini 30-40% ga oshiradi va karyera o‘sishida muhim omil hisoblanadi [4, B.147].

Rahmatullayev [5, B.203] kommunikativ ko‘nikmalarning madaniy kontekstdagi xususiyatlarini tahlil qilib, O‘zbek madaniyatiga xos kommunikativ norms va qadiriyatlarni ajratib ko‘rsatgan. Muallif O‘zbek muloqot madaniyatida hurmat, kattalarni e'zozlash, ijtimoiy ierarxiyani hisobga olish kabi printsiplarning alohida ahamiyatga egaligini ta'kidlagan [5, B.218].

Rossiya psixologiyasida Andreeva [6, S.89] kommunikativ ko‘nikmalarning ijtimoiy-psixologik tabiati haqidagi fundamental tadqiqotlar olib borgan. Uning nazariyasiga ko‘ra, kommunikativ faoliyat uch asosiy funktsiyani bajaradi: axborot almashish, o‘zaro ta'sir va persepsiya. Har bir funktsiya maxsus psixologik mexanizmlar orqali amalga oshiriladi va kommunikativ jarayonning umumiy samaradorligiga hissa qo‘shadi [6, S.156].

Petrovskiy [7, S.234] kommunikativ ko‘nikmalarning shaxs rivojlanishidagi rolini o‘rganib, ularning identifikatsiya jarayonlarida hal qiluvchi ahamiyatga egaligini isbotlagan. Muallif kommunikativ faoliyat orqali shaxsning o‘z-o‘zini anglashi, ijtimoiy rollarni o‘zlashtirishi va psixologik rivojlanishi ro‘y berishini ko‘rsatgan [7, S.267].

Bodalev [8, S.112] interpersonal idrok va kommunikativ ko‘nikmalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tadqiq etib, samarali muloqot uchun boshqalarni to‘g‘ri tushunish qobiliyatining zarurligini ta'kidlagan. Uning fikricha, kommunikativ kompetentlikning asosi empatiya va ijtimoiy intellektning rivojlanganligida yotadi [8, S.145].

Xorijiy tadqiqotlarda Argyle [9, P.78] kommunikativ ko‘nikmalarning komponentlarini batafsil tahlil qilib, og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan muloqot elementlarining o‘zaro ta'sirini o‘rganган. Uning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, samarali komunikatsiyada og‘zaki bo‘lmagan signallar 55%, ovoz tonaliteti 38%, so‘zlarning o‘zi esa faqat 7% ni tashkil qiladi [9, P.134].

Knapp va Hall [10, P.156] kommunikativ ko‘nikmalarning ijtimoiy kontekstdagi o‘zgaruvchanligini o‘rganib, turli vaziyatlarda muloqot strategiyalarining moslashish mexanizmlarini tahlil qilganlar. Ularning fikricha, yuqori kommunikativ kompetentlikka ega shaxslar har xil ijtimoiy sharoitlarda o‘z xatti-harakatlarini muvaffaqiyatli moslashtirishadi [10, P.234].

Olib borilgan adabiyotlar tahlili asosida kommunikativ ko‘nikmalarning psixologik manbalarda yoritilishi bo‘yicha bir qator muhim xulosalar chiqarish mumkin. Birinchidan, turli mualliflar kommunikativ ko‘nikmalarni murakkab, ko‘p komponentli tuzilma sifatida qarashda yagona pozitsiyaga ega. Bu ko‘nikmalar kognitiv, emotsional, ijtimoiy va madaniy komponentlarni o‘z ichiga oladi va ularning har biri samarali muloqot uchun zarur hisoblanadi.

Tadqiqotlar natijasida aniqlandiki, kommunikativ ko‘nikmalarning rivojlanishi ontogenetik xarakterga ega va hayot davomida sodir bo‘ladi. Bolalikning dastlabki yoshlaridan boshlab shakllanadigan bu ko‘nikmalar ijtimoiy muhit, ta'lim tizimi va shaxsiy tajriba ta'sirida takomillashib boradi. O‘zbek psixologik manbalarida ajratib ko‘rsatilganidek, milliy madaniy kontekst kommunikativ ko‘nikmalarning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilaydi va ularning shaklllanish jarayoniga sezilarli ta'sir ko‘rsatadi.

Psixologik tadqiqotlarda kommunikativ ko‘nikmalarning professional faoliyatdagi ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Zamonaviy mehnat bozorida bu ko‘nikmalar kasbiy kompetentlikning ajralmas qismi hisoblanadi va ishchilarning samaradorligi, karyera muvaffaqiyati hamda ijtimoiy adaptatsiyasida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu ayniqsa xizmat ko‘rsatish sohasi, ta'lim, menejmnet va boshqa ijtimoiy yo‘naltirilgan kasblar uchun muhim ahamiyatga ega.

Rossiya psixologik maktabining tadqiqotlari kommunikativ ko‘nikmalarning ijtimoiy-psixologik tabiatini chuqur ochib beradi. Ushbu yondashuv bo‘yicha, kommunikativ faoliyat shaxsning ijtimoiylashish jarayonining asosiy mexanizmi hisoblanadi va psixologik rivojlanishning barcha bosqichlarida muhim funktsiyalarni bajaradi. Ayniqsa, shaxsning o‘z-o‘zini anglashi, ijtimoiy rollarni o‘zlashtirishi va interpersonal munosabatlarni yaratishda kommunikativ ko‘nikmalarning roli betakror.

Xorijiy tadqiqotlarda esa kommunikativ ko‘nikmalarning pragmatik jihatlari ko‘proq e'tiborga olinadi. G‘arbiy psixologlar asosan kommunikativ samaradorlik, xabarni yetkazish texnikalari va muloqot natijalarini baholash mezonlariga e'tibor beradilar. Bu yondashuv kommunikativ ko‘nikmalarni amaliy ko‘rinishda qo‘llash va ularning konkret natijalarini o‘lchash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Barcha tahlil qilingan manbalar kommunikativ ko‘nikmalarning kompleks tabiati to‘g‘risida yagona fikrda. Bu ko‘nikmalar nafaqat til bilishi va nutq malakalarini, balki ijtimoiy sezgirlik, empatiya, madaniy kompetentlik, emotsional intellekt va adaptatsiya qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Samarali kommunikativ turli jihatlarini o‘rganib, ularning nazariy asoslarini mustahkamlagan. O‘zbek tadqiqotlarda milliy madaniy kontekst va an'anaviy qadriyatlarning ta'siri, Rossiya psixologiyasida ijtimoiy-psixologik va rivojlanish jihatlari, xorijiy manbalarda esa pragmatik va amaliy yondashuvlar ustuvor hisoblanadi.

Uchinchidan, barcha tahlil qilingan manbalar kommunikativ ko‘nikmalarning hayot davomida rivojlanish xususiyatiga ega ekanligini tasdiqlaydi. Bu ko‘nikmalar bolalikning dastlabki yoshlaridan boshlab shakllanadi va ijtimoiy muhit, ta'lim jarayoni, shaxsiy tajriba va madaniy omillar ta'sirida takomillashib boradi.

To‘rtinchidan, kommunikativ ko‘nikmalarning professional faoliyat, shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy adaptatsiyada hal qiluvchi roli ilmiy tadqiqotlarda isbotlangan. Zamonaviy sharoitda bu ko‘nikmalar nafaqat ijtimoiy muvaffaqiyat, balki psixologik farovonlik va hayot sifati uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Beshinchidan, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi kommunikativ ko‘nikmalarning yangi shakllari va rivojlanish yo‘nalishlarini yuzaga keltirmoqda. Bu esa psixologlar oldida ushbu jarayonlarni o‘rganish va yangi nazariy modellar yaratish vazifalarini qo‘ymoqda.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun kommunikativ ko‘nikmalarning raqamli muhitdagi o‘zgarishlarini o‘rganish, turli madaniy kontekstlarda qiyosiy tahlil o‘tkazish va bu ko‘nikmalarni rivojlantirish bo‘yicha amaliy dasturlar ishlab chiqish istiqbolda ko‘rinmoqda. Shuningdek, kommunikativ ko‘nikmalarning boshqa psixologik xususiyatlar bilan bog‘liqligi va ularning shaxs rivojlanishidagi o‘rni yanada chuqur o‘rganishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘aniyev A.S., Rahmonova N.T. Kommunikativ faoliyatning kognitiv asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti, 2023. – 234 b.
2. Xolmuradov B.K. Kommunikativ ko‘nikmalarning ontogenetik rivojlanishi. – Toshkent: Pedagogika, 2022. – 298 b.
3. Qosimova M.A., Toshmatova D.S. Shaxsiy xususiyatlar va kommunikativ kompetentlik. – Samarqand: SamDU, 2023. – 176 b.
4. Nosirova F.R. Kommunikativ ko‘nikmalarning professional faoliyatdagi o‘rni. – Andijon: AnDU, 2022. – 203 b.
5. Rahmatullayev I.N. O‘zbek muloqot madaniyatining psixologik asoslari. – Toshkent: Fan, 2023. – 267 b.
6. Андреева Г.М. Социальная психология общения. – Москва: Аспект Пресс, 2022. – 423 с.
7. Петровский А.В. Личность в психологии общения. – Москва: Юрайт, 2023. – 356 с.

UDK 159.923.2:796.332

Abdiholiqov Beknurjon Alisher o'g'li,
Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi

O'SPIRIN FUTBOLCHILARDA JAMOAVIY O'ZIGA ISHONCHNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot o'spirin futbolchilarda jamoaviy o'ziga ishonchni shakllantirishning psixologik shart-sharoitlarini chuqur tahlil qiladi. Ma'lumki, o'spirinlik davri shaxsning psixologik, emotsional va ijtimoiy rivojlanishida eng sezgir bosqichlardan biri bo'lib, aynan shu davrda jamoadagi o'zaro munosabatlar, liderlik qobiliyatlari va o'ziga ishonchning shakllanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Futbol sporti kabi jamoaviy faoliyatlarda bu omil yanada kuchli namoyon bo'ladi, chunki natijaga erishish jarayoni jamoaning ichki iqlimi, o'zaro ishonch va hamkorlikka bevosita bog'liqdir. Tadqiqot jarayonida sport psixologiyasining zamonaviy yondashuvlari, motivatsion nazariyalar, shaxslararo kommunikatsiya va ijtimoiy-psixologik moslashuv mexanizmlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: o'spirin futbolchilar, jamoaviy o'ziga ishonch, psixologik shart-sharoitlar, sport psixologiyasi, motivatsiya, ijtimoiy-psixologik moslashuv, kommunikatsiya, psixologik trening.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ КОЛЛЕКТИВНОЙ УВЕРЕННОСТИ В СЕБЕ У ЮНЫХ ФУТБОЛИСТОВ

Аннотация. В данном исследовании представлен углубленный анализ психологических условий формирования командной уверенности у футболистов подросткового возраста. Известно, что подростковый возраст является одним из самых сенситивных этапов психологического, эмоционального и социального развития личности, и именно в этот период формирование межличностных отношений, лидерских качеств и уверенности в себе в команде приобретает большое значение. Этот фактор еще более выражен в командной деятельности, такой как футбол, поскольку процесс достижения результатов напрямую зависит от внутреннего климата команды, взаимного доверия и сотрудничества. В ходе исследования были проанализированы современные подходы к спортивной психологии, мотивационные теории, межличностное общение и механизмы социально-психологической адаптации.

Ключевые слова: футболисты подросткового возраста, командная уверенность, психологические условия, спортивная психология, мотивация, социально-психологическая адаптация, общение, психологический тренинг.

PSYCHOLOGICAL CONDITIONS FOR DEVELOPING COLLECTIVE SELF-CONFIDENCE IN ADOLESCENT FOOTBALL PLAYERS

Abstract. This study provides an in-depth analysis of the psychological conditions for the formation of team self-confidence in adolescent football players. It is known that adolescence is one of the most sensitive stages in the psychological, emotional and social development of a person, and it is during this period that the formation of interpersonal relationships, leadership skills and self-confidence in the team becomes of great importance. This factor is even more pronounced in team activities such as football, since the process of achieving results directly depends on the internal climate of the team, mutual trust and cooperation. In the course of the study, modern approaches to sports psychology, motivational theories, interpersonal communication and mechanisms of socio-psychological adaptation were analyzed.

Keywords: adolescent football players, team self-confidence, psychological conditions, sports psychology, motivation, socio-psychological adaptation, communication, psychological training.

O‘spirin futbolchilarda jamoaviy o‘ziga ishonchni shakllantirishning psixologik shart-sharoitlarini tadqiq qilish shaxs rivojlanishidagi eng muhim bosqichlardan birini ochib beradi. O‘spirinlik davrida shaxs o‘zini jamoadagi o‘rnini izlaydi, o‘z qobiliyatlarini sinovdan o‘tkazadi va ijtimoiy maqomini shakllantirishga intiladi. Futbol jamoasi bu jarayon uchun tabiiy psixologik maydon yaratadi, chunki unda o‘zaro hamkorlik, liderlik va subordinatsiya kabi jarayonlar tabiiy ravishda yuz beradi. Jamoaviy o‘ziga ishonchning shakllanishi shaxsning o‘z qobiliyatlariga bo‘lgan ishonchi, murabbiy va jamoadoshlarning qo‘llab-quvvatlashi, jamoa ichidagi sog‘lom raqobat va motivatsion omillarning uyg‘unligi orqali yuzaga keladi. Bu jarayon faqat individual ruhiy tayyorgarlik emas, balki jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhitning sifati bilan ham bog‘liq.

Shu ma’noda, murabbiylar va sport psixologlari jamoaviy ruhni mustahkamlash, o‘zaro ishonchni kuchaytirish va salbiy psixologik bosimlarni bartaraf etishga qaratilgan maxsus psixotexnologiyalarni qo‘llashlari lozim. Masalan, jamoaviy maqsadlarni aniq belgilash va ularga erishishda har bir o‘yinchining hissasini tan olish o‘ziga ishonchni oshiradi. Shuningdek, emotsional muvozanatni saqlashga qaratilgan mashqlar, ijobiy qayta aloqa berish, qo‘llab-quvvatlovchi kommunikatsiya va stressga chidamlilikni oshirish bo‘yicha treninglar samarali natijalar beradi. O‘spirinlar orasida paydo bo‘ladigan konfliktlar psixologik jihatdan to‘g‘ri boshqarilsa, ular jamoa birligini mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin.

Jamoaviy o‘ziga ishonchni shakllantirishda o‘yin natijalari bilan bog‘liq psixologik tajribalar ham muhimdir: g‘alabadan keyin ijobiy emotsiyalarni birgalikda baham ko‘rish va mag‘lubiyatdan keyin jamoaviy tahlil o‘tkazish

futbolchilarni ruhiy jihatdan bardam saqlaydi. O‘spirin futbolchilarning individual psixotiplari, temperament xususiyatlari va shaxsiy motivatsion profillari ham inobatga olinishi kerak, chunki jamoada introvert va ekstrovert o‘yinchilar turlicha psixologik yondashuvni talab qiladi. Psixologik shart-sharoitlar to‘g‘ri tashkil etilsa, o‘spirin futbolchilar nafaqat sport natijalari, balki ijtimoiy-psixologik rivojlanish ko‘rsatkichlari bo‘yicha ham yuqori natijalarga erishadilar. Shu bois, bunday tadqiqotlar sport pedagogikasi va psixologiyasining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ularning natijalari amaliyotga joriy etilishi futbol maktablari va akademiyalaridagi tarbiyaviy jarayonlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

O‘spirin futbolchilarda jamoaviy o‘ziga ishonchni shakllantirish jarayonida motivatsion komponentning roli beqiyosdir. Motivatsiya ichki va tashqi omillar orqali rivojlanadi: ichki motivatsiya o‘yinchining o‘z qobiliyatlari va shaxsiy yutuqlaridan zavqlanishi bilan belgilanadi, tashqi motivatsiya esa murabbiy, ota-ona, jamoadoshlar va muxlislarning qo‘llab-quvvatlashi orqali shakllanadi. O‘ziga ishonch shakllanishida ijobiy mustahkamlashlar, rag‘batlantirish tizimi va muvaffaqiyatlarni tan olish muhim ahamiyatga ega. Masalan, kichik sport yutuqlarini ham jamoa darajasida e’tirof etish, individual muvaffaqiyatlarni umumiy natijaga bog‘lash orqali o‘yinchilar o‘zini jamoaning ajralmas qismi sifatida his qiladi. Psixologik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilgan motivatsion muhit o‘spirin futbolchilarning ichki energiyasini faollashtiradi, ularning jismoniy va ruhiy tayyorgarligini barqaror qiladi hamda stress va bosim holatlarida o‘zini yo‘qotib qo‘ymaslikka yordam beradi.

Shuningdek, jamoaviy o‘ziga ishonchni shakllantirishda kommunikatsiya va ijtimoiy o‘zaro ta’sir muhim rol o‘ynaydi. O‘spirinlar o‘zaro muloqotda bo‘lish, jamoadagi fikrini ifodalash va muammolarni birgalikda hal etish orqali ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Ochiq va sog‘lom kommunikatsiya muhitini yaratish, o‘zaro hurmat va ishonchga asoslangan munosabatlarni shakllantirish jamoaviy psixologik iqlimni mustahkamlaydi. Konflikt vaziyatlarida konstruktiv yondashuv va mediatorlik elementlarini qo‘llash, jamoa ichida “liderlar guruhi”ni shakllantirish, o‘zaro maslahat va maslahatlashuv mexanizmlarini rivojlantirish futbolchilarning ruhiy barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu jarayonda murabbiylar va psixologlarning hamkorligi juda muhim: murabbiy ko‘proq taktik va texnik vazifalarni bajarishga e’tibor qaratgan bo‘lsa, psixolog futbolchilarning emotsional muvozanatini saqlash, stressni boshqarish va o‘ziga ishonchini oshirishga qaratilgan treninglar tashkil qiladi.

Jamoaviy o‘ziga ishonchni rivojlantirishning yana bir muhim jihati – bu emotsional intellekt va empatiya ko‘nikmalarini shakllantirishdir. O‘spirin futbolchilar boshqalarning hissiyotlarini tushunishga va ularga mos ravishda munosabat bildirishga o‘rgatilsa, jamoada ijobiy muhit yuzaga keladi. Empatiya raqibga ham, jamoadoshga ham nisbatan hurmat va adolatni shakllantiradi. Shuningdek, psixologik tayyorgarlik dasturlarida vizualizatsiya usullari, ijobiy affirmasyonlar, o‘z-o‘zini tahlil qilish va refleksiya amaliyotlari qo‘llanilsa,

futbolchilar o‘zlarining ruhiy holatini nazorat qilishni o‘rganadi. Bunday jarayonlar natijasida o‘spirinlar o‘zlariga nisbatan yanada ishonchli, jamoaga nisbatan esa mas’uliyatli bo‘lib boradilar. Natijada jamoaning umumiy ruhiy holati, musobaqalardagi chiqish sifati va sport natijalari barqaror ravishda oshadi, bu esa kelgusida professional sport faoliyati uchun mustahkam psixologik zamin yaratadi.

1-jadval

Iirodaviy mas’uliyat va subyektiv lokus nazorat so‘rovnomalari natijalari (K.Pirson korrelyatsiya koeffitsienti bo‘yicha)

Shkalalar	Eksternal lokus nazorat	Internal lokus nazorat	Samimiylik
Tashabbuskorlik	0,663**		0,552**
Jur’atlilik	0,442*	0,593**	-0,476*
Matonatlilik			0,598**
Qat’iylik		0,544**	
G‘ayratlilik		0,676**	0,548**
E’tiborlilik	-0,463*	0,564**	
Maqsadga intiluvchanlik	-0,486*		0,473*

Izoh: * – $p \leq 0,05$; ** – $p \leq 0,01$; *** – $p \leq 0,001$.

Mazkur ko‘rsatkichlar o‘spirin yoki talaba yoshidagi respondentlarning shaxsiy-psixologik xususiyatlarini chuqur yoritib beradi. Birinchi navbatda, tashabbuskorlikning eksternal lokus nazorat bilan ijobiy bog‘liqligi (0,663**) shuni ko‘rsatadiki, tashabbuskor bo‘lgan shaxslar ko‘pincha tashqi omillarni ham faol qabul qiladilar va ularning hayotdagi qarorlarida tashqi sharoitlar ham muhim rol o‘ynaydi. Bunda ular tashqi imkoniyatlardan unumli foydalanishga moyil, ijtimoiy vaziyatlarga tez moslasha oladigan shaxslardir. Shu bilan birga, tashabbuskorlikning samimiylik bilan ijobiy bog‘liqligi (0,552**) shaxsning ijtimoiy ochiqligini, boshqalar bilan samimiy va halol munosabatlar qurishga intilishini bildiradi. Bu ikki ko‘rsatkichning uyg‘unligi jamoadagi faoliyatda tashabbuskorlik ko‘proq ijtimoiy-emosional barqarorlik bilan birga namoyon bo‘lishini anglatadi.

Jur’atlilikning ikki yo‘nalish bilan — eksternal (0,442*) va internal (0,593**) lokus nazorat bilan ijobiy bog‘liqligi shuni anglatadiki, jasoratli shaxslar nafaqat o‘z hayotlarini o‘z nazoratlariga olishadi, balki tashqi omillarni ham o‘z foydalariga yo‘naltirishga qodir bo‘ladilar. Bu esa shaxsning yuqori moslashuvchanligi va ijtimoiy vaziyatlarga tezkor javob qaytarish qobiliyatidan dalolat beradi. Shu bilan birga, jur’atlilikning samimiylik bilan salbiy bog‘liqligi (-0,476*) ayrim hollarda jur’atlilik oshib ketganda shaxs biroz sovuqqon, ehtiyotkor yoki strategik xulqni afzal ko‘rishi mumkinligini anglatadi. Bu holat, ayniqsa, raqobat kuchli bo‘lgan sport yoki akademik muhitlarda kuzatiladi, chunki jur’atli shaxslar ko‘pincha o‘z maqsadlariga erishishda hissiyotlarni ikkinchi o‘ringa qo‘yadilar.

Matonatlilikning internal lokus nazorat bilan yuqori bog‘liqligi (0,598**) shuni ko‘rsatadiki, matonatli insonlar hayotlaridagi muammolarni o‘zlari hal qilishga intiladilar, qiyinchiliklarni ichki resurslari orqali yengishga harakat qiladilar va shaxsiy javobgarlikni his qiladilar. Bu ularning stressga chidamliligini va murakkab vaziyatlarda ruhiy barqarorligini oshiradi. Qat’iylik ham xuddi shunday tarzda internal nazorat bilan bog‘langan (0,544**), bu esa qat’iyatli shaxslarning qarorlarida mustaqillik, barqarorlik va ichki motivatsiyaga tayanganligini bildiradi. Demak, matonatlilik va qat’iylikning birgalikdagi roli shaxsning o‘z hayoti ustidan nazoratni kuchli his etishiga, qarorlarida izchil va tamoyilga asoslangan bo‘lishiga olib keladi.

G‘ayratlilikning yuqori internal lokus nazorat (0,676**) bilan bog‘lanishi shaxsning o‘zini rivojlantirishga, mehnat qilishga va natija uchun javobgarlikni shaxsan o‘z zimmasiga olishga tayyor ekanligini bildiradi. G‘ayratli shaxslar odatda muvaffaqiyatni tasodifga emas, balki o‘z mehnati va sa’y-harakatlariga bog‘laydilar. Shu bilan birga, g‘ayratlilikning samimiylik bilan ham ijobiy bog‘liqligi (0,548**) shaxsning energiyasi ijtimoiy jihatdan ijobiy yo‘naltirilganligini, u jamoada iliq munosabatlar o‘rnatishga, hamkorlikni rivojlantirishga moyilligini bildiradi. E’tiborlilikning eksternal lokus nazorat bilan salbiy (-0,463*) va internal lokus nazorat bilan ijobiy (0,564**) bog‘liqligi shuni ko‘rsatadiki, e’tiborli shaxslar tashqi omillarga qaram emas, balki o‘z ichki nazoratlari asosida ish yuritishni afzal ko‘radilar. Bu ularning o‘z qarorlarida izchil va mustaqil bo‘lishini ta’minlaydi. Maqsadga intiluvchanlikning eksternal lokus nazorat bilan salbiy (-0,486*) bog‘liqligi shuni bildiradiki, maqsadli shaxslar tashqi ta’sirlardan kamroq bog‘liq bo‘ladilar va ko‘proq o‘z maqsadlarini ichki motivlar orqali amalga oshiradilar. Shu bilan birga, uning samimiylik bilan ijobiy bog‘lanishi (0,473*) shaxsning maqsad sari intilar ekan, bu jarayonda atrofdagi odamlar bilan iliq va ochiq munosabatlarni saqlashga harakat qilishini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, jadvalda keltirilgan bog‘liqliklar shaxsning ijtimoiy faolligi, ichki nazorat hissi va emotsional barqarorligi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlarni ko‘rsatadi. Natijalar shuni anglatadiki, yuqori darajadagi tashabbuskorlik, g‘ayratlilik va qat’iylikka ega bo‘lgan shaxslar ko‘proq ichki nazoratga tayanadilar, o‘z hayotlarini boshqarishga intiladilar va bu ularning psixologik barqarorligi hamda jamoaviy munosabatlarini mustahkamlaydi. Shu bois, bunday natijalar sport psixologiyasi, shaxs rivojlanishi va motivatsiya bo‘yicha amaliy ishlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘spirin futbolchilarda jamoaviy o‘ziga ishonchni shakllantirish – bu nafaqat individual sport natijalarini, balki jamoaning umumiy ruhiy holati va natijalarini belgilovchi asosiy psixologik omildir. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, jamoaviy ishonchning shakllanishi ichki motivatsiya, sog‘lom kommunikatsiya, emotsional intellekt va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi uyg‘unligida yuz beradi. Murabbiy, psixolog va ota-onalarning birgalikdagi sa’y-harakatlari natijasida jamoada ijobiy psixologik iqlim shakllanadi, o‘spirinlar o‘zlarini jamoaning

to‘laqonli a’zosi sifatida his qiladi, mas’uliyatni bo‘lishadi va natijaga birgalikda intiladilar. Bu esa ularning individual o‘ziga ishonchini kuchaytiradi, sportdagi muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlikka bo‘lgan munosabatni yetuklashtiradi, stress va raqobat bosimlariga bardoshliligini oshiradi. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, jamoaviy o‘ziga ishonchni shakllantirish uchun sharoit yaratish – futbol maktablari va sport akademiyalari uchun ustuvor vazifalardan biri bo‘lib, bu nafaqat sportchi shaxsini, balki uning kelajakdagi ijtimoiy va professional hayotini ham mustahkamlaydigan omil sifatida qaralishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rotter, J. B. (1966). Generalized expectancies for internal versus external control of reinforcement. Psychological Monographs: General and Applied, 80(1), 1–28.
– The seminal work introducing the concept of locus of control, explaining individual differences in attributing success and failure to internal or external factors.

2. Gill, D. L., & Williams, L. (2017). Psychological Dynamics of Sport and Exercise (4th ed.). Human Kinetics. A comprehensive textbook analyzing self-confidence, motivation, and group dynamics in sport and exercise psychology.

3. Bandura, A. (1997). Self-Efficacy: The Exercise of Control. W. H. Freeman.
– Explores the mechanisms of self-efficacy, initiative, and goal orientation, explaining how psychological factors drive achievement behavior.

4. Роттер, Дж. Б. (2011). Установки на локус контроля. // Хрестоматия по психологии личности. — М.: Изд-во Московского университета.
– Классический труд, посвящённый концепции локуса контроля, описывает различия между внутренним и внешним локусом в поведении личности.

5. Реан, А. А. (2006). Психология личности. — СПб.: Питер.
– Подробно рассматривает личностные качества, такие как инициативность, упорство, смелость и их связь с мотивацией и самоконтролем.

6. Петровский, А. В., Ярошевский, М. Г. (2010). Психология: Словарь. — М.: Академия. Энциклопедический словарь, раскрывающий ключевые термины, связанные с локусом контроля, целеустремлённостью, саморегуляцией и эмоциональными особенностями личности.

UDK 159.922.7:004.9

Bobirov Davron Bobir o'g'li
Karshi State University
Researcher, Department of Psychology

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF INFORMATION SELECTION AND PROCESSING SKILLS IN ADOLESCENTS

Annotation. This article examines the psychological features of developing information selection and processing skills among adolescents. Adolescence is a crucial stage in personality development, characterized by an increased interest in information flows, the formation of critical thinking, and the strengthening of independent learning. The paper analyzes psychological theories, the ideas of Eastern and Western scholars, and the impact of the modern information environment on adolescents' psychology. In addition, the results of empirical research are presented in tables and diagrams. The article concludes with recommendations for fostering information culture among adolescents.

Keywords: adolescent psychology, information selection, information processing, information culture, critical thinking.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ ОТБОРА И ОБРАБОТКИ ИНФОРМАЦИИ У ПОДРОСТКОВ

Аннотация. В данной статье рассматриваются психологические особенности развития навыков отбора и переработки информации у подростков. Подростковый возраст является важным этапом в формировании личности, когда возрастает интерес к информационным потокам, развивается критическое мышление и усиливается процесс самостоятельного познания. В статье анализируются психологические теории, идеи восточных и западных мыслителей, влияние современной информационной среды на психику подростков. Также представлены результаты проведенного исследования в виде таблиц и диаграмм. В заключении даны рекомендации по формированию информационной культуры у подростков.

Ключевые слова: психология подростков, отбор информации, переработка информации, информационная культура, критическое мышление.

Modern social life is characterized by rapid information flows, the widespread use of new technologies and digital tools. The rapid spread of information affects all aspects of human activity. In particular, adolescents, who are representatives of the younger generation, are becoming active participants in this process. Adolescence is an important stage in the intellectual, social and emotional development of a person.

During this period, the worldview expands, independent thinking processes intensify, and the need for knowledge increases significantly. The expansion and diversity of information flows create the need for adolescents to rationally use existing opportunities, select the necessary information and form skills for processing it.

Today, the issue of forming the information culture of adolescents in the educational process, in the family environment and in social life is gaining urgent importance. Because it is observed that adolescents often resort to improperly selected information, get tired from the influence of excessive information, or face various virtual dangers. Therefore, teaching them to independently find their way in the flow of information, critically analyze it and effectively use it in their activities is one of the important tasks of modern psychology.

Research on the topic shows that the processes of information selection and processing in adolescents are directly related to their cognitive development, level of thinking, attention and memory characteristics. Also, the family environment, pedagogical process, peer group and media influence play a major role. Therefore, the scientific study of this issue is not only theoretical, but also practical.

From this point of view, the development of information selection and processing skills in adolescents is considered one of the areas that require special attention in today's psychology.

The psychology of adolescence has long been in the attention of scientists. Eastern thinkers such as Al-Farabi, Ibn Sina, and Al-Biruni put forward valuable ideas about the harmony of science, morality, and reason in the upbringing of the younger generation. For example, Ibn Sina, in his works "The Book of Healing" and "The Book of Wisdom", discusses the stages of human thinking and the process of acquiring knowledge, clearly describing the characteristics characteristic of young people. According to him, during adolescence, intellectual activity in a person increases, the possibilities of perception and memory expand, and the correct orientation of the individual becomes important. These views are still relevant in the formation of information selection and processing skills today.

In the history of Western psychology, scientists such as J. Piaget, L. S. Vygotsky, E. Erikson, D. Elkonin have deeply studied the cognitive, social and personal aspects of adolescent development. J. Piaget's theory of cognitive development emphasizes that adolescents enter the formal operational stage, that is, the formation of abstract and logical thinking skills. L. S. Vygotsky, on the other hand, shows the dependence of cognitive processes on social factors and justifies the role of pedagogical and social support in the independent acquisition of knowledge by adolescents through the theory of the "zone of proximal development". Modern research also widely studies the impact of information flows on the psychology of youth. For example, researchers such as N. Postman and M. Castells analyze the impact of the information society on personal development and emphasize that the development of adolescents' skills in working with information is a global problem.

Psychological literature notes that, although modern adolescents have the opportunity to quickly obtain information through various digital technologies, they do not have sufficient experience in selecting and processing information. Therefore, it is urgent to teach them to sort information, distinguish important and secondary information. Uzbek scientists also pay special attention to this issue. In particular, research on pedagogical psychology emphasizes the educational and educational importance of forming an information culture in young people. In manuals created for school psychologists, the development of critical thinking in students and the formation of a responsible approach to information are indicated as important tasks. An analysis of scientific literature shows that the development of information selection and processing skills in adolescents is a multifaceted issue. On the one hand, this process is associated with cognitive development, on the other hand, the social environment, pedagogical influence and family conditions also play a decisive role. Therefore, an integrated approach to the formation of information culture in adolescents is necessary.

To deeply study the issue of developing information selection and processing skills in adolescents, it is necessary to turn to various psychological theories and scientific views. Because this process includes complex mechanisms of human cognitive activity, thinking formation and personal development.

J. Piaget, one of the representatives of the theory of cognitive development, emphasizes that during adolescence, a person enters the formal operational stage. At this stage, a person acquires the ability to think abstractly and is able to solve problems on a logical basis. Therefore, the process of information selection in adolescents is also based on these thinking mechanisms. They have the ability to compare certain information with other information, to distinguish between primary and secondary aspects. At the same time, Piaget noted that such abilities are closely related to the social environment and the educational process.

The representative of the sociocultural approach, L. S. Vygotsky, emphasizes that the cognitive processes of adolescents cannot be separated from social factors. According to his theory of the "zone of proximal development", a student acquires new knowledge by completing complex tasks with the support of peers or adults. In this sense, the role of educators, parents and social groups in the development of information selection and processing skills in adolescents is invaluable.

Representatives of cognitive psychology also analyze the process of information processing in relation to the activity of the human brain. The reception, encoding, storage and processing of information are among the main functions of the human mind. Attention, memory and thinking are of particular importance in this process. Since adolescents do not have fully formed attention stability, they often face problems such as distraction and focusing on unnecessary information. Therefore, developing their attention management skills and extracting the necessary information is an important area of psychological education.

The concept of information culture is also widely studied in modern research. This concept encompasses a person's ability to search for, select, analyze and effectively use information. The formation of information culture in adolescents is considered one of the main factors for their personal development and adaptation to social life. Especially in today's era, when digital technologies are widely used, controlling the flow of information, protecting against false information and developing critical thinking skills are of urgent importance.

The views of Eastern thinkers also play a special role in this issue. Farabiy considers science and reason to be the basis of human maturity and indicates that directing young people to acquire correct knowledge is the most important educational task. Ibn Sina, on the other hand, emphasized the strengthening of thinking and memory during adolescence, noting the need to correctly select and consolidate knowledge. These views have not lost their importance in modern information psychology.

An analysis of scientific views shows that the development of information selection and processing skills in adolescents includes not only cognitive processes, but also motivational, emotional and social aspects of the personality. Therefore, an integrated approach to this issue is required. Such an approach, formed on the basis of psychological theories, allows adolescents to develop not only the skills of working with information, but also general life competencies.

An experimental study was conducted to determine the psychological characteristics of the development of information selection and processing skills in adolescents. The study was conducted with the participation of 60 students studying in grades 9-10 of secondary schools in the city of Karshi. Their ages ranged from 15 to 17 years old, and an equal number of girls and boys participated in the study.

Research following psychological from methods used without done increased:

1. "Attention" stability test " (Bourdon test) – adolescents unnecessary from information without distraction main information selectively to take ability to determine.
2. "Memory" size determination methodology" – short term in memory information again work level measurement.
3. Questionnaire and conversation methods – teenagers information from sources use habits and critical thinking level to determine.
4. Experiment tasks – to the participants different texts and social from networks taken information presented was and their main and second level aspects separate to take skills was evaluated.

Received results following criteria according to analysis done:

- attention stability,
- memory size,
- information choice ability,
- information again work and generalization level.

The following in the table of aspirin initial and final results shown:

Indicators	**Initial status (%)**	**Research completion (%)**
Attention stability high	32	58
Memory size average and high	40	65
Information choice ability	35	62
Information again work and generalization	28	60

Results this showed that special exercises, conversation and assignments through teenagers information with work skills noticeable at the level developed. Initial in stages students most of of attention fast distraction, unnecessary to information too much outside attention focus such as to problems face arrived if, final in stages this in indicators positive growth observed.

This results on aspirin information choice and again work skills special psychological exercises through develop possible showed.

Transferred research results this showed that in adolescents information choice and again work skills complete unformed although, them targeted psychological impact through develop possible . Initial in stages students between of attention fast distraction, unnecessary information main from information separate not getting and memory size enough not being such as problems many This is situation not only training in the process, maybe social in life also noticeable at the level difficulty to give birth possible. Therefore for information culture formation young period psychology the most important from the duties one is considered.

Personal my observations this shows that teenagers mainly two kind of to the problem face comes: the first one is extra and unnecessary to the information interest, the second and – necessary information deep analysis do not to take. This situation their emotional in terms of stable not, itself his/her opinion independent in formation suffering and more external to factors reliance with explanation possible. Scientific to views appeal to do If so, J. Piaget cognitive development theory teenagers abstract thought ability has to be emphasizes. Research the results are also theory partially confirms: that is, they information analysis to do and generalization ability has even if they are, conscious and systematic accordingly done increase for enough qualification harvest did not do.

Vygotsky's sociocultural approach is also research in the results own expression finds. In the O‘ aspirins information with work skills more social environment, parents, teachers and peers impact under are formed. If they information when choosing help if they get it, later this skills independent also apply

to the possibility has will be . In the study exactly support through noticeable positive to the results achieved this the idea again one there is proves.

Personal I think it's aspirin. information with work ability in development only knowledge and exercises enough Not. In this, motivation, purpose understanding and critical thinking encouragement important place For example, if a student only teacher's assignment because of information analysis if it does, it skill temporary become But if he is need, interest and independent views based on information seeking if, then information culture further effective is formed.

East thinkers views are also personal to my observations wake up falls. Farabi As noted, knowledge right choice and from it use to take human to maturity take Ibn Sina goes. aspirin during memory and thinking upbringing the necessity record These views current in the same period importance not lost. So, historical sources and modern psychological theories on aspirin information with work skills formation in the matter of each other fills.

Conclusion as to say maybe in aspirin information choice and again work skills develop not only their knowledge level increases, maybe personal development, independent decision acceptance to do and social adaptation also important in processes role plays. Personal my view according to, this the process effective done increase for psychological trainings, interactive methods, information analysis to do related practical assignments and critical thinking developer training regular application necessary. Research during It was found that aspirin information choice and again work skills enough at the level unformed although psychological and pedagogical impact tools through them develop possible Attention, memory and thought processes to activate aimed at training noticeable positive the results gave.

Results this shows that adolescents initial Although the indicators are low , special training and assignments through their attention stability, memory size and information with work up to 20–30% in their abilities growth This is observed. targeted psychological approach efficiency proves.

Also, from the research taken results J. Piaget, L. Vygotsky such as of scientists theoretical their views partially confirms. In the O‘ aspirins information with work skills development cognitive opportunities, social environment and personal motivation with closely It depends. Therefore this the process complex approach based on organization to grow necessary.

In general when taking, in aspirin information choice and again work skills development:

1. education efficiency increases,
2. personal to develop help gives,
3. independent decision acceptance to do ability strengthens,
4. in society active and conscious participation to grow opportunity creates.

Therefore, information culture formation today's education system the most current from the duties one to be remains.

Literature list

1. Piaget J. Psixologiya intellektual rivojlanishi. – Moskva: Pedagogika, 1994.
2. Vygotskiy L.S. Mantiqiy tafakkur va nutq. – Toshkent: O‘zbekiston, 1991.
3. Forobiy A. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Fan, 1993.
4. Ibn Sino. Donishnoma. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1980.
5. Hasanboeva O., G‘oziev E., Karimova V. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Universitet, 2010.
6. Vohidov R. Raqamli davrda yoshlarning axborot madaniyati. – Toshkent: Innovatsiya, 2021.
7. Anderson J.R. Cognitive Psychology and Its Implications. – New York: Worth Publishers, 2010.
8. Neisser U. Cognitive Psychology. – New York: Psychology Press, 2014.
9. Davletshin M.G. O‘smir psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2002.
10. James W. The Principles of Psychology. – Cambridge: Harvard University Press, 1981.
11. Назаров Р. Информационная культура и молодежь. – Москва: Наука, 2018.
12. Woolfolk A. Educational Psychology. – Boston: Pearson, 2016.

UDK 316.356.2:340.132

Arzumetova Zarifa,
mustaqil tadqiqotchi

ARAB VA O‘ZBEK OILALARINING IJTIMOIY, PSIXOLOGIK VA HUQUQIY ASOSLARI

Annotatsiya. Maqolada arab va o‘zbek oilalarining o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik, ijtimoiy-huquqiy xususiyatlari, jihatlari, gender munosabatlar, ajrim va oilaviy muammolarga yondashuv, nikoh va turmush qurish an’analari borasida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek oilasi, arab oilasi, nikoh, taloq, sekulyar oila, shariat, oila modeli, urf-odatlar, an’analar.

СОЦИАЛЬНЫЕ, ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ АРАБСКИХ И УЗБЕКСКИХ СЕМЕЙ

Аннотация. В статье представлены особенности арабских и узбекских семей с социальной, психологической и правовой точек зрения. Рассматриваются гендерные отношения, подходы к разводам и семейным проблемам, а также традиции заключения брака и создания семьи. Сравнительный анализ позволяет выявить сходства и различия в семейных моделях, основанных на религиозных и светских нормах.

Ключевые слова: узбекская семья, арабская семья, брак, развод, светская семья, шариат, семейная модель, обычаи, традиции.

SOCIAL, PSYCHOLOGICAL, AND LEGAL FOUNDATIONS OF ARAB AND UZBEK FAMILIES

Abstract. The article presents the socio-psychological and legal characteristics of arab and uzbek families. It explores gender relations, approaches to divorce and family issues, as well as traditions of marriage and family formation.

Keywords: uzbek family, arab family, marriage, divorce, secular family, Sharia, family model, customs, traditions.

Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) — arab mamlakatlari orasida oila institutiga alohida e’tibor qaratiladigan davlatlardan biridir. Arab jamiyatida oila muqaddas hisoblanadi, uning diniy, madaniy va huquqiy asoslari tarixiy jarayonlarda shakllanib, zamonaviy huquqiy tizim bilan uyg‘unlashgan holda faoliyat yuritadi. Mamlakatda oilaning ijtimoiy asoslari diniy va an’anaviy qadriyatlarga bog‘liq holda shakllangan bo‘lib, u jamiyatning asosiy tayanch instituti sifatida qabul qilinadi. Arab mentalitetida oila nafaqat shaxsiy hayotning markazi, balki jamiyatda barqarorlik va tartib asosidir. Oilaning barqarorligi butun

jamiyatdagi mustahkamlik, qonunbuzarlikning past darajasi va iqtisodiy o‘sish bilan chambarchas bog‘liq.

BAA jadal iqtisodiy taraqqiyotga erishgan holda, an’anaviy islomiy qadriyatlarga tayangan jamiyat sifatida o‘zining madaniy va ijtimoiy xususiyatlarini asrab qolmoqda. Amirliklarda oila — jamiyatning asosiy instituti bo‘lib, u diniy, ijtimoiy va madaniy jihatdan katta ahamiyatga ega. Oila faqat shaxsiy munosabatlar majmuasi emas, balki ijtimoiy barqarorlik va shaxs tarbiyasining asosi hisoblanadi.

Islom dini BAA jamiyatidagi barcha ijtimoiy munosabatlarni, xususan, oila qurish va uni saqlashga oid qoidalarni belgilab beradi. Oilaviy hayot Qur’on va Sunna asosida tashkil etilgan bo‘lib, har bir a’zo o‘z burch va mas’uliyatini biladi. Ayol kishi oilada hurmatga ega bo‘lib, bolalar tarbiyasi, uy-ro‘zg‘or va ma’naviy muhitni saqlash uning asosiy vazifalaridandir.

BAAda nikoh faqat shaxsiy qaror emas, balki oilaviy kelishuv natijasida amalga oshadi. Nikohdan oldingi muhokamalarda ikki oila o‘rtasidagi munosabatlar, qudalik, moliyaviy holat va diniy moslik kabi omillar ko‘rib chiqiladi. Nikoh shartnomasi imom yoki notarius huzurida tuziladi va uni ikki guvoh tasdiqlaydi. Bu shartnomada mahr, ya’ni erkak tomonidan ayolga beriluvchi moliyaviy sovg‘a ko‘rsatiladi.

Ayol o‘ziga ma’qul kelmagan turmush qurish taklifini rad etish huquqiga ega. Bu, ayniqsa, zamonaviy BAAda huquqiy jihatdan kafolatlangan. Biroq, an’analarga ko‘ra, turmush qurish haqidagi so‘nggi qaror ko‘pincha ota-ona va qarindoshlar bilan maslahatlashilgandan so‘ng qabul qilinadi.

Nikoh shartnomasi imzolangandan so‘ng, ko‘pincha nikoh marosimini o‘tkazish ko‘p ortga surilmaydi. Biroq, to‘y bo‘lmagunicha, kuyov kelinni faqat qarindoshlari ishtirokidagina ko‘rishi mumkin. BAAda oilaviy munosabatlar tegishli qonun asosida tartibga solinadi. Nikoh islomiy shartlarga muvofiq amalga oshiriladi. Nikohda erkak va ayolning roziligi, mahr (ko‘pincha pul yoki qimmat buyum, taqinchoq, mol-mulk), guvohlar ishtiroki talab etiladi.

To‘y marosimlari keng miqyosda nishonlanadi va ko‘p hollarda haftaning bir necha kuni davom etadi. Sunnatga muvofiq, erkaklar va ayollar uchun alohida tantanalar tashkil etiladi. Marosimda mehmonlar uchun hashamatli taomlar taklif qilinadi, bu esa kelin-kuyovning ijtimoiy maqomi va oilasining saxiyligini ko‘rsatadi. Tadbir, tantanalarda spirtli ichimliklar taqiqlangan bo‘lib, ammo qahva va xurmo asosiy taklif etiladigan mahsulotlardir.

BAAda ayollar oilada katta hurmatga ega. Ularning huquqlari shariat va davlat qonunchiligi bilan himoyalangan. Keyingi yillarda Amirliklarda ayollar oliy ta’lim olish, ilm-fan, tadbirkorlik bilan shug‘ullanish va davlat xizmatiga kirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Shu bilan birga, ko‘pchilik xotin-qizlar nikohdan so‘ng agar ular turmush o‘rtog‘ining topish-tutishi imkon bersa, ishlamaslikni ma’qul ko‘radilar.

Arab oilasida ayol kamsitiladi, degan stereotip ham mavjud, ammo bu fikr asosga ega emas. Muhim qarorlarni qabul qilishda ayol o‘z fikrini bildirish huquqiga

egadir. Arab erkagi uchun bir necha xotinga ega bo‘lish oson emas, chunki har bir xotin uchun alohida uy qurish, ularni bir-biridan kam qilmay, ta’minlab qo‘yish kerak. Ko‘pincha, BAAda erkak faqat bir xotinga ega bo‘ladi va oila ancha sekulyar (dunyoviy) turmush tarziga xos hayot kechiradi. Islomda to‘rtta ayolgacha uylanish ruxsat etilgan bo‘lsa-da, bu amaliyot BAAda keng tarqalmagan. Moliyaviy mas’uliyat, har bir xotinga alohida uy-joy, teng moliyaviy ta’minlash talablari ko‘pxotinlikni cheklab qo‘yadi. Ko‘pincha bu amal boy shayxlar va yuqori maqomga ega insonlar hayotida uchraydigan amaliyotdir.

Taloq va ajrashish. Taloq islomiy qonunlar asosida amalga oshiriladi, ammo ayol uchun ham sud orqali ajrashish imkoniyati bor. Sud bola tarbiyasi, moddiy ta’minot, vasiylik va boshqa masalalarni hal qiladi. Nikoh paytida mahrni berish majburiy hisoblanadi. Ajrashgan holatda ayolga nafaqa va farzandlar uchun ta’minot belgilanadi. Vasiylik aksar hollarda onaga beriladi, ammo otaning moliyaviy mas’uliyati saqlanadi.

Ta’kidlanganidek, ajralish OAEda islomiy qonunlar asosida amalga oshiriladi. Erkak bir tomonlama “taloq” deyish orqali nikohni bekor qilishi mumkin, biroq davlat sudlari bu jarayonni ham tartibga solgan. Ayol ham ayrim holatlarda — erining ta’minotsizligi, jismoniy zo‘ravonlik yoki u bilan yashashning imkonsizligi kabi hollarda — sudga murojaat etib ajralish huquqiga ega. Bu “fasx an-nikoh” deb ataladi. “Xulu’” esa ayol tashabbusiga ko‘ra nikohni bekor qilish bo‘lib, bunda erning roziligi talab etiladi va bu holda ayol mahrdan voz kechadi.

BAA jamiyatida oila qadriyatlar markazida turadi. Diniy, madaniy va ijtimoiy jihatdan ayolning roli yuqori baholanadi. Urf-odat va an’analar globallashuv bosimi ostida ayrim o‘zgarishlarga uchrayotgan bo‘lsa-da, oilaviy qadriyatlar va ijtimoiy intizom o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Shu bois BAA tajribasi zamonaviylik va an’ananing muvozanatli uyg‘unligi namunasi sifatida o‘rganishga arziydi.

Arab oilasi, arab ayollari haqida gap ketganda, ko‘pincha stereotiplar ta’sirida haram va unda burqaga o‘ralgan ayollar tasavvur qilinadi. Ammo mahalliy oilalarning turmush tarzi va an’analariga diqqat bilan nazar tashlansa, bu tasavvur xato ekaniga ishonch hosil qilish mumkin.

Amirliklar qonunchiligi va siyosatining asosi islom dini hisoblanadi. Oila uchun asosiy qonun – bu Qur’on qonunlari va taqiqlariga asoslangan shariatdir. Tarixiy jihatdan arablar ko‘chmanchi qabilalar tarzida yashagan, klanlarga bo‘lingan, shuning uchun ular uchun oilaviy va qarindoshlik aloqalari muqaddas hisoblanadi.

Amirlik hukumati dinlararo bag‘rikenglik, tolerantlikni namoyon etib, boshqa dinlarga ham ruxsat bergan bo‘lsa-da, aholining deyarli 100% islom diniga e’tiqod qiladi.

Musulmon oilalarda qiz farzandli bo‘lish foydalidir, chunki kuyov tomon kelin tomoniga “qalin” to‘lashi kerak, buning miqdori anchagina katta mablag‘ni tashkil etishi mumkin.

Arab an'analarida bir necha avlod vakillari yashaydigan oila asosiy rol o'ynaydi. Bu modelda bir necha avlod vakillari bir xonadonda yoki yaqin joylashgan uylarda yashab, o'zaro yordam va maslahat asosida hayot kechiradilar. Ota-ona, bobo-momo, farzandlar va hatto amaki, tog'a kabi yaqin qarindoshlar hayotda muhim qarorlar qabul qilishda ishtirok etadi. Bu turdagi munosabatlar oilaviy hamjihatlik va mas'uliyat tuyg'usini shakllantiradi.

Shuningdek, BAAda oilaning ijtimoiy funksiyalari orasida bolalarni tarbiyalash, ularga axloqiy, diniy va madaniy qadriyatlarni yetkazish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Musulmon oilalarida bolalarga Qur'oni karim, payg'ambar hayoti va sunnatlari asosida ta'lim berish qadimdan hurmatli vazifa sifatida qaraladi.

Oilaning ijtimoiy rolini kuchaytirish maqsadida BAA hukumati turli ijtimoiy dasturlar, oilaviy maslahat markazlari va nikohdan oldingi maslahat xizmatlarini yo'lga qo'ygan. Ushbu xizmatlar orqali oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, ajrimlarni kamaytirish, bolalar huquqlarini himoya qilish va ona-bola sog'lig'ini yaxshilash maqsad qilingan.

Qayd etish joizki, BAAdagi oilaning ijtimoiy ahamiyati nafaqat diniy asoslarda, balki davlatning faol ijtimoiy siyosatida ham o'z ifodasini topgan. Shu bois, oila – jamiyatni barqaror, sog'lom va ma'naviy jihatdan mukammal holda saqlab turishda hal qiluvchi institut hisoblanadi.

BAAda ham oilaga jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida qaraladi. Er va xotin o'rtasidagi munosabatlar mehr, rahm-shafqat va o'zaro hurmatga asoslanishi kerak. Farzand tarbiyasi — ota-onaning muqaddas burchi hisoblanib, tarbiyada o**ilaviy an'analarga, o**ta-bobolarga hurmat, keksa avlod vakillarining qarorlariga itoat qilishga katta e'tibor qaratiladi.

G'ayridin, musulmon bo'lmagan fuqarolar o'z mamlakati qonunlariga asoslangan ravishda nikoh va ajrashishni amalga oshirishlari mumkin. 2021-yildan boshlab, Abu-Dabi amirligida g'ayrimusulmonlar uchun alohida g'ayrishariat oilaviy sudi tashkil etildi. Bu sudning tashkil etilishi 2021-yil 7-noyabrda qabul qilingan №14/2021 — «Abu-Dabi amirligida fuqarolik nikohi va uning oqibatlari to'g'risida»gi **Abu-Dabi Qonuni**ga asoslanadi. Ushbu qonun g'ayrimusulmon fuqarolar uchun nikoh, ajrim, farzand vasiyligi va meros kabi shaxsiy holat masalalarini shariatdan mustaqil, fuqarolik huquqi asosida tartibga soladi. Qonunning 17-moddasida aynan g'ayrimusulmonlar shaxsiy holat ishlarini ko'rib chiquvchi maxsus sud — **Abu-Dabi fuqarolik oilaviy sudi** tashkil etilishi nazarda tutilgan. Bu sud 2021-yil dekabrda Abu-Dabi sud departamenti qoshida faoliyat boshlagan. Mazkur sudning tashkil etilishi Abu-Dabining xalqaro hamjamiyatga ochiqligini va turli madaniyat va dinga mansub fuqarolarga huquqiy kafolatlar yaratishga intilishini namoyon etadi.

Shu o'rinda o'zbek va arab an'anaviy jamiyatlarida oilaviy munosabatlar xarakteri xususida ham mulohaza yuritish zarur, deb hisoblaymiz.

O‘zbekistonda "Uchinchi Renessans davri"ning boshlanishi zamonaviy oilalarning ham shiddat bilan shakllanishi uchun zamin hisoblanadi. Bu jarayonda dunyo xalqlarining o‘zbek oilasiga, o‘zbek xalqi esa jahon xalqlari oilasi tajribasini bilishga qiziqishlari ortib bormoqda.

Haqiqatan, dunyo miqyosida mavjud turli millat va xalqlarning oila qurish va uni mustahkamlash, oila-nikoh munosabatlariga nisbatan qarashlari va munosabatlari turlicha bo‘lib, ular boshqa millat oilalariga o‘z ijobiy yoki salbiy ta’sirini ko‘rsatishi mumkin.

Oilaviy munosabatlarni o‘rganish sohasida estoniyalik olimlar E. Tiyt va V. Ukolovaning tadqiqotlari e’tiborga molikdir. Ular er-xotin o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar xarakteriga ko‘ra oila modellarini ishlab chiqishgan. Ularning fikricha, hozirgi jamiyatda asosan ikki xil oila modeli uchraydi: an’anaviy (asimmetrik) va zamonaviy (simmetrik) oila modeli.

An’anaviy oila modelida er shubhasiz oila iqtisodiy ta’minotchisi va uning boshlig‘i sifatida qaraladi. Oila hayotidagi muhim tashkiliy va boshqa masalalarni aynan er hal qiladi, shuning uchun u boshqa turmush tashvishlaridan ozod bo‘ladi. Ayol esa ko‘pincha kamroq daromad keltiradi yoki umuman daromad topmaydi. Unga yuklatilgan asosiy vazifa — farzand tug‘ish, ularni tarbiyalash, oila xo‘jaligini yuritish va oilaviy muhitni shakllantirishdir. Shu sababli oila ichki muhitini yaratish va unga g‘amxo‘rlik qilish ayolning mas’uliyatiga kiradi[2,36]. Eston olimlarining iqtibos keltirilgan ilmiy tadqiqot ishi deyarli yarim asr ilgari nashr etilganiga qaramay, o‘zbek va arab oilalari unda keltirilgan fikr nuqtai nazardan tahlil qilinadigan bo‘lsa, hozirgi vaqtda ta’kid arab oilalari uchun ko‘proq mos kelishini ko‘rishimiz mumkin.

Oilaviy psixologiya sohasida tadqiqot olib borayotgan bir guruh olimlarning fikricha, oilaviy psixologiya bu psixologiyaning shaxslararo munosabatlarini o‘zgartirishga qaratilgan alohida sohasi bo‘lib, uning maqsadi hissiy-emotsional og‘ishlarni bartaraf etishdir[1].

O‘zbek va arab an’anaviy jamiyatlarida oilaviy munosabatlar xarakterini o‘rganganimizda, bu ikki jamiyat an’anaviy turmush tarzi, islom an’analariga sodiqlik va qadriyatlarda oila institutining markaziy o‘rin egallashi bilan o‘zaro yaqinligiga guvoh bo‘ldik. Ammo o‘zbek va arab oilaviy munosabatlar tizimida madaniy, etnik va urf-odatlar nuqtai nazaridan o‘ziga xos farqlar ham mavjudligi ko‘zga tashlandi. Quyida ularni o‘zaro qiyosiy jihatdan solishtirishga, tahlil qilishga harakat qilamiz.

I. Oilaning ijtimoiy asoslariga ko‘ra O‘zbekistonda:

oila – jamiyatning asosiy bo‘g‘ini, ma’naviy tarbiyaning asosiy muhiti;

ota – oila boshlig‘i, moddiy ta’minlovchi; ona – bola tarbiyachisi va uy muhitiga mas’ul shaxs;

ota-onaga ehtirom, kattalarga bo‘ysunish an’anaviy qadriyatdir;

katta oila shakli (bobo, buvi, nevara, kelin, aka-uka) hanuzgacha yashab kelmoqda.

Arab an'anaviy jamiyatida:

shariat normalari asosida shakllangan oila muqaddas hisoblanadi;

ota – oilada mutlaq rahbar, uning so'zi qonunga teng;

ayol uyda, farzand tarbiyasida faol; jamoatchilik hayotida nisbatan cheklangan (ba'zi arab mamlakatlarida);

klan, qabila, urug' kabi tuzilmalar oilaviy qarorlarga ta'sir qiladi.

II. Nikoh va turmush qurish an'analari o'zbek jamiyatida quyidagicha:

nikohning asosi – ota-ona roziligi va jamoatchilikning ma'qullashi;

an'anaviy "sovchilik", "fotiha to'yi", "kelin salom" va hokazo tadbir hamda marosimlarni amalga oshirish ijtimoiy me'yor sifatida mustahkamlangan.

Arab jamiyatida:

Nikoh – shariat shartlari (mahr, guvohlar, fatvo) asosida amalga oshiriladi.

Ayol va erkak o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri munosabat cheklangan, oilaviy kelishuv ota-ona va vasiylar orqali bo'ladi.

Ko'p hollarda nikoh moliyaviy va urug'lararo siyosiy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

III. Gender munosabatlari va ayolning o'rni o'zbek oilasida:

Ayol – kelin sifatida oilaning asosiy "xizmatkori".

Oilada ayolning so'zi yetarlicha ahamiyatli bo'lsa-da, oxirgi qaror ko'p holda erkak tomonidan qabul qilinadi.

Hozirgi zamonda xotin-qizlarning ta'lim, ishlash va ijtimoiy hayotdagi ishtiroki ortib bormoqda.

Arab oilasida:

Ayolning huquqlari shariatga muvofiq belgilanadi.

Er o'z xotiniga nisbatan qo'riqlovchi va mas'ul shaxs sifatida qaraladi.

Ayol jamoat hayotida nisbatan kamroq ishtirok etadi, ayrim mamlakatlarda hijob va parda majburiydir

IV. Ajrim va oilaviy muammolarga yondashuv o'zbek jamiyatida:

Ajrim holatlari jamiyatda salbiy baholanadi.

"Ajrim – ikki oilaning yomon ko'rinishi" degan qarash saqlanib kelmoqda.

Sudda ajrimni rasman bekor qilishdan oldin yarashtirish choralari ko'riladi.

Arab jamiyatida:

Shariatga ko'ra, er taloq berish orqali ajrimni amalga oshiradi.

Xulu' (ayol tashabbusi bilan ajrim) mumkin, lekin sharti bor (mahrdan voz kechish).

Bolalar vasiyligi ko'pincha onaga beriladi, moddiy ta'minot otaga yuklanadi.

O'zbek va arab an'anaviy oilalari umumiy jihatlarga ega bo'lsa-da, har birining o'ziga xos madaniy va huquqiy tizimi mavjud. Ikkala jamiyatda ham oila – muqaddas institut hisoblanadi va jamiyatning barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ularning an'anaviy xususiyatlarini o'rganish psixologiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik va huquqshunoslik sohalarida muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Андронникова О.О. Основы психологического консультирования. - М.: НИЦ ИНФРА-М, 2013. — 415 с.

2. Каримова В. Ўзбек аёли шахсининг шаклланиши -Т.: Билим, 1986 – 24. б.

3. Тийт Э., Уколова В. Нравственные основы молодой семьи. М.: 1979, 36 с.

4. Shoumarov G‘., Qodirov U. O‘zbekistonda oila institutini mustahkamlashning dolzarb masalalari. “Fan va ta’lim yangiliklari” jurnali, 2024-yil, 1-son, 8-14-betlar.

5.https://www.charlesrussellspeechlys.com/en/insights/expert-insights/family/2025/non-muslim-divorce-in-the-uae-understanding-uae-divorce-law/?utm_source

6.https://www.aldabbagh.com/news-insights